


91
A-14

OYBEK ABDIMUROTOV

GEOGRAFIYADAN MASALA VA MASHQLAR



91
A-19

OYBEK ABDIMUROTOV

GEOGRAFIYADAN MASALA VA MASHQLAR




91
A-14


ABDIMUROTOV OYBEK URALOVICH

GEOGRAFIYADAN MASALA VA MASHQLAR

- 12719 -



TOSHKENT
«MALIK PRINT CO»
2021



UO'K 91(076.1)
KBK 26.8ya7
A 14

Abdimurotov O.U.
Geografiyadan massala va mashqlar [Matn]: o'quv qo'llanma /
O.U. Abdimurotov. – Toshkent: «MALIK PRINT CO», 2021. - 200 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada bo'lajak geografiya o'qituvchilarga amaliy mashg'ulotlarni bajarish, geografik masala va mashqlarni yechish usullari, xarita va raqamli ma'lumotlar bilan ishlash, tabiat hodisalarini kuzatish hamda tahlil qilishga doir ma'lumotlar berilgan.

Mas'ul muharrir:

M.M.Mahmudov – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti “Geografiya” kafedrasi g.f.f.d. (PhD);

Taqrizchilar:

F.T.Rajabov – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti “Geografiya” kafedrasi mudiri, g.f.f.d. (PhD);

N.R.Alimqulov – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Geografiya” kafedrasi mudiri, g.f.n., dotsent.

SO'Z BOSHI

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda Respublikamiz davlat siyosatida ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu esa pedagoglar zimmasiga mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatli, chuqr bilimga ega bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalashdek ma'suliyatni yanada oshiradi.

Kelajak taraqqiyoti bugungi yosh avlodning aqliy tafakkuri, bilim tajribasi va kasbiy tayyorgarligiga bog'liqdir. Yoshlarni hayotda o'z o'rinxlarini topishi, o'z salohiyatlarini erkin namoyon eta olishlari va ularni ish bilan ta'minlash doimo davlatimizning diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlatsish yoki yosh avlodni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash uchun jahon andozalari darajasida fan va texnika hamda ilg'or tajriba va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lgan, o'z sohasini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan puxta egallagan yetuk pedagog kadrlarni tayyorlash hozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir.

Geografik dunyoqarash ilmiy dunyoqarashning muhim bir qismi bo'lib, inson tafakkurining shakllanishida juda katta o'rinn tutadi. Geografik bilimlarni teran anglash barobarida qonuniyatlar va ularning mohiyati tobora oydinlasha boradi. Fanga doir mashqlar bajarish olingan bilimlarni mustahkamlaydi, dunyoqarash va inson fikrlashini o'stiradi, shuningdek, yangi bilimlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Geografiya darslarida masalalar yechish ta'lim samaradorligi va talabalarning faolligini oshirishga, uni o'ylanishga, izlanishga, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirishga xizmat qiladi.

BIRINCHI BOB. TABIIY GEOGRAFIYAGA OID MASALA VA MASHQLAR YECHISH

1-mavzu: KIRISH. FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1. Fanning maqsad va vazifalari.
2. Boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Asosiy geografik kattaliklar.

Fanning maqsad va vazifalari.

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim o'quvchilarga borliqni yaxlit sistema sifatida qabul qilishga o'rgatishi, xodisa va voqealar o'rtaсидаги bog'liqliкни, xayotning mazmun-mohiyatini teran anglashga, xayotda o'z o'rnini topishga yordam berishi zarur. Axborot oqimi tezlashib borayotgan bugungi davrda pedagog zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan xabardor bo'libgina o'quvchilarning nazariy bilimlarini puxta o'zlashtirishi amaliy ko'nikma va malakalarini hosil qilishi hamda rivojlantirishi mumkin.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Ta'lim va tarbiya sohasidagi tub islohatlarni yuksak bosqichga ko'tarish muhim vazifamiz va muqaddas burchimizdir" deb takidlaganidek, kelajagimiz poydevori bo'lган iqtidorli yoshlarimiz bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirish uchun o'quvchilarga yangi pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalarni qo'llagan holda o'quv mashg'ulotlarini olib borish lozim. O'quv mashg'ulotlarini pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil etishda fan, texnika, texnologiyaning yutuqlari, respublikada joriy etilgan uzlusiz ta'lim tiziminining ta'lim turlari o'rtaсидаги uzviylik va uzlusizlikni ta'minlashi, umumta'lim maktablari va Oliy ta'lim muassasalarida uzlusiz o'qitiladigan fanlarda mavzularning mantiqiy ketma-ketligi, oddiydan murakkablikka, xususiydan umumiylikka o'tib borish tamoyillariga amal qilinishi shart. Shu sababli geografiya fanlari, jumladan, Geografiyadan masala va mashqlar fanini o'qitishda ham yuqoridaq tamoyillarga amal qilinadi. Bu esa vatanimiz taraqqiyoti

uchun kafolatlangan iqtidorli yoshlarni tarbiyalashga va yetuk mutaxassis-kadrlar yetkazib berishga imkon beradi.

Geografiyadan masala va mashqlar fani talabalarning geografiya darslarida olingen nazariy bilimlarni amalda qo'llash malakalarini shakllantiradi va amaliy ishlarni bajarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Geografiya ta'limi juda ko'p amaliy ishlarni, masala va mashqlarni bajarishni talab etganligi uchun ham bu fan eng muhim fanlardan biri hisoblanadi.

Geografiyadan masala va mashqlar fanning maqsadi – talablarga geografiya fanini o'qitishda foydalilanidigan masala va mashqlar, ularning turlari va xususiyatlari, masallarni yechish usullari, mashqlarni bajarish yo'llari haqida bilim berish hamda talablarda turli mazmundagi xarita va globus bilan ishlash, kartografik manbalarni, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va taqqoslash, geografik bilimlarni o'zlashtirishda foydalilanidigan asbob-uskunalardan foydalanish, geografiyaga xos ko'nikma va malakalar (ufq tomonlarini aniqlash, joyda oriyentirlash, plan olish, azimutni topish, koordinatani va vaqt mintaqalarini aniqlash, tabiat hodisalarini kuzatish hamda tahlil qilish va hokazo) ni hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifalari – talablarga geografik masala va mashqlarning turlari, masala va mashqlardan geografiya darslarida foydalanish, darslikdagi matn, jadval, rasm va amaliy topshiriqlar bilan ishlash, geografik xaritalarni o'qish va ular bilan ishlash qobiliyatini yaxshilash, tabiat hodisalarini kuzatish va kuzatish natijalarini tahlil qilish, dars, darsdan tashqari ishlar, o'quv sayohati va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ishlanmalarini loyihalash, talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini ajrata olish, talabalarning bilish qibiliyatları (kuzatuvchanlik, sinchkovlik, mantiqiy fikrlash, ijodiy faollik, mustaqil qaror qabul qilish va bilimlarni hayotga tadbiq etish) ni rivojlantirish, talabalarning bilimlarini nazorat qilish va baholashning samarali usullarini qo'llash yo'llarini o'rgatishdan iborat.

Fanning yuqoridaq maqsad va vazifalari geografiya fanlarini hayot bilan yanada yaxshiroq bog'laydi.

Talabalar geografiyadan masala va mashqlarni yechish jarayonida bir qancha amaliy ishlarni (joyda oriyentirlash, plan olish, ob-havo va tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish, statistik ma'lumotlar va raqamlar bilan ishlash va hakozo) ham bajarish yo'llarini ham

o'rganadi. Bu esa talabalarini nazariyada olgan bilimlarini amalda qo'llash orqali ularni fanga bo'lgan qiziqshlarini ortiradi va mavzularni samarali o'zlashtirilishini taminlaydi.

Talaba fan mavzularini to'liq o'zlashtirish jarayonida quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi:

- Geografiya fanlarini o'qitishda qo'llaniladigan masala va mashqlarning turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari;
- Geografiya fanlaridan masallarni yechish usullari va mashqlarni bajarish yo'llari;
- Geografiyadan masala va mashqlar fanidagi mavzularga oid qonuniyat va tushunchalarining asosiy mohiyati hamda bilish faoliyatini faollashtirishda ularning o'rni va ahamiyati haqidagi bilimlarga ega bo'ladi.
- O'quvchilarni kichik guruhlarda o'qitish, ijodiy izlanishlarni tashkil etish, ularni ijodiy, mantiqiy va mustaqil fikrlashlarini tarkib toptirish, mustaqil qaror qabul qilish;
- Geografiya fanlarida masala va mashqlardan foydalanib o'quv ishlarni tashkil etish shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari ishlarning o'ziga xos xususiyatlari va didaktik maqsadlarini aniqlash;
- Geografiya fanlarida masala va mashqlar yechish jarayonida foydalaniladigan ko'rgazmali va didaktik materiallardan foydalanish, tabiat hodisalarini kuzatish va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.
- Geografiya darslarida foydalaniladigan asbob va uskunalardan foydalanish, ular yordamida amaliy ishlarni bajarish;
- Ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan globus, xarita va atlaslar, ularning turlari va mazmunini ajrata bilish, geografiya darslarida ulardan o'z o'rniда va samarali foydalanish;
- Zamonaliviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars ishlannalarini loyihalash va o'tkazish malakalariga ega bo'ladi.

Boshqa fanlar bilan aloqasi.

Geografiyadan masala va mashqlar fani barcha geografiya fanlari bilan uzviy bog'liq fan hisoblanadi. Sababi bu fanda qo'llaniladigan qonuniyat va tushunchalar boshqa geografiya fanlarining asosini tashkil etadi. Shu o'rinda Geografiyadan masala va mashqlar fanida ko'rsatib berilgan masalalarni yechish usullari va mashqlarni bajarish

yo'llari barcha geografiya fanlarining dars jarayonlarida foydalaniladi. Shuningdek, bu fan Matematika, Fizika, Kimyo, Informatika kabi fanlar bilan ham o'zaro bog'liqdir. Masalan, masalalarni yechish jarayonida matematik hisoblashlardan va matematika fanida qo'llaniladigan qonuniyat va tushunchalardan, osmon jismlari va tabiat hodisalarini kuzatishda esa fizika fanining qonuniyat va tushunchalardan, tabiat komponentlarining (suv, tuproq, tog' jinsalari va hokoza) kimyoviy xossalarni kimyo fanining qonuniyat va tushunchalardan, plan olish yoki xarita tuzishda informatika fanining dasturiy taminotlaridan foydalaniladi.

Ushbu fan joy plani va geografik kartalarni o'qitishda, yerning geografik qobig'ini o'qitishda, geografik kuzatuvlar olib borishda, geografiya darslarida statistik ma'lumotlardan foydalanishda, aholi geografiyasi va demografiyasini hamda iqtisodiy-ijtimoiy geografiyani o'qitishda, fakultativ mashg'ulotlarda masala va mashqlardan foydalanish usullarini o'z ichiga oladi.

Asosiy geografik kattaliklar.

Yer ekvatorining radiusi – 6378,2 km.

Qutbiy radius yoki kichik yarim o'q – 6356,8 km.

O'rtacha radius – 6371,032 km.

Qutbiy siqiqlik – 1:298 yoki 21,3 km.

Ekvatorial siqiqlik – 1:30000 yoki 213 km.

Ekvator aylanasining uzunligi – 40075,696 km.

Meridian uzunligi – 40008,550 km;

Yer yuzasi – 510 mln km²

Yerning quruqlik yuzasi – 149 mln km²

Yerning suvlik yuzasi – 361 mln km²

Yerning hajmi – $1,083 \times 10^{12}$ km.

Quyosh atrofida yerning o'rtacha harakatlanish tezligi – 29,8 km/s

Yer o'z o'qi atrofida to'la aylanish vaqt – 23 soat 56 daqiqa, 4 sekund.

Yerning quyosh atrofiga aylanish vaqt – 365,26 kun

Yerning bir yilda orbita bo'yicha harakatlanadigan yo'lining uzunligi – 940 mln. km

Bir gradus (1°)meridian yoyining uzunligi – 111,1 km.

Yer to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar

Quruqlikning eng baland joyi – 8848 m. Jamolungma (Everest) cho‘qqisi

Quruqlikning eng past nuqtasi – 405 m.(O‘lik dengiz sathi)

Quruqlikning o‘rtacha balandligi – 875 m

Shimoliy magnit qutbi – Shahzoda Uels oroli, ($75^{\circ} 00'$ sh.k $100^{\circ} 30'$ g.u)

Janubiy magnit qutbi – Qirol Georg V qirg‘og‘i ($68^{\circ} 00'$ j.k $144^{\circ} 00'$ sh.k.u)

Qutb kunining uzunligi – Bir sutkadan ($66^{\circ} 30'$ parallelarda) 186 sutkagacha (Shimoliy qutbda) va 179 sutkagacha (Janubiy qutbda)

Qutb tunning uzunligi – Bir sutkadan ($69^{\circ} 30'$ parallelarda) 179 sutkagacha (Shimoliy qutbda) 186 sutkagacha (Janubiy qutbda)

Nazorat uchun savollar:

1. Fanning maqsadi va vazifasi nimalardan iborat?
2. Fanni o‘zlashtirish jarayonida talabalar qanday bilim, ko‘nkma va malakalarga ega bo‘ladi?
3. Bu fan qaysi fanlar bilan o‘zaro aloqa qilishadi?
4. Qanday geografik kattaliklarni bilasiz?
5. Shimoliy va janubiy magnit qutblarni geografik o‘rnini yozing.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:

1. Yer o‘z orbitasi bo‘ylab 1 para dars jarayonida qancha masofani bosib o‘tadi?
2. Yer o‘z orbitasi bo‘ylab 1 kunda qancha masofani bosib o‘tadi?
3. Yer o‘z orbitasi bo‘ylab 1 xaftha davomida qancha masofani bosib o‘tadi?
4. Yer o‘z orbitasi bo‘ylab avgust oyida qancha masofani bosib o‘tadi?
5. Yer o‘z orbitasi bo‘ylab 1 yilda qancha masofani bosib o‘tadi?

2-mavzu: JOY PLANI VA GEOGRAFIK KARTALARNI O‘QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH USULI

Reja:


1. Yo‘nalish azimuti va uni aniqlash.
2. Balandlikka ko‘tarilgan sari ufq (gorizont) chegarasining kengayishi.
3. Masshtab va uning yordamida masofalarni aniqlash.
4. Topografik shartli belgilari.
5. Geografik xaritalardan foydalanib, geografik koordinatalarni aniqlash.
6. Daraja to‘ri yordamida masofalarni aniqlash.

Yo‘nalish azimuti va uni aniqlash

Joyda plan olishda, burchak o‘lhash ishlarni bajarishda nuqtaning o‘rni gorizontal yoki atrofdagi predmetlarga qarab aniqlanadi. Joyda boshlang‘ich deb qabul qilingan nuqta yoki chiziqqa nisbatan o‘z o‘rnini aniqlashga orientirlash (lotincha “oriens” sharq ma’nosini bildiradi) deyiladi.


O‘lhash ishlarni olib borishda joydagи predmetlarga (quyosh, oy va yulduzlar, relyef, daraxt, imorat va boshqalar) qarab gorizont tomonlarini aniqlash mumkin. Kompas kashf etilganga qadar gorizont tomonlari ko‘pincha quyoshga qarab sharqqa nisbatan aniqlangan. Kompas ishlatala boshlagandan keyin (shimol, sharq, g‘arb, janub) magnit qutbi yordamida aniqlanadigan bo‘ldi. Plan olishda yo‘nalishlar oraliq‘idagi burchaklar o‘lchanadi, bu burchaklar orientirlash burchaklari deyiladi.

Orientirlash burchaklari kompas yordamida azimutni (azimut so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, “as-sumut” – yo‘nalish degan ma’noni anglatadi) aniqlash orqali topiladi. Siz turgan joyda shimol yo‘nalish bilan biror predmet yo‘nalishi orasida hosil bo‘lgan burchak azimut deb ataladi. Azimutda yo‘nalishlardan biri doim shimolga, ikkinchisi esa aniqlanishi lozim bo‘lgan predmetga yo‘nalgan bo‘ladi. Masalan, 1-rasmdagi yakka daraxtning yo‘nalish azimuti 120° ga teng.



1-rasm. Yakka turgan daraxtning yo‘nalishi azimuti


Azimut ikki xil bo‘ladi: haqiqiy azimut va magnit azimuti. Geografik meridianning shimol tomoni bilan yo‘nalish chizig‘i orasida hosil bo‘lgan burchakka *azimut burchagi* deyiladi. Agar boshlang‘ich yo‘nalish magnit meridianining shimol tomonidan o‘lchansa *magnit azimuti* deyiladi. Magnit azimuti bilan haqiqiy azimut o‘rtasidagi farq *magnit og‘ish burchagi* deyiladi (2-rasm). Azimutlar 0° dan 360° gacha soat strelkasi yo‘nalishi bo‘yicha o‘lchanadi (3-rasm)



2-rasm. Haqiqiy va magnit azimut

Yo‘nalish chizig‘ining to‘g‘ri va teskari azimutlari orasida 180° farq bo‘ladi va ular quyidagicha aniqlanadi: $A_1 = A \pm 180^\circ$. A_1 – teskari azimut, A – to‘g‘ri azimut. Ya’ni agar to‘g‘ri azimut burchagi 180° dan katta bo‘lsa, teskari azimutni topish uchun 180° ayiriladi, agar kichik bo‘lsa o‘nga 180° qo‘shiladi.

Ufqning asosiy va oraliq tomonlarining azimutlari quyidagilarga teng.



3-rasm. Ufqning asosiy va oraliq tomonlari azimuti

Quyida yo‘nalish azimutini aniqlashga doir masalalar ishlaymiz.

1–masala. Talaba uyidan sharsharaga 95° azimut bilan bordi. U uyiga qaytayotganda qanday azimut bilan harakatlanadi?

Yechish: Agar azimut 180° dan kichik bo‘lsa 180° qo‘shiladi, agar azimut 180° dan katta bo‘lsa o‘sha azimutdan 180° ayiriladi. Bizni masalamizda 95° azimut 180° dan kichik bo‘lganligi uchun quyidagicha bo‘ladi.

$95^\circ + 180^\circ = 275^\circ$ azimut bilan qaytadi;

Javob: 275° azimut;

2-masala. Sayohatchilar uyidan tog'ga 240° azimut bilan borgan bo'lsa, ular uyiga qanday azimut bilan qaytadi?


Yechish: Bu masalamizda 240° azimut 180° dan katta bo'lganligi uchun quyidagicha bo'ladi.

$240^\circ - 180^\circ = 60^\circ$ azimut bilan qaytadi;

Javob: 60° azimut;

3-masala. O'quvchi uyidan chiqib maktabgacha 90° , 135° , 45° , 90° , 180° , 270° , 360° li azimutlar bo'yicha yurdi. U yurgan yo'llarni aytib, bu yo'lni sxema tarzida chizib tasvirlang.


Yechish: 90° -Sharqqa, 135° -Janubi-sharqqa, 45° -Shimoli-sharqqa, 90° -Sharqqa, 180° -Janubga, 270° -G'arbgaga, 360° -Shimolga to'g'ri kelishini inobatga olib, quyidagicha sxema chizamiz.



Javob: Ushbu sxema masalani javobi bo'ladi

Balandlikka ko'tarilgan sari ufq (gorizont) chegarasining kengayishi.

Ochiq joyda sizga ko'rinaradigan Yer yuzasining chegara qismi bilan osmon gumbazi tutashgandek ko'rinaradigan chiziq **ufq (horizont)** deb ataladi. Gorizont so'zi yunonchadan olingan bo'lib, "horizo" – chegaralayman degan ma'noni anglatadi. Yer yuzasining siz turgan joydan ufq chizig'igacha bo'lgan qismi **ufq tekisligi** deyiladi. Ufq tekisligi doira shaklida bo'lib, kuzatuvchi o'zini shu doiraning murkazida turgandek his qiladi. Ufq tekisligening to'rtta asosiy tomoni bor, ya'ni: shimol, janub, g'arb, sharq. Yana to'rtta oraliq tomoni bor: shimoli-g'arb, shimoli-sharq, janubi-g'arb, janubi-sharq (4-rasm).



4-rasm. Ufq tomonlarini aniqlash

Yer sharsimon bo'lganligi sababli, siz uning barcha qismin ko'ra olmaysiz, natijada siz uning faqatgina ma'lum bir qismini ko'ra olasiz, ya'ni sizning ufq chegarasini ko'rish imkoniyatingiz cheklangan. Lekin balandlikka ko'tarilishingiz bilan siz ko'rayotgan ufq chegarasi uzoqlashib, ufq tekisligi kattalashib boradi. Masalan, dengiz qirg'og'ida turgan odam $5,5$ km masofadagi predmetlarni ko'radigan bo'lsa, 10 m balandlikka ko'tarilganda esa $12,2$ km uzoqlikdagi predmetlarni ko'rishi mumkin.

Shu sababli insonlar turli balandliklarda turib, turlicha uzoqlikdagi predmetlarni ko'radi. Insonlar necha metr balandlikda qancha masofadagi predmetlarni yoki ufq (horizont) chegarasini ko'rish imkoniyati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$H = 3,86 \times \sqrt{h}$$

Bu yerda: H – kuzatuvchi ma'lum balandlikda ko'rishi mumkin bo'lgan ufq (horizont) chegarasi; $3,86$ – teknis, ochiq joyda o'rtacha bo'lyi odamning normal ko'rish masofasi; h – kuzatuvchi turgan joyning balandligi, metr hisobida.

Quyida balandlikka ko'tarilgan sari usq chegarasining kengayishiga doir masalalar ishlaymiz.

1-masala. Balandligi 250 metr bo'lgan tepalikning tepasida turgan kuzatuvchi qancha masofani ko'ra olishi mumkinligini aniqlang.

Yechish : kuzatuvchi turgan balandlik ma'lum, ya'ni $h=250$ m. U qancha masofani ko'ra olishi mumkinligini yuqoridagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$H = 3,86 \times \sqrt{h} = 3,86 \times \sqrt{250} = 60,9 \text{ km}$$

Javob: kuzatuvchi 250 metrli tepalikning tepasida turib taxminan 60,9 kilometr radiusli joyni ko'ra olishi mumkin.

2-masala. Talaba ma'lum bir bino tepasida turib 96.5 kilometr radiusli joyni kuzatayotgan bo'lsa, u turgan bino balandligini aniqlang.

Yechish : Bu masalada kuzatuvchi ko'rib turgan usq chegarasi ma'lum, lekin u turgan bino balandligi noma'lum, U turgan bino balandligini topish uchun yuqoridagi formulani quyidagi ko'rinishga keltirib olamiz:


$$h = (H \div 3,86)^2 = (96.5 \div 3,86)^2 = 25^2 = 625$$

Javob: Talaba turgan bino balandligi 625 metr balandlikka ega ekan.

Masshtab va uning yordamida masofalarni aniqlash.

Yer sirtidagi ikkita nuqta orasidagi haqiqiy masofani planda (rejada) xaritada yoki globusda qancha marta kichraytirilib tasvirlanganligini ko'rsatuvch shartli belgiga **masshtab** deyiladi. Masshtab so'zi nemischadan olingan bo'lib, "mapstab" (map – o'lchov va stab – tayoq) o'lchov tayog'i degan ma'noni anglatadi.

Masshtab 3 xil ko'rinishda bo'ladi: sonli masshtab, nomli masshtab va chiziqli masshtab.



- | | |
|---|-------------------|
| 1: 1 000 000 | sonli masshtab |
| 1 sm da 10 km | nomli masshtab |
|  | chiziqli masshtab |

Bu masshtab ko'rinishlarini bir biriga o'tkazishda quyidagicha ishlar amalga oshiriladi.

1: 7 000 000 ushbu sonli masshtabni nomli yoki sonli mashtabga

aylantirishda, sonli masshtabning orqasidagi 5 ta nolni o'chiramiz.



1: 7 000 000 Natijasa 1 sm da 70 km ga teng bo'ladi, ya'ni, $00000 = \text{km ga}$.

Chiziqli masshtabda tasvirlash kerak bo'lsa, Birinchi chiziqli chizib olamiz va uni 1 sm dan qilib 5 ta qismga ajratib olamiz. () so'ngra chap tomonidan birinchisiga hosil bo'lgan 70 ni, ikkinchisiga 0 ni, uchunchisidan boshlab 70 ni qo'yib, keyingilariga 70 ni qo'shib 140 ni, unga yana 70 ni qo'shib 210 ni hosil qilamiz, so'ngra oxiriga **km** ni yozib qo'yamiz. Natijada quydagicha 

chiziqli masshtab hosil bo'ladi.

Agar nollar soni 5 tadan kam bo'lsa, masalan 1:30000 bunda oxiridan 2 ta nolni o'chiramiz.

1:30000 Natijada 1 sm da 300 m ga teng bo'ladi, ya'ni 00 = m ga

Chiziqli masshtabda tasvirlash kerak bo'lsa, Birinchi chiziqli chizib olamiz va uni 1 sm dan qilib 5 ta qismga ajratib olamiz. () so'ngra chap tomonidan birinchisiga hosil bo'lgan 300 ni, ikkinchisiga 0 ni, uchunchisidan boshlab 300 ni qo'yib, keyingilariga 300 ni qo'shib 600 ni, unga yana 300 ni qo'shib 900 ni hosil qilamiz, so'ngra oxiriga **m** ni yozib qo'yamiz va quydagicha 

chiziqli masshtab hosil bo'ladi.

Quyida masshtab yordamida masofalarni aniqlashga doir masalalar ishlaymiz.

1-masala. Quyidagi sonli masshtablarni nomli masshtablarga aylantirib, km. larda ifodalang:

- | | |
|-----------------|----------------|
| a) 1:500 000 | d) 1:10 000 |
| b) 1:3000 000 | e) 1:25 000 |
| c) 1:45 000 000 | f) 1:5 500 000 |

Yechish: bunda 1 sm da necha km borligini aniqlash uchun 5 ta nolni o'chiramiz va quyidagi natijaga ega bo'lamiiz. Chunki: 1 km=1000 m=100 000 sm.

Javob:

- | | |
|-------------------|------------------|
| a) 1 sm da 5 km | d) 1 sm da 100 m |
| b) 1 sm da 30 km | e) 1 sm da 250 m |
| c) 1 sm da 450 km | f) 1 sm da 55 km |

2-masala. 800 km. li masofani 1:10 000 000 masshtabda daftaringizga to‘g‘ri chiziq ko‘rinishida tushiring.

Yechish: 1:10 000 000 ko‘rinishidagi sonli masshtabni nomli masshtabga aylantiramiz. Demak, 1 sm. da 100 km.

$$800 \text{ km} : 100 \text{ km.} = 8 \text{ sm}$$

Ushbu masofani 8 sm qilib, to‘g‘ri chiziq ko‘rinishida tasvirlaymiz.

Javob: _____ 8 sm

3-masala. Shaharlar orasidagi 720 km li masofa xaritada 6 sm ga teng bo‘lsa, shu xaritaning masshtabini aniqlang.

Yechish: buning uchun shaharlar orasidagi haqiqiy masofani xaritadagi masofaga bo‘lamiz va shu orqali 1 sm da qancha masofa joylashganligini aniqlaymiz: $720 \text{ km} : 6 \text{ sm} = 120 \text{ km}$.

Ya’ni 1 sm da 120 km ekan, bu nomli masshtab bo‘ldi, endi buni sonli masshtabga aylantiramiz, buni uchun $00000 = \text{km}$ shuni hisobga olib, quyidagicha masshtab hosil qilamiz:

$$1:120\,00000 (\text{ya’ni } 1:12\,000\,000)$$

Javob: xaritaning masshtabi 1:12 000 000 ekan.

4-masala. Masshtab 1:40 000 000 bo‘lgan xaritada Dehli (Hindiston) va Toshkent shaharlari orasidagi masofa 8 sm ga teng bo‘lsa, bu shaharlar orasidagi haqiqiy masofani aniqlang.

Yechish: Ma’lumki 1:40 000 000 masshtabli xaritada 1 sm masofa 400 km to‘g‘ri kelishini bildiradi.

Agarda 1 sm ga 400 km to‘g‘ri kelsa 8 sm ga necha km masofa to‘g‘ri keladi? Buni uchun proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz:

$$1 \text{ sm} - 400 \text{ km}$$

$$8 \text{ sm} - X \text{ km}$$

$$x = \frac{400 \times 8}{1} = 3200$$

Javob: Demak, Dehli bilan Toshkent shaharlari orasidagi masofa 3200 km ga teng.

5-masala. Globusning masshtabi 1:30 000 000, ikki shahar orasidagi haqiqiy masofa 1950 km, globusda bu shaharlar orasidagi masofa qanchaga teng.


Yechish: Ma’lumki 1:30 000 000 masshtabli xaritada 1 sm masofa 300 km to‘g‘ri kelishini bildiradi. Globusda shaharlar orasidagi masofani topish uchun haqiqiy masofa (1950 km)ni, globusni masshtabidan hosil qilgan (1 sm da 300 km) 300 km ga bo‘lamiz.

$$1950 \div 300 = 6,5$$

Javob: globusda bu shaharlar orasidagi masofa 6,5 sm ga teng.

Topografik shartli belgilari.

Yer yuzasining ma’lum bir kichik qismini plan yoki xaritada tasvirlash usullarini topografiya fani o‘rgatadi. Topografiya yunoncha so‘z bo‘lib, “topos” – joy, “grafo” – tasvirlash, ya’ni “joyni tasvirlayman” degan ma’noni anglatadi. Yer yuzasining kichik qismini va undagi geografik obyektlarni kichraytirib tasvirlovchi yirik masshtabli xaritalar **topografik xaritalar** deb ataladi (5-rasm).



5-rasm. Tepografik xarita

Topografik xaritalarda voqe va hodisaning turli ko‘rsatkichlarini tasvirlash uchun foydalilanligan belgilarga topografik shartli belgilari deb aytildi (6-rasm). Topografik xaritalarda turli – tuman obyektlar, voqe va hodisalar tasvirlanadi, shu sababli, ularni ifodalash uchun qo’llaniladigan topografik shartli belgilari ham juda xilma – xil bo‘ladi. Mazkur belgilari imkon qadar tushunarli, ixcham va o‘ziga xosligi bilan boshqasidan farqlanadigan bo‘lishi, shuningdek, tasvirlash va o‘qish uchun qulay bo‘lmog‘i kerak. Xaritalarning mazmunini tushinish va undan kerakli ma’lumotlarni olish uchun

topografik shartli belgilarni yaxshi bilish lozim. Geografik xaritani o'qish uchun uning shartli belgilarini tushunib olish lozim. Topografik xaritalardagi shartli belgilar tasvirlangan voqe va hodisalar haqida ma'lumot beradi. Shu sababli ham shartli belgilar xaritalarning o'ziga xos tili hisoblanadi. Topografik xarita va planlarda davlat standartlari bo'yicha barcha suv havzalari ko'k rangda ko'rsatilsa, tabiiy relyef elementlari, gorizontallar, suv o'yib ketgan chuqur joylar – jigar rangda, boshqa hamma obyektlar qora rangda ko'rsatiladi. Xaritalarda voqelikning turli xususiyatlari aks ettiriladi. Masalan, xaritada biror bir shahar tasvirlangan bo'lsa, uning shartli belgisi orqali yirik yoki kichigligini, aholi sonini, nomlanishi, funksiyasi aniqlanadi.

Shartli belgilarni quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin.


Mashtabli shartli belgilar – ular bilan xarita mashtabi yordamida aniqlab bo'ladigan maydonlar, voqe va hodisalar tasvirlanadi. Masalan, o'rmonlar, cho'llar, botqoqliklar, bog'lar.

Masshtabsiz shartli belgilar – xaritada masshtab asosida ko'rsatib bo'lmaydigan geografik obyektlar ko'rsatiladi. Masalan, foydali qazilma konlari, tabiat yodgorliklari, elektrostansiyalar, buloqlar, sanoat korxonalari va hokazo.

Chiziqli shartli belgilar – xaritalarda shunday geografik obyektlar, voqe va hodisalar borki ularni faqat chiziqlar yordamida tasvirlash mumkin. Masalan, daryolar, yo'llar, aloqa liniyalari, davlat chegaralari.

Tushuntiruvchi shartli belgilar – ular xaritalardagi biror obyekt hamda voqe va hodisalarning holatini, turini, yo'nalishini ko'rsatib turadi. Maslan, strelka yordamida daryo hamda dengiz oqimlarining yo'nalishini, shamollarning harakatini, maxsus belgilar yordamida o'rmondagi daraxtlarning turini, ko'priklarning xolatini ifodalash mumkin.

Shuningdek, yozuvli, harfli va sonli shartli belgilar ham mavjud. Masalan, yozuvli shartli belgilar bilan orografik nomlarni, shaharlarning funksiyalarini, harfli shartli belgilar bilan muhim nuqtalarni o'rnini ko'rsatishda, sonli shartli belgilar bilan esa geografik obyektlarning eng baland va eng past nuqtalarini, voqe va hodisalarning harakat tezligini ko'rsatish mumkin.



6-rasm. Topografik shartli belgilar

Topografik xaritalar geografik xaritalardan obyekt va voqeilikni tasvirlash usullari, egallagan maydoni, mashtablarini va shartli belgilari bilan farqlanadi. Topografik xaritalarda masofalar hamma joyda bir xilda kichraytirilib tushiriladi va har bir obyekt maxsus shartli belgilar bilan tasvirlanadi. Topografik xaritalar xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'llaniladi hamda mayda mashtabli geografik xaritalarni tuzish uchun asos bo'ladi. Topografik xaritalarni ko'rgazmalilagini oshirish va o'qishni osonlashtirish uchun har xil ranglar ishlataladi, ularning sifatini oshirish uchun topografik chizmalar qo'llaniladi. Topografik xaritalar turli mashtablarda ya'ni 1:10000, 1:25000, 1:50000, 1:100000, 1:200 000 mashtablarda tuziladi. Masshtabi 1:10000, 1:25000 bo'lgan xaritalar to'g'ridan-to'g'ri joyda s'jomka qilinsa, qolganlari shu xaritalar asosida tuziladi. Topografik xaritalar qilinsa, qolganlari shu xaritalar asosida tuziladi. Topografik xaritalar har xil mashtabli bo'lganligidan hududlari ham turli xil kattalikda

bo‘ladi va ular alohida–alohida varaqlarda tasvirlanadi. Topografik xaritalardan foydalanishni osonlashtirish uchun ularni ma’lum tartibga solib belgilanadi, ya’ni topografik xaritalarning varaqlari ma’lum bir meridian va parallellar bilan chegaralanadi. Topografik xaritalar varaqlarini belgilash tizimiga **nomenklatura** deyiladi. Topografik xaritalarning nomenklaturasi har bir varaq xaritaning kattaligini va shu varaqning yer yuzasidagi o‘rnini belgilaydi. Xaritalarning nomenklaturasi xalqaro 1:1 000 000 masshtabli nomenklaturaga asoslanadi. Ushbu 1:1 000 000 masshtabli xaritaning nomenklaturasi uchun ekvatordan qutblarga tomon har 4° dan parallellar o‘tkazilib, bularni lotin alifbosining bosh harflari bilan belgilanadi va ular **qatorlar** deyiladi. Meridianlar oralig‘i har 6° dan o‘tkazilib, ular raqamlar bilan belgilanadi va ular **zonalar** deyiladi.

Topografik xaritalardan foydalanishni osonlashtirish uchun matematik, geografik va yordamchi elementlarga bo‘lib o‘rganiladi. Matematik elementlarga nomenklatura, masshtab, daraja to‘ri va xaritaning ramkasi, geografik elementlarga xaritaning mazmuni ya’ni unda tasvirlangan geografik obyektlar, voqe va hodisalar, yordamchi elementlarga esa ramkadan tashqari turli chizmalar (magnit og‘ish burchagini ifodalovchi chizma) va tushintirish xatlari kiritiladi.


Xaritalarda voqe va hodisalarning birorta miqdor ko‘rsatkichi asosida bir xil qiymatga ega bo‘lgan nuqtalar bo‘yicha o‘tgan yoki ularni birlashtiruvchi egri chiziqlar **izoliniyalar** deb ataladi. Izoliniya grekcha so‘z bo‘lib “izos” – teng, “linya” – chiziq, ya’ni teng chiziq degan ma’noni anglatadi.

Izoliniyalarga quyidagilarni misol qilib ko‘rsatish mumkin:

- Izogipslar (gorizontallar) – dengiz sathidan bir xil mutloq balandlikda joylashgan nuqtalarni birlashtiruvchi egri chiziqlar;
- Izobatalar bir xil chuqurlikka ega bo‘lgan dengiz (ko‘l) osti yerlarini tutashtiruvchi egri chiziqlar;
- Izotermalar – bir xil havo haroratiga ega bo‘lgan nuqtalarni tutashtiruvchi egri chiziqlar;
- Izobaralar – bir xil havo bosimiga ega bo‘lgan joydagи nuqtalarni birlashtiruvchi egri chiziqlar;
- Izogietalar – bir xil yog‘in-sochin tushadigan yerlarni (nuqtalarni) tutashtiruvchi egri chiziqlar va boshqalar.


Topografik xaritalarda gorizontallar bilan relyef tasvirlanadi.

Relyef qancha ko‘p gorizontallar bilan tasvirlansa, u shu qadar baland, gorizontallar kam bo‘lsa, u past bo‘ladi hamda gorizontallar bir biriga qancha yaqin bo‘lsa, yonbag‘ir shuncha tik, gorizontallar orasi qanchalik katta bo‘lsa, yonbag‘ir shunchalik qiya bo‘ladi (7–rasm).



7-rasm. Tepalikni gorizontallarda tasvirlash

Yer yuzasi qaysi tomonga qiya bo‘lsa, gorizontallarga qiya tomonni ko‘rsatuvchi chiziqcha qo‘yiladi. Bu chiziqcha **Bergshtrix** deb ataladi. Bergshtrixga qarab balandlik va chuqurliklar ajratib olinadi, ya’ni bergshtrix gorizontallardan tashqi tomonga chizilgan bo‘lsa tepalik, ichki tomonga chizilgan bo‘lsa chuqurlik bo‘ladi. (8–rasm).



8-rasm. Gorizontallar

Yer yuzasidagi biror bir nuqtaning balandligi dengiz sathidan hisoblanadigan bo‘lsa, bu **mutloq balandlik** deyiladi. Masalan, tog‘ cho‘qqilarining va davonlarning balandligi. Yer yuzasidagi ikki nuqta orasidagi tik balandlik, ya’ni mutloq balandliklar orasidagi farqqa **nisbiy balandlik** deyiladi. Masalan, tog cho‘qqisinинг atrofdagi

tekisliklarga nisbatan tik balandligi yoki daryo ikki qirg'og'inining bir-biridan balandligi.

Dengiz va okean suvlarining ko'p yillik o'rtacha sathi gidrometrik postlarda qo'zg'almas qilib o'rnatilgan va gorizontal chiziqlar bilan bo'laklarga bo'lingan mis taxtacha – futshok deb ataladi. Futshokning maqsadi dengiz, daryo yoki ko'lda faslga qarab suv sathi o'zgarib turishini o'rganish, o'rtacha suv sathini aniqlash, suvning chuqurligini o'lhash, suv to'lqinlanganda qanchalik baland ko'tarilishini bilishdir. O'zbekiston hududidagi nuqtalarning mutloq balandligi Boltiq dengizidagi Kronshtadt ko'prigi ustuniga o'rnatilgan futshokning noliga nisbatan hisoblash qabul qilingan. Geografik xaritalarda beriladigan barcha balandliklar mutloq balandlikini bildiradi. Yer yuzasidagi biror nuqtaning balandligi dengiz sathidan ya'ni 0 metrdan baland bo'lsa, musbat ishora (+), 0 metrdan past bo'lsa manfiy ishora (-) qo'yiladi. Lekin geografik xaritalarda musbat ishora qo'yilmaydi. Masalan, Jomolungma chuqqisining mutloq balandligi 8848 m, Qoragiyo botig'inining mutloq balandligi dengiz sathidan -132 m pastda joylashgan.

Nisbiy balandlik quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$H_1 = H - h.$$

Bu yerda H_1 – nisbiy balandlik, H – mutloq balandlik, h – ikkinchi nuqtaning balandligi. Agar biror nuqtaning ikkinchi nuqtaga nisbatan balandligi, ya'ni nisbiy balandligi musbat bo'lsa (+), manfiy bo'lsa (-) ishora bilan yoziladi.

Quyida topografik shartli belgilarga doir mashqlar bajaramiz.

1-mashq. O'quvchilar qishki yol orqali avval o'tloqdan, so'ng butazordan, keyin botqoqlik va siyrak o'rmondan o'tib g'orga yetib borishdi. Ushbu marshurutni topografik shartli belgilarda tasvirlang.

Yechish: Avvalo topografik shartli belgilarni ajratib olamiz va sxemada tasvirlaymiz.

| | | | | | | |
|------------------------|---------|---------------|--------|------------|------|-----------|
| Sartli belgila r | | | | | | |
| Nomi | butazor | siyrak o'rmon | o'tloq | qishki yol | g'or | botqoqlik |

Javob:


2-mashq. Balandligi 100 metr bo'lgan tepalikni gorizontallarda aks ettiring. Bu tepalikning janubi-sharqi qismi qiya, shimoli-g'arbiy qismi esa tik. (Izoh: gorizontallarni har 20 metrdan o'tkazing)

Yechish: dastlab, tepalikni tasvirlash uchun nechta gorizontal o'tkazishimiz lozimligini aniqlab olamiz, ya'ni

$$100 \text{ m} : 20 \text{ m} = 5$$

Demak, orasidagi balandlik farqini 20 metrdan hisoblab 5 ta (0, 20, 40, 60, 80 metrl) gorizontal chiziqlar o'tkazamiz, tepalikni eng yuqori nuqtasiga esa 100 metrn yozib qo'yamiz, chunki eng baland nuqtadan eng oxirgi gorizontal chiziq yotadi. So'ngra tepalikning qiya tomonini bergshtrix bilan belgilaymiz.

Javob:




3-mashq. Chuqurligi 60 metr bo'lgan botiqni gorizontallarda aks ettiring. Bu botiqning shimoliy qismi qiya, janubi-sharqi qismi esa tik bo'lsin. (Izoh: gorizontallarni har 15 metrdan o'tkazing)

Yechish: dastlab, botiqni tasvirlash uchun nechta gorizontal o'tkazishimiz lozimligini aniqlab olamiz, ya'ni

$$60 \text{ m} : 15 \text{ m} = 4$$

Demak, orasidagi chuqurlik farqini 15 metr dan hisoblab 4 ta (0, 15, 30, 45 metrli) gorizontal chiziqlar o'tkazamiz, botiqni eng past nuqtasiga esa 60 metrni yozib qo'yamiz, chunki eng past nuqtadan eng oxirgi gorizontal chiziq yotadi. So'ngra tepalikning qiya tomonini bergshtrix bilan belgilaymiz.

Javob:



4-mashq. Mamlakatimizning eng baland nuqtasi Hazrati Sulton cho'qqisi, mamlakatimizning eng past nuqtasi Mingbuloq botig'iga nisbatan nisbiy balandligi necha metrni tashkil etadi? (Eslatma: Hazrati Sulton cho'qqisi 4643 m., esa -12 m.)

Yechish: Bu masalamizni yuqoridagi formula yordamida yechamiz.

$$H_1 = H - h. \text{ ya'ni } H_1 = 4643 - (-12) = 4655 \text{ metr}$$

Javob: Hazrati Sulton cho'qqisi Mingbuloq botig'iga nisbatan 4655 metr balandda joylashgan ekan.

5-mashq. Afrikadagi Kilimanjaro vulqonining, Keniya vulqoniga nisbatan nisbiy balandligini aniqlang. (Eslatma: Kilimanjaro vulqoni 5895 m., Keniya vulqoni 5199 m.)

Yechish: Bu masalamizni ham yuqoridagi formula yordamida yechamiz.

$$H_1 = H - h. \text{ ya'ni } H_1 = 5895 - 5199 = 696 \text{ metr}$$

Javob: Kilimanjaro vulqoni Keniya vulqoniga nisbatan 696 metr balandda joylashgan ekan.

Geografik xaritalardan foydalanib, geografik koordinatalarni aniqlash.

Yer yuzini yoki uning biror qismini va undagi geografik obyektlarni kichraytirib va umumlashtirib tekis yuzada (qog'ozda) tasvirlash geografik xaritalar deb ataladi. Geografiya darslarini geografik xaritalarsiz tassavur qilib bo'lmaydi. Geografik xaritalarda har - xil tabiat komponentlari, voqeа va hodisalar tasvirlanganligi sababli ular turli - tuman bo'ladi. Geografik xaritalarga nisbatan xarita va karta so'zları qo'llaniladi, shundan kelib chiqadigan bo'lsak, karta - so'zi yunon tilidan ("kartes") olingen bo'lib, o'zbekchada xat yozish uchun ishlataladigan papirus qog'ozining bir varag'i deb tarjima qilinadi.

Geografik xaritalarga bir vaqtning o'zida barcha jarayonlarni aks ettirib bo'lmaydi. Shu sababdan, xaritalarga voqeа-xodisalarini tasvirlash mavzusiga ko'ra ular turlarga ajratiladi. Jumladan, geografik xaritalarning 3 turini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Bular: tabiiy, siyosiy hamda iqtisodiy-ijtimoiy geografik xaritalardir. Yer yuzasining tabiiy ko'rinishi, ya'ni relyef (tog' va tekisliklar), gidrografiysi (daryolar, ko'llar, sharsharalar, okeanlar va ularning qismlari) va boshqa tabiat komponentlari ko'rsatilgan xaritalar tabiiy xaritalar deb ataladi. Bunday xaritalarda yer usti tuzilishi ya'ni past, balandliklar va suv havzalari, tabiat komponentlarining ba'zi elementlari aks etgan bo'ladi. Masalan tabiiy xaritalarga iqlim xaritalari, tuproq xaritalari, relyef xaritalari, o'simlik va hayvonot dunyosi xaritalari kabilarni kiritish mumkin. Qitalar, mintaqalar, davlatlar va ularning mamuriy birliklari chegaralari, markazlari va yirik shaharlari aks etgan xaritalar siyosiy xartalar deb ataladi. Mintaqalar, davlatlar va viloyatlarning ishlab chiqarish obyektlari ya'ni sanoat korxonalari, qishloq xo'jaligi ekinlari, transport yo'llari hamda xizmat ko'rsatish sohalari tasvirlangan xaritalar iqtisodiy-ijtimoiy geografik xaritalar deb ataladi. Shuningdek, xaritalarda hududlarning tasvirlanish ko'lamiga ko'ra dunyo xaritasi, materiklar va okeanlar xaritasi, o'lkalar yoki mamlakatlar xaritasi kabi turlarga ajratiladi. Xaritalar mashtabiga ko'ra esa yirik mashtabli, o'rta mashtabli hamda mayda mashtabli xaritalarga bo'linadi. Shu bilan birga, geografik xaritalarning mazmuni jihatidan umumgeografik va mavzuli xaritalarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Shuningdek

ishlatish sohasiga ko'ra o'quv, ilmiy, turistik xaritalar kabi guruhlariga bo'linadi.

Quyida geografik xaritalardan foydalanib, geografiyadan amaliy mashg'ulotlarni bajarish usullari haqida so'z yuritamiz.

Yer sayyorasining ikkita (Shimoliy va Janubiy) qutbini tutashtiradigan va Yer yuzasidan o'tadigan faraziy yarim aylana chiziqlar **meridianlar** deb ataladi. Meridian so'zi lotinchadan olingen bo'lib, "meridianis" – tush chizig'i degan ma'noni anglatadi. Meridianlar yer yuzasidagi ikkita qutbni bog'laganligi uchun ham ularning barcha nuqtalari bir xil uzunlikka ega bo'ladi. Krasovskiy ellipsoidiga ko'ra, meridianning to'la uzunligi (Yer aylanasi) 40008,550 km. ga, bir gradus (1°) meridian yoyining uzunligi esa – 111,1 km. ga teng.

1884-yilgi xalqaro kelishuvga muvofiq, Londonda joylashgan Grinvich astronomik rasadxonasidan o'tuvchi meridian "boshlang'ich meridian" ya'ni "nolinchi meridian" deb qabul qilingan. Qadimda uzunliklarni o'lchaning turli joylardan o'tgan meridianlar bosh meridian deb olingen. Masalan, Ferro oroli (Kanar orollari), Parij, Berlin, Rim, Nankin rasadxonalari, Rossiya uchun 19-asrgacha Pulkovo rasadxonasidan o'tgan meridian, Sharqda o'rta asrlarda xarita tuzishda Xo'jand shahridan o'tgan meridian bosh meridian deb qabul qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar bor.

Yer yuzasida ekvatorga parallel qilib o'tkazilgan faraziy aylana chiziqlar **parallellar** deb ataladi. Parallel so'zi yunonchadan olingen bo'lib, "paralelos" – yonida boruvchi degan ma'noni anglatadi. Parallellar ekvatoridan uzoqlashgan sari qisqara boradi.

Yer yuzasida qutblardan teng uzoqlikdan o'tadigan faraziy aylana chiziq **ekvator** deb ataladi. Ekvator so'zi lotinchadan olingen bo'lib, "ekuator" – teng bo'lувчи, tenglashtiruvchi degan ma'nolarni anglatadi. Ekvator Yer sharini ikkiga – Shimoliy va Janubiy yarim sharlarga bo'ladi. Ekvator aylanasining uzunligi – 40075,696 km. ga, bir gradus (1°) ekvator yoyining uzunligi esa – 111,3 km. ga teng.

Meridian va parallel chiziqlarning globus va xaritalardagi tasviri natijasida hosil bo'ladigan to'r daraja to'ri deb ataladi. Daraja to'risiz tuzilgan xarita, u xuddi hisob olish shkalasi bo'lmagan termometrga o'xshaydi. Shuning uchun globus va xaritalarda albatta daraja to'ri ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Daraja to'ri yordamida Yer

yuzidagi istalgan nuqtaning geografik koordinatasini aniqlashimiz mumkin.

Yer yuzasidagi nuqtaning ekvator va boshlang'ich meridianga nisbatan o'lchaning kenglik va uzunlik qiymatlariga **geografik koordinata** deb ataladi. Koordinata so'zi lotinchadan olingen bo'lib, "so" – birgalikda, "ordinatus" – tartiblangan, aniqlangan degan ma'noni anglatadi. Geografik koordinataning o'lchov birligi sifatida gradus ($^{\circ}$), minut ('), sekund(") deb qabul qilingan. Har bir gradus 60 minutga, 1 minut esa 60 sekundga teng. Geografik koordinatalar yordamida har bir kishi dunyo xaritasidagi har qanday obyektning joylashgan o'rnini aniqlay oladi. Geografik koordinatani aniqlashda geografik kenglik va uzunliklardan foydalilanadi.

Yer yuzasidagi biror nuqtaning ekvatoridan boshlab hisoblangan va meridian yoyining daraja hisobidagi qiymatiga **geografik kenglik** deb aytildi. U ekvatoridan shimol va janubga tomon 0° dan 90° gacha o'lchanib, yunoncha φ (fi) harfi bilan belgilanadi. Geografik kenglik meridianlar bo'ylab ekvatoridan qutblarga tomon hisoblab chiqariladi. Ekvatoridan shimolda joylashgan nuqtalarning kengligi shimoliy kenglik (sh.k.), janubda joylashgan nuqtalarning kengligi esa janubiy kenglik (j.k.) deb ataladi. Bir parallelda yotgan barcha nuqtalarning geografik kengligi bir xil bo'ladi.


Istalgan nuqtaning geografik kengligi quyidagi formula yordamida aniqlandi.

$$\varphi = \varphi_0 + \Delta\varphi$$

Bu yerda: φ – nuqtaning geografik kengligi; φ_0 – shartli ravishda boshlang'ich deb olingen parallelning kengligi; $\Delta\varphi$ – boshlang'ich deb olingen paralleldan berilgan nuqtagacha bo'lgan kenglik (gradus hisobida).

Yer yuzasidagi biror nuqtaning bosh meridiandan boshlab hisoblanadigan va parallel yoyining daraja hisobidagi qiymatiga **geografik uzunlik** deb aytildi. U bosh meridiandan sharq va g'arbga tomon 0° dan 180° gacha o'lchanadi va yunoncha λ (lambda) harfi bilan belgilanadi. Geografik uzunliklar parallellar bo'ylab bosh meridiandan sana o'zgarish chizig'iga (180° meridian) tomon hisoblab chiqariladi. Berilgan nuqta bosh meridiandan sharqda bo'lsa sharqiy uzunlik (shq.u.), g'arbda bo'lsa g'arbiy uzunlik (g'.u.) deyiladi. Bir meridianda yotgan barcha nuqtalarning geografik uzunligi bir xil

bo‘ladi (9-rasm).



9-rasm. Geografik kenglik (a) va geografik uzunlik (b)

Istalgan nuqtaning geografik uzunligi quyidagi formula yordamida aniqlandi

$$\lambda = \lambda_0 + \Delta\lambda$$

Bu yerda: λ – nuqtaning geografik uzunligi; λ_0 – shartli ravishda boshlang‘ich deb olingan meridianning uzunligi; $\Delta\lambda$ – boshlang‘ich deb olingan meridiandan berilgan nuqttagacha bo‘lgan uzunlik (gradus hisobida).

Quyida geografik koordinatani aniqlashga doir mashqlar bajaramiz.

1-mashq. 6 – sind atlasidagi Yevroсиyo tabiiy xaritasidan foydalanib, Jomolungma cho‘qqisining geografik koordinatalarini aniqlang.

Yechish: Dastlab aniqlanishi lozim bo‘lgan Jomolungma cho‘qqisining markazini nuqta belgilab olamiz. So‘ngra nuqtaning geografik kengligi (φ) hisoblab topiladi.

Buning uchun quyidagi amallarni bajaramiz:

1. Geografik kenglikni topish uchun nuqtaning shimol va janubidan o‘tgan parallel chiziqlarning qiymatlarini aniqlaymiz, bizni misolimizdagi Jomolungma cho‘qqisining shimoldagi parallel chiziqni qiymati 30° ga, janubdagи parallel chiziqni qiymati esa 20° ga teng ekanligi ma’lum bo‘ldi. So‘ngra daraja to‘rning parallelari orasidagi farq topiladi. Buning uchun belgilangan nuqtaning shimol va

janubidan o‘tgan parallel chiziqlari qiymatlari ayrıldi. Parallelar orasidagi farq quyidagicha $30^\circ - 20^\circ = 10^\circ$ ya’ni 10° ga teng ekan.

Har doim katta qiymatdan kichik qiymat ayrıldi, ya’ni shimoliy yarim shardagi nuqtalarning shimoldagi parallel chiziqdan janubdagи parallel chiziq ayrılsa, janubiy yarim shardagi nuqtalarning esa janubdagи parallel chiziqdan shimoldagi parallel chiziq ayrıldi. Sababi parallelarning qiymatlari ekvatoridan shimol va janubga tomon ortib boradi. Mana shu qiymatlar yordamida ham nuqta qaysi kenglikda ekanligini bilish mumkin, ya’ni qiymatlar shimolga tomon kattalashib borsa shimoliy kenglik, janubga tomon kattalashib borsa janubiy kenglik bo‘ladi.



2. Endi parallelarning orasi necha mm ekanligi chizg‘ich yordamida o‘lchanadi. Bunda chizg‘ich shunday joylashtirilishi kerakki, u nuqtaning ustidan to‘g‘ri chiziq hosil qilib, shimol va janubidan o‘tuvchi parallelarni tutashtirsin. Bizni misolimizda bu chiziqning uzunligi 22 mm ga teng ekan.

3. So‘ngra qiymati kichik parallel chiziqdan, nuqttagacha bo‘lgan masofa necha mm ekanligi aniqlanadi. Bizning misolimizda janubdagи parallel chiziqni qiymati kichik bo‘lganligi uchun janubidagi parallel chiziqdan nuqttagacha bo‘lgan masofa o‘lchanadi, ya’ni 20° paralleldan nuqttagacha bo‘lgan masofa 18 mm ga teng ekan.

4. Endi 20° parallel chiziqdan aniqlanishi lozim bo‘lgan nuqttagacha bo‘lgan kenglik necha gradus ekanligini ($\Delta\varphi$) aniqlaymiz, Buni uchun proporsiya usulidan foydalanamiz. Ya’ni quyidagicha hisoblab topamiz.

22 mm – 10°

$$18 \text{ mm} - x \quad x = \frac{18 \text{ mm} \times 10^\circ}{22 \text{ mm}} = 8,18^\circ$$

20° parallel chiziqdan nuqttagacha bo'lgan kenglik 8,18° ga teng ekan. Endi nuqtaning ekvatorga nisbatan kengligini topish uchun yuqoridagi formuladan foydalanamiz.

$$\varphi = \varphi_0 + \Delta\varphi = 20^\circ + 8,18^\circ = 28,18^\circ$$

Demak, nuqta 28,18° shimoliy kenglikda joylashgan ekan.

5. Agar 28,18° dagi qoldiq 18 ni minut va sekundlarda ifodalash kerak bo'lsa, uni topish uchun proporsiya usulidan foydalanamiz. Bizga 1° = 60', 1'=60" teng ekanligi ma'lum.

1° – 60'

$$0,18^\circ - x \quad x = \frac{0,18^\circ \times 60'}{1^\circ} = 10,8'$$

Endi, 10,8' dagi qoldiq 8 ni sekundga aylantiramiz, buni uchun yana proporsiya usulidan foydalanamiz.

1' – 60"

$$0,8' - x \quad x = \frac{0,8' \times 60''}{1'} = 48''$$

28,18° ni minut va sekundlarda ifodalaganizmizda quyidagicha raqamlar hosil bo'ladi. 28,18°=28°10'48"

Demak, Jomolungma cho'qqisi 28°10'48" shimoliy kenglikda joylashgan ekan.


Endi nuqtaning geografik uzunligini aniqlashimiz kerak, buni uchun ham yuqoridagi kabi amallarni bajarishimiz lozim. Ya'ni quyidagi amallarni bajaramiz:

1. Geografik uzunlikni topish uchun nuqtaning g'arbi va sharqidan o'tgan meridian chiziqlarning qiymatlarini aniqlaymiz, bizni misolimizdagи Jomolungma cho'qqisining g'arbidagi meridian chiziqni qiymati 80° ga, sharqidagi meridian chiziqni qiymati esa 90° ga teng ekanligi ma'lum bo'ldi. So'ngra daraja to'rnинг meridianlari orasidagi farq topiladi. Buning uchun belgilangan nuqtaning g'arbi va sharqidan o'tgan meridian chiziqlar qiymatlarining kattasidan kichigini ayramiz. Misolimizda meridianlar orasidagi farq quyidagicha 90°–80°=10° ya'ni 10° ga teng ekan.

Shuni unutmaslik lozimki, parallel chiziqlar kabi meridian chiziqlarning ham har doim katta qiymatdan kichik qiymat ayrıldi, ya'ni Sharqiy yarim shardagi nuqtalarning sharqidagi meridian

chiziqdan g'arbidagi meridian chiziq ayrılsa, g'arbiy yarim shardagi nuqtalarning esa g'arbdagi meridian chiziqdan sharqidagi meridian chiziq ayrıldi. Sababi meridianlarning qiymatlari bosh meridiandan g'arba va sharqqa tomon ya'ni sana o'zgarish chizig'iga (180° meridian) tomon ortib boradi. Mana shu sababli ham qiymatlarni ortib borishiga qarab ham nuqta qaysi uzunlikda ekanligini bilish mumkin, ya'ni qiymatlar sharqqa tomon kattalshib borsa sharqiy uzunlik, g'arba tomon kattalshib borsa g'arbiy uzunlik bo'ladi.

2. Endi meridianlarning orasi necha mm ekanligi chizg'ich yordamida o'lchanadi. Bunda chizg'ich shunday joylashtirilishi kerakki, u nuqtaning ustidan to'g'ri chiziq hosil qilib, g'arbi va sharqidan o'tuvchi meridianlarni tutashtirsin. Bizni misolimizda bu chiziqning uzunligi 22 mm ga teng ekan.



3. So'ngra qiymati kichik meridian chiziqdan, nuqttagacha bo'lgan masofa necha mm ekanligi aniqlanadi. Bizning misolimizda g'arbdagi meridian chiziqni qiymati kichik bo'lganligi uchun g'arbidagi meridian chiziqdan nuqttagacha bo'lgan masofa o'lchanadi, ya'ni 80° meridiandan nuqttagacha bo'lgan masofa 13 mm ga teng ekan.

19 mm – 10°

13 mm – x

$$x = \frac{13 \text{ mm} \times 10^\circ}{19 \text{ mm}} = 6,84^\circ$$

80° meridian chiziqdan nuqtagacha bo‘lgan uzunlik $6,84^{\circ}$ ga teng ekan. Endi nuqtaning bosh meridianga nisbatan uzunligini topish uchun yuqoridagi formuladan foydalanamiz.

$$\lambda = \lambda_0 + \Delta\lambda = 80^{\circ} + 6,84^{\circ} = 86,84^{\circ}$$

Demak, nuqta $86,84^{\circ}$ shimoliy kenglikda joylashgan ekan.

5. Agar $86,84^{\circ}$ dagi qoldiq 84 ni minut va sekundlarda ifodalash kerak bo‘lsa, uni topish uchun proporsiya usulidan foydalanamiz.

$$1^{\circ} - 60'$$

$$0,84^{\circ} - x$$

$$x = \frac{0,84^{\circ} \times 60'}{1^{\circ}} = 50,4'$$

Endi, $50,4'$ dagi qoldiq 4 ni sekundga aylantiramiz, buni uchun yana proporsiya usulidan foydalanamiz.

$$1' - 60''$$

$$0,4' - x \quad x = \frac{0,4' \times 60''}{1'} = 24''$$

$86,84^{\circ}$ ni minut va sekundlarda ifodalaganizmizda quyidagicha raqamlar hosil bo‘ladi. $86,84^{\circ} = 86^{\circ} 50' 24''$

Demak, Jomolungma cho‘qqisi $86^{\circ} 50' 24''$ sharqiy uzunlikda joylashgan ekan.

Javob: Jomolungma cho‘qqisi $28^{\circ} 10' 48''$ shimoliy kenglikda va $86^{\circ} 50' 24''$ sharqiy uzunlikda joylashgan. Geografik koordinatasi quyidagicha yoziladi.

$28^{\circ} 10' 48''$ sh.k.

$86^{\circ} 50' 24''$ sh.q.u.

Daraja to‘ri yordamida masofalarni aniqlash.

Biz yuqorida daraja to‘ri yordamida Yer yuzasidagi biror nuqtaning geografik koordinatalarini topishni o‘rgandik, endi esa daraja to‘ridan foydalanib, yer yuzasidagi ikki va undan ortiq bo‘lgan nuqtalar orasidagi masofalarni ham gradus yoki kilometrlarda topamiz. Buning uchun orasidagi masofalar aniqlanishi lozim bo‘lagan nuqtalarning geografik koordinatalarini aniqlaymiz va unga asoslangan holda orasidagi masofalarni gradus yoki kilometrlarda hisoblab chiqamiz.

Yer yuzasidagi ikki nuqta orasidagi masofani aniqlayotganimizda quyidagi oddiy qoyidani yodda saqlashimiz lozim. Aniqlashimiz lozim bo‘lgan nuqtalarning uzunliklari bitta geografik uzunlikda joylashgan bo‘lsa, u holda ularning darajasi kattasidan darajasi

kichkinasi ayiriladi. Aksincha, bu nuqtalarning uzunliklari turli geografik uzunlikda (biri sharqi, ikkinchisi esa g‘arbiy uzunlikda) joylashgan bo‘lsa, u holda ularning darajalari qo‘shiladi. Ikki nuqtaning uzunliklari ayrilganda yoki qo‘shilganda ular orasidagi masofaning graduslardagi qiymati kelib chiqadi. Agar masofa kilometrlarda topilishi kerak bo‘lsa, u holda ular orasida hosil bo‘lgan masofanining graduslardagi qiymati shu kenglikdagi 1° parallel yoyining uzunligiga ko‘paytiriladi va oradagi masofa kilometrlarda ifodalananadi. Turli geografik kengliklardiagi 1° parallel yoyining uzunliklari quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I = 111,1 \cos\varphi$$

Bu yerda: I—anqlanishi lozim bo‘lgan kenglikdagi 1° parallel yoyining uzunligi, φ —joyning geografik kengligi.

Qarang. Qo‘llanmaning 1-ilovasida turli geografik kengliklardiagi 1° parallel yoyining uzunliklari jadval qilib berilgan.

Yer yuzasidagi ikki nuqta orasidagi masofani kenglik bo‘ylab aniqlash kerak bo‘lsa, u holda ularning kengliklari orasidagi farq quyidagicha topiladi. Aniqlanishi lozim bo‘lgan ikki nuqta bitta kenglikda joylashgan bo‘lsa, darajasi kattasidan darajasi kichkinasi ayiriladi, turli kenglikda ya‘ni biri shimoliy, ikkinchisi esa janubiy kenglikda joylashgan bo‘lsa, darajalari qo‘shiladi. Ikki nuqtaning kengliklari ayrilganda yoki qo‘shilganda ular orasidagi masofaning graduslardagi qiymati kelib chiqadi. Agar masofa kilometrlarda topilishi kerak bo‘lsa, u holda ular orasida hosil bo‘lgan masofanining graduslardagi qiymati 1° meridian yoyining uzunligiga ko‘paytiriladi va oradagi masofa kilometrlarda ifodalananadi. 1° meridian yoyining uzunligi $111,1$ km ga teng.

Quyida daraja to‘ri yordamida masofalarni aniqlashga doir mashqlar bajaramiz.

1-mashq. Janubiy Amerika materigi ekvator bo‘ylab g‘arbdan sharqqa qancha masofaga cho‘zilganligini xaritadagi daraja to‘ridan foydalanib, gradus va kilometrlarda aniqlang.

Yechish: Buning uchun avvalambor, materikning ekvator kengligidagi eng g‘arbiy va sharqiy qirg‘oqlarining geografik koordinatalarini yuqoridagi usullar yordamida aniqlab olamiz. Biz ularni aniqlaganimizda quyidagicha ekanligi ma’lum bo‘ldi. Materikning

ekvator kengligidagi g'arbiy qirg'og'i $70,27^\circ$ ya'ni $70^\circ 16'12''$ g'arbiy uzunlikda va sharqiy qirg'og'i esa $51,08^\circ$ ya'ni $51^\circ 4'48''$ g'arbiy uzunlikda joylashgan ekan. Endi yuqoridagi qoidaga amal qilgan holda hisoblaymiz, ya'ni nuqtalar bitta uzunlikda (g'arbiy) joylashganligi sababli ularning darajalarini ayramiz va 1° ekvator yoyining uzunligi ($111,3$ km) ga ko'paytiramiz. Buni ikkita usul yordamida hisoblash mumkin birinchisi sodda, ikkinchisi murakkab usul.

Birinchi usul yordamida topilgan koordinatadagi graduslarni minut va sekundlarda ifodalamasdan ayrib, 1° ekvator yoyining uzunligiga ko'paytiramiz.

$$70,27^\circ - 51,08^\circ = 19,19^\circ$$

$$19,19^\circ \times 111,3 \text{ km} = 2135,8 \text{ km}$$

Ikkinchi usul yordamida topilgan koordinatadagi graduslarni minut va sekundlarda ifodalab, so'ngra ularni ayrib, 1° ekvator yoyining uzunligiga ko'paytiramiz.

$$70,27^\circ = 70^\circ 16'12''$$

$$51,08^\circ = 51^\circ 4'48''$$

$$70^\circ 16'12'' - 51^\circ 4'48'' = 19^\circ 11'24''$$

Izoh. Huddi sonlarni matematik hisoblab ayirgandek, sonlarni oxiridan boshlab ayrib chiqamiz, ya'ni avval sekundlarni, so'ngra minutlarni va oxirida graduslarni ayramiz, ayrmochi bo'lganimizda 12 sekund 48 sekunddan kichik bo'lganligi uchun unga oldidagi 16 minutdan 1 minutni olib 12 sekundga beramiz, bunda $1' = 60''$ ga teng ekanligini ma'lum bo'lganligi uchun, 12 sekundaga 60 sekundni qo'shamiz, natijada 72 sekund hosil bo'ladi, endi 72 sekunddan 48 sekundni ayirsak bo'ladi. $72 - 48 = 24$. Minutlarni ayradigan bo'lsak, 16 minutdan 1 ni olib 12 sekundga berganimizdan so'ng, u o'rnida 15 minut qoldi, endi ularni ham ayramiz. $15 - 4 = 11$. Graduslar o'z o'rnida qolganligi sababli ularni ayrib hisoblasak bo'ladi. $70 - 51 = 19$. Endi ularni umumlashtiramiz. $19^\circ 11'24''$

Hosil bo'lgan natijani ($19^\circ 11'24''$) 1° ekvator yoyining uzunligi ($111,3$ km) ga ko'paytirishimiz uchun ham ularni ya'ni gradus, minut va sekundlarni alohida alohida ko'paytirib olamiz.

Gradusni ko'paytirib topadigan bo'lsak quyidagicha topiladi.

$$1^\circ = 111,3 \text{ km. ga shu sababli } 19 \times 111,3 = 2114,7$$

Minutni ko'paytirib topadigan bo'lsak quyidagicha topiladi.

$1^\circ = 60'$ bo'lganligi uchun $111,3$ km. ni 60 ga bo'lamiz. $111,3 \div 60 = 1,855$. Hosil bo'lgan natija ($1,855$) ni misolimizdagi minut ($4''$) ga ko'paytiramiz.

$$4 \times 1,855 = 20,4$$

Sekundni ko'paytirib topadigan bo'lsak quyidagicha topiladi.
 $1' = 60''$ bo'lganligi uchun $1,855$ ni 60 ga bo'lamiz. $1,855 \div 60 = 0,03$.

Hosil bo'lgan natija ($0,03$) ni misolimizdagi sekund ($24''$) ga ko'paytiramiz.

$$24 \times 0,03 = 0,7$$

Endi natijalarni umumlashtirib qo'shib chiqamiz.

$$2114,7 + 20,4 + 0,7 = 2135,8 \text{ km}$$

Javob: Yuqoridagi ikki usulda ham hisoblab topilgan natijalarimiz bir xil masofani ko'rsatmoqda, demak, Janubiy Amerika materigi, ekvator bo'ylab g'arbdan sharqqa $19,19^\circ = 19^\circ 11'24''$ ga, yoki $2135,8$ km ga cho'zilgan ekan.

2-mashq. Afrika materigi 20° shimoliy kenglik bo'ylab g'arbdan sharqqa qancha masofaga cho'zilganligini gradus va kilometrlarda aniqlang.

Yechish: Dastlab, materikning 20° shimoliy kenglikdagi eng g'arbiy va sharqiy qirg'oqlarining geografik koordinatalarini aniqlaymiz. Biz ularni aniqlaganimizda quyidagicha ekanligi ma'lum bo'ldi. Materikning 20° shimoliy kenglikdagi g'arbiy qirg'og'i $16,33^\circ$ ya'ni $16^\circ 19'48''$ g'arbiy uzunlikda va sharqiy qirg'og'i esa $36,66^\circ$ ya'ni $36^\circ 39'36''$ sharqiy uzunlikda joylashgan ekan. Endi yuqoridagi qoidaga amal qilgan holda hisoblaymiz, ya'ni bu nuqtalarning uzunliklari turli geografik uzunlikda (biri sharqiy, ikkinchisi esa g'arbiy uzunlikda) joylashganligi sababli ularning darajalarini qo'shamiz va 20° shimoliy kenglikdagi 1° parallel yoyining uzunligi ($104,635$ km) ga ko'paytiramiz. Buni ham yuqoridagi mashq singari ikkita usul yordamida hisoblash mumkin, faqat bunda aniqlangan darajalar ayrılmaydi, aksincha qo'shiladi.

Birinchi usul yordamida quyidagicha hisoblash mumkin.

$$16,33^\circ + 36,66^\circ = 52,99^\circ \quad 52,99^\circ \times 104,635 \text{ km} = 5544,6 \text{ km}$$

Ikkinchi usul yordamida esa quyidagicha hisoblash mumkin.

$$16,33^\circ = 16^\circ 19'48''$$

$$36,66^\circ = 36^\circ 39'36''$$

$$16^\circ 19'48'' + 36^\circ 39'36'' = 52^\circ 59'24''$$

Izoh. Huddi sonlarni matematik hisoblab qo'shgandek, sonlarni oxiridan boshlab qo'shib chiqamiz, ya'ni avval sekundlarni, so'ngra minutlarni va oxirida graduslarni qo'shamiz, sekundlarni qo'shganimizda, ya'ni 48 sekund bilan 36 sekundni qo'shsak, $48 + 36 = 84$ hosil bo'ladi, sekundlarning eng kattasi 60 bo'lishini hisobga olib, 84 dan 60 ni ayramiz, ya'ni $84 - 60 = 24$. Sababi $1' = 60''$ bo'lganligi uchun 60 sekundni 1 minutga aylantirib natijamizdagi minutlarga qo'shib qo'yamiz, masalan, minutlarni qo'shadigan bo'lsak ya'ni 19 minutga 39 minutni qo'shsak, $19 + 39 = 58$ hosil bo'ladi va yuqoridagi sekundni minutga aylantirgan 1 minutni unga qo'shamiz, $58 + 1 = 59$. Oxirida graduslarni qo'shamiz, $16 + 36 = 52$. Endi ularni umumlashtiramiz. $52^{\circ}59'24''$

Hosil bo'lgan natijani ($52^{\circ}59'24''$) 20° shimoliy kenglikdagi 1° parallel yoyining uzunligi (104,635 km) ga ko'paytirishimiz uchun huddi yuqoridagi mashq singari gradus, minut va sekundlarni alohida alohida ko'paytirib olamiz.

Gradusni ko'paytirib topadigan bo'lsak quyidagicha topiladi.

20° shimoliy kenglikda $1^{\circ} = 104,635$ km.

$$\text{Shu sababli } 52 \times 104,635 = 5441$$

Minutni ko'paytirib topadigan bo'lsak quyidagicha topiladi.

$1^{\circ} = 60'$ bo'lganligi uchun 104,635 km. ni 60 ga bo'lamiz. $104,635 \div 60 = 1,744$. Hosil bo'lgan natija (1,744) ni misolimizdagi minut (59') ga ko'paytiramiz.

$$59 \times 1,744 \approx 102,9$$

Sekundni ko'paytirib topadigan bo'lsak quyidagicha topiladi.

$1' = 60''$ bo'lganligi uchun 1,744 ni 60 ga bo'lamiz. $1,744 \div 60 \approx 0,03$.

Hosil bo'lgan natija (0,03) ni misolimizdagi sekund (24") ga ko'paytiramiz.

$$24 \times 0,03 = 0,7$$

Endi natijalarni umumlashtirib qo'shib chiqamiz.

$$5441 + 102,9 + 0,7 = 5544,6 \text{ km}$$

Javob: Yuqoridagi ikki usulda ham hisoblab topilgan natijalarimiz bir xil masofani ko'rsatmoqda, demak, Afrika materigi 20° shimoliy kenglik bo'yab g'arbdan sharqqa $52,99^{\circ} = 52^{\circ}59'24''$ ga, yoki 5544,6 km ga cho'zilgan ekan.

3-mashq. Xarita va globusdagi daraja to'ridan foydalanib Yevrosiyo materigi 90° sharqiy uzunlik bo'yab shimoldan janubga qancha masofaga cho'zilganligini aniqlang.

Yechish: 90° sharqiy uzunlikda Yevrosiyoning eng shimoliy va janubiy qirg'oqlarining geografik koordinatalarini aniqlaymiz. Biz ularni aniqlaganimizda quyidagicha ekanligi ma'lum bo'ldi. Materikning 90° sharqiy uzunlikda shimoliy qirg'og'i $75,50^{\circ}$ ya'ni $75^{\circ}30'00''$ shimoliy kenglikda va janubiy qirg'og'i esa $21,81^{\circ}$ ya'ni $21^{\circ}48'36''$ shimoliy kenglikda joylashgan ekan. Endi yuqoridagi qoidaga amal qilgan holda hisoblaymiz, ya'ni nuqtalar bitta kenglikda (shimoliy) joylashganligi sababli ularning darajalarini ayramiz va 1° meridian yoyining uzunligi (111,1 km) ga ko'paytiramiz. Buni ham yuqoridagi mashqlarimiz kabi ikki usulda bajaramiz.

Birinchi usul yordamida quyidagicha hisoblash mumkin.

$$75,50^{\circ} - 21,81^{\circ} = 53,69^{\circ} \quad 53,69^{\circ} \times 111,1 \text{ km} = 5964,9 \text{ km}$$

Ikkinchi usul yordamida esa quyidagicha hisoblash mumkin.

$$75,50^{\circ} = 75^{\circ}30'00''$$

$$21,81^{\circ} = 21^{\circ}48'36''$$

$$75^{\circ}30'00'' - 21^{\circ}48'36'' = 53^{\circ}41'24''$$

Izoh. Yuqoridagi mashqlarimiz kabi, sonlarni oxiridan boshlab ayrib chiqamiz, ya'ni avval sekundlarni, so'ngra minutlarni va oxirida graduslarni ayramiz, ayrmoqchi bo'lganimizda 00 sekund 36 sekunddan kichik bo'lganligi uchun unga oldidagi 30 minutdan 1 minutni olib 00 sekundga beramiz, bunda $1' = 60''$ ga teng ekanligini ma'lum bo'lganligi uchun, 00 sekundaga 60 sekundni qo'shamiz, natijada 60 sekund hosil bo'ladi, endi 60 sekunddan 36 sekundni ayirsak bo'ladi. $60 - 36 = 24$. Minutlarni ayradigan bo'lsak, 30 minutdan 1 ni olib 00 sekundga berganimizdan so'ng, u o'rniда 29 minutdan kichik bo'lganligi uchun unga oldidagi 75 gradusdan 1 gradusni olib, 29 minutga beramiz, bunda $1^{\circ} = 60'$ ga teng ekanligini ma'lum bo'lganligi uchun, 29 minutga 60 minutni qo'shamiz, natijada 89 minut hosil bo'ladi, endi 89 minutdan 48 minutni ayirsak bo'ladi. $89 - 48 = 41$.

Graduslarni ayrmoqchi bo'lsak, 75 gradusdan 1 gradusni olib, minutga qo'shganligimiz uchun uni o'rniда 74 qoladi, endi ularni ayrib hisoblasak bo'ladi. $74 - 21 = 53$. Oxirida ularni umumlashtirib chiqamiz. Ya'ni $53^{\circ}41'24''$

Hosil bo'lgan natijani ($53^{\circ}41'24''$) 1° meridian yoyining uzunligi (111,1 km) ga ko'paytiramiz, buni uchun yuqoridagi kabi amallarni bajaramiz. Ya'ni gradus, minut va sekundlarni alohida alohida ko'paytirib olamiz.

Gradusni ko'paytirib topadigan bo'lsak quyidagicha topiladi.

$$1^{\circ} = 111,1 \text{ km. ga shu sababli } 53 \times 111,1 = 5888,3$$

Minutni ko'paytirib topadigan bo'lsak quyidagicha topiladi.

$$111,1 \div 60 = 1,852. \text{ Hosil bo'lgan natija (1,852) ni misolimizdagi minut (41') ga ko'paytiramiz.}$$

$$41 \times 1,852 = 75,9$$

Sekundni ko'paytirib topadigan bo'lsak quyidagicha topiladi.

$$1,852 \div 60 = 0,03.$$

Hosil bo'lgan natija (0,03) ni misolimizdagi sekund (24") ga ko'paytiramiz.

$$24 \times 0,03 = 0,7$$

Endi natijalarni umumlashtirib qo'shib chiqamiz.

$$5888,3 + 75,9 + 0,7 = 5964,9 \text{ km}$$

Javob: Demak, Yevroсиyo materigi 90° sharqiy uzunlik bo'ylab shimoldan janubga $53,69^{\circ} = 53^{\circ}41'24''$ yoki 5964,9 km ga cho'zilgan ekan.

4-mashq. Xaritadagi daraja to'ridan foydalanib Janubiy Amerika materigi 60° g'arbiy uzunlik bo'ylab shimoldan janubga qancha masofaga cho'zilganligini aniqlang.

Yechish: Dastlab, materikning 60° g'arbiy uzunlikdagi eng shimoliy va janubiy qirg'oqlarining geografik koordinatalarini aniqlaymiz. Biz ularni aniqlaganimizda quyidagicha ekanligi ma'lum bo'ldi. Materikning 60° g'arbiy uzunlikdagi shimoliy qirg'og'i $8,61^{\circ}$ ya'ni $8^{\circ}36'36''$ shimoliy kenglikda va janubiy qirg'og'i esa $38,88^{\circ}$ ya'ni $38^{\circ}52'48''$ janubiy kenglikda joylashgan ekan. Endi yuqoridagi qoidaga amal qilgan holda hisoblaymiz, ya'ni bu nuqtalarning kengliklari turli geografik kenglikda (biri shimoliy, ikkinchisi esa janubiy kenglikda) joylashganligi sababli ularning darajalarini qo'shamiz va 1° meridian yoyining uzunligi (111,1 km) ga ko'paytiramiz. Buni ham yuqoridagi mashqlar singari ikkita usul yordamida hisoblash mumkin.

Birinchi usul yordamida quyidagicha hisoblash mumkin.

$$8,61^{\circ} + 38,88^{\circ} = 47,49^{\circ} \quad 47,69^{\circ} \times 111,1 \text{ km} = 5276,1 \text{ km}$$

Ikkinci usul yordamida esa quyidagicha hisoblash mumkin.

$$8,61^{\circ} = 8^{\circ}36'36''$$

$$38,88^{\circ} = 38^{\circ}52'48''$$

$$8^{\circ}36'36'' + 38^{\circ}52'48'' = 47^{\circ}29'24''$$

Izoh. Bu yerda ham sonlarni oxiridan boshlab qo'shib chiqamiz, ya'ni avval sekundlarni, so'ngra minutlarni va oxirida graduslarni qo'shamiz, sekundlarni qo'shganimizda, ya'ni 36 sekund bilan 48 sekundni qo'shsak, $36 + 48 = 84$ hosil bo'ladi, sekundlarning eng kattasi 60 bo'lishini hisobga olib, 84 dan 60 ni ayramiz, ya'ni $84 - 60 = 24$. Sababi $1' = 60''$ bo'lganligi uchun 60 sekundni 1 minutga aylantirib natijamizdagi minutlarga qo'shib qo'yamiz, masalan, minutlarni qo'shadigan bo'lsak ya'ni 36 minutga 52 minutni qo'shsak, $36 + 52 = 88$ hosil bo'ladi va yuqoridagi sekundni minutga aylantirgan 1 minutni unga qo'shamiz, ya'ni $88 + 1 = 89$ hosil bo'ladi. Minutlarning ham eng kattasi 60 bo'lishini hisobga olib, 89 dan 60 ni ayramiz, ya'ni $89 - 60 = 29$. Sababi $1^{\circ} = 60'$ bo'lganligi uchun 60 minutni 1 gradusga aylantirib natijamizdagi minutlarga qo'shib qo'yamiz, masalan, graduslarni qo'shadigan bo'lsak ya'ni 8 gradusga $8 + 38 = 46$ hosil bo'ladi va yuqoridagi minutni 38 gradusni qo'shsak, $46 + 1 = 47$. Endi gradusga aylantirgan 1 gradusni unga qo'shamiz, $47 + 1 = 48$. Endi ularni umumlashtirib yozamiz. $47^{\circ}29'24''$

Hosil bo'lgan natijani ($47^{\circ}29'24''$) 1° meridian yoyining uzunligiga ko'paytiramiz, buning uchun huddi yuqoridagi mashqlar singari gradus, minut va sekundlarni alohida alohida ko'paytirib olamiz.

Gradusni ko'paytirib topadigan bo'lsak quyidagicha topiladi.

$$1^{\circ} = 111,1 \text{ km. Shu sababli } 47 \times 111,1 = 5221,7$$

Minutni ko'paytirib topadigan bo'lsak quyidagicha topiladi.

$$111,1 \div 60 = 1,852. \text{ Hosil bo'lgan natija (1,852) ni misolimizdagi minut (29') ga ko'paytiramiz.}$$

$$29 \times 1,852 \approx 53,7$$

Sekundni ko'paytirib topadigan bo'lsak quyidagicha topiladi.

$$1,852 \div 60 = 0,03.$$

Hosil bo'lgan natija (0,03) ni misolimizdagi sekund (24") ga ko'paytiramiz.

$$24 \times 0,03 = 0,7$$

Endi natijalarni umumlashtirib qo'shib chiqamiz.

$$5221,7 + 53,7 + 0,7 = 5276,1 \text{ km}$$

Javob: demak, Janubiy Amerika materigi 60° g'arbiy uzunlik bo'ylab shimoldan janubga $47,69^\circ = 47^\circ 29'24''$ ga, yoki 5276,1 km ga cho'zilgan ekan.

Nazorat uchun savollar:

1. Azimut nima? U necha xil bo'ladi?
2. Ufq nima? Uning asosiy va oraliq tomonlarini yozing.
3. Masshtab nima? Uning ko'rinishlarini yozing.
4. Topografik shartli belgilarning turlarini yozing.
5. Gorizantallar va bergshtrix nima?
6. Meridianlar, parallelar va ekvator chiziqlariga tarif bering.
7. Geografik kenglik nima?
8. Geografik uzunlik nima?
9. Daraja to'ri nima?
10. Geografiq koordinata nima?

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:

1) 275° azimut bilan ko'lga borgan o'quvchilar mактабга qaysi yo'nalishda qaytib keladilar?

2) O'quvchi mактабдан chiqib uygacha 270° , 135° , 90° , 180° , 225° li azimutlar bo'yicha yurdi. U yurgan yo'llarni aytib, bu yo'lni sxema tarzida chizib tasvirlang.

3) Sayyoхlar tarixiy obidaga tomon 150° bilan 600 metr, 80° azimut bilan 350 metr, 180° azimut bilan 520 metr, 290° azimut bilan 480 metr, 240° azimut bilan 700 metr yurgan bo'lsa, borgan bo'lsalar, ular yurgan yo'lni daftaringizga 1:20 000 mashtab asosida sxema tarzida tasvirlang.

4) O'quvchilar o'rmonga avval shimoliy – sharq, so'ngra janubiy undan keyin esa janubiy – g'arbiy yo'nalishda yurdilar. Ular agar huddi shu yo'l bilan qaytsalar, qaysi yo'nalishlar bo'yicha yuradilar.

5) O'quvchilar Muzeyga janubi – g'arb, janub, g'arb, shimol va shimoli-g'arb yo'nalishida yurgan bo'lsa, ushbu yo'nalishlarni azimutda ifodalang.

6) Balandligi 450 metr bo'lgan minoraning tepasida turib necha kilometrgacha masofani ko'rish mumkin?

7) Viktoriya sharsharasining balandligiga teng bo'lgan balandlikda inson necha kilometrgacha bo'lgan masofani ko'ra oladi?

8) Respublikamizning eng baland nuqtasi hisoblangan Hazrati Sulton cho'qqisida turgan inson necha kilometrgacha bo'lgan masofani ko'ra oladi?

9) Avstraliya g'arbdan sharqqa 4100 masofaga cho'zilganligi bizga ma'lum, materikning sharqiy qирғ'ог'ида turgan inson g'arbiy qирғ'oqlarini ko'rishi uchun qancha balandlikka ko'tarilishi zarurligini aniqlang.

10) Dunyodagi eng sersuv daryo, ya'ni Amazonka daryosining quyilish joyida kengligi 120 km ga teng ekanligi ma'lum, daryosining quyilish joyi qирғ'ог'ида turgan inson daryoning nargi qирғ'ог'ини ko'rishi uchun qancha balandlikka ko'tarilishi kerak bo'ladi?

11) Quyidagi sonli masshtablarni nomli va chiziqli masshtablar bilan ifodalang va berilgan masshtablarni mayda masshtabdan yirik masshtab tomon terib yozing.

1:10 000, 1:60 000 000, 1: 50 000 000, 1:35 000 000,
1: 750 000

12) Quyidagi nomli masshtablarni sonli va chiziqli masshtablarga aylantiring va berilgan masshtablarni yirik masshtabdan mayda masshtab tomon terib yozing.

1 sm da 60 km, 1 sm da 3 m, 1 sm da 25 km, 1 sm da 300 km, 1 sm da 700 m,

13) Xarita mashtabi 1:200 000 bo'lsa , Farg'onadan Qо'qongacha bo'lgan masofa 12 km bo'lsa, xaritadagi masofa necha sm – ga teng bo'ladi?

14) Parij va Toshkent shahri orasidagi masofa 5600 km, xaritada esa


7 sm bo'lsa, ushbu xaritaning mashtabini toping?

15) Xarita mashtabi 1:40 000 000 . Moskva bilan Toshkent orasidagi

masofa 7 sm bo'lsa bu shaharlar orasidagi haqiqiy masofani toping?

16) Azizbek uyidan chiqib igna bargli o'rmondan so'qmoq orqali o'tib yoylovga bordi. U o'ziga yaqin joydagi bir buloqdan suv ichib, qamishzordan o'tib daryodagi ko'priq orqali shosse yo'liga chiqdi. Azizbek tevarak atrofga nazar tashlab sharq tomonda aralash o'rmon, g'arb tomonda botqoqlik va janubda to'g'on borligini ko'rди. U ko'rgan narsalarni topografik shartli belgilarda tasvirlang.

- 17) A nuqta dengiz sathidan 60 m li gorizontalda joylashgan bo'lsa, B nuqta dengiz sathidan necha metr balandda ekanligini aniqlang.




- 18) Tepalikning balandligi 35 m, uning shimoli-g'arbiy qismi qiya, janubi-sharqi qismi esa tik ekanligi ma'lum bo'lsa, ushbu tepalikni gorizontallarda aks ettiring. Izoh: Gorizontallarni har 5 m – dan o'tkazing.

- 19) Chuqurligi 54 metr bo'lgan botiqni gorizontallarda tasvirlang. Botiqning shimol tomoni qiya, janub tomoni esa tik bo'lsin. Izoh: Gorizontallarni har 6 m – dan o'tkazing.

- 20) O'rta Osiyoning eng baland nuqtasi, eng past nuqtasiga nisbatan necha metr balandligini va bu cho'qqi Respublikamizning eng baland cho'qqisidan necha metr balandligini toping.

- 21) Quyidagi A va B nuqtalarning geografik koordinatalarini aniqlang:



- 22) Xarita va globusdagi daraja to'ridan foydalanib materiklarning eng baland nuqtalarining geografik koordinatalarini aniqlang.

- 23) Quyidagi geografik koordinatalarda qaysi shaharlar joylashganligini aniqlang:

a) $39^{\circ}55'$ shimoliy kenglik va $32^{\circ}50'$ sharqiy uzunlik;

b) $15^{\circ}45'$ janubiy kenglik va $47^{\circ}57'$ g'arbiy uzunlik;

c) $38^{\circ}55'$ shimoliy kenglik va $78^{\circ}00'$ g'arbiy uzunlik;

d) $35^{\circ}18'$ janubiy kenglik va $149^{\circ}08'$ sharqiy uzunlik;

- 24) Xarita va globusdagi daraja to'ridan foydalanib:

a) Termiz;

b) Bishkek;

c) Dehli;

d) Sidney;

- e) Mexiko shaharlarining geografik koordinatalarini aniqlang.

- 25) Tabiiy xaritadan $38^{\circ}21'$ shimoliy kenglik va $68^{\circ}00'$ sharqiy uzunlikda joylashgan tog' cho'qqisini aniqlab, nomini aytинг.

- 26) Xarita va globuslardan foydalanib, Afrika materigi 20° meridian yoyi bo'ylab shimaldan janubga qancha masofaga cho'zilganligini gradus va kilometrlarda hisoblang.

- 27) Xarita va globuslardan foydalanib, Yevrosiyo materigi 100° meridian yoyi bo'ylab shimaldan janubga qancha masofaga cho'zilganligini gradus va kilometrlarda aniqlang.

- 28) Xarita va globuslardan foydalanib, Avstraliya materigi 30° janubiy kenglik bo'ylab g'arbdan sharqqa qancha masofaga cho'zilganligini xarita va globusdagi daraja to'ri yordamida gradus va kilometrlarda aniqlang.

- 29) Afrika materigi 10° shimoliy kenglik bo'ylab g'arbdan sharqqa qancha masofaga cho'zilganligini xarita va globusdagi daraja to'ri yordamida gradus va kilometrlarda aniqlang.

- 30) Daraja to'ri yordamida viloyatingiz markazidan:

a) ekvator;

b) Shimoliy qutb;

c) Janubiy qutbgacha bo'lgan masofani gradus va kilometrlarda aniqlang.

3-mavzu: YERNING ICHKI TUZILISHI VA SUV QOBIG'INI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH USULI

Reja:

- 1. Yerning tosh qobig'i – litosferaga oid masalalar.**
- 2. Gidrosferaning tarkibi hamda okean suvining sho'rligi va haroratini aniqlash.**
- 3. Okean suvining zinchligi va chuqurligini aniqlash.**
- 4. Daryolar nishabligini va egri bugrilibagini aniqlash.**
- 5. Daryo uzunligi va havzasining maydonini aniqlash.**
- 6. Daryo suv sarfi va daryo tarmoqlari zichligini aniqlash.**

Yerning tosh qobig'i – litosferaga oid masalalar.

Yerning qattiq tosh qobig'i litosfera deb ataladi. Litosfera yunoncha so'z bo'lib, "litos" – tosh, "sfera" – qobiq, ya'ni "tosh qobiq" ma'nosini anglatadi. Litosfera Yer po'sti va yuqori mantiyaning bir qismini egallaydi. Litosferaning qalinligi okean tubida 50–60 km, quruqlikda 100–200 km gacha boradi.

Yerning ichki tuzilishiga ko'ra uch qismdan yer po'sti, mantiya va yadrodan iborat. Yer po'sti murakkab tuzilishi ega, u asosan geosinklinal va platformalardan iborat bo'ladi. Geosinklinallar – yer po'stining harakatchan, keng cho'zilgan qismlaridir. Geosinklinallar yuqori sur'atlarda kechadigan tektonik jrayonlar, kuchli magmatizm tez-tez sodir bo'lib turadigan dahshatli zilzilalar bilan ajralib turadi. Geosinklinal Yer po'stini bukilib borayotgan harkatchan qismi bo'lib, chuqur, yuzlarcha kilometrcha cho'zilgan va suv bilan to'lgan maydonlaridir. Platformalar Yer po'stining barqaror qismlaridir. Geosinklinal taraqqiyotining oxirgi bosqichi platformalarni hosil qiladi.

Olimlarning aniqlashlaricha Yerning ichki qismiga tushib borgan sari moddalarning fizik xususiyatlari ya'ni haroarti va zichligi o'zgarib boradi. Yer yuzasidagi issiqlik manbai Quyosh energiyasi hisoblansa, Yerning ichki issiqligining manbai mantiyadagi moddalarning siqilishi va radiaktiv moddalarning parchalanish jarayonida hosil bo'lgan issiqlik energiyasidir. Shu sababli, Yer po'stida Yer yuzasidan mantiyaga tomon ya'ni chuqurlikka tushib borgan sari harorat ko'tarilib boradi. Yer yuzasidan ma'lum

chuqurlikkacha harorat o'zgarmaydigan qatlam bo'lib, bu qatlam neytral qatlam deb ataladi. Neytral qatlam turli joylarda turlicha chuqurlikkacha (ekvatorda 10–15 metr, o'rta hisobda 30 metr deb qabul qilingan. Har 100 metr chuqurlikka tushganda ko'tarilgan haroratlarning graduslardagi miqdori geotermik gradient deyiladi. Yerning ichki qismiga tushgan sari haroratning 1°C ga ko'tariladigan metr hisobidagi masofa geotermik bosqich deb ataladi. Geotermik bosqich turli joylarda turlicha bo'ladi, bunga sabab, joyning kengligiga, relyefiga, tog' jinslarining issiqlik o'tkazish qobiliyatiga, vulqon o'choqlarining yaqin–uzoqligiga bog'liqdir. Yer yuzasidan har 33 metr yerning ichki qismiga kirganimizda o'rta hisobda harorat 1°C ga ko'tariladi. Bu degani har 1000 metr yerning ichki qismiga tushganimizda harorat 33°C ga oshib boradi.

Mana shu raqamlar yer po'sti ya'ni yerning ichki qismiga tushgan sari haroratning o'zgarishiga bog'liq masalalarni yechishda asos qilib olinadi. Quyida ushbu mavzuga oid bir nechta misollarni ishlanish yo'llarini ko'rsatib tushuntirib o'tamiz.

Quyida litosferaga oid masalalarni ishlaymiz.

1–masala. Vulqon og'zidan otilib chiqayotgan lavaning harorati 200°C ga teng bo'lsa, bu lava qancha chuqurlikdan otilib chiqayotganini aniqlang.

Yechish. Har 1000 metr chuqurlikka tushganimizda harorat 33°C ga oshib borishi bizga ma'lum, shuni hisobga olib lava otilib chiqayotgan chuqurlikni aniqlaymiz. Buni uchun avvolo proporsiya tuzib olamiz, so'ngra uni ishlaymiz.

$$\begin{array}{ccc} 1000 \text{ m} & \xrightarrow{\quad} & +33^\circ\text{C} \\ X \text{ m} & \xrightarrow{\quad} & +200^\circ\text{C} \\ x = \frac{1000 \times 200}{33} & = & \frac{200000}{33} = 6060,6 \text{ metr} \end{array}$$

Javob: lava otilib chiqayotgan chuqurlik 6060,6 metr ekan.

2–masala. Geyzerning grifonidan otilib chiqayotgan suvning harorati +85°C ga teng bo'lsa, geyzer qancha chuqurlikdan otilib chiqayotganligini aniqlang?

Yechish. Har 1000 metr chuqurlikka tushganimizda harorat 33°C ga oshib borishi bizga ma'lum, shuni hisobga olib geyzer otilib

chiqayotgan chuqurlikni aniqlaymiz. Buni uchun avvolo proporsiya tuzib olamiz, so'ngra uni ishlaymiz.

$$1000 \text{ m} \quad +33^\circ\text{C}$$

$$X \text{ m} \quad +85^\circ\text{C}$$

$$x = \frac{1000 \times 85}{33} = \frac{85000}{33} = 2575,7 \text{ metr}$$

Javob: geyzer otilib chiqayotgan chuqurlik 2575,7 metr ekan.

3- masala. 4500 metr chuqurlikdagi neft qudug'idan otilib chiqayotgan neftning harorati qancha bo'lishini hisoblab toping.

Yechish. Har 1000 metr chuqurlikka tushganimizda harorat 33°C ga oshib borishi bizga ma'lum, shuni hisobga olib neft otilib chiqayotgan chuqurlikdagi haroratni aniqlaymiz. Buni uchun avvolo proporsiya tuzib olamiz, so'ngra uni ishlaymiz.

$$1000 \text{ m} \quad +33^\circ\text{C}$$

$$4500 \text{ m} \quad X^\circ\text{C}$$

$$x = \frac{4500 \times 33}{1000} = \frac{148500}{1000} = 148,5^\circ\text{C}$$

Javob: Neft otilib chiqayotgan chuqurlikda harorat $+148,5^\circ\text{C}$ ga teng.

4- masala. Agar yer yuzasida harorat $+20^\circ\text{C}$ ga teng bo'lsa, suvning qaynashi uchun necha metr chuqurlikka tushish kerak?

Yechish. Har 1000 metr chuqurlikka tushganimizda harorat 33°C ga oshib borishi hamda suv $+100^\circ\text{C}$ da qaynashi bizga ma'lum, shuni hisobga olib suvni qaynashi lozim bo'lgan chuqurlikni quyidagicha aniqlaymiz. Buni uchun avvolo suvni qaynashi lozim bo'lgan harorat ($+100^\circ\text{C}$) dan, Yer yuzidagi harorat ($+20^\circ\text{C}$)ni ayiramiz, natijaga asoslanib proporsiya tuzib olamiz, so'ngra uni ishlaymiz.

$$100-20=80$$

$$1000 \text{ m} \quad +33^\circ\text{C}$$

$$X \text{ m} \quad +80^\circ\text{C}$$

$$x = \frac{1000 \times 80}{33} = \frac{80000}{33} = 2424,2$$

Javob: Suv qaynashi uchun 2424,2 metr chuqurlikka tushush kerak.

Gidrosferaning tarkibi hamda okean suvining sho'rлиgi va haroratini aniqlash.

Sayyoramizning suv qobig'i **gidrosfera** deb ataladi. Gidrosfera yunoncha so'z bo'lib, "gidro" – suv, "sfera" – qobiq, ya'ni "suv qobig'i" ma'nosini anglatadi. Gidrosferani tarkibini ikki qismga okean suvlari va quruqlik suvlari ajratish mumkin. Okean suvlariiga Dunyo okeani (Tinch, Atlantika, Hind, shimoliy muz okeanlari) va uning qismlaridagi (dengiz, qo'ltiq, bo'g'iz) suvlar, quruqlik suvlari daryo, ko'l, muzlik, botqoqlik hamda tuproq tarkibidagi suvlar, yer osti suvlar, va atmosferadagi suv bug'lari kiritiladi. Gidrosferadagi suvning 96,5 % ni Dunyo okeani suvleri, 3,5 % ni esa quruqlik suvleri tashkil etadi. Gidrosferadagi suvning miqdori M.I.Lpvovich ma'lumotlariga ko'ra $1\ 454\ 000\ 000\ \text{km}^3$ ni tashkil etadi. Shundan 1 mlrd 369 mln km³ Dunyo okeani va uning qismlariga, 60 mln km³ yer osti suvlariga, 24 mln km³ muzlik va qorlarga, 750 ming km³ ko'llarga, 75 ming km³ botqoqlik va tuproq tarkibidagi suvlarga, 1,2 ming km³ daryolar suvlariga qolgan qismi atmosfera tarkibidagi suvlarga to'g'ri keladi. Gidrosferaning asosiy qismi bo'lgan Dunyo okeani Yer sayyorasi umumiylar maydonining ($510\ \text{mln. km}^2$) $361\ \text{mln. km}^2$ ni, yoki 71 % ni qoplab olgan, ko'l va daryolardagi suvlar esa quruqlik maydonining 6 % ga yaqin qismini egallagan, abadiy qor va muzliklarning umumiylar maydoni $21\ \text{mln. km}^2$ bo'lib, Yer yuzasi umumiylar maydonining 4 % ini, quruqlik maydonining 14 % ini qoplagan.

Dunyo okeani suvlarining asosiy xususiyati ularning sho'rлиgi va haroratidir. Bir litr suvdagi erigan tuzlar miqdoriga **sho'rlik** deb ataladi. Sho'rlik promilleda (%) yoki grammlarda ifodalanadi. Promille (%) sonning mingdan bir qismi bo'lib, foizdan (foiz (%)) sonning yuzdan bir qismi) farq qiladi. Bir litr suvdagi erigan moddalarning gramm yoki promille (%) hisobidagi miqdoriga suvning **sho'rlik darajasi** deyiladi. Agar suvning tarkibidagi tuz miqdori 1 litr suvda 1 % yoki 1 grammidan kam bo'lsa chuchuk suv, ortiq bo'lsa, sho'r suv deb ataladi. Gidrosferadagi suvning 97,2 % i sho'r suv, 2,8 % i chuchuk suv tashkil etadi.

Okean va dengiz suvlarining har bir litrida o'rta hisobda 35 gramm ya'ni 35 % tuz bo'ladi. Shu sababdan okean va dengiz suvlarining o'rtacha sho'rlik darajasi 35 % ga teng. Okean va dengiz suvning tuz tarkibi quyidagicha: natriy xlорид – 77,7 %, magniy xlорид – 10,8 %,

magniy sulfat – 4,7 %, kalsiy sulfat – 3,6 %, kaliy sulfat – 2,5 %, kalsiy karbonat – 0,3 % ni tashkil etadi. Daryo suvlarining sho'rлиgi о'rtacha 0,146 promillega teng. Dengiz suvida osh tuzi eng ko'p bo'lsa, daryo suvida karbonatlar (80%) ko'p miqdorda bo'ladi. Daryolarning suvlarida ham erigan moddalar bor, lekin okean va dengiz suvlari bilan solishtirganda juda ahamiyatsiz. Million yillar davomida okeanlardagi suvning sho'rлинишга aynan quruqlikda oqib tushayotgan daryolar sababchi bo'ldi. Chunki nurash natijasida yer yuzasida ochilib qolgan moddalarni daryo suvilar eritib, kam miqdorda bo'lsa ham million yillar davomida okeanda to'plana bordi va biosferaning rivojlanishi natijasida daryo va okean suvlarini orasidagi farq ortib borgan. Dunyo okeani suvlarining sho'rлиgi hamma joyda bir xil emas. Dunyo okeani suvlarining sho'rлиgi joyning iqlimiga, muzlarni erishiga, okean oqimlariga, okean yuzasidan suvning bug'lanishiga va daryolardan toza suvning quylishiga, yog'ingarchiliklarga va boshqa omillarga bog'liq. Shuning uchun suvning sho'rлиgi ekvatordan qutbgacha o'zgaradi, ya'ni okeanda sho'rlikning taqsimlanishi zonallikka ega. Dunyo okeanida eng yuqori sho'rlik (36 %) tropik va subtropik hududlarda kuzatiladi. Mazkur hududlarda yog'in kam, bug'lanish ko'pdır. Ekvator yonidagi hududlarda sho'rlik (34 %) bir oz kamayishi kuzatiladi. Ammo mo'tadil, qutbyoni va qutbiy o'lkalarda sho'rlik yana ham pasayadi. Ochiq okean suvlarida sho'rlik 32 % dan, 38 % gacha o'zgaradi. Okeanlarda 2000 m chuqurlikdan boshlab sho'rlik darajasi bir xil qiyatga ya'ni 34,7–34,9 % teng. Ichki dengizlarda esa sho'rlik darajasi har xil bo'ladi, ichki dengizlarda suvning sho'rлиgi dengizga quyladigan daryo suvi miqdoriga va ochiq okean bilan suv almashinish sur'atiga bog'liq. Masalan, Qizil dengizi suvining sho'rлиgi 42 %, Qora dengiz suvining sho'rлиgi 18 %, Boltiq dengizi suvining sho'rлиgi 8%.

Geografiya darslarida masala ishlayotganimizda quydagi qoidani unutmasligimiz kerak, ya'ni berilayotgan masala litrda hisobida berilganda % = grammga, tonnada hisobida berilganda esa % = klogrammga teng bo'ladi.

Okean suvining sho'rлиги uнинг harorati bilan uzviy bog'liqidir. Bu ikkala xususiyat ham umumiyligida geografik qonuniyatlarga bo'ysungan holda o'zgarib boradi.

Okeanlarning harorat me'yori ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Okean suvlarining issiqlik sig'imi, havoning issiqlik sig'imidan juda yuqori. Okean suvlarining 10 metrlik yuza qatlaming issiqlik sig'imi butun atmosfera issiqlik sig'imidan to'rt marotaba katta. Shuning uchun okean sekin isib sekin soviydi va okean oqimlari orqali issiqliknini qaytadan taqsimlaydi. Okean ulkan issiqlik manbai bo'lib, u sayyoramizni juda qizib yoki juda sovib ketishidan asraydi. Sababi, okean suvlarini kunduz kuni quyosh issiqligini yutadi va atmosferani kuchli qizib ketishdan saqlaydi, aksincha kechasi, kunduzi qabul qilgan quyosh issiqligini atmosferaga chiqazib beradi, natijada atmosferani juda sovib ketishidan saqlaydi.

Okean suvi harorati kam o'zgaradi. Dunyo okeani suvi yuzasining о'rtacha yillik harorati +17,5°C ni tashkil etadi. Okean yuzasida harorat havo harorati kabi zonallik qonuniyatasi asosida o'zgaradi. Ekvator atrofida о'rtacha yillik harorat +26, +28°C, tropik kengliklarda +25, +27°C, qutbiy kengliklarda 0°C atrofida yoki manfiy. Shuningdek, okeanlarda chuqurlik ortgan sari harorat pasayib boradi ya'ni suvning harorati har 1000 metr chuqurlikka tushganda 2°C ga pasaya boradi (bu qonuniyat). Lekin Dunyo okeanining chuqur suvlarini taxminan bir xil haroratga ega, ochiq okeanlarda 3000 m dan boshlab hamma joyda harorat deyarli +2°C va 0°C atrofida bo'ladi. Okeanning chuqur suvlarida haroratning keskin pasaymasligi sababi, yerning ichki energiyasining ta'siridir. Okean suvi harorati bilan beriladigan masala va mashqlarda yuqoridagi qonuniyatga amal qilinadi.

Quyida Dunyo okeani suvi xususiyatlari ya'ni okean suvining sho'rлиги va haroratini aniqlashga oid masalalarni ishlaymiz.

1–masala. Qizil dengizi suvining о'rtacha sho'rлиги 42 % ga teng, ushbu dengizdan olingan 3 tonna suvdan qancha tuz olish mumkin?

Yechish: Suvning sho'rлиги 42 % bo'lsa, u holda 1 litr suvda 42 gramm tuz bo'ladi (sababi, promille litrda % = gramm, tonnada % = kilogramm).

3 tonna = 3000 litr (kilogramm).

Endi 3000 litr (kilogramm) suvdan qancha tuz olishimiz mumkinligini proporsiya tuzib aniqlaymiz, ya'ni

1 litr (kilogramm) – 42 gramm

3000 litr (kilogramm) – x

$$x = \frac{3000 \times 42}{1} = 126000 \text{ g}$$

126000 gramm = 126 kilogramm

Javob: Qizil dengizining 3 tonna suvidan 126 kilogramm tuz olish mumkin.

2-masala. Dengiz suvining 3,5 tonna suvidan qancha tuz olish mumkin.

Yechish: Dengiz suvining o'rtacha sho'rlik darajasi 35 % ga teng ekanligi, ya'ni 1 litr (kilogramm) suvda 35 gramm tuz borligi ma'lum.

3,5 tonna = 3500 kilogramm (litr).

Endi 3500 litr (kilogramm) suvdan qancha tuz olishimiz mumkinligini proporsiya tuzib aniqlaymiz, ya'ni

1 litr (kilogramm) – 35 gramm

3500 litr (kilogramm) – x

$$x = \frac{3500 \times 35}{1} = 122,500 \text{ g}$$

122,500 gramm = 122,5 kilogramm

Javob: Dengiz suvining 3,5 tonna suvidan 122,5 kilogramm tuz olish mumkin ekan.

3-masala. Dengizning yuza qismida suvning harorati +15°C, chuqurligi esa 4500 metr bo'lsa, dengiz tubida suvning harorati qanchaga teng bo'ladi?

Yechish: Okean suvining harorati har 1000 metr chuqurga tushganda 2°C ga pasayishini hisobga olib proporsiya tuzamiz va uni yechamiz:

1000 metr – 2°C

4500 metr – x

$$x = \frac{4500 \times 2}{1000} = 9^{\circ}\text{C}$$

Agar dengiz suvining yuzasida harorat +15°C ga teng bo'lsa, dengizning tubida harorat quyidagiga teng bo'ladi:

$$+15^{\circ}\text{C} - 9^{\circ}\text{C} = +6^{\circ}\text{C}$$

Javob: demak, dengizning tubida harorat +6°C ga teng bo'ladi.

4-masala. Dengiz suvining yuza qismidagi harorat +12,4°C, suv ostidagi harorat esa +4,8°C ga teng bo'lsa, suv havzasining chuqurligini aniqlang.

Yechish: dastlab berilgan haroratlar orasidagi farqni aniqlab olamiz:

$$+12,4^{\circ}\text{C} - (+4,8^{\circ}\text{C}) = +7,6^{\circ}\text{C}$$

Okean suvining harorati har 1000 metrda 2°C ga pasayib borishini hisobga olib, qancha chuqurlikda 7,6°C ga kamayishini proporsiya tuzib hisoblaymiz:

1000 metr – 2°C

X metr – 7,6°C

$$x = \frac{1000 \times 7,6}{2} = 3800 \text{ m}$$

Javob: suv havzasining chuqurligi 3800 metrga teng.

5-masala. Dengizning tubida suvning harorati –1°C ga, dengizning chuqurligi 3400 metrga teng bo'lsa, dengizning yuza qismidagi suvning harorati qanchaga teng bo'ladi?

Yechish: Okean suvining harorati har 1000 metrda 2°C ga pasayib borishini hisobga olib, 3400 metr chuqurlikda harorat qanday o'zgarishini proporsiya tuzib hisoblaymiz:

1000 metr – 2°C

3400 metr – x

$$x = \frac{3400 \times 2}{1000} = 6,8^{\circ}\text{C}$$

Agar dengiz tubida suvning harorati –1°C ga teng bo'lsa, dengizning yuza qismidagi suvning harorati quyidagiga teng bo'ladi:

$$+6,8^{\circ}\text{C} - 1^{\circ}\text{C} = +5,8^{\circ}\text{C}$$

Javob: demak, dengizning yuza qismidagi suvning harorati +5,8°C ga teng bo'ladi.

Okean suvining zichligi va chuqurligini aniqlash.

Dunyo okeani suvlarining xususiyatlardan yana biri bu suvning zichligidir. Suvning harorati suv zichligiga ta'sir qiladi. Suv haroratiga bog'liq ravishda suvning og'irligi **suvning zichligi** deb ataladi. Toza suv +4°C haroratda eng yuqori zichlikka (1 g/sm^3) erishadi. Shu sababli +4°C haroratdagi 1 kg havosiz suv, 1 litr deb qabul qilingan. Toza suvning zichligi +4°C dan boshqa haroratlarda 1 g/sm^3 dan kamroqdir. Quyidagi jadvalda buni ko'rish mumkin (1-jadval).

Suvning zichligi haroratga bog'liq ravishda o'zgarishi 1-jadval.

| Suvning harorati | Suvning zichligi | Suvning harorati | Suvning zichligi | Suvning harorati | Suvning zichligi |
|------------------|-------------------------|------------------|-------------------------|------------------|-------------------------|
| +100°C | 0,958 g/sm ³ | +25°C | 0,997 g/sm ³ | 0°C | 0,999 g/sm ³ |
| +80°C | 0,971 g/sm ³ | +20°C | 0,998 g/sm ³ | -10°C | 0,998 g/sm ³ |
| +60°C | 0,983 g/sm ³ | +15°C | 0,997 g/sm ³ | -20°C | 0,993 g/sm ³ |
| +40°C | 0,992 g/sm ³ | +10°C | 0,999 g/sm ³ | -30°C | 0,983 g/sm ³ |
| +30°C | 0,995 g/sm ³ | +4°C | 1,0 g/sm ³ | -40°C | 0,975 g/sm ³ |

Okean va dengizlar suvi sho'r bo'lganligi uchun, chuchuk suvga nisbatan og'irroq ya'ni zichroq bo'ladi. Okean suvining zichligi uning yuza qismida 35 % sho'rlikda 1,025 g/sm³ni tashkil etadi. Suv haroratining pasayishi suvning zichligini yanada oshiradi. Olimlarning tadqiqotlarida okean suvi zichligi vertikal, ya'ni chuqurga tushgan sari suvning harorati, sho'rligi va suvdagi bosimga bog'liq ravishda ortib borishi aniqlangan. Bu tadqiqotlarda okean suvi zichligi har 1000 m chuqurlikda 0,005 g/sm³ ortib borish qonuniyati isbotlangan. Bu qonuniyat orqali ma'lum chuqurliklardagi suv zichligini yoki suv zichligining oshib borishiga qarab, okean chuqurligini aniqlash mumkin.

Dengiz va okeanlarning chuqurligi ultratovushli **exolot** deb ataladigan asbob bilan o'lchanadi. Exolot – kema korpusining pastki qismida o'rnatilgan maxsus asbob bo'lib, u suv ostiga ultratovush signali yuboradi. Tovush suv tagiga yetadi va undan aks sado qaytib keladi. Bu aks sado exolot yordamida ushlab olinadi. Suv tagida ultratovush tezligini bilgan holda, suv tubiga borib qaytg'an ultratovush vaqtiga qarab, okean va dengizlarning chuqurligi aniqlanadi. Ultratovush tezligi suvning haroratiga, sho'rligiga va suv zichligiga bog'liq. Masalan, Arktika havzalarida ultratovush tezligi 1410 m/s ga, ekvator va o'rtaqengliklarda esa 1530 m/s ga teng. Biz geografiya darslarida suvda ultratovush (signal) tezligi 1500 m/s deb qabul qilganmiz.

Mazkur mavzuga doir topshiriqlarni bajarishda yuqoridagi qonuniyatlar hisobga olinadi.

Quyida okean suvining zichligi va chuqurligini aniqlashga oid masalalarni ishlaymiz.

1-masala. Okean yuzasida suvning zichligi 1,025 g/sm³ ga teng bo'lsa, okeanning 4700 metr chuqurligida suvning zichligi qanchaga teng bo'ladi.

Yechish: okean suvi zichligi har 1000 m chuqurlikda 0,005 g/sm³ ortib borishini hisobga olib, 4700 metr chuqurlikda suvning zichligi qancha bo'lishini proporsiya tuzib hisoblaymiz:

$$1000 \text{ metr} - 0,005 \text{ g/sm}^3$$

$$4700 \text{ metr} - x$$

$$x = \frac{4700 \times 0,005 \text{ g/sm kub}}{1000 \text{ m}} = 0,0235 \text{ g/sm kub}$$

Agar okean yuzasida suvning zichligi 1,025 g/sm³ ga teng bo'lsa, okeanning 4700 metr chuqurligida suvning zichligi quyidagiga teng bo'ladi:

$$1,025 \text{ g/sm}^3 + 0,0235 \text{ g/sm}^3 = 1,0485 \text{ g/sm}^3$$

Javob: demak, okeanning 4700 metr chuqurligida suvning zichligi 1,0485 g/sm³ ga teng bo'ladi.

2-masala. Dengizning 3200 metr chuqurligida suvning zichligi 1,086 g/sm³ ga teng bo'lsa, dengiz yuzasida suvning zichligi qanchaga teng bo'ladi.

Yechish: okean suvi zichligi har 1000 m chuqurlikda 0,005 g/sm³ ortib borishini hisobga olib, 3200 metr chuqurlikda suvning zichligi qanday o'zgarishi mumkinligini proporsiya tuzib hisoblaymiz:

$$1000 \text{ metr} - 0,005 \text{ g/sm}^3$$

$$3200 \text{ metr} - x$$

$$x = \frac{3200 \times 0,005 \text{ g/sm kub}}{1000 \text{ m}} = 0,016 \text{ g/sm kub}$$

Agar dengizning 3200 metr chuqurligida suvning zichligi 1,086 g/sm³ ga teng bo'lsa, dengizning yuzasida suvning zichligi quyidagiga teng bo'ladi:

$$1,086 \text{ g/sm}^3 - 0,016 \text{ g/sm}^3 = 1,07 \text{ g/sm}^3$$

Javob: demak, dengizning yuzasida suvning zichligi 1,07 g/sm³ ga teng bo'lar ekan.

3-masala. Okean yuzasida suvning zichligi $1,025 \text{ g/sm}^3$ ga teng bo‘lsa, okean tubida suvning zichligi $1,075 \text{ g/sm}^3$ ekanligi ma’lum bo‘lsa, okean tubi chuqurligini aniqlang.

Yechish: dastlab, suvning zichliklari orasidagi farqni topib olamiz;
 $1,075 \text{ g/sm}^3 - 1,025 \text{ g/sm}^3 = 0,05 \text{ g/sm}^3$

So'ngra, okean suvi zichligi har 1000 m chuqurlikda $0,005 \text{ g/sm}^3$ ortib borishini hisobga olib, suvning zichligi $0,05 \text{ g/sm}^3$ ga ortib borishi uchun qanday chuqurlik kerak bo'lishi mumkinligini proporsiya tuzib hisoblaymiz:

$$x = \frac{1000m \cdot 0,05 \text{ g/sm kub}}{0,005 \text{ g/sm kub}} = 10000 \text{ m}$$

Javob: demak, okean tubi chuqurligi 10 000 metrga teng ekan.

4-masala. Exolot asbobidan yuborilgan ultratovush (signal) 10 sekunddan keyin kemaga qaytib kelsa, okeanning chuqurligi necha metrga teng bo‘ladi?

Yechish: ultratovushning suvdagi tarqalish tezligi 1500 m/s ga teng. Demak, tovush 10 sekundda $1500 \times 10 = 15000$ m masofani bosib o'tadi.

Tovush masofani ikki marta bosib o'tganligi uchun (ya'ni tovush okean tubiga borib, qaytib kelganligini inobatga olib) natijani ikkiga bo'lamiz.

$$15000 \div 2 = 7500 \text{ m}$$

Javob: okean tubi chugurligi 7500 m ekan.

5-masala. Okean chuqurligi 8100 metrga teng bo'lsa, Exolot asbobidan yuborilgan signal necha sekunddan keyin kemaga qaytib keladi?

Yechish: toyushning suydagি tarqalish tezligи 1500 m/ sek ga teng.

$$8100 \div 1500 = 5.4$$

Tovush masofani ikki marta bosib o'tishi uchun (ya'ni tovush okean tubiga borib, qaytib kelganligini inobatga olib) natijani ikkiga ko'paytiramiz.

$$5.4 \times 2 = 10.8$$

Javob: Exolot asbobidan yuborilgan signal 10,8 sekunddan keyin kemaga qaytib keladi.

Daryolar nishabligini va egri-bugrilibagini aniqlash.

O'zan deb ataluvchi tabiiy chuqurlikdan oqadigan doimiy oqar suvlarga **daryolar** deyiladi. O'z suvuni okeanlarga, dengizlarga va ko'llarga quyadigan daryolar **bosh daryo** deyiladi. Bosh daryoga yon tomondan kelib quyiladigan kichikroq daryolar (jilg'a yoki soylar) shu daryoning **irmoqlari** deyiladi. Bosh daryoning oqadigan tomoniga qarab tursangiz, unga o'ng tomondan quyilayotgan daryolar o'ng **irmoq**, chap tomondan quyilayotgan daryolar **chap irmoq** deb ataladi. shuningdek, irmoqlar bosh daryoga quyilish holatiga qarab tartiblarga bo'linadi. Masalan, bosh daryoga bevosita quyiladigan daryolar *birinchi tartibli irmoqlar*, birinchi tartibli irmoqlarga quyiladiganlari esa *ikkinchi tartibli irmoqlar* deyiladi va hokazo. Bosh daryo va uning barcha irmoqlari birgalikda qo'shilib, **daryo sistemasini** tashkil etadi.

Har qanday daryoning boshlanadigan joyi, yuqori oqimi, o'rta oqimi, quyi oqimi va quyilish joyi bo'ladi. Daryo boshlanadigan joy uning **manbai** deb ataladi. Daryolarning boshlanish joyiga yaqin bo'lgan qismlari, uning *yuqori oqimi* deyiladi. Yuqori oqimda daryo kam suvli bo'sada, lekin tez oqadi, sababi, bu qismda daryoning nishabligi katta bo'ladi. Daryolarning eng uzun masofalarga cho'zilgan o'rta qismlari o'rta oqim deyiladi. O'rta oqimda daryo suvi ko'payadi va oqim tezligi o'rtacha bo'ladi. Bunga sabab, o'rta oqimlarda daryoga bir qancha irmoqlari kelib qo'shiladi va nishablik ancha kamayadi. Daryolarning quyilish qismiga yaqin bo'lgan qismlari, uning *quyi oqimi* deyiladi. Daryolar quyi oqimda asosan tekisliklardan oqib o'tadi. Bu esa daryo nishabligini va suvining oqish tezligini kamayitiradi. Daryoning okean, dengiz, ko'l yoki boshqa daryoga quyiladigan joyi daryoning **mansabi** deyiladi. Odatda, daryolar quyilish qismida tarmoqlanib oqadi va o'zaning murakkab shakllari bo'lgan *deltalarni* hosil qiladi. Bu jarayonga daryo quyilayotgan joydagি dengiz yoki ko'l suvlarining to'lqinlanishi, ma'lum muddat suvning ko'tarilishi va pasayishi kabi omillar sabab bo'ladi.

Daryolar odatda, soyliklardan oqib o'tadi, bunday soylik **daryo vodiysi** deb ataladi. Daryo vodiysini chegaralab turuvchi va daryoga qarab qiya joylashgan maydonlar **daryo vodiysi yonbag'irlari** deb ataladi. Daryo vodiysining to'lib oqadigan qismi **daryo o'zani** deb ataladi. Daryo vodiysining toshqin va suv ko'paygan vaqtida suv ostida qoladigan qismi **daryo qayiri** deb ataladi. Daryo vodiysi

yonbag‘irlarida zinapoya shaklidagi maydonchalar **daryo terassalari** deb ataladi. Daryo terassalari daryoning qadimgi qayirlari qoldiqlaridir, ular daryo o‘zaning chuqurlashishi yoki suvining kamayishi natijasida hosil bo‘ladi.

Daryo boshlanadigan joyidan va uning quyiladigan joyi orasidagi balandlik farqini shu daryoning uzunligiga nisbati **daryoning nishabligi** deyiladi.

U quyidagi formula vordamida aniqlanadi:

$$n = \frac{H - h}{L}$$

Bu yerda: n – daryoning nishabligi; H – daryo boshlanadigan joy(mansabi)ning mutlaq balandligi; h – daryo quyiladigan joy(mansabi)ning mutlaq balandligi; L – daryoning umumiy uzunligi.

Daryo boshlanadigan joyi va uning quyiladigan joyini tutashtiradigan to‘g‘ri chiziq uzunligining shu daryoning haqiqiy uzunligiga nisbati **daryoning egri–bugriliqi** deyiladi.

U quyidagi formula vordamida aniqlanadi:

$$E = \frac{L(ab)}{L}$$

Bu yerda: E – daryoning egri–bugriliqi; $L(ab)$ – daryo boshlanadigan joyi va uning quyiladigan joyini tutashtiradigan to‘g‘ri chiziq uzunligi; L – daryoning haqiqiy uzunligi.

Daryoning egri–bugriliqi doim birdan kichik bo‘ladi, ya’ni $E < 1$ bo‘lib, uning o‘lchov birligi yo‘q.

Quyida daryolar nishabligini va egri–bugriliqini aniqlashga oid masalalarni ishlaymiz.

1–masala. Amudaryo dengiz sathidan 4000 metr balandlikdan boshlanib, 100 metr mutlaq balandlikda Orol dengiziga quyiladi. Agar daryoning umumiy uzunligi 2540 kilometrga teng bo‘lsa, daryoning nishabligini aniqlang.

Yechish: bu masalani yechishda nishablikni aniqlash formulasidan foydalanamiz:

$$n = \frac{H - h}{L} = \frac{4000\text{m} - 100\text{m}}{2540\text{km}} = 1,53\text{m/km}$$

Javob: Amudaryoning nishabligi 1,53 m/km ga teng ekan, ya’ni mutloq balandlik daryoning 1 km uzunligiga 1,53 metrga pasayib borishini ifodalaydi.

2–masala. Dnepr daryosi dengiz sathidan 400 metr balandlikdan boshlanib, dengiziga quyiladi. Agar daryoning umumiy uzunligi 2200 kilometrga teng bo‘lsa, daryoning nishabligini aniqlang.

Yechish: Agar daryolar dengizga quyilsa, demak uni quyilish joyi odatda, 0 metrga teng bo‘ladi. Bu masalani yechishda nishablikni aniqlash formulasidan foydalanamiz:

$$n = \frac{H - h}{L} = \frac{400\text{m} - 0\text{m}}{2200\text{km}} = 0,18\text{m/km}$$

Javob: Dnepr daryosining nishabligi 0,18 m/km ga teng ekan, ya’ni mutloq balandlik daryoning 1 km uzunligiga 0,18 metrga pasayib borishini ifodalaydi.

3–masala. Xuanxe daryosining uzunligi uning irmog‘i bilan 4845 km ga teng bo‘lib, daryo boshlanadigan joyi va uning quyiladigan joyini tutashtiradigan to‘g‘ri chiziq uzunligi esa 3114 km ni tashkil etsa, daryoning egri–bugriliqi aniqlang.

Yechish: Bu masalani yechishda daryoning egri–bugriliqini aniqlash formulasidan foydalanamiz:

$$E = \frac{L(ab)}{L} = \frac{3114\text{km}}{4845\text{km}} = 0,64$$

Javob: Xuanxe daryosining egri–bugriliqi 0,64 ga teng ekan.

Daryo uzunligi va havzasining maydonini aniqlash.

Daryolarning boshlanish yeridan quyilish joyigacha bo‘lgan umumiy masofa **daryoning uzunligi** deyiladi. Daryo sistemasi joylashgan hamda suv yig‘adigan maydon **daryo havzasasi** deb ataladi. Qo‘shti daryo havzalarini bir–biridan ajratib turadigan balandliklar suvayirg‘ichlar deyiladi.

Geografiya darslarida eng ko‘p qo‘llaniladigan ko‘rgazmali material bu xaritalar hisoblanadi. Biz quyida xaritalar yordamida daryolarning uzunliklarini va havzasining maydonlarini aniqlashga doir mashqlarni bajarish usullari va tartiblarini ko‘rib chiqamiz.

Xaritalardan foydalanib, daryolarning uzunliklarini aniqlash uchun bizga xarita, ip, chizg‘ich kerak bo‘ladi. Dastlab, xaritadagi bosh daryoning uzunligini ya’ni boshlanish joyidan, quyilish joyigacha bo‘lgan masofani (xaritadagi daryo shartli belgisi bo‘lgan ko‘k rangdagi chiziq bo‘ylab), ip yordamida o‘lchab olamiz (daryo egri–bugri bo‘lganligi uchun ipdan foydalanamiz), endi bu uzunlik necha santimetr ekanligini bilish uchun ipning xaritadagi daryo uzunligiga

teng bo‘lgan qismini chizg‘ich yordamida aniqlaymiz. So‘ngra bosh daryoning haqiqiy uzunligini topish uchun, aniqlangan santimetri xaritani mashtabiga ko‘paytiramiz. Agar daryoning irmoqlarining ham uzunliklarini aniqlash kerak bo‘lsa, daryo irmoqlarini alohida alohida, irmoq boshlanadigan joyidan, daryoga quyiladigan joyigacha bo‘lgan masofa yuqoridagidek hisoblab chiqiladi.

Shuningdek, bu usul yordamida, materik va orollarning qirg‘oq uzunliklari, ko‘llarning qirg‘oq uzunliklari, davlatlarning chegaralarni aniqlash mumkin.

Xaritalardan foydalanib, daryo havzasining maydonini aniqlash uchun bizga xarita, millimetrovka qog‘oz yoki katak daftari kerak bo‘ladi. Dastlab, xaritadan ixtiyoriy daryo sistemasi tanlanib, u qo‘sni havzalardan suvayirg‘ich chizig‘i yordamida daryo havzasi ajratib olinadi, so‘ng suvayirg‘ich chizig‘i yordamida ajratib olingan daryo havzasini millimetrovka qog‘ozga o‘lchamlarini mos holda ko‘chirib olinadi. Shundan so‘ng millimetrovka qog‘ozdan foydalanib, uning yuzasi aniqlanadi, ya’ni 1 sm^2 bo‘lgan kataklar soni topiladi. So‘ngra aniqlangan kataklar sonini, xaritaning mashtabi kvadratiga ko‘paytiramiz.


Shuningdek, bu usul yordamida, materik va orollarning, ko‘llarning hamda davlatlarning maydonlarini aniqlash mumkin.

Lekin, yuqoridagi ikki usulda ham xaritalarda ekvatordan qutblarga tomon xatoliklar ortib borishi evaziga, biz aniqlagan uzunlik va maydonlar geografik obyektlarning haqiqiy uzunlik va maydoniga mos kelmasligi mumkin. Shu sababli aniqlikni oshirish uchun yuqoridagi mashqlarni imkon qadar yirik mashtabli xaritalarda bajarish maqsadga muvofiq.

Quyida daryo uzunligi va havzasining maydonini aniqlashga oid mashqlar bajaramiz.

1-mashq. Xaritadan foydalanib, Amudaryo daryosining uzunligini toping.

Yechish: dastlab, Amudaryo daryosi tasvirlangan xarita tanlab olinib, undagi Amudaryoning boshlanish joyidan quyilish joyigacha bo‘lgan masofasini ip yordamida o‘lchab olinadi. Quyida sariq ip yordamida Amudaryoni Panj irmog‘i bilan birga o‘lchab olamiz.



Endi bu uzunlik necha santimetr ekanligini bilish uchun ipning xaritadagi daryo uzunligiga teng bo‘lgan qismini chizg‘ich yordamida aniqlaymiz. Bu uzunlik 31,5 sm ga teng ekanligi ma’lum bo‘ldi.

So‘ngra daryoning haqiqiy uzunligini topish uchun, aniqlangan santimetri xaritani mashtabiga ko‘paytiramiz.


Biz o‘lchov olib bo‘gan xaritani mashtabi 1:7 700 000 bo‘lib, uni nomli mashtabga aylantirib olamiz, ya’ni 1 sm da 77 km

$$31,5 \times 77 = 2425,5 \text{ km}$$

Javob: demak, Amudaryoning uzunligi 2425,5 km ga teng ekan. Izoh, yuqorida takidlaganimizdek, xaritalarda ekvatordan qutblarga tomon xatoliklar ortib borishi evaziga, biz aniqlagan uzunlik daryoning haqiqiy uzunligiga mos kelmaydi, agar yirik mashtabli xaritada huddi shunday usul bilan o‘lchov ishlarini olib borsangiz ancha aniq bo‘lgan son chiqadi.

2-mashq. Xaritadan foydalanib, Shardara (Chordara) suv omborining qirg‘oq uzunligini toping.

Yechish: dastlab, Shardara suv ombori tasvirlangan xarita tanlab olinib, suv ombor qirg‘og‘ining biror joyiga nuqta qo‘yib, ip yordamida qirg‘og‘ini aylantirib o‘lchab olamiz.



Endi bu uzunlik necha santimetrik ekanligini bilish uchun ipning xaritadagi qirg'og'uzunligiga teng bo'lgan qismini chizg'ich yordamida aniqlaymiz. Bu uzunlik 23,7 sm ga teng ekanligi ma'lum bo'ldi.

So'ngra suv ombor qirg'og'ining haqiqiy uzunligini topish uchun, aniqlangan santimetri xaritani mashtabiga ko'paytiramiz.


Biz o'lchov olib borgan xaritani mashtabi 1:1 200 000 bo'lib, uni nomli masshabga aylantirib olamiz, ya'ni 1 sm da 12 km

$$23,7 \times 12 = 284,4 \text{ km}$$


Javob: demak, Shardara suv omborining qirg'og'uzunligi 284,4 km ga teng ekan.

3-mashq. Xaritadan foydalanib, Ili daryosi havzasi maydonini toping.

Yechish: dastlab, Ili daryosi tasvirlangan xarita tanlab olinib, uni qo'shni daryo havzalaridan suvayirg'ich chizig'i yordamida daryo havzasi alohida ajratib olamiz.



Endi suvayirg'ich chizig'i yordamida ajratib olingan daryo havzasini millimetrovka qog'ozga o'lchamlarini mos holda ko'chirib olinadi va millimetrovka qog'ozdagি santimetr kvadratlaridan foydalanib, uning yuzasi aniqlanadi.



Yuzasini aniqlashda quyidagi amallar bajariladi:

1) Bir santimetr kvadrat bo'lgan kataklarni ma'lum bir belgi bilan belgilanib olib, ular soni aniqlanadi. Biz ularni \oplus belgisi bilan belgiladik, ularning soni 17 ta ekanligi aniq bo'ldi.

2) Yarim santimetr kvadrat bo'lgan kataklarni ma'lum bir belgi bilan belgilanib olib, ular soni aniqlanadi. Biz ularni \otimes belgisi bilan belgiladik, ularning soni 16 ta ekanligi aniq bo'ldi. Ularni bir santimetr kvadratga aylantirish uchun har doim 4 ga bo'lamiz, sababi 4 ta yarim santimetr kvadrat 1 santimetr kvadratga teng. $16 \div 4 = 4$

3) Suvayirg'ich chizig'i yarim santimetr kvadrat bo'lgan kataklarning yarmidan va undan kattaroq qismidan o'tgan kataklarni ma'lum bir belgi bilan belgilab olib, ular soni aniqlanadi. Biz ularni belgisi bilan belgiladik, ularning soni 16 ta ekanligi aniq bo'ldi. Ularni bir santimetr kvadratga aylantirish uchun har doim 8 ga bo'lamiz. $16 \div 8 = 2$

4) Suvayirg'ich chizig'i yarim santimetr kvadrat bo'lgan kataklarning yarmidan kichikroq qismidan o'tgan kataklarni ma'lum bir belgi bilan belgilanib olib, ular soni aniqlanadi. Biz ularni belgisi bilan belgiladik, ularning soni 30 ta ekanligi aniq bo'ldi. Ularni bir santimetr kvadratga aylantirish uchun har doim 16 ga bo'lamiz. $30 \div 16 = 1,8$

5) Yuqorida aniqlangan barcha bir santimetr kvadratlarni yig'indisi topiladi, ya'ni ularni qo'shib chiqamiz. $17 + 4 + 2 + 1,8 = 24,8$

Demak, xaritada daryo havzasining yuzasi $24,8 \text{ sm}^2$ ga teng ekan.

Endi daryo havzasining yer yuzasidagi maydonini topish uchun xaritaning mashtabi kvadratini topishimiz kerak. Biz o'lchov olib borgan xaritani mashtabi $1:7\ 700\ 000$ bo'lib, uni nomli mashtabga aylantirib, uning kvadratini topamiz, ya'ni $1 \text{ sm da } 77 \text{ km}$. $77 \times 77 = 5929$

So'ngra 1 sm^2 bo'lgan kataklar sonini ($24,8$) xaritaning mashtabi kvadratiga (5929) ko'paytiramiz, ya'ni $24,8 \times 5929 \approx 147\ 000$

Javob: demak, Ili daryosi havzasi maydoni $147\ 000 \text{ km}^2$ ga teng ekan.

Daryo suv sarfi va daryo tarmoqlari zichligini aniqlash.

Daryo o'zanidan ma'lum bir vaqt ichida oqib o'tuvchi suv miqdori (hajmi) ga **daryoning suv sarfi** deyiladi.

U quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Q=S \times V$$

Bu yerda: Q – daryoning suv sarfi; S – daryoning ko'ndalang kesim maydoni; V – daryo oqimining o'rtacha tezligi.

Daryoning ko'ndalang kesimi maydoni daryo chuqurligi va kengligini bir-biriga ko'paytirib topiladi, ya'ni uni quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$S = a \times b$$

Bu yerda: S – Daryoning ko'ndalang kesimi maydoni; a – daryoning chuqurligi; b – daryoning kengligi.

Bosh daryo va uning barcha irmoqlari uzunliklari yig'indisi (ya'ni daryo umumiyligi) ning havza maydoniga bo'lган nisbati **daryo tarmoqlarining zichligini** deb ataladi.

Daryo tarmoqlarining zichligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Z = \frac{L+1}{S}$$

Bu yerda: Z – daryo tarmoqlarining zichligi; L – bosh daryoning uzunligi; 1 – daryo irmoqlari uzunliklarining yig'indisi; S – daryo havzasining maydoni.

Quyida daryo suv sarfi va daryo tarmoqlari zichligini aniqlashga oid masalalarni ishlaymiz.

1-masala. Daryoning kengligi 45 metr, o'rtacha chuqurligi 3,5 metr, suvining o'rtacha tezligi 2 m/s bo'lsa, daryoning suv sarfini aniqlang.

Yechish: Topshiriqning shartida daryoning ko'ndalang kesim maydoni berilmagan. Buni topish uchun daryo kengligini uning o'rtacha chuqurligiga ko'paytiramiz, ya'ni:

$$S = a \times b = 45 \text{ m} \times 3,5 \text{ m} = 157,5 \text{ m}^2$$

Demak, daryoning ko'ndalang kesim maydoni $157,5 \text{ m}^2$ ga teng ekan. Endi ushbu qiymatni daryoning suv sarfini topish formulasiga qo'yib, natijani hisoblaymiz:

$$Q = S \times V = 157,5 \text{ m}^2 \times 2 \text{ m/s} = 315 \text{ m}^3/\text{s}.$$

Javob: daryoning suv sarfi $315 \text{ m}^3/\text{s}$ ga teng ekan.

2-masala. Kanalning kengligi 30 metr, suvining o'rtacha tezligi 4 m/s bo'lib, kanalning suv sarfi esa $276 \text{ m}^3/\text{s}$ ga teng bolsa, kanalning o'rtacha chuqurligini toping.

Yechish: dastlab, kanalning o'rtacha chuqurligini topish uchun biz kanalning ko'ndalang kesim maydoni aniqlashimiz kerak, buning uchun kanalning suv sarfini, suvning tezligiga bo'lamiz, ya'ni yuqoridagi formulani quyidagi ko'rinishga aylantirib olamiz;

$$Q = S \times V \longrightarrow S = Q \div V$$

$$S = Q \div V = 276 \text{ m}^3/\text{s} \div 4 \text{ m/s} = 69 \text{ m}^2$$

Endi kanalning o'rtacha chuqurligini topish uchun kanalning ko'ndalang kesim maydonini (69 m^2), kanalning kengligiga (30 m) bo'lamiz ya'ni yuqoridagi formulani quyidagi ko'rinishga aylantirib olamiz;

$$S = a \times b \longrightarrow a = S \div b$$

$$a = S \div b = 69 \text{ m}^2 \div 30 \text{ m} = 2,3 \text{ m}$$

Javob: demak, kanalning o'rtacha chuqurligi 2,3 metrga teng ekan.

3-masala. Daryoning o'rtacha chuqurligi 5 metr, suvining o'rtacha tezligi 3 m/s bo'lib, daryoning suv sarfi esa $360 \text{ m}^3/\text{s}$ ga teng bolsa, daryoning kengligini toping.

Yechish: dastlab, daryoning kengligini topish uchun biz daryoning ko'ndalang kesim maydoni aniqlashimiz kerak, buning uchun daryoning suv sarfini, suvning tezligiga bo'lamiz, ya'ni yuqoridagi formulani quyidagi ko'rinishga aylantirib olamiz;

$$Q = S \times V \longrightarrow S = Q \div V$$

$$S = Q \div V = 1080 \text{ m}^3/\text{s} \div 3 \text{ m/s} = 360 \text{ m}^2$$

Endi daryoning kengligini topish uchun daryoning ko'ndalang kesim maydonini (360 m^2), daryoning o'rtacha chuqurligiga (5 m) bo'lamiz ya'ni yuqoridagi formulani quyidagi ko'rinishga aylantirib olamiz;

$$S = a \times b \longrightarrow b = S \div a$$

$$b = S \div a = 360 \text{ m}^2 \div 5 \text{ m} = 72 \text{ m}$$

Javob: demak, daryoning kengligi 72 metrga teng ekan.

4-masala. Kongo daryosi (bos daryo) ning uzunligi 4320 km, daryo irmoqlari uzunliklarining yig'indisi esa 13500 km, havzasining maydoni $3\,691\,000 \text{ km}^2$ bo'lsa, Kongo daryosi tarmoqlarining zichligini aniqlang.

Yechish: ushbu masalani yechishda daryo tarmoqlarining zichligini aniqlash formulasidan foydalanamiz, ya'ni

$$Z = \frac{L+1}{S} = \frac{4320 \text{ km} + 13500 \text{ km}}{3691000 \text{ km}^2} = 0,0048 \text{ km}$$

$$1 \text{ km} = 1000 \text{ m shuni hisobga olsak}, 0,0048 \text{ km} = 4,8 \text{ m bo'ladi.}$$

Javob: Amazonka daryosi tarmoqlarining zichligi har kv.km maydonda 4,8 m ga teng ekan.

5-masala. Yanszi daryosi (bos daryo) ning uzunligi 5800 km, daryo irmoqlari uzunliklarining yig'indisi esa 7300 km, daryosi tarmoqlarining zichligini 7,2 m ga teng bo'lsa, Yanszi daryosi havzasining maydonini aniqlang.

Yechish: Yanszi daryosi havzasining maydonini topish uchun daryo tarmoqlarining zichligini aniqlash formulasini quyidagi ko'rinishga aylantirib olamiz, ya'ni

$$Z = \frac{L+1}{S} \longrightarrow S = (L+1) \times Z$$

Sonlarni bir xil birlikda ko'paytirishimiz uchun daryosi tarmoqlarining zichligi bo'lgan 7,2 metrnı kilometrga aylantirib olamiz, ya'ni

$$7,2 \text{ m} = 0,0072 \text{ km}$$

$$S = (L+1) \times Z = (5800 \text{ km} + 7300 \text{ km}) \times 0,0029 \text{ km} = 1\,808\,000 \text{ km}^2$$

Javob: demak, Yanszi daryosi havzasining maydoni 1 808 000 km² ga teng ekan.

Nazorat uchun savollar:

1. Yerning ichki tuzilishiga ko'ra necha qismidan iborat?
2. Yerning ichki qismiga tushib borgan sari haroart qanday o'zgaradi?
3. Geotermik gradiyent nima?
4. Geotermik bosqich nima?
5. Yerning ichki qismida harorat qanchaga teng?
6. Dunyo okeani suvining asosiy xususiyatlarini ayting.
7. Chuchuk va sho'r suv nima?
8. Sho'rlik darajasi nima bilan ifodalanadi? va uni izohlang.
9. Exolot asbobi haqida nimalarni bilasiz?
10. Daryo deb nimaga aytildi?
11. Daryo manbai nima?
12. Daryo mansabi nima?
13. Daryo irmoqlari nima?
14. Daryo havzasi nima?
15. Daryo suvayirg'ichi nima?

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:

1. Gekla vulqoni konusidan otilib chiqayotgan lavaning harorati $+1200^\circ\text{C}$ ga teng bo'lsa, bu lava qancha chuqurlikdan otilib chiqayotganligini aniqlang.
2. Yer yuzidan 5 km chuqurlikdan chiqayotgan nefstning haroratini aniqlang.
3. Geyzeridan otilib chiqayotgan suvning harorati $+90^\circ\text{C}$ ga teng bo'lsa, u qancha chuqurlikdan otilib chiqayotganligini aniqlang.
4. Agar Yer yuzida harorat $+12^\circ\text{C}$ ga teng bo'lsa, undan 4800 metr

chuqurlikda harorat necha gradusga teng bo'lishi mumkinligini hisoblab toping.

5. Buloqdan chiqayotgan oltingugurtli suvning harorati +55°C ga teng, suv qancha chuqurlikdan chiqayotganligini aniqlang.

6. Vulqon og'zidan otilib chiqayotgan lavaning harorati 1500°C ga teng bo'lsa, bu lava qancha chuqurlikdan otilib chiqayotganini aniqlang.

7. Geyzerning grifonidan otilib chiqayotgan suvning harorati +135°C ga teng bo'lsa, geyzer qancha chuqurlikdan otilib chiqayotganligini aniqlang?

8. 3800 metr chuqurlikdagi neft qudug'idan otilib chiqayotgan nefstning harorati qancha bo'lishini hisoblab toping.

9. Agar yer yuzasida harorat +32°C ga teng bo'lsa, suvning qaynashi uchun necha metr chuqurlikka tushish kerak?

10. Buloqdan chiqayotgan gidrokarbonatli suvning harorati +66°C ga teng, suv qancha chuqurlikdan chiqayotganligini aniqlang.

11. Dengiz suvining 4 tonna suvidan qancha tuz olish mumkin? Eslatma; dengiz suvining o'rtacha sho'rлиgi 35 %.

12. Qizil dengizning 6 litr suvida qancha tuz bor? Eslatma; sho'rлиgi 42 %.

13. Dengiz suvining 6,7 tonna suvidan qancha tuz olish mumkin.

14. Shimoliy dengiz suvining harorati +14°C ga teng bo'lsa, uning 3 km chuqurligida harorat necha darajaga teng bo'ladi?

15. Dengiz suvining yuza qismidagi harorat + 18°C ga teng bo'lsa, suv havzasining qancha chuqurligida suv muzlashi mumkin. Eslatma, dengiz suvi -2°C da muzlaydi.

16. Okean yuzasida suvning zichligi 1,020 g/sm³ ga teng bo'lsa, okeanning 8200 metr chuqurligida suvning zichligi qanchaga teng bo'ladi.

17. Dengizning 5600 metr chuqurligida suvning zichligi 1,012 g/sm³ ga teng bo'lsa, dengiz yuzasida suvning zichligi qanchaga teng bo'ladi.

18. Okean yuzasida suvning zichligi 1,038 g/sm³ ga teng bo'lsa, okean tubida suvning zichligi 1,083 g/sm³ ekanligi ma'lum bo'lsa, okean tubi chuqurligini aniqlang.

19. Tinch okeanining suv yuzasida zichligi 1,025 g/sm³ ga teng bo'lsa, Mariana botig'ida suvning zinchligi qanchaga teng bo'ladi.

20. Atlantika okeaning Kayman botig'ida suvning zinchligi 1,095 g/sm³ ga teng bo'lsa, okeanining yuzasida suvning zinchligi qanchaga teng bo'ladi.

21. Dunyo okeanning eng chuqur cho'kmasi Mariana botig'i bo'lib, uning chuqurligi 11022 metr ga teng ekanligi ma'lum. Exolotdan yuborilgan tovush to'lqini qancha vaqtida qaytib kelishi mumkinligini aniqlang?

22. Shimoliy Muz okeanidagi cho'kmalardan biriga yuborilgan tovush to'lqini 6,8 sekundda qaytib kelganligi ma'lum bo'lsa, cho'kmaning chuqurligini aniqlang.

23. Baykal ko'lining tubiga qarab exolotdan yuborilgan tovush to'lqini necha sekundda qaytib keladi? Eslatma, Baykal ko'lining chuqurligi 1620 m.

24. Atlantika okeanining eng chuqur botig'i hisoblangan Puerto-Riko cho'kmasisiga exolotdan yuborilgan tovush to'lqini qancha vaqtida qaytib keladi? Eslatma, Puerto-Riko cho'kmasining chuqurligi 8742 m.

25. Hind okeaning eng chuqur botig'i hisoblangan Zond cho'kmasisiga exolotdan yuborilgan tovush to'lqini qancha vaqtida yetib boradi? Eslatma, Zond cho'kmasining chuqurligi 7729 m.

26. Chirchiq daryosi 4500 metr balandlikdan boshlanib, 397 kilometr masofada oqib borib, dengiz sathidan taxminan 250 metr balandlikda Sirdaryoga quyiladi. Daryoning nishabligini aniqlang.

27. Volga daryosining uzunligi 3531 km bo'lib, uning manbai 228 metr balandlikdagi Valday qirlari hisoblanadi. Mansabi dengiz sathidan 28 metr pastda joylashgan Kaspiy dengizidir. Ushbu ma'lumotlar asosida Volga daryosining nishabligini aniqlang.

28. Dunay daryosi 678 metr mutlaq balandlikdan boshlanib, dengizga borib quyiladi, daryoning umumiyligi esa 2850 kilometrga teng bo'lsa, daryoning nishabligini aniqlang.

29. Daryo 1200 metr balandlikdan boshlanib, 1600 km masofada oqib borib dengizga quyilsa, daryoning nishabligini aniqlang.

30. Zambezi daryosining uzunligi uning irmog'i bilan 2660 km ga teng bo'lib, daryo boshlanadigan joyi va uning quyiladigan joyini tutashtiradigan to'g'ri chiziq uzunligi esa 1862 km ni tashkil etsa, daryoning egri-bugriligi aniqlang.

31. Chirchiq daryosining egri-bugriligi 0,56 ga teng, daryoning boshlanadigan joyi va uning quyiladigan joyini tutashtiradigan to'g'ri chiziq uzunligi esa 220 km ni tashkil etsa, daryoning haqiqiy uzunligi toping.

32. Xaritadan foydalanib, Murrey, Niger, Missisipi daryolarining egri-bugriligi aniqlang.

33. Xaritadan foydalanib, Senegal, Orinoko, Mekong daryolarining uzunligini aniqlang.

34. Xaritadan foydalanib, Tanganika, Baykal, Vinnipeg ko'llarining qirg'oq uzunliklarini toping.

35. Xaritadan foydalanib, Amazonka, Kongo, Missisipi daryolari havzasining maydonini aniqlang.

36. Xaritadan foydalanib, Viktoriya, Yuqori, Eyr-Nort ko'llarining maydonini toping.

37. Daryoning kengligi 20 metr, o'rtacha chuqurligi 1,8 metr, suvining o'rtacha tezligi 2,5 m/s bo'lsa, daryoning suv sarfini aniqlang.

38. Kengligi 12 metr, chuqurligi 4,2 metr, oqimining o'rtacha tezligi 1,8 m/s bo'lgan kanalning suv sarfini aniqlang.

39. Kanalning kengligi 55 metr, suvining o'rtacha tezligi 3,5 m/s bo'lib, kanalning suv sarfi esa $462 \text{ m}^3/\text{s}$ ga teng bolsa, kanalning o'rtacha chuqurligini toping.

40. Daryoning o'rtacha chuqurligi 7 metr, suvining o'rtacha tezligi 6 m/s bo'lib, daryoning suv sarfi esa $1620 \text{ m}^3/\text{s}$ ga teng bolsa, daryoning kengligini toping.

41. Nil daryosining uzunligi 6671 km, daryo irmoqlari uzunliklarining yig'indisi esa 3500 km, havzasining maydoni $2\,870\,000 \text{ km}^2$ bo'lsa, Nil daryosi tarmoqlarining zichligini aniqlang.

42. Zarafshon daryosining umumiy uzunligi 877 kilometr, irmoqlari uzunliklarining yig'indisi 375 kilometr, havzasining maydoni esa $12\,300 \text{ km}^2$ bo'lsa, daryo tarmoqlarining zichligini aniqlang.

43. Amudaryo daryosining uzunligi 2540 km, daryo irmoqlari uzunliklarining yig'indisi esa 4380 km, daryo tarmoqlarining zichligini $14,8 \text{ m}$ ga teng bo'lsa, Amudaryo daryosi havzasining maydonini aniqlang.

44. Hind daryosining uzunligi 3180 km, havzasining maydoni $980\,000 \text{ km}^2$, daryo tarmoqlarining zichligi esa $8,2 \text{ m}$ ga teng bo'lsa, daryo irmoqlari uzunliklarining yig'indisini aniqlang.

45. Ural daryosining uzunligi 2428 km, irmoqlari uzunliklarining yig'indisi 3860 kilometr, havzasining maydoni esa $237\,000 \text{ km}^2$ bo'lsa, daryo tarmoqlarining zichligini aniqlang.

4-mavzu: YERNING HAVO QOBIG'INI O'QITISHDA, GEOGRAFIK KUZATUVLAR OLIB BORISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH USULI

Reja

1. Havo haroratini aniqlash.
2. Atmosfera bosimini aniqlash.
3. Shamol gulini chizish.
4. Havoning namligi va namlik koeffitsiyentini hisoblash.
5. Yog'in miqdorini aniqlash.

Havo haroratini aniqlash.

Sayyoramizning yengil va serharakat havo qobig'i atmosfera deyiladi. Atmosfera yunoncha so'z bo'lib, "atmos" – bug', "sfera" – qobiq ya'ni havo qobig'i ma'nosini anglatadi. Atmosferaning Yerdagi hayot uchun ahamiyati juda katta bo'lib, u Yerni qattiq isib va sohib ketishidan, metioritlar yomg'iridan va Quyoshdan keladigan zararli nurlardan saqlaydi. Atmosferaning quyi chegarasi Yer yuzasidan, yuqori chegarasi 3000 km balandliklardan o'tadi. Lekin atmosfera massasining 99,5 % i 80 km gacha bo'lган balandliklarga to'g'ri keladi.

Atmosferada yuqoriga ko'tarilgan sari havoning zichligi va harorati o'zgarib boradi. Shu munosabat bilan atmosferada ma'lum bir xususiyatlarga ega bo'lgan alohida qatlamlar vujudga kelgan. Bular troposfera, stratosfera, mezosfera, ionosfera va ekzosferadir. Troposfera geografik qobiq tarkibiga to'la kiradi va Yerning ta'sirida isiydi. Troposfera havoning Yer yuzasida isishi natijasida hosil bo'ladigan ko'tarılma oqimning balandligi bilan belgilanadi. Havo ekvatorial kengliklarda 16–17 km gacha, mo'tadil kengliklarda 10–11 km gacha, qutbiy kengliklarda 7–8 km gacha ko'tariladi. Troposferaning yuqori chegarasi ana shu balandliklardan o'tadi. Yerning tortish kuchi va gazlar qisilishi tufayli havo Yer yuzasida juda zikh bo'ladi. Troposferada atmosfera massasining 80 % i to'plangan bo'lsa, uning quyi 5 kilometrlik qatlamda atmosfera massasining 50 % i mavjuddir. Troposferada bulutlar hosil bo'lib, yog'inlar yog'adi, ya'ni ob-havo va iqlimni vujudga keltiradigan barcha jarayonlar shu yerda sodir bo'ladi.

Ma'lum bir joyda, ma'lum bir vaqt oralig'ida havoning qanchalik isishi yoki sovishi havo haroratining o'zgarishini anglatadi. Havo harorati simobli va spirtli termometr asbobilari yordamida o'lchanadi. Simobli termometr yordamida musbat haroratlar, spirtli termometr yordamida esa manfiy haroratlar o'lchanadi. Sababi juda past haroratda simob muzlab qolishi mumkin. Termometr yer yuzasidan 2 metr balandga, quyosh nuri tushmaydigan soya joyga o'rnatilishi lozim. Meteorologik stansiyalarda ob – havoning holati, shu jumladan havo harorati har 3 soatda bir marta (sutkasiga 8 marta) o'lchab boriladi. Olingan natijalarga qarab sutkalik, oylik va yillik o'rtacha haroratlar aniqlanadi. Ularni aniqlash uchun quyidagi ishlar amalgalashiriladi. Sutkalik o'rtacha haroratni aniqlash uchun sutka davomidagi barcha kuzatish natijalari qo'shilib, necha marta kuzatish olib borilgan bo'lsa, shunchaga bo'linadi. Oylik o'rtacha haroratni topish uchun shu oydagisi sutkalik o'rtacha haroratlar qo'shilib, oyning kunlari soniga bo'linadi. Yillik o'rtacha haroratni aniqlash uchun bir yil mobaynidagi barcha oylik o'rtacha haroratlar qo'shilib, 12 (bir yildagi oylar soni)ga bo'linadi.

Sutkalik, oylik va yillik o'rtacha haroratlarni aniqlash bilan birga sutkalik, oylik va yillik amplitudani ham aniqlash lozim bo'ladi. Amplituda lotincha so'z bo'lib, "amplitude" – kattalik, miqdor ma'nolarini anglatadi. Havo haroratining eng yuqori va eng past ko'rsatkichlari orasidagi farq (tafovut) **havo haroratining amplitudasi** deb ataladi. Sutka davomidagi eng yuqori harorat bilan eng past harorat orasidagi tafovut havo haroratining sutkalik amplitudasi deyiladi. Oy davomidagi eng yuqori harorat bilan eng past harorat orasidagi tafovut havo haroratining oylik amplitudasi deyiladi. Yil davomidagi eng yuqori harorat bilan eng past harorat orasidagi tafovut havo haroratining yillik amplitudasi deyiladi. Havo haroratining amplitudasini topish uchun ma'lum vaqtdagi (sutka, oy, yil) eng yuqori va eng past harorati aniqlab, ular orasidagi farqni topamiz. Buni uchun bir xil ishoralilar ayraladi, har xil ishoralilar qo'shiladi.

Havo harorati sutka, oy, yil davomida o'zgarishidan tashqari, dengiz bo'yidan quruqlik ichkarisiga tomon va tekislikdan tog'larga tomon ham o'zgarib boradi, ya'ni troposferada havo harorati o'rtacha har 100 metr balandlikda $0,6^{\circ}\text{C}$ ga, har 1000 metr (1 kilometr) balandlikka ko'tarilganda esa 6°C ga pasayib boradi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, quyida havo haroartiga oid masalalar ishlaymiz.

Quyida havo haroratini aniqlashga oid masalalarini ishlaymiz.

1–masala. Meteorologik stansiyada bir sutkada kuzatish olib borgan vaqtlardagi harorat ko'rsatkichlari quyidagicha: kechasi soat 1:00 da $+2^{\circ}\text{C}$, soat 4:00 da 0°C , ertalab soat 7:00 da -1°C , soat 10:00 da $+3^{\circ}\text{C}$, kunduzi soat 13:00 da $+6^{\circ}\text{C}$, soat 16:00 da $+7^{\circ}\text{C}$, kechqurun soat 19:00 da $+5^{\circ}\text{C}$, soat 22:00 da $+2^{\circ}\text{C}$.

Ushbu ma'lumotlar asosida sutkalik o'rtacha haroratni aniqlang.

Yechish: dastlab kuzatish olib borgan vaqtlardagi harorat ko'rsatkichlarini qo'shib chiqamiz va hosil bo'lgan yig'indini kuzatishlar soniga, ya'ni 8 ga bo'lamiz:

$$(+2^{\circ}\text{C})+(0^{\circ}\text{C})+(-1^{\circ}\text{C})+(+3^{\circ}\text{C})+(+6^{\circ}\text{C})+(+7^{\circ}\text{C})+(+5^{\circ}\text{C})+(+2^{\circ}\text{C})= \\ +24^{\circ}\text{C}.$$

$$+24^{\circ}\text{C} : 8 = +3^{\circ}\text{C}.$$

Javob: sutkalik o'rtacha harorat $+3^{\circ}\text{C}$ ga teng ekan.

2–masala. Quyidagi ma'lumotlardan foydalananib, noyabr oyidagi Chirchiq shahrining o'rtacha havo haroratini aniqlab, oylik amplitudani toping.

| Kunlar | Sutkalik o'rtacha harorat | Kunlar | Sutkalik o'rtacha harorat | Kunlar | Sutkalik o'rtacha harorat |
|--------|---------------------------|--------|---------------------------|--------|---------------------------|
| 1 | +13°C | 11 | +8°C | 21 | +6°C |
| 2 | +14°C | 12 | +7°C | 22 | +4°C |
| 3 | +12°C | 13 | +8°C | 23 | +4°C |
| 4 | +10°C | 14 | +5°C | 24 | +3°C |
| 5 | +11°C | 15 | +6°C | 25 | +1°C |
| 6 | +13°C | 16 | +6°C | 26 | -1°C |
| 7 | +15°C | 17 | +4°C | 27 | -2°C |
| 8 | +14°C | 18 | +5°C | 28 | +2°C |
| 9 | +13°C | 19 | +6°C | 29 | +4°C |
| 10 | +10°C | 20 | +7°C | 30 | +3°C |

Yechish: oy davomidagi sutkalik o'rtacha haroratlarni qo'shib, shu oydagisi kunlari soniga bo'lamiz.

$$(+13^{\circ}\text{C})+(+14^{\circ}\text{C})+(+12^{\circ}\text{C})+(+10^{\circ}\text{C})+(+11^{\circ}\text{C})+(+13^{\circ}\text{C})+(+15^{\circ}\text{C})+(+14^{\circ}\text{C}) \\ +(13^{\circ}\text{C})+(+14^{\circ}\text{C})+(+12^{\circ}\text{C})+(+10^{\circ}\text{C})+(+8^{\circ}\text{C})+(+7^{\circ}\text{C})+(+8^{\circ}\text{C})+(+5^{\circ}\text{C})+(+6^{\circ}\text{C})+(+6^{\circ}\text{C})+(+4^{\circ}\text{C})+ \\ +(13^{\circ}\text{C})+(+10^{\circ}\text{C})+(+8^{\circ}\text{C})+(+7^{\circ}\text{C})+(+8^{\circ}\text{C})+(+5^{\circ}\text{C})+(+6^{\circ}\text{C})+(+6^{\circ}\text{C})+(+4^{\circ}\text{C})+(+3^{\circ}\text{C})+(+1^{\circ}\text{C})+(+1^{\circ}\text{C})+(2^{\circ}\text{C}) \\ (+5^{\circ}\text{C})+(+6^{\circ}\text{C})+(+7^{\circ}\text{C})+(+6^{\circ}\text{C})+(+4^{\circ}\text{C})+(+3^{\circ}\text{C})+(+1^{\circ}\text{C})+(+1^{\circ}\text{C})+(2^{\circ}\text{C}) \\ +(2^{\circ}\text{C})+(+4^{\circ}\text{C})+(+3^{\circ}\text{C}) = +210^{\circ}\text{C}.$$

$$+210^{\circ}\text{C} : 30 = +7^{\circ}\text{C}.$$

Oylik amplitudani aniqlash uchun avvalo eng yuqori va eng past haroartlarni aniqlab olamiz va ular o'rtasidagi tafovutni topamiz. Tafovutni toppish uchun bir xil ishoralilar ayrıldi, har xil ishoralilar qo'shiladi.

Misolimizda eng yuqori harorat $+15^{\circ}\text{C}$, eng past harorat esa -2°C . Ular xil ishorali bo'lganligi uchun ularni qo'shamiz. $15+2=17$

Javob: Chirchiqda noyabr oyining o'rtacha harorati $+7^{\circ}\text{C}$ ga teng.

Oylik amplituda esa 17°C ga teng ekan.

3-masala. Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib, Samarqand shahrining yillik o'rtacha haroratini aniqlab, yillik amplitudani toping.

| Oylar | Oylik o'rtacha harorat | Oylar | Oylik o'rtacha harorat | Oylar | Oylik o'rtacha harorat |
|--------|------------------------|--------|------------------------|---------|------------------------|
| Yanvar | $+5^{\circ}\text{C}$ | May | $+27^{\circ}\text{C}$ | Sentabr | $+24^{\circ}\text{C}$ |
| Fevral | $+12^{\circ}\text{C}$ | Iyun | $+30^{\circ}\text{C}$ | Oktabr | $+16^{\circ}\text{C}$ |
| Mart | $+17^{\circ}\text{C}$ | Iyul | $+32^{\circ}\text{C}$ | Noyabr | $+9^{\circ}\text{C}$ |
| Aprel | $+22^{\circ}\text{C}$ | Avgust | $+28^{\circ}\text{C}$ | Dekabr | $+6^{\circ}\text{C}$ |

Yechish: yil davomidagi oylik o'rtacha haroratlarni qo'shib, bir yildagi oylar soniga, ya'ni 12 ga taqsimlaymiz:

$$(+5^{\circ}\text{C}) + (+12^{\circ}\text{C}) + (+17^{\circ}\text{C}) + (+22^{\circ}\text{C}) + (+27^{\circ}\text{C}) + (+30^{\circ}\text{C}) + (+32^{\circ}\text{C}) +$$

$$(+28^{\circ}\text{C}) + (+24^{\circ}\text{C}) + (+16^{\circ}\text{C}) + (+9^{\circ}\text{C}) + (+6^{\circ}\text{C}) = +228^{\circ}\text{C}.$$

$$+228^{\circ}\text{C} : 12 = +19^{\circ}\text{C}.$$

Yillik amplitudani aniqlash uchun avvalo eng yuqori va eng past haroartlarni aniqlab olamiz va ular o'rtasidagi tafovutni topamiz. Tafovutni toppish uchun bir xil ishoralilar ayrıldi, har xil ishoralilar qo'shiladi.

Misolimizda eng yuqori harorat $+32^{\circ}\text{C}$, eng past harorat esa $+5^{\circ}\text{C}$.

Ular bir xil ishorali bo'lganligi uchun ayramiz. $32-5=27$

Javob: Samarqandda yillik o'rtacha harorat $+19^{\circ}\text{C}$ ga teng. Yillik amplituda esa 27°C ga teng ekan.

4-masala. Agar yer yuzida harorat $+12^{\circ}\text{C}$ ga teng bo'lsa, 3,6 kilometr balandlikdagi havo haroratini aniqlang.

Yechish: Yuqoridagi qonuniyatga amal qilgan holda, ya'ni troposferada havo harorati o'rtacha har 100 metr balandlikda $0,6^{\circ}\text{C}$ ga, har 1000 metr (1 kilometr) balandlikka ko'tarilganda esa 6°C ga pasayib borishini hisobga olib, proporsiya tuzamiz va uni yechamiz: $3,6 \text{ kilometr} = 3600 \text{ metr}$

$$100 \text{ m} \longrightarrow 0,6^{\circ}\text{C}$$

$$3600 \text{ m} \longrightarrow X$$

$$x = \frac{3600 \text{ m} \times 0,6^{\circ}\text{C}}{100 \text{ m}} = 21,6^{\circ}\text{C}$$

Demak, 3600 metr balandlikka ko'tarilguncha havo harorati $21,6^{\circ}\text{C}$ pasayib borar ekan, Yer yuzida havo harorati ($+12^{\circ}\text{C}$) ma'lum bo'lib, 3600 metr balandlikdagi havo haroratini topish uchun undan natija ($21,6^{\circ}\text{C}$) ni ayiramiz.

$$(+12^{\circ}\text{C}) - (21,6^{\circ}\text{C}) = -9,6^{\circ}\text{C}.$$

Javob: yer yuzasida havo harorati $+12^{\circ}\text{C}$ ga teng bo'lganda 3600 metr balandlikda harorat $-9,6^{\circ}\text{C}$ ga teng bo'ladi.

5-masala. Agar tog' etagidagi havo harorati $+30^{\circ}\text{C}$, tog' cho'qqisidagi havo harorati esa -6°C bo'lsa, shu tog'ning balandligini aniqlang.

Yechish: dastlab haroratlar orasidagi farqni topib olamiz, farqni toppish uchun huddi amplitudani topishdagi qoidaga amal qilamiz, ya'ni bir xil ishoralilar ayrıldi, har xil ishoralilar qo'shiladi. Misolimizdagi haroratlar har xil ishorali bo'lganliklari uchun ularni qo'shamiz. $30 + 6 = 36^{\circ}\text{C}$.

Havo harorati har 1000 metr balandlikka ko'tarilganda 6°C ga pasayishini hisobga olib proporsiya tuzamiz va uni yechamiz:

$$1000 \text{ metr} \longrightarrow 6^{\circ}\text{C}$$

$$X \text{ metr} \longrightarrow 36^{\circ}\text{C}$$

$$x = \frac{1000 \text{ m} \times 36^{\circ}\text{C}}{6^{\circ}\text{C}} = 6000 \text{ m}$$

Demak, harorat 36°C pasayishi uchun, 6000 metr balandlikka ko'tarlishimiz kerak bo'lar ekan.

Javob: tog'ning balandligi 6000 metrga teng.

6-masala. Tog'ning balandligi 4500 metr bo'lib, uning tepasida havo harorati -3°C bo'lsa, tog' etagidagi havo haroratini aniqlang.

Yechish: Yuqoridagi qonuniyatga amal qilgan holda proporsiya tuzamiz va uni yechamiz:

$$100 \text{ m} \longrightarrow 0,6^{\circ}\text{C}$$

$$4500 \text{ m} \longrightarrow X$$

$$x = \frac{4500 \text{ m} \times 0,6^{\circ}\text{C}}{100 \text{ m}} = 27^{\circ}\text{C}$$

Demak, 4500 metr balandlikka ko'tarilguncha havo harorati 27°C ga pasayar ekan, shuni hisobga olib, tog' etagidagi havo haroratini

topish uchun hisoblab topgan natijani tog' tepasidagi haroratga qo'shamiz.

$$(27^{\circ}\text{C}) + (-3^{\circ}\text{C}) = +24^{\circ}\text{C}.$$


Javob: tog' etagidagi havo harorati $+24^{\circ}\text{C}$ ga teng ekan.

Atmosfera bosimini aniqlash.

Atmosferaning og'irligi Yerning og'irligidan million marta kam bo'lsada, lekin u yer yuzasini katta kuch bilan bosib turadi. Havoning Yer yuzasiga va undagi barcha narsalarga beradigan bosimi **havo bosimi** deb ataladi. Havo yer yuzasininghar bir metr kvadrat qismiga taxminan 10 tonna kuch bilan bosadi. Inson tanasining yuzasini o'rta hisobda 1,5 metr kvadrat deb olsak, odam gavdasiga 15 tonna kuch bilan bosib turadi. Lekin, odam bu bosimni sezmaydi, sababi, havo bosimi odam tanasidagi ichki bosim bilan bir xil, ya'ni muvozanatlashgan bo'ladi.

Havo juda yengilga o'xshaydi, lekin uning ham og'irligi bor. Yer yuzasida bir metr kub havoning og'irligi 1 kilogramm 330 gramm (1330 gramm yoki 1,33 kilogramm) ni tashkil etadi. Shuningdek, havo 1 sm^2 yuzaga 1 kilogramm 330 gramm kuch bilan bosadi.

Havo bosimi barometr asbobi yordamida o'lchanadi. Barometr so'zi yunoncha so'z bo'lib, "baros" – og'irlilik, "metreo" – o'lchov ya'ni "og'irlikni o'lchovchi" degan ma'noni bildiradi. Barometr ikki xil bo'ladi: simobli barometr va barometr-aneroid. Simobli barometrdan meteorologik stansiyalarda atmosfera bosimini o'lchashda foydalilanadi. Simobli barometr uzunligi 1 m ga yaqin keladigan bir uchi berk shisha naydan iborat. Nayga simob to'ldirilib, simobli osaga to'ntarilsa, shisha naydagi simob ustuni tashqi havo bosimi bilan muvozanatlashguncha naydagi simobning ma'lum qismi metall kosaga to'kiladi, natijada naychadagi darajalarga qarab havo bisimini aniqlash mumkin (10-rasm).



11-rasm. Barometr-aneroid

ishlatiladigan asbob. Asosiy ish qismi ichidan havosi so'rib olingan elastik xususiyatli yassi to'garak quticha, ustki va ostki yuzasi to'lqinsimon qilib burmalangan. Havo bosimi o'zgarganda quticha o'z shaklini o'zgartiradi (bosim oshganda quticha siqiladi, kamayganda kengayadi) va bu o'zgarish richaglar tizimi yordamida shkalada harakatlanuvchi milga uzatiladi. Aneroid shkalasi simobli barometr yordamida darajalanadi.

Havo bosimi birligi asosan millibar (mb) yoki millimetrik simob ustuni (mm.s.u.) bilan ifodalanadi. 45° kenglikda dengiz sathida havo harorati 0°C bo'lganda barometr naychadagi simob 760 millimetrik (mm) balandlikka ko'tariladi va 760 mm simob ustuniga teng bo'ladi. Bunday bosim normal atmosfera bosimi deyiladi. Balandlikka ko'tarilgan sari atmosfera bosimi kamayadi. Pastki qatlamlarda tezroq, yuqori qatlamlarda esa sekinroq kamayadi, dengiz sathidan 6 km balandlikda atmosfera bosimi yer yuzidagi bosimning yarmini tashkil qiladi. Atmosfera bosimi balandlik bilangina emas, balki yer yuzining bir nuqtasidan ikkinchi bir nuqtasiga (kengliklar o'zgarganda) o'tganda, shuningdek vaqt o'tishi bilan (fasllar almashganda) ham o'zgaradi. Yuqoriga ko'tarilgan sari havo bosimi har o'rta hisobda 10 metrda 1 mm ga (100 metr da 10 mm ga, 1000 metr yoki 1 kilometrda 100 mm ga) kamayadi. Atmosfera bosimining 1 mm ga kamayishi uchun ko'tarilish zarur bo'lgan balandlik barometrik bosqich deb ataladi. Barometrik bosqich o'rta hisobda 10 metr deb qabul qilingan. Shuni ham unutmaslik lozimki, agar sizga ikki balandlik berilib, ulardagi biri ma'lum bo'lib ikkinchisini topish lozim bo'lsa, dastlab

simobli barometring bir kamchiligi bor: uni kishi o'zi bilan olib yurishi qiyin. Shu sababli sayohat va ekspeditsiyalarda havo bosimini aniqlashda barometr-aneroid dan foydalilanadi (11-rasm). Aneroid yunoncha so'z bo'lib, "a" – inkor qo'shimchasi, "neros" – suv, suyuqlik ya'ni "suyuqliksiz" degan ma'noni bildiradi. Aneroid – atmosfera bosimini o'lchash uchun

bu nuqtalar orasidagi nisbiy balandlikni aniqlab, so'ngra ikkinchi nuqtadagi havo bosimini topish mumkin. Misol uchun tog' etagi va tog' tepasidagi havo bosimlardan biri ma'lum bo'lib, ikkinchisi noma'lum bo'lsa, unda tog' etagi va tog' tepasi orasidagi nisbiy balandlikni aniqlab, so'ngra shu nisbiy balandlikdagi havo bosimini topasiz. Agar tog' etagidagi (past nuqtadagi) havo bosimi aniq bo'lib, tog' tepasidagi (baland nuqtadagi) havo bosimini topish kerak bo'lsa, unda tog' etagidagi havo bosimidan, nisbiy balandlikdagi havo bosimini ayramiz, natijada tog' tepasidagi havo bosimi kelib chiqadi. Aksincha, tog' tepasidagi (baland nuqtadagi) havo bosimi aniq bo'lib, tog' etagidagi (past nuqtadagi) havo bosimini topish kerak bo'lsa, unda tog' tepasidagi havo bosimiga, nisbiy balandlikdagi havo bosimini qo'shamiz.

Quyida havo bosimini aniqlashga oid masalalarni ishlaymiz.

1-masala. Agar stolning eni 80 sm, uzunligi 140 sm bo'lsa, havo uning yuzasiga qancha kuch bilan bosadi?

Yechish: dastlab, stolning yuzini topib olamiz, yuzani topish uchun stolning eni va uzunligini bir biriga ko'paytiramiz.

$$80 \text{ sm} \times 140 \text{ sm} = 11200 \text{ sm}^2$$

So'ngra havo 1 sm² yuzaga 1 kilogramm 330 gramm (1 kg 330 gr=1330 gr.) kuch bilan ta'sir etishini hisobga olib, proporsiya tuzamiz va uni yechamiz:

$$1 \text{ sm}^2 \text{ --- } 1330 \text{ gr.}$$

$$11200 \text{ sm}^2 \text{ --- } X \text{ gr.}$$

$$x = \frac{11200 \times 1330}{1} = 14896000$$

$$14896000 \text{ gram} = 14896 \text{ kg}$$

Javob: havo eni 80 sm, uzunligi 140 sm bo'lgan stolning yuzasiga 14896 kilogramm, ya'ni 14 tonna 896 gramm kuch bilan bosar ekan.

2-masala. Tog' etagida (mutloq balandlik 300 metr) havo bosimi 730 mm simob ustuniga teng, shu tog' cho'qqisi 4550 metrga teng bo'lsa, u yerdag'i havo bosimini hisoblang.

Yechish: dastlab, bu tog' cho'qqisining tog' etagiga nisbatan nisbiy balandligini topamiz, buni uchun tog' cho'qqisidan (4550 m), tog' etagining balandligini (300 m) ayramiz. $4550 \text{ m} - 300 \text{ m} = 4250 \text{ m}$

So'ngra, havo bosimi har 100 metr balandlikda 10 mm simob ustuniga kamayishi ma'lum. Shuni hisobga olib proporsiya tuzamiz va uni yechamiz:

$$100 \text{ metr} - 10 \text{ mm simob ustuni}$$

$$4250 \text{ metr} - X$$

$$x = \frac{4250 \times 10 \text{ mm.s.u.}}{100 \text{ m}} = 425 \text{ mm.s.u.}$$

Endi yuqoridagi tavsiyalarga amal qilib, ya'ni tog' etagida havo bosimi (730 mm.s.u.) aniq bo'lganligi uchun undan, nisbiy balandlikdagi havo bosimini (425 mm.s.u.) ayramiz.

$$730 \text{ mm.s.u.} - 425 \text{ mm.s.u.} = 305 \text{ mm.s.u.}$$

Javob: Tog' cho'qqisida havo bosimi 305 mm simob ustuniga teng ekan.

3-masala. Dengiz bo'yida havo bosimi 760 mm. simob ustuniga teng bo'lsa, 1500 metr balandlikdagi atmosfera bosimini aniqlang?

Yechish: Havo bosimi 1000 metr yuqoriga ko'tarilganda 100 mm ga kamayadi. Shuni hisobga olib proporsiya tuzamiz.

$$1000 \text{ metr} - 100 \text{ mm.s.u.}$$

$$1500 \text{ metr} - X$$

$$x = \frac{1500 \times 100 \text{ mm.s.u.}}{1000 \text{ m}} = 150 \text{ mm.s.u.}$$

Endi yuqoridagi tavsiyalarga amal qilib, ya'ni dengiz bo'yidagi havo bosimi (760 mm.s.u.) aniq bo'lganligi uchun undan, nisbiy balandlikdagi havo bosimini (150 mm.s.u.) ayramiz.

$$760 \text{ mm.s.u.} - 150 \text{ mm.s.u.} = 610 \text{ mm simob ustuniga teng.}$$

Javob: 1500 metr balandlikdagi atmosfera bosimi 610 mm simob ustuniga teng ekan.

4-masala. 5000 metr balandlikga ko'tarilgan alpinistlarning barometrlari 250 mm simob ustunini ko'rsatdi. Shu tog' etagida havo bosimi simob ustuni qanchaga teng bo'ladi?

Yechish: Yana proporsiya tuzamiz.

$$1000 \text{ metr} - 100 \text{ mm.s.u.}$$

$$5000 \text{ metr} - X$$

$$x = \frac{5000 \times 100 \text{ mm.s.u.}}{1000 \text{ m}} = 500 \text{ mm.s.u.}$$

Endi yuqoridagi tavsiyalarga amal qilib, ya'ni 5000 metr balandlikdagi havo bosimi (250 mm.s.u.) aniq bo'lib, tog' etagida

havo bosimi noaniq bo‘lganligi uchun unga, nisbiy balandlikdagi havo bosimini (500 mm.s.u.) qo‘shamiz.

$$250 \text{ mm} + 500 \text{ mm} = 750 \text{ mm s.u.}$$

Javob: tog‘ etagida havo bosimi 750 mm simob ustuniga teng ekan.

5-masala. Tog‘ yonbag‘rining 1200 metr balandligida havo harorati $+4^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi. Shu tog‘ning 3700 metrlik cho‘qqisidagi havo harorati va bosimini aniqlang?

Yechish: dastlab, bu tog‘ cho‘qqisining tog‘ yonbag‘riga nisbatan nisbiy balandligini topamiz, buni uchun tog‘ cho‘qqisidan (3700 m), tog‘ yonbag‘rining balandligini (1200 m) ayramiz. $3700 \text{ m} - 1200 \text{ m} = 2500 \text{ m}$

So‘ngra, havo harorati 1000 metr balandlikga ko‘tarilganda 6°C ga pasayishini hisobga olib, proporsiya tuzib, uni ishlaymiz.

$$3700 \text{ metr} - 1200 \text{ metr} = 2500 \text{ metr}$$

$$1000 \text{ metr} — 6^{\circ}\text{C}$$

$$2500 \text{ metr} — x$$

$$x = \frac{2500 \text{ m} \times 6^{\circ}\text{C}}{1000 \text{ m}} = 15^{\circ}\text{C}$$

$$+4^{\circ}\text{C} - 15^{\circ}\text{C} = -11^{\circ}\text{C}$$

Endi tog‘ning 3700 metrlik cho‘qqisidagi havo bosimini topish uchun, havo bosimi 1000 metr yuqoriga ko‘tarilganda 100 mm ga kamayib borishini inobatga olib, proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz.

$$1000 \text{ metr} — 100 \text{ mm.s.u.}$$

$$3700 \text{ metr} — x$$

$$x = \frac{3700 \text{ m} \times 100 \text{ mm.s.u.}}{1000 \text{ m}} = 370 \text{ mm.s.u.}$$

Endi yuqoridagi tavsiyalarga amal qilib, ya’ni dengiz bo‘yidagi narmal atmosfera bosimi (760 mm.s.u.) ma’lum bo‘lganligi uchun undan, 3700 metrli cho‘qqidagi havo bosimini (370 mm.s.u.) ayramiz.

$$760 \text{ mm} - 370 \text{ mm} = 390 \text{ mm simob ustuniga teng?}$$

Javob: 3700 metrlik cho‘qqida havo harorati -11°C , havo bosimi esa 390 mm simob ustuniga teng ekan.

6-masala. Tog‘ etagidagi qishloqda havo bosimi 670 mm simob ustuniga, tog‘ tepasida esa 210 mm simob ustuniga teng bo‘lsa, bu tog‘ning nisbiy va mutloq balandligini toping.

Yechish: dastlab, nisbiy balandlikni topib olish kerak, buni uchun tog‘ etagidagi qishloqda havo bosimidan (670 mm.s.u.), tog‘ tepasidagi havo bosimini (210 mm.s.u.) ayramiz.

$$670 \text{ mm.s.u.} - 210 \text{ mm.s.u.} = 460 \text{ mm.s.u.}$$

So‘ngra, havo bosimi 1000 metr yuqoriga ko‘tarilganda 100 mm ga kamayib borishini inobatga olib, proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz.

$$1000 \text{ metr} — 100 \text{ mm.s.u.}$$

$$X \text{ metr} — 460 \text{ mm.s.u}$$

$$x = \frac{1000 \text{ m} \times 460 \text{ mm.s.u.}}{100 \text{ mm.s.u.}} = 4600 \text{ m}$$

Demak nisbiy balandlik 4600 metr ekan.

Endi mutloq balandlikni topish kerak, buni uchun dengiz bo‘yidagi narmal atmosfera bosimi (760 mm.s.u.) ma’lum bo‘lganligi uchun undan tog‘ etagidagi bosimni (670 mm.s.u.) ayramiz.

$$760 \text{ mm.s.u.} - 670 \text{ mm.s.u.} = 90 \text{ mm.s.u.}$$

So‘ngra, yuqoridagilar kabi, havo bosimi 1000 metr yuqoriga ko‘tarilganda 100 mm ga kamayib borishini inobatga olib, proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz.

$$1000 \text{ metr} — 100 \text{ mm.s.u.}$$

$$X \text{ metr} — 90 \text{ mm.s.u}$$

$$x = \frac{1000 \text{ m} \times 90 \text{ mm.s.u.}}{100 \text{ mm.s.u.}} = 900 \text{ m}$$

Demak, tog‘ etagining nisbiy balandligi 900 metrga teng ekan. Tog‘ning mutloq balandligini topish uchun aniqlangan ikki nisbiy balandliklarni qo‘shamiz.



$$4600 \text{ m} + 900 \text{ m} = 5500 \text{ m}$$

Javob: Tog‘ tepasining tog‘ etagidagi qishloqqa nisbatan nisbiy balandligi 4600 metrga, mutloq balandligi esa 5500 metrga teng ekan.

Shamol gulini chizish.

Yer shari sharsimon bo‘lganligi uchun quyosh nurlari uni hamma joyiga bir tekisda tushmaydi, ya’ni turli hududlarni turlicha isitadi, natijada bu hududlarda havo bosimi turlicha bo‘ladi. Bosim yuqori bo‘lgan hududdan bosim past bo‘lgan hududga tomon havoning yer yuzasi bo‘ylab gorizontal harakati shamol deb aytildi. Ikki hududdagi havo bosimlari orasidagi farq qanchalik katta bo‘lsa, shamol shunchalik kuchli bo‘ladi, ya’ni shamolning tezligi havo bosimlari orasidagi farqning katta yoki kichikligiga bog‘liq.

Shamolning yo‘nalishi va tezligi **flyuger** hamda **anemometr** asbobilari yordamida aniqlanadi. Flyuger so‘zi nemischa “Fluger” va gollandcha “vleugel” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib “qanot” degan ma’noni anglatadi. Flyuger – shamol yo‘nalishi va ma’lum tezlikkacha bo‘lgan shamol tezligini aniqlaydi (12-rasm). U vertikal o‘qqa qo‘zg‘almas qilib mahkamlangan shamol yo‘nalishi ko‘rsatkichlari, sterjenda erkin aylanuvchi posangili flyugarka (qanotcha)lar, yoy va shtiftlar biriktirilgan metall plastinkadan iborat. Shamol yo‘nalishini 8 ta yo‘nalish bo‘yicha ya’ni 4 ta asosiy 4 ta oraliq gorizant tomonlari bilan aniqlanadi va shamolning yo‘nalishi shamol esayotgan gorizant tomoni bilan ataladi. Shamol yo‘nalishini flyugarka bo‘yicha aniqlanadi. Flyugarkaning posangisi hamisha shamolga teskari yo‘nalgan bo‘lib, flyugarkani uchi esa har doim shamol esayotgan yo‘nalishni ko‘rsatadi. Shamol tezligini esa metall plastinaning vertikal vaziyatdan ma’lum burchakka og‘ishi (yoga belgilangan) bo‘yicha o‘lchanadi. Shamol qanchalik tezliga qancha katta bo‘lsa, u metall plastinani shuncha yuqoriga ko‘taradi, natijada yoga belgilangan og‘ish burchagiga qarab shamol tezligi aniqlanadi. Lekin flyuger bilan faqat 40 m/s gacha bo‘lgan shamol tezligini o‘lchash mumkin. Shu sababli, shamolning tezligini aniq o‘lchash uchun anemometr asbobidan foydalilaniladi (13-rasm). Anemometr so‘zi yunoncha so‘z bo‘lib, “anemos” – shamol, “metreo” – o‘lchov ya’ni shamolni o‘lchayman degan ma’noni anglatadi.



Shamolning kuchi ingliz harbiy gidrografi va xaritachisi F. Bofort taklif etgan 12 balli xalqaro shkala bo‘yicha aniqlanadi. Bofort shkalasida tezlik 0 dan 12 gacha ball bilan hisoblanadi (2-jadval).

Bofort shkalasi

2-jadval

| Bofort balli | Shamol nomi | Shamolning tezligi (m/s) | Bofort balli | Shamol nomi | Shamolning tezligi (m/s) |
|--------------|-------------|--------------------------|--------------|-----------------|--------------------------|
| 0 | Shtil | 0–0.5 | 7 | Juda kuchli | 12.5–15.2 |
| 1 | Sokin | 0.6–1.7 | 8 | Bo‘ron | 15.3–18.2 |
| 2 | Yengil | 1.8–3.3 | 9 | Qattiq bo‘ron | 18.3–21.5 |
| 3 | Shabada | 3.4–5.2 | 10 | Dovul | 21.6–25.1 |
| 4 | Kuchsiz | 5.3–7.4 | 11 | Kuchli dovul | 25.2–28.9 |
| 5 | O‘rtacha | 7.5–9.8 | 12 | Halokatli dovul | 29.0 va undan ortiq |
| 6 | Kuchli | 9.9–12.4 | | | |

Shamollarni sayyoraviy va mahalliy shamollarga ajratish mumkin. Sayyoraviy omillar ta’sirida vujudga keluvchi shamollar sayyoraviy shamollar deb ataladi. Ularga “Passat”, “musson”, “g‘arbiy shamollar”, “shimoli-sharqiy” kabi shamollarni misol qilish mumkin. Mahalliy omillar ta’sirida vujudga keluvchi shamollar esa mahalliy shamollar deb ataladi. Ularga, “fyon”, “samum”, “tog‘-vodiyl”, yurtimizda sodir bo‘ladigan “afg‘on”, “Bekobod”, “Qo‘qon” kabi shamollarini kiritishimiz mumkin

Shamol o‘z yo‘nalishini tez tez o‘zgartiradi. Shamol gorizantning qaysi tomonidan qancha vaqt va ularning takrorlanishini aniqlab, grafik holatga keltirganda ko‘p burchakli “shamol guli” hosil bo‘ladi. Biror joyda muayyan vaqt (yil, oy, hafta) davomida esgan shamollarning yo‘nalishini ko‘rsatuvchi chizma “shamol guli” deb ataladi. “Shamol guli” ni chizish uchun dastlab, bir nuqtada kesishadigan ufqning asosiy va oraliq tomonlarini ko‘rsatuvchi chiziqlari chiziladi. So‘ngra shamol esgan ufq tomonlarini ko‘rsatuvchi chiziqlqa, shu yo‘nalishda qancha vaqt shamol esgan bo‘lsa, o‘sha vaqlarni (davomiyligi va takrorlanishlariga qarab) nuqta bilan belgilab chiqiladi. Shunda har bir chiziqlqa belgilangan nuqtaning markazdan uzoqligi shu tomondan esgan shamollar vaqtiga mos bo‘ladi. Shundan so‘ng har bir chiziqlqa belgilangan nuqtalar bir birlari bilan birlashtiriladi, natijada ko‘p burchakli “shamol guli” hosil bo‘ladi.

Quyida shamol gulini chizishga oid mashqlarni bajaramiz.

1-mashq. Avgust oyining dastlabki 15 kunligida Chirchiq shahrida shamol quyidagi yo'nalishlardan esgan bo'lsa, ushbu ma'lumotlardan foydalanib, "shamol gulii" ni chizing.


| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
|-------|--------|-------|-------|----|--------|------|-----|
| Sh-G' | G' | J-Shq | J | Sh | Sh-Shq | J-G' | Shq |
| 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | |
| G' Sh | J - G' | Sh-G' | J-Shq | G' | Sh | Sh | |

Yechish: dastlab ma'lumotlarni tahlil qilib, ufq tomonlaridan necha kun qaysi tomondan esganini sanab chiqib, quyidagicha tartibda joylashtirib chiqamiz.


| Sh | Sh-shq | Shq | J-shq | J | J-g' | G' | Sh-g' |
|----|--------|-----|-------|---|------|----|-------|
| 3 | 1 | 1 | 2 | 1 | 2 | 3 | 2 |

So'ngra, masshtab tanlab olamiz. Masalan, masshtab 1 santimetrdan 1 kun.

Endi bir nuqtada kesishadigan ufqning asosiy va oraliq tomonlarini ko'rsatuvchi chiziqlari chizib, shamol qaysi tomondan necha kun esgan bo'lsa, ularni masshtab yordamida nuqta bilan belgilab olamiz.



Javob: Endi bu nuqtalarni bir-birlari bilan tutashtirib chiqamiz.





2-mashq. Termizda aprel oyi davomida esgan shamollarning umumiy hissasini 100 % deb olsak, shundan 13 % i shimoldan, 10 % i shimoli-sharqdan, 9 % i sharqdan, 16 % i janubi sharqdan, 26 % i

janubdan, 15 % i janubi-g'arbdan, 5 % i g'arbdan va 6 % i shimoli-g'arbdan esganligi ma'lum bo'lsa, ushbu ma'lumotlardan foydalanib, "shamol gulii"ni chizing.

Yechish: Ba'zan shamol esgan tomonlar yuqoridagi kabi kunlarda emas, foizlarda ham beriladi. U holda dastlab, masshtab tanlab olamiz. Masalan, masshtab 1 millimetrdan 1 %. Endi bir nuqtada kesishadigan ufqning asosiy va oraliq tomonlarini ko'rsatuvchi chiziqlari chizib, shamol qaysi tomondan necha foiz esgan bo'lsa, ularni masshtab yordamida nuqta bilan belgilab olamiz.

Javob: Endi bu nuqtalarni bir-birlari bilan tutashtirib chiqamiz.



3-mashq. Quyidagilarning qaysi birida shamolning esishi to'g'ri ko'rsatilgan, javobizni izohlang.

- A) 638 mm.s.u. → 683 mm.s.u.
B) 645 mm.s.u. ← 654 mm.s.u.

Yechish:

- A) $638 \text{ mm.s.u.} < 683 \text{ mm.s.u.}$
B) $645 \text{ mm.s.u.} < 654 \text{ mm.s.u.}$

Javob: to'g'ri javob B. Sababi shamol har doim yuqori bosimli hududdan past bosimli hududga tomon harakat qiladi.

4-mashq. Ma'lum bir xil masofada turli joylardagi havo bosimi farqi quyidagicha bo'lganda, qaysi holatda shamol kuchliroq bo'ladi. Javobizni izohlang.

- A) 715 mm.s.u. → 702 mm.s.u.
 B) 662 mm.s.u. ← 698 mm.s.u.
 C) 712 mm.s.u. → 694 mm.s.u.
 D) 688 mm.s.u. ← 722 mm.s.u.

Yechish:

- A) $715 - 702 = 13$
 B) $698 - 662 = 36$
 C) $712 - 694 = 18$
 D) $722 - 688 = 34$

Javob: to‘g‘ri javob B. Sababi shamolning kuchi ikki hududdagi bosimlar orasidagi farqqa bog‘liq, ya’ni bosimlar orasidagi farq qancha katta bo‘lsa, shamol shunchalik kuchliroq esadi.

Havoning namligi va namlik koefitsiyentini hisoblash.

Ob-havo va iqlimning asosiy xususiyatlaridan biri havoning namlidigidir. Ma’lum bir vaqtida havoda mavjud bo‘lgan suv bug‘lari miqdori **havoning namligi** deb ataladi. Havo o‘zida doimo turli miqdorda suv bug‘larini ushlab turadi. Havoning o‘zida qancha suv bug‘ini tutib turishi uning haroratiga bog‘liq. Ya’ni agar havo qanchalik sovuq bo‘lsa, shuncha kam, qanchalik issiq bo‘lsa, shuncha ko‘p namni o‘zida ushlab tura oladi. Shu sababli havoning namligi kengliklar bo‘yicha (ekvatorda 1 m^3 havoda 25 gramm, tropiklarda 20 gramm, qutblarda 2–3 gramm), yer yuzasi holati bo‘yicha (cho‘llarda 4–5 gramm) va balandlikning ortishi bilan (agar yer yuzasida 6,6 gram bo‘lsa, 1000 metr balandlikda 0,52 gramm namlik bo‘ladi) o‘zgarib boradi. Demak, harorat va namlik bir biriga bog‘liq ekan. Quyidagi jadvalda haroratning o‘zgarishi bilan 1 m^3 havoning tarkibidagi namlik miqdori ham o‘zgarishi ifodalangan (3-jadval).

| Havo haroratining o‘zgarishi bilan havoning tartibidagi namlik miqdorining o‘zgarishi. | 1 m^3 havoning tarkibidagi namlik miqdori |
|--|---|
| +30°C | 30 g |
| +20°C | 17 g |
| +10°C | 9 g |
| 0°C | 5 g |
| -10°C | 2,4 g |
| -20°C | 1 g |
| -30°C | 0,3 g |



14-rasm. Gigrometr

Mutlaq namlik – bu bir metr kub havoda mavjud bo‘lgan suv bug‘ining massasi. Mutlaq so‘zi lotinchadan olingen bo‘lib, “mutlaq” – to‘liq degan ma’noni anglatadi. Mutlaq namlikning o‘lchov birligi – g/m^3 .

Nisbiy namlik – muayyan haroratli havoda mavjud bo‘lgan suv bug‘i miqdorining shunday haroratli havo to‘yinishi uchun zarur bo‘lgan suv bug‘i miqdoriga nisbati. Nisbiy namlik odatda foiz bilan o‘lchanadi. Yer yuzasida yog‘inlar yog‘ishi uchun havo namga to‘yingan, ya’ni havoda nisbiy namlik 100 % bo‘lishi kerak.

Havoning nisbiy namligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$R = (e \times 100 \%) \div E$$

Bu yerda: R – nisbiy namlik; e – havoda ayni vaqtida mavjud suv bug‘ining miqdori; E – havoning to‘yinishi uchun zarur bo‘lgan suv bug‘i miqdori.

Meteorologlar ob-havoni bashorat va prognozlar qilishda, tuproqshunoslar va boshqa mutaxassis olimlari suv ta’minoti xaritalarini, yerning meliorativ rejalarini tuzishda, botqoqli yerlarni quritish va zovur drenaj kanallarini loyihalashda, agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqish, sug‘orish vaqt va normalarni aniqlash, qurg‘oqchilikka turlicha chidamlari ekinlarni rayonlashtirishda va boshqa chora tadbirlarni ishlab chiqishda hududlarning namlik koefitsientini aniqlash lozim bo‘ladi.

Namlik koefitsiyenti – ma’lum bir hududdagi havoning namlik bilan ta’minlanganlik darajasi. Har qanday hududdagi namlik darajasi ikkita ko‘rsatkichga, ya’ni yerga tushgan yog‘in miqdori va yer yuzasidan bug‘langan namlik miqdoriga (bug‘lanuvchanlikka) bog‘liq

Havo namligini gigrometr asbobi bilan o‘lchanadi (14-rasm). Gigrometr yunon-cha so‘z bo‘lib, “higros” – nam, xo‘l, “metreo” – o‘lchayman, ya’ni namlikni o‘lchayman degan ma’noni anglatadi. Bu asbob yer yuzasidan 2 metr balandlikka o‘rnataladi.

Havoning namlik miqdori ikki xil: mutlaq namlik va nisbiy namlik tushunchalari bilan ifodalanadi.

bo‘ladi. Yog‘in miqdori ma’lum vaqt (yil, oy, hafta, sutka, soat) ichida yer yuzasiga tushgan namlikning qalnligi (mm) bilan o‘lchanadi. Ma’lum bir hududdagi muayyan nisbiy namlikning issiqlik evaziga bug‘lanishi mumkin bo‘lgan namlik miqdori (mm) bug‘lanuvchanlik deb ataladi. Bug‘lanuvchanlik namlik miqdori cheklanmagan sharoitda qancha bug‘lana olishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkich bilan ifodalanadi. Bug‘lanuvchanlik hududagi harorat bilan bog‘liq, ya’ni harorat qancha yuqori bo‘lsa, bug‘lanuvchanlik ko‘rsatgichi ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Biror bir hududda ma’lum bir davridagi yog‘in miqdorining huddi shu davrdagi bug‘lanuvchanlikka bo‘lgan nishti namlik koeffitsiyenti deb ataladi.

Namlik koeffitsiyenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K=Y \div B$$

Bu yerda: K—namlik koeffitsiyenti Y—yog‘in miqdori, B—bug‘lanuvchanlik

Quyida havoning namligi va namlik koeffitsiyentini hisoblashga oid masalalarni ishlaymiz.

1—masala. 1 m³ havoda +20°C da 11 gramm suv bug‘i mavjud bo‘lsa, havoning nisbiy namligini aniqlang.

Yechish: yuqoridagi jadvalga muvofiq +20°C haroratda havo 17 gramm suv bug‘ini o‘zida tutib turishi mumkinligini hisobga olib, nisbiy namlikni ikki usul yordamida aniqlash mumkin.

Birinchi usul. Yuqoridagi formula yordamida aniqlaymiz:

$R = (e \times 100\%) \div E$ R — nisbiy namlik; e — havoda ayni vaqtida mavjud suv bug‘ining miqdori (11 gramm); E — havoning to‘yinishi uchun zarur bo‘lgan suv bug‘i miqdori (17 gramm).

$$R = (11 \times 100\%) \div 17 = 64,7\%$$

Ikkinci usul. Proporsiya usulidan foydalanib aniqlaymiz:

$$17 \text{ gramm} - 100\%$$

$$11 \text{ gramm} - x$$

$$x = \frac{11 \times 100\%}{17} = 64,7\%$$

Ba’zan 64,7% ni taqriban deb 65% deb olish ham mumkin (64,7% ≈ 65%).

Javob: havoning nisbiy namligi 65 %.

2—masala. Havo harorati +30°C bo‘lganda, havoning nisbiy

namligi 60 % ni tashkil etsa, bu vaqtida 1 m³ havodagi suv bug‘ining miqdorini toping.

Yechish: yuqoridagi jadvalga muvofiq +30°C haroratda havo 30 gramm suv bug‘ini o‘zida tutib turishi mumkinligini va havoning nisbiy namligi 60 % ekanligini hisobga olib, havoda ayni vaqtida mavjud suv bug‘ining miqdorini ham ikki usul yordamida aniqlash mumkin.

Birinchi usul. Yuqoridagi formulaga ($R = (e \times 100\%) \div E$) asoslanib, havoda ayni vaqtida mavjud suv bug‘ining miqdorini topish formulasini keltirib chiqaramiz, so‘ngra hosil bo‘lgan formula yordamida aniqlaymiz:

$$R = (e \times 100\%) \div E \longrightarrow e = (R \times E) \div 100\%$$

e — havoda ayni vaqtida mavjud suv bug‘ining miqdori; R — nisbiy namlik (60 %); E — havoning to‘yinishi uchun zarur bo‘lgan suv bug‘i miqdori (30 gramm).

$$e = (60\% \times 30\text{g}) \div 100\% = 18 \text{ gramm}$$

Ikkinci usul. Proporsiya usulidan foydalanib aniqlaymiz:

$$30 \text{ gramm} - 100\%$$

$$x - 60\%$$

$$x = \frac{30 \times 60\%}{100\%} = 18\text{g}$$

Javob: 1 m³ havodagi suv bug‘ining miqdori 18 gramm ni tashkil etadi.

3—masala. Sinf xonasi bo‘yi 8 m, kengligi 5 m, baladligi 3 m bo‘lsa, bu xonadagi havoning massasini aniqlang.

Yechish: Avval sinf xonasining hajmini topamiz buning uchun xonaning uchta o‘lchovini ko‘paytiramiz. $V = 8 \text{ m} \times 5 \text{ m} \times 3 \text{ m} = 120 \text{ m}^3$, Bizga 1 m³ havoning massasi 1330 gramm ekanligi ma’lum. Endi proporsiya tuzamiz va yechamiz:

$$1 \text{ m}^3 — 1330 \text{ gr}$$

$$120 \text{ m}^3 — X$$

$$X = \frac{1330 \times 120}{1} = 159600 \text{ g}$$

Javob: demak sinf xonasidagi havoning massasi 159600 gr (159,6 kg.) ga teng ekan.

4—masala. Agar yillik yog‘in miqdori 700 mm, mumkin bo‘lgan bug‘lanish miqdori esa 1200 mm ga teng bo‘lsa, namlik koeffitsiyentini aniqlang.

Yechish: yuqoridagi formulaga asoslanib, berilgan ma'lumotlar asosida namlik koeffitsiyentini aniqlaymiz:

$$K=Y \div B$$

K—namlik koeffitsiyenti; Y—yog'in miqdori (700 mm), B—bug'lanuvchanlik (1200 mm)

$$K=300 \div 1000 = 0,3$$

Javob: namlik koeffitsiyenti 0,3 ga teng. (Agar namlik koeffitsiyentini foizda toping deb berilsa, natijani 100 ga ko'paytirsangiz bo'lidi, ya'ni $0,3 \times 100 = 30\%$)

5-masala. Agar yog'in miqdori 200 mm, namlik koeffisenti 0,5 ni tashkil etsa, bug'lanuvchanlik aniqlang.

Yechish: yuqoridagi ($K=Y \div B$) formulaga asoslanib, Bug'lanuvchanlikni topish formulasini keltirib chiqaramiz buni uchun bug'lanuvchanlik bilan namlik koeffisentini o'rnni almashtiramiz, almashtirganimiz uchun bo'lув ishorasini ham uni aksiga ya'ni ko'paytiruv ishorasiga aylantirib olamiz:

$$K=Y \div B \longrightarrow B=Y \times K$$

B—bug'lanuvchanlik; Y—yog'in miqdori (200 mm), K—namlik koeffitsiyenti(0,5);

$$B=200 \text{ mm} \times 0,5 = 100 \text{ mm}$$

Javob: demak bug'lanuvchanlik 100 mm ga teng bo'ladi.

6-masala. Agar namlik koeffisenti 0,8 ni, bug'lanuvchanlik 900 mm ni tashkil etsa, yog'in miqdorini aniqlang.

Yechish: yuqoridagi ($K=Y \div B$) formulaga asoslanib, yog'in miqdorini topish formulasini keltirib chiqaramiz buni uchun yog'in miqdori bilan namlik koeffisentini o'rnni almashtiramiz, almashtirganimiz uchun bo'lув ishorasini ham uni aksiga ya'ni ko'paytiruv ishorasiga aylantirib olamiz:

$$K=Y \div B \longrightarrow Y=K \times B$$

Y—yog'in miqdori; K—namlik koeffitsiyenti (0,8); B—bug'lanuvchanlik (900 mm)

$$Y=0,8 \times 200 \text{ mm} = 720 \text{ mm}$$

Javob: demak yog'in miqdori 720 mm ga teng bo'ladi.

Yog'in miqdorini aniqlash.

Bulutlardan yog'adigan yoki havoda suv bug'larining kondensatlanishi natijasida yer yuzasiga, o'simliklar va boshqa predmetlarga yuzasiga tushadigan suyuq yoki qattiq holatidagi suv yog'in deb

ataladi. Bulutlardan yomg'ir, qor va do'l ko'rinishida yog'in hosil bo'lsa, havodagi suv bug'laridan shudring, qirov, bulduruq tarzida ham yog'in hosil bo'ladi.

Bulutlardan yer yuzasiga suv tomchilari ko'rinishida yog'adigan yog'in yomg'ir deb ataladi. Yomg'irlarning diametri 0,5 mm dan 6–7 mm gacha bo'lgan suv tomchilaridan iborat bo'ladi. Atmosferadagi hamma bulutlardan yog'in hosil bo'lmaydi. Bulutlar tarkibida nisbiy namlik 100 % ga yetganda tarkibidagi suv tomchilari va muz kristallari yiriklashadi, natijada ularni havo o'zida ushlab tura olmaydi ya'ni og'irlik kuchi ta'sirida yer yuzasiga yog'in bo'lib tushadi. Atmosfera yog'inlari davomli va o'rtacha tezlikda, jala shaklida va mayda shivalab yog'uvchi yog'inlarga ajratiladi. Davomli va o'rtacha tezlikda yog'uvchi yog'inlar qatlamlari yomg'ir beruvchi va yuqori qatlaml bulutlardan yog'adi. Jala bo'lib yog'adigan yog'inlar yomg'irli to'p-to'p bulutlardan tusatdan katta tezlik bilan boshlanib, tezda tuxtaydi, issiq davrda esa momaqaldiroq bilan birgalikda o'tadi. Mayda shivalab yog'uvchi yog'inlar qatlamlari bulutlardan (ba'zan tumanlardan) mayda tomchi shaklida sekin yog'adi.

Havo harorati 0°C dan past bo'lganda bulutlardan muz kristallchalari tarzida yog'adigan yog'in qor deb ataladi. Muz kristallchalari shakli negizini olti burchakli plastinka yoki olti qirrali ustuncha tashkil etadi. Kristallchalarning diametri mm ning bir necha ulushidan bir necha mm gacha yetadi. Havo harorati 0°C atrofida bo'lganda qor uchqunlari bir-biri bilan yopishib, diametri 1 sm keladigan yirik qor donalarini hosil qiladi. Ayrim qor donalarining o'rtacha massasi 0,003 g gacha, yirik qor donalariniki esa 0,5 g gacha bo'ladi. Yer yuzasiga yoqqan qorning qalinligi santimetrlarga bo'lingan maxsus reyka bilan o'chanadi. Yoqqan qor tarkibidagi suv miqdori quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$W = Z \times Q$$


Bu yerda: W – qor tarkibidagi suv miqdori; Z – qor qatlaming zichligi; Q – qorning qalinligi.

Qor qatlaming zichligi hamma joyda har xil bo'ladi, bu huddudagi shamol tezligiga, yoqqan qor qalinligiga hamda xo'l qor yoki quruq qor turlariga va boshqa omillarga bog'liq. Tabiatda xo'l qor qatlami zichligi o'rtacha $0,20 \text{ g/m}^3$ ga, quruq qor qatlami zichligi esa o'rtacha $0,06 \text{ g/m}^3$ ga teng.

Bulutlardan asosan dumaloq shakldagi muz zarralari ko‘rinishidagi yog‘adigan yog‘in **do‘l** deb ataladi. Do‘l yilning ko‘proq iliq oylarida (Bahor va yozda) yog‘adi. Buning sababi, yer yuzasidan ko‘tarilayotgan iliq havo yuqoriga tez ko‘tarilib, bulutlarni harorat 0°C dan past bo‘lgan balandlikka olib chiqib ketadi va undagi suv tomchilari bu balandlikda muzlab do‘lga aylanadi. Natijada og‘irlik kuchi ta’sirida yer yuzasiga tushayotgan do‘lga suv zarrachalari yopishib ular kattalashib boradi. Shu sababdan ham do‘lning tuzilishi va hajmi juda xilma-xildir. Do‘l o‘lchamlari millimetrdan bir necha santimetrgacha bo‘lgan sharsimon yoki tartibsiz shakldagi muz zarralaridan iborat bo‘ladi. Diametri 10 sm va og‘irligi taxminan 1 kg bo‘lgan do‘l toshlari mavjud. Ba’zan do‘l qatlami bir necha santimetrga etadi. Lekin do‘l yer yuzasida bir necha daqiqadan yarim soatgacha, ko‘pincha 5–10 daqqa va juda kamdan-kam hollarda, taxminan 1 soat yoki undan ko‘proq saqlanib turushi mumkin, keyin erib suvgaga aylanadi.

Bahor va kuz oylarida kechqurun, kechasi va saharda yer yuzasidagi havoningsovishi va suv bug‘ining kondensatlanishi tufayli yer sirtida, turli narsalar va o‘simglik yaproqlari ustida hosil bo‘ladigan mayda suv tomchilari **shudring** deb ataladi. Shudring hosil bo‘lishiga sabab shuki, kunduzi isigan yer va o‘simgliklar kechqurun Quyosh botishi bilan tezda sovuydi. Natijada havodagi suv bug‘lari tomchilarga aylanib yer yuzasiga tushadi. Shudring havo harorati muayyan nuqtaga (shudring nuqtasi) tushganda hosil bo‘ladi. Havo ochiq va kuchsiz shamolli tunlarda shudring ko‘proq paydo bo‘ladi. Ertalab quyosh nurlari tushgach (yoki havo harorati shudring nuqtasidan oshgach), shudring bug‘lanib ketadi. Shudringlar bir kechada o‘rtacha 0,1–0,3 mm, mo‘tadil kengliklarda esa 0,5–1 mm qalinlikda tushadi. Shudringning yillik miqdori o‘rtacha 10–30 mm ni tashkil qiladi.

Sovuq, havo ochiq va shamolsiz tunlarda yer sirtida, turli narsalar va o‘simglik yaproqlari ustida hosil bo‘ladigan muz kristallari **qirov** deb ataladi. Qirov zarralari qor uchqunlariga o‘xshaydi, lekin ulardan farqli ravishda jimjimador bo‘lmaydi. Qirov ham shudring singari, havoningsovishi, ma’lum yuza ustida suv bug‘ining to‘yinishi va 0°C dan past haroratda muzlab qotishi oqibatida paydo bo‘ladi. Qirov tunda paydo bo‘lib, kunduz kuni erib, bug‘lanib ketadi.



15-rasm. Osadkomer

Ayozli sovuq kunlarda yoki tuman paytlarida nam havo zarralarining muzlashi tufayli daraxt shoxlari va predmetlar atrofida hosil bo‘ladigan muz kristallari bulduruq deb ataladi. Bulduruq yumshoq muz kristali yoki donachalari shaklida ayozli sovuq paytlarida daraxt shoxlari va simlarda paydo bo‘ladi. Qirovdan farqi shundaki, bulduruq izg‘irinli sovuq kunlarda bir necha kun erib, bug‘lanib ketmasdan saqlanib turadi.

Yer yuzasiga tushgan yog‘in miqdori, ya’ni suvli qatlam qalinligi mm da ifodalanadi. Meteorologik stansiyalarda yog‘in miqdorini o‘lchash uchun *yog‘in o‘lchagichdan* foydalilanadi. Yog‘in o‘lchagichlarning har xil turlari mavjud, Ko‘pgina yog‘in o‘lchagichlar suvning chayqalishining oldini olish uchun yetarlicha baland silindr dan iborat bo‘ladi, ba’zilari yog‘gan yog‘in miqdorini va vaqtini yozib boradi. Masalan, Osadkomer asbobi silindr shaklidagi chelakdan iborat bo‘lib, u bilan yer yuzasiga tushgan yog‘in miqdorini inson tomonidan tekshirilib o‘lchab boriladi. Bu asbobni geografiya maydonchalarida tez tez uchratish mumkin. (15-rasm)

Zamonaviy meteorologik stansiyalarda yog‘in o‘lchagichning yangi Plyuviograf asbobidan foydalilanadi, bu asbob vaqt bo‘yicha (yomg‘irning boshlanishi, tugashi va qancha vaqt davom etishi) tushgan suyuqlik yog‘inlarining miqdori va intensivligini doimiy ravishda o‘z xotirasida qayd etib boradi. Undan ma’lumotlarni istalgan vaqtida (kunlik, xaftalik, oylik, yillik) olish mumkin. (16-rasm)



16-rasm. Plyuviograf

natijada oylik yog‘in miqdori topiladi. Yillik yog‘in miqdorini topish

uchun esa yil davomidagi oylik yog'in miqdorlarini qo'shib chiqamiz va natijada yillik yog'in miqdori topiladi. Ba'zan ma'lum bir hududga yoqqan yog'in miqdori aniq bo'lib, shu hududning bir gektar yoki bir kvadrat kilometr maydoniga qancha yog'in tushganligini aniqlash lozimligi topshiriladi, bunday holatda, 1 gektar yoki 1 km^2 ni metr kvadratlarga aylantirib olamiz va yog'in miqdorini (mm) ham metrga aylantirib, ularni bir biriga ko'paytiramiz. Natijada bir gektar yoki bir kvadrat kilometr maydoniga qancha yog'in tushganligini aniq bo'ladi.

$$1 \text{ gektar} = 10\,000 \text{ m}^2. \quad 1 \text{ km}^2 = 1\,000\,000 \text{ m}^2. \quad 1000 \text{ mm} = 1 \text{ m}.$$

Quyida yog'in miqdorini aniqlashga oid masalalarni ishlaymiz.

1—masala. Tog'da yoqqan qorning qalinligi 40 sm bo'lib, uning zichligi 0,55 ga teng bo'lsa, qor tarkibidagi suv miqdorini aniqlang.

Yechish : Yuqorida keltirilgan formuladan foydalaniб aniqlaymiz.

$$W = Z \times Q$$

Bu yerda: W – qor tarkibidagi suv miqdori; Z – qor qatlaming zichligi (0,55); Q – qorning qalinligi (40 sm).

$$W = Z \times Q = 0,35 \times 15 \text{ sm} = 22 \text{ sm}.$$

Javob: qordagi suv miqdori 22 sm ga teng ekan.

2—masala. Chirchiq shahriga aprel oyi davomida kunlik yog'in miqdori (mm hisobida) quyidagicha yoqqanligi ma'lum bo'lsa, oylik yog'in niqdorini aniqlang.

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| 21 | 13 | 0 | 0 | 0 | 18 | 32 | 25 | 8 | 13 | 0 | 0 | 12 | 46 | 23 |
| 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 |
| 64 | 38 | 6 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 15 | 36 | 20 | 0 | 0 | 0 | 0 |

Yechish: Yuqorida qoidaga muvofiq oylik yog'in miqdorini topish uchun shu oydagisi kunlik yoqqan yog'in miqdorlarini qo'shib chiqamiz va oylik yog'in miqdorini aniqlaymiz.

Bunda yog'in yog'magan kurnarni ya'ni yog'in miqdori 0 ga teng bo'lgan kurnarni qo'shib chiqish shart emas, sababi, 0 qiymat qo'shilganda yig'indida hech qanday o'zgarish bo'lmaydi.

$$21+13+18+32+25+8+13+12+46+23+64+38+6+15+36+20 = 390 \text{ mm}.$$

Javob: Chirchiq shahriga aprel oyi davomida 390 mm yog'in yoqqan ekan.

3—masala. Surxondaryo viloyatiga yil davomidagi oylik yog'in miqdori (mm hisobida) quyidagicha yoqqanligi ma'lum bo'lsa, yillik yog'in miqdorini aniqlang.

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 |
|----|----|----|----|----|----|---|---|----|----|----|----|
| 81 | 73 | 92 | 64 | 38 | 12 | 0 | 0 | 54 | 75 | 83 | 78 |

Yechish: Yuqorida qoidaga muvofiq yillik yog'in miqdorini topish uchun esa yil davomidagi oylik yog'in miqdorlarini qo'shib chiqamiz va yillik yog'in miqdorini aniqlaymiz.

$$81+73+92+64+38+12+0+0+54+75+83+78 = 650 \text{ mm}.$$

Javob: Surxondaryo viloyatida yillik yog'in miqdori 650 mm ga teng.

4—masala. Toshkent shahrida yillik yog'in miqdori 580 mm ni tashkil etgan bo'lsa, shaharning 1 gektar va 1 km^2 maydoniga qancha yog'in tushganligini aniqlalang.

Yechish: Yuqorida qoidaga muvofiq, 1 gektar yoki 1 km^2 ni metr kvadratlarga aylantirib olamiz va yog'in miqdorini (mm) ham metrga aylantirib, ularni bir biriga ko'paytiramiz.

$$1 \text{ gektar} = 10\,000 \text{ m}^2.$$

$$1 \text{ km}^2 = 1\,000\,000 \text{ m}^2.$$

$1000 \text{ mm} = 1 \text{ m}$. Shuni hisobga olib, yog'in miqdori (580 mm) ni 1000 ga bo'lamiz . $580 \div 1000 = 0,58$

Endi natijani ifodalagan metr kvadratlarga ko'paytiramiz.

$$0,58 \text{ m} \times 10\,000 \text{ m}^2 = 5800 \text{ m}^3$$

$$0,58 \text{ m} \times 1\,000\,000 \text{ m}^2 = 580\,000 \text{ m}^3.$$

Javob: 1 gektar maydonga 5800 m^3 , 1 km^2 ga esa $580\,000 \text{ m}^3$ yog'in tushar ekan.

5—masala. Meteorologik stansiyada yil davomidagi oylik yog'in miqdori (mm hisobida) quyidagicha yoqqanligi ma'lum bo'lsa, har bir faslda yillik yog'inning necha foizi yog'ishini hisoblab toping.

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 |
|----|----|----|----|----|----|---|---|----|----|----|----|
| 58 | 74 | 88 | 62 | 53 | 22 | 9 | 6 | 14 | 34 | 48 | 52 |

Yechish: dastlab, har bir faslda yoqqan yog'in miqdorini aniqlab olamiz.

$$\text{Bahor faslida (ya'ni 3, 4, 5 oylarda)} 88+62+53=203 \text{ mm}$$

$$\text{Yoz faslida (ya'ni 6, 7, 8 oylarda)} 22+9+8=37 \text{ mm}$$

Kuz faslida (ya'ni 9, 10, 11 oylarda) $14+34+48=96$ mm

Qish faslida (ya'ni 12, 1, 2 oylarda) $52+58+74=184$ mm

So'ngra yillik yog'in miqdorini aniqlaymiz.

$$58+74+88+62+53+22+9+6+14+34+48+52=520 \text{ mm}$$

Endi har bir faslda yillik yog'inning necha foizi yoqqanligini topish uchun yuqoridaq raqamlardan foydalangan holda har bir faslga oid proporsiya tuzamiz va uni yechamiz.

Bahor fasli.

$$520 \text{ mm} — 100 \%$$

$$203 \text{ mm} — X$$

$$x = \frac{203 \text{ mm} \times 100\%}{520 \text{ mm}} = 39\%$$

Yoz fasli.

$$520 \text{ mm} — 100 \%$$

$$37 \text{ mm} — X$$

$$x = \frac{37 \text{ mm} \times 100\%}{520 \text{ mm}} = 7,1\%$$

Kuz fasli.

$$520 \text{ mm} — 100 \%$$

$$96 \text{ mm} — X$$

$$x = \frac{96 \text{ mm} \times 100\%}{520 \text{ mm}} = 18,5\%$$

Qish fasli.

$$520 \text{ mm} — 100 \%$$

$$203 \text{ mm} — X$$

$$x = \frac{184 \text{ mm} \times 100\%}{520 \text{ mm}} = 35,4\%$$

Javob: yillik yog'inning 39 % i bahor fasliga, 7,1 % i yoz fasliga, 18,5 % i kuz fasliga, 35,4 % i qish fasliga tog'ri kelar ekan.

Nazorat uchun savollar:

1. Havo harorati qanday asbob bilan o'lchanadi?
2. Sutkalik, oylik va yillik o'rtacha havo harorati qanday aniqlanadi?
3. Havo haroratinining kunlik, oylik va yillik amplitudasi qanday aniqlanadi?
4. Havo harorati balandlikka ko'tarilgan sari qanday o'zgaradi?

5. Havo bosimi qanday asbob bilan o'lchanadi?

6. Normal (meyordagi) atmosfera bosimi nima va u qanchaga teng?

7. Havo bosimi balandlikka ko'tarilgan sari qanday o'zgaradi?

8. Shamol nima? U qanday hosil bo'ladi?

9. Sayyoraviy va mahalliy shamollarga misollar keltiring.

10. Shamolning kuchi qaysi shkala bo'yicha aniqlanadi?

11. Havoning namligi nima?

12. Namga to'yingan havo deb nimaga aytildi?

13. Mutloq va nisbiy namlik nima?

14. Namlik koeffitsiyenti deb nimaga aytildi?

15. Yog'in nima? Yog'in turlariga tarif bering.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:

1) Agar tog' etagida havoning harorati $+5^{\circ}\text{C}$ va cho'qqisiga manfiy -15°C bo'lsa, uning baladligi necha km ni tashkil etadi.

2) Samolyot 3 km balandlikda uchib bormoqda. Yer yuzasida $+20^{\circ}\text{C}$ harorat bo'lsa, samolyot uchib borayotgan balandlikdagi haroratni aniqlang.

3) Havoning sutkalik o'rtacha haroratini va sutkalik amplitudani berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang: ertalab soat 7 da $+6^{\circ}\text{C}$, soat 10 da $+10^{\circ}\text{C}$, kunduzi soat 13 da $+16^{\circ}\text{C}$, soat 16 da $+20^{\circ}\text{C}$, kechqurun soat 19 da $+12^{\circ}\text{C}$, soat 21 da $+8^{\circ}\text{C}$ ga teng.

4) Yanvar oyining o'rtacha harorati -3°C , Iyul oyidagi o'rtacha harorat $+25^{\circ}\text{C}$ ga teng bo'lsa, bir yillik havo haroratinining amplitudasi necha darajaga teng ekanligini aniqlang.

5) Tog'ning 5200 m balandligida havo harorati $+3^{\circ}\text{C}$ bo'lsa, tog' etagida harorati necha darajaga teng bo'ladi?

6) Agar dengiz bo'yida havo bosimi 760 mm simob ustuniga teng bo'lsa, Klimanjaro cho'qqisida atmosfera bosimi qanchaga teng bo'lali?

7) Yer yuzasidagi normal atmosfera bosimi 760 mm simob ustuniga teng bo'lsa, dengiz sathidan qancha balandlikda bosim 320 mm ga teng bo'lishi mumkin?

8) Dengiz bo'yida havo bosimi 750 mm simob ustuniga teng. Huddi shu paytda 4500 m balandlikda havo bosimi necha mm simob ustuniga teng bo'lishi mumkinligini hisoblang.

9) Agar dengiz bo'yida havo bosimi 740 mm simob ustuniga teng bo'lsa, 5600 m balanlikda atmosfera bosimi qanchaga teng bo'ladi?

10) 4000 metr balandlikga ko'tarilgan alpinistlarning barometrlari 150 mm simob ustunini ko'rsatdi. Shu tog' etagida havo bosimi simob ustuni qanchaga teng bo'ladi?

11) Aprel oyining dastlabki 15 kunligida Surxondaryoda shamol quyidagi yo'nalishlardan esgan bo'lsa, ushbu ma'lumotlardan foydalanib, "shamol guli" ni chizing.

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
|-----|-------|-------|-------|----|--------|------|-------|
| Shq | Sh | G' | J-G' | J | Sh-Shq | J-G' | J-Shq |
| 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | |
| J | Sh-G' | Sh-G' | J-Shq | G' | J | Shq | |

12) Toshkent shahrida fevral oyining so'nggi 15 kunligida shamol quyidagi yo'nalishlardan esgan bo'lsa, ushbu ma'lumotlardan foydalanib, "shamol guli" ni chizing.

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
|----|--------|------|-------|--------|----|-------|------|
| Sh | Sh | Shq | Sh-G' | Sh-Shq | G' | J | J-G' |
| 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | |
| Sh | Sh-Shq | J-G' | J | J-Shq | J | Sh-G' | |

13) Chirchiq shahrida so'nggi bir oy davomida esgan shamollarning umumiyy hissasini 100% deb oladigan bo'lsak, shundan 24% i janubi-g'arbdan, 16% i g'arbdan, 4% i shimoli-g'arbdan, 16% i shimoldan, 20% i shimoli-sharqdan, 4% i sharqdan, 4% i janubi-sharqdan va 12% i janubdan esganligi kuzatilgan. Ushbu ma'lumotlardan foydalanib "shamol guli" ni chizing.

14) Toshkent shahrida so'nggi 20 kun davomida shamollar quyidagi yo'nalishlarda 3 kun janubi-g'arbdan, 4 kun g'arbdan, 2 shimoli-g'arbdan, 2 shimoldan, 1 shimoli-sharqdan, 1 sharqdan, 3 janubi-sharqdan va 4 janubdan esganligi kuzatilgan. Ushbu ma'lumotlardan foydalanib "shamol guli" ni chizing.

15) Ma'lum bir xil masofada turli joylardagi havo bosimi farqi quyidagicha bo'lganda, qaysi holatda shamol kuchliroq, qaysi holatda kuchsizroq bo'ladi. Javobizni izohlang.

- A) 740 mm.s.u. → 722 mm.s.u.
- B) 543 mm.s.u. ← 584 mm.s.u.
- C) 696 mm.s.u. → 636 mm.s.u.
- D) 712 mm.s.u. ← 735 mm.s.u.

16) 1 m³ havoda +30°C da 12 gramm suv bug'i mavjud bo'lsa, havoning nisbiy namligini aniqlang.

17) Havo harorati +10°C bo'lganda, havoning nisbiy namligi 45 % ni tashkil etsa, bu vaqtida 1 m³ havodagi suv bug'ining miqdorini toping.

18) Sinf xonasi bo'yi 6 m, kengligi 4 m, baladligi 3 m bo'lsa, bu xonadagi havoning massasini aniqlang.

19) Samarqand viloyatining g'arbiy tog'oldi etaklarida potensial bug'lanish 1600 mm, bu yerda tushadigan yillik yomg'ir miqdori 800 mm, namlik koeffisientini hisoblang.

20) Yillik yog'in miqdori 650 mm, bug'lanish 600 mm ga teng bo'lsa namlik koeffitsientini aniqlang?

21) Agar yog'in miqdori 400 mm namlik koeffisenti 0,6 ni tashkil etsa, bug'lanuvchanlik aniqlang.

22) Tog'da yoqqan qorning zichligi 0,60 ga, qalinligi esa 45 santimetrga teng bo'lsa, qor tarkibidagi suv miqdorini aniqlang?

23) Pomir tog'larida tushgan qor tarkibidagi suv miqdori 17 santimetrga, qalinligi esa 34 sm ga teng bo'lsa, qorning zichligini aniqlang?

24) Agar havo harorati +10°C bo'lsa, 4 metr³ havo o'zida qancha suv bug'ini tutib tura oladi?

25) Agar havo harorati 0 °C bo'lsa, 5 m³ havo o'zida qancha miqdorda suv bug'ini tutib tura oladi?

26) Chirchiq shahriga aprel oyi davomida kunlik yog'in miqdori (mm hisobida) quyidagicha yoqqanligi ma'lum bo'lsa, oylik yog'in niqdorini aniqlang.

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| 21 | 13 | 0 | 0 | 0 | 18 | 32 | 25 | 8 | 13 | 0 | 0 | 12 | 46 | 23 |
| 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 |
| 64 | 38 | 6 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 15 | 36 | 20 | 0 | 0 | 0 | 0 |

27) Surxondaryo viloyatiga yil davomidagi oylik yog'in miqdori (mm hisobida) quyidagicha yoqqanligi ma'lum bo'lsa, yillik yog'in miqdorini aniqlang.

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 |
|----|----|----|----|----|----|---|---|----|----|----|----|
| 81 | 73 | 92 | 64 | 38 | 12 | 0 | 0 | 54 | 75 | 83 | 78 |

28) Toshkent shahrida yillik yog'in miqdori 580 mm ni tashkil etgan bo'lsa, shaharning 1 hektar va 1 km² maydoniga qancha yog'in tushganligini aniqlalang.

29) Meteorologik stansiyada yil davomidagi oylik yog'in miqdori (mm hisobida) quyidagicha yoqqanligi ma'lum bo'lsa, har bir faslda yillik yog'inning necha foizi yog'ishini hisoblab toping.

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 |
|----|----|----|----|----|----|---|---|----|----|----|----|
| 58 | 74 | 88 | 62 | 53 | 22 | 9 | 6 | 14 | 34 | 48 | 52 |

30) Geografik maydonchada yillik yog'in miqdori 460 mm ni tashkil etib, shundan bahorda 45 %, yozda 4 %, kuzda 22 %, qishda 29 % yog'in yoqqan bo'lsa, har faslda necha mm yog'in yoqqanligini hisoblang.

5-mavzu: SOAT MINTAQALARI VA VAQT HISOBIGA OID MASALA VA MASHQLAR YECHISH HAMDA QUYOSHNING UFQDAN BALANDLIGINI ANIQLASH

Reja:

1. Soat mintaqalari va vaqt hisobiga oid masala va mashqlar yechish.
2. Quyoshning ufqdan balandligini aniqlash.

Soat mintaqalari va vaqt hisobiga oid masala va mashqlar yechish.

Vaqt o'chovi yerning shakli hamda uning o'z o'qi va quyosh atrofidagi harakatiga asoslangan. Yer o'z o'qi atrofida g'arbdan sharqqa tomon soat strelkasiga qarshi tomonga qarab harakat qiladi. Yer bir tekisda aylanadi. Yer o'z o'qi atrofida 23 soat 56 minut 4 sekundda bir marta aylanib chiqadi. Lekin yerda bir sutka 24 soat deb qabul qilingan.

Qadimdan insonlar yulduz vaqtini, Quyosh vaqtini va boshqa vaqtlnarni ajratishgan. Yulduz vaqtidan foydalanish noqulay, chunki u kun bilan tunning almashinishiga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun amalda quyosh vaqtidan foydalilanadi. Quyosh vaqtini yerning quyoshga nisbatan harakatiga qarab aniqlanadi. Quyosh vaqtini, odatda, yarim tundan boshlab hisoblanadi, chunki bu paytda Quyosh usq (gorizont) dan eng pastda bo'ladi. Bu vaqt o'rtacha Quyosh vaqtini deb ataladi.

Yer shar shaklida bo'lgani uchun Quyosh yer yuzasini bir vaqtida yorita olmaydi. Yer o'z o'qi atrofida g'arbdan sharqqa tomon, bir sutkada to'liq bir marta aylanib chiqadi, natijada Quyosh yer yuzasini sharqdan g'arba tomon ketma-ket yoritib boradi. Shu sababli, turli meridianlarda joylashgan nuqtalarining vaqtini bir-biridan farq qiladi. Ana shunday vaqtini bir-biridan farq qiladigan nuqtalar joylashgan hududlar soat mintaqalari deb ataladi.

Ibtidoiy davrlarda, aholi manzillari orasidagi o'zaro aloqa vositalari taraqqiy etmagan bir davrda insonlar vaqtning turli hududlarda turlicha ekanligini hattoki bilishmagan ham. Kishilik jamiyatiga taraqqiyotining keyingi bosqichlarida, xususan, yelkanli kemalar, qayiqlar va boshqa uzoqni yaqin qiluvchi, "borib bo'lmas yerlar"ga yo'l ochuvchi aloqa vositalarining ixtiro qilinishi vaqt bilan

hisoblashish zaruriyatini keltirib chiqardi. Keyinchalik avtomobil va ayniqsa, temiryo'l transportining rivojlanishi natijasida mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi vaqtini aniq bilihga bo'lgan ehtiyojni yanada orttirdi. Bugungi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diplomatik va boshqa aloqalar jadal sur'atlar bilan avj olayotgan globallashuv jarayonida esa dunyoning turli nuqtalaridagi vaqtdan xabardor bo'lish zaruriyat hisoblanadi. Turli uzunliklarda joylashgan nuqtalar vaqtin bir – biridan farq qiladi, bu esa xo'jalik yuritish ishlarida, transport tizimi faoliyatida, umuman, barcha sohalarda noqulaylik tug'diradi. Vaqt hisobidagi bunday noqulayliklarning oldini olish maqsadida 1879-yilda Kanada temiryo'llari injeneri **Sandford Fleming** soat mintaqalari ta'sis etishni taklif qilgan. Bu taklif dastlab, AQSH va Kanadada qabul qilinib, turli joylardagi soat millari ko'rsatadigan vaqtdagi chalkashliklarni bartaraf etish maqsadida turli mintaqalardan keladigan har bir temiryo'l uchun alohida vaqt tanlab olingan. Shundan so'ng, temiryo'l bekatlarida uchtadan soat o'rnatildi. Soatlardan biri shu bekat vaqtini, ikkinchisi – g'arb tomonidan keladigan poyezdlar vaqtini, uchinchisi esa sharq tomonidan keladigan poyezdlar vaqtini ko'rsatar edi. Keyinchalik Sandford Fleming taklif qilgan soat mintaqalarini ta'sis etish qarori 1884-yilda 26 mamlakat a'zolari ishtirokida o'tkazilgan Xalqaro konferensiyada qabul qilindi. Mazkur kelishuvga ko'ra Yer yuzasi shartli ravishda 24 soat mintaqasiga bo'lingan. Har bir mintaqaga 15° dan iborat ($360^{\circ} : 24 = 15^{\circ}$; bu yerda: 360° – Yer aylanasi; 24 – sutkaning davomiyligi, soatda). Mintaqaga doirasida shu mintaqaning o'rta qismidan o'tgan meridianning mahalliy vaqt qabul qilingan.

Turli geografik uzunlik bo'ylab joylashgan geografik obyektlar orasidagi vaqt farqini bilish uchun, avvalo, shu obyektlarning qaysi soat mintaqasida joylashganligini aniqlash zarur. Buning uchun biz quyidagi formulalarni taklif etamiz:

a) Sharqi yarimshardagi nuqtalarning qaysi soat mintaqasida joylashganligini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$S_{shq} = (\lambda - 7^{\circ}30') \div 15^{\circ}$$

Bu yerda: λ – obyektning geografik uzunligi; $7^{\circ}30'$ – har bir soat mintaqasining o'rtaidan o'tuvchi geografik meridiandan g'arb va sharqqa tomon hisoblanadigan qiymat; 15° – Yerning o'z o'qi atrofida 1 soat mobaynida aylanishining burchak tezligi.

b) G'arbiy yarimshardagi nuqtalarning qaysi soat mintaqasida joylashganligini aniqlash uchun esa quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$S_g = 24 - ((\lambda - 7^{\circ}30') \div 15^{\circ})$$

Bu yerda: 24 – soat mintaqalari soni; λ – obyektning geografik uzunligi; $7^{\circ}30'$ – har bir soat mintaqasining o'rtaidan o'tuvchi geografik meridiandan g'arb va sharqqa tomon hisoblanadigan qiymat; 15° – Yerning o'z o'qi atrofida 1 soat mobaynida aylanishining burchak tezligi.

Mazkur formulalar yordamida Yer yuzidagi istalgan geografik obyektning qaysi soat mintaqasiga tegishli ekanligini aniqlash mumkin.

Vaqt o'chovidan xalqaro miqyosda foydalanishni osonlashtirish maqsadida mahalliy vaqt, mintaqaga vaqtini va dunyo vaqtini kabi tushunchalardan foydalaniadi.

Bitta meridianda joylashgan nuqtalarda vaqt bir xil bo'ladi, ya'ni bitta meridianning hamma joyida vaqt bir xildir. Bu vaqt mahalliy vaqt deb ataladi.

Mahalliy vaqt quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$m = M - R + V$$

Bu yerda: m – mahalliy vaqt; M – soat mintaqasidagi vaqt; R – soat mintaqasining raqami; V – vaqt hisobidagi joyni uzunligi (u joyni geografik uzunligini 15° ga bo'lib topamiz).

Bitta soat mintaqasidagi vaqt mintaqaga vaqt deb ataladi. O'rtaidan bosh meridian o'tgan soat mintaqasi *nolinchi yoki yigirma to'rtinchi mintaqaga* deb qabul qilingan. Mintaqalar hisobi ana shu meridiandan boshlanadi. Mintaqalar birinchi mintaqadan 24-mintaqagacha davom etadi. Har bir mintaqaga vaqt qo'shni mintaqaga vaqtidan 1 soatga farq qiladi. Nolinchi mintaqadan sharqda $7^{\circ}30'$ shq.u. va $22^{\circ}30'$ shq.u. o'rtaida ikkinchi mintaqaga, shundan so'ng uchinchi, to'rtinchi va hokazo yigirma to'rtinchi mintaqagacha davom etadi. Mamlakatimiz hududi to'rtinchi va beshinchi soat mintaqalarida joylashgan bo'lib, Samarqand vaqtini va Toshkent vaqtini deb atalar edi. Bu juda ko'p noqulayliklarni keltirib chiqqarganligi uchun mustaqillik yillarida Respublika hukumatining maxsus qarori bilan butun O'zbekiston hududida to'rtinchi soat mintaqasi vaqt qabul qilingan.

Mintaqa vaqtini quyidagi formula yordamida topiladi.

$$M = R + m - V$$

Bu yerda: M – soat mintaqasidagi vaqt; R – soat mintaqasining raqami; m – mahalliy vaqt; V – vaqt hisobidagi joyning uzunligi (u joyning geografik uzunligini 15° ga bo‘lib topamiz).


Grinvich rasadxonasi meridianining har ikki tomonidan $7^{\circ}30'$ oraliqdagi mintaqqa raqami nol bo‘lib, bu mintaqqa vaqtini **dunyo vaqtini** deb ataladi.

Dunyo vaqtini quyidagi formula yordamida topiladi.

$$D = M - R$$

Bu yerda: D – dunyo vaqtini; M – soat mintaqasidagi vaqt; R – soat mintaqasining raqami.

Soat mintaqqa vaqtini qabul qilingandan so‘ng qaysi soat mintaqasini yangi sutkaning boshlanishi vaqtini deb qabul qilish masalasi paydo bo‘ldi. Natijada shartli ravishda yangi sutka 12–soat mintaqasining o‘rtasidan o‘tgan 180° meridiandan boshlanadi deb kelishildi. Biroq, meridian ba’zi joylarda orollarni kesib o‘tadi, bunday joylarda xaritaga meridiandan chiqadigan chiziq chiziladi. Ana shu shimoliy qutbdan janubiy qutbgacha davom etadigan chiziq **sana o‘zgarish chizig‘i** deyiladi.



17-rasm. Yevrosiyoning soat mintaqalari xaritasi.

Quyida soat mintaqalari va vaqt hisobiga oid mashq va masalalarni ishlaymiz.

1–masala. Xitoy poytaxti Pekin shahri $116^{\circ}30'$ sharqiy uzunlikda joylashgan. U qaysi soat mintaqasiga tegishli ekanligini aniqlang.

Yechish: Sharqiy yarimshardagi nuqtalarining qaysi soat mintaqasida joylashganligini aniqlashda qo‘llaniladigan formulaga ko‘ra

$$S_{shq} = (\lambda - 7^{\circ}30') \div 15^{\circ} = (116^{\circ}30' - 7^{\circ}30') \div 15^{\circ} = 109^{\circ} \div 15^{\circ} = 7,2$$

Izoh: agar natija qoldiq bilan chiqsa, sonning butun qismiga har doim 1 raqami qo‘siladi, ya’ni obyekt keyingi soat mintaqasida joylashgan bo‘ladi (sababi, 7,01 dan, 8,00 gacha bo‘lgan raqamlar 8 soat mintaqasi bo‘ladi). Bizning misolda ham natija qoldiq bilan chiqdi (ya’ni 7,2). Shu sababli mazkur sonning butun qismi – 7 ga 1 raqami qo‘silib, shaharning 8– soat mintaqasida joylashganligi aniqlandi ($7+1=8$).

Javob: $116^{\circ}30'$ sharqiy uzunlikda joylashgan Pekin shahri 8 – soat mintaqasiga kiradi.

2–masala. AQSHning poytaxti Vashington shahri 78° g‘arbiy uzunlikda joylashganligi ma’lum bo‘lsa, u qaysi soat mintaqasiga tegishli ekanligini aniqlang.

Yechish: G‘arbiy yarimshardagi nuqtalarining qaysi soat mintaqasida joylashganligini aniqlashda qo‘llaniladigan formulaga ko‘ra

$$S_g = 24 - ((\lambda - 7^{\circ}30') \div 15^{\circ}) = 24 - (78^{\circ} - 7^{\circ}30') \div 15^{\circ} = 24 - (70^{\circ}30' \div 15^{\circ}) = 24 - 5 = 19$$

Javob: 78° g‘arbiy uzunlikda joylashgan Vashington shahri hududi 19–soat mintaqasiga kiradi.

3–masala. Ozarbayjon poytaxti Bokuda mintaqqa vaqtini bilan soat kunduzgi 16° bo‘lsa, bu vaqtida Bokuda mahalliy vaqt bilan soat necha bo‘ladi?

Yechish: bu masalani yechishda mahalliy vaqtini topish formulasidan foydalanilamiz, ya’ni

$$m = M - R + V$$

Masalamizni shartida soat mintaqasidagi vaqt (16°) ma’lum, lekin soat mintaqasining raqami va shaharning vaqt hisobidagi uzunligi noma’lum. Shu sababli dastlab, soat mintaqasining raqami va shaharning vaqt hisobidagi uzunligini topamiz.

Soat mintaqasining raqami topish uchun avvalo, Boku shahrining geografik uzunligini topamiz, u $49^{\circ}53'$ shq.u. ekanligi aniq bo'ldi, so'ngra, yuqoridaq sharqiy yarimshardagi nuqtalarning qaysi soat mintaqasida joylashganligini aniqlashda qo'llaniladigan formuladan foydalanamiz, ya'ni

$$S_{shq} = (\lambda - 7^{\circ}30') \div 15^{\circ} = (49^{\circ}54' - 7^{\circ}30') \div 15^{\circ} = 42^{\circ}24' \div 15^{\circ} = 3$$

Endi, shaharning vaqt hisobidagi uzunligi quyidagicha topiladi.

$$49^{\circ}54' = 49,9^{\circ}$$

$$49,9^{\circ} \div 15^{\circ} = 3,3$$

1 soat 60 minutga teng ekanligi ma'lum, shu sababli proporsiya tuzib, qoldiq 3 ni minutga aylantirib olamiz, ya'ni

$$1 \text{ soat} - 60 \text{ minut}$$

$$0,3 \text{ soat} - x$$

$$x = \frac{0,3s \times 60m}{1s} = 18m$$

Bundan ko'rinish turibdiki, Bokuning vaqt hisobidagi uzunligi 3 soat-u 36 minutga teng ekan.

So'ngra ushbu aniqlangan ma'lumotlarni mahalliy vaqtini topish formulasiga joylashtiramiz va Bokudagi mahalliy vaqtini topamiz, ya'ni

$$m = M - R + V = 16^{00} - 3 + 3^{18} = 16^{18}.$$

Javob: Bokuda mintaqqa vaqt bilan soat kunduzgi 16^{00} bo'lganda, mahalliy vaqt bilan kunduzgi soat 16^{18} bo'ladi.

4-masala. Moskvada mahalliy vaqt bilan soat kunduzgi 11^{26} bo'lsa, bu vaqtida Moskvada mintaqqa vaqt bilan soat necha bo'ladi?

Yechish: bu masalani yechishda mintaqqa vaqtini topish formulasidan foydalanilamiz, ya'ni

$$M = R + m - V$$

Masalamizni shartida mahalliy vaqt (11^{26}) ma'lum, lekin soat mintaqasining raqami va shaharning vaqt hisobidagi uzunligi noma'lum. Shu sababli dastlab, soat mintaqasining raqami va shaharning vaqt hisobidagi uzunligini topamiz.

Soat mintaqasining raqami topish uchun avvalo, Moskva shahrining geografik uzunligini topamiz, u $37^{\circ}42'$ shq.u. ekanligi aniq bo'ldi, so'ngra, yuqoridaq sharqiy yarimshardagi nuqtalarning qaysi soat mintaqasida joylashganligini aniqlashda qo'llaniladigan formuladan foydalanamiz, ya'ni

$$S_{shq} = (\lambda - 7^{\circ}30') \div 15^{\circ} = (37^{\circ}42' - 7^{\circ}30') \div 15^{\circ} = 30^{\circ}12' \div 15^{\circ} = 3$$

Endi, shaharning vaqt hisobidagi uzunligi quyidagicha topiladi.

$$37^{\circ}42' = 37,7^{\circ}$$

$$37,7^{\circ} \div 15^{\circ} = 2,5$$

1 soat 60 minutga teng ekanligi ma'lum, shu sababli proporsiya tuzib, qoldiq 5 ni minutga aylantirib olamiz, ya'ni

$$1 \text{ soat} - 60 \text{ minut}$$

$$0,5 \text{ soat} - x$$

$$x = \frac{0,5s \times 60m}{1s} = 30m$$

Bundan ko'rinish turibdiki, Moskvaning vaqt hisobidagi uzunligi 2 soat-u 30 minutga teng ekan.

So'ngra ushbu aniqlangan ma'lumotlarni mintaqqa vaqtini topish formulasiga joylashtiramiz va Moskvadagi mintaqqa vaqtini topamiz, ya'ni

$$M = R + m - V = 3 - 11^{26} + 2^{30} = 10^{56}.$$

Javob: Moskvada mahalliy vaqt bilan soat kunduzgi 11^{26} bo'lganda, mintaqqa vaqt bilan kunduzgi soat 10^{56} bo'ladi.

5-masala. Toshkentda mintaqqa vaqt bilan soat kunduzgi 12^{30} bo'lsa, bu vaqtida Toshkentda dunyo vaqt bilan soat necha bo'ladi?

Yechish: bu masalani yechishda dunyo vaqtini topish formulasidan foydalanilamiz, ya'ni

$$D = M - R$$

Masalamizni shartida mintaqqa vaqt (12^{30}) ma'lum, lekin soat mintaqasining raqami noma'lum. Shu sababli dastlab, soat mintaqasining raqami topamiz, ya'ni

Soat mintaqasining raqami topish uchun avvalo, Toshkent shahrining geografik uzunligini topamiz, u $69^{\circ}18'$ shq.u. ekanligi aniq bo'ldi, so'ngra, yuqoridaq sharqiy yarimshardagi nuqtalarning qaysi soat mintaqasida joylashganligini aniqlashda qo'llaniladigan formuladan foydalanamiz, ya'ni

$$S_{shq} = (\lambda - 7^{\circ}30') \div 15^{\circ} = (69^{\circ}18' - 7^{\circ}30') \div 15^{\circ} = 61^{\circ}48' \div 15^{\circ} = 5$$

So'ngra ushbu aniqlangan ma'lumotlarni dunyo vaqtini topish formulasiga joylashtiramiz va Toshkentdagagi dunyo vaqtini topamiz, ya'ni

$$D = M - R = 12^{30} - 5 = 7^{30}.$$

Javob: Toshkentda mintaqqa vaqt bilan soat kunduzgi 12^{30} bo'lsa, bu vaqtida Toshkentda dunyo vaqt bilan soat 7^{30} bo'ladi.

6-masala. Toshkent shahrida ertalab soat 7^{30} bo'lganda, Polsha poytaxti Varshava shahrida soat necha bo'lishini hisoblang.

Yechish: Bizga Toshkent shahri 4 – soat mintaqasida joylashganligi ma'lum, lekin Varshava shahrining soat mintaqasi noma'lum.

Varshava shahrining soat mintaqasini topish uchun avvalo, Varshava shahrining geografik uzunligini topamiz, u $21^{\circ}00'$ shq.u. ekanligi aniq bo'ldi, so'ngra, yuqoridagi sharqiy yarimshardagi nuqtalarning qaysi soat mintaqasida joylashganligini aniqlashda qo'llaniladigan formuladan foydalanamiz, ya'ni

$$S_{shq} = (\lambda - 7^{\circ}30') \div 15^{\circ} = (21^{\circ}00' - 7^{\circ}30') \div 15^{\circ} = 13^{\circ}30' \div 15^{\circ} = 1$$

Demak, Varshava shahri 1 – soat mintaqasida joylashgan ekan. Bundan bilishimiz mumkinki, Toshkent va Varshava shaharlari orasidagi vaqt farqi 3 soatga teng,

$$4 - 1 = 3.$$

Izoh: har bir mintaqqa vaqt qo'shni mintaqqa vaqtidan bir soatga farq qiladi, berilgan obyekt g'arbda joylashgan bo'lsa ayrıladı, sharqda joylashgan bo'lsa qo'shiladi. Bu qonuniyat.

Varshava shahri Toshkentga nisbatan g'arbda joylashganligi sababli berilgan vaqtidan 3 soatni ayiramiz:

$$7^{30} - 3^{00} = 4^{30}$$

Javob: Toshkent shahrida ertalab soat 7^{30} bo'lganda, Varshava shahrida tongi soat 4^{30} bo'ladi.

7-masala. Toshkentda soat kunduzgi 14^{45} bo'lsa, Rossiya federatsiyasining Vladivostok shahrida soat necha bo'ladi?

Yechish: Bizga Toshkent shahri 4 – soat mintaqasida joylashganligi ma'lum, lekin Vladivostok shahrining soat mintaqasi noma'lum.

Vladivostok shahrining soat mintaqasini topish uchun avvalo, Vladivostok shahrining geografik uzunligini topamiz, u $131^{\circ}54'$ shq.u. ekanligi aniq bo'ldi, so'ngra, yuqoridagi sharqiy yarimshardagi nuqtalarning qaysi soat mintaqasida joylashganligini aniqlashda qo'llaniladigan formuladan foydalanamiz, ya'ni

$$S_{shq} = (\lambda - 7^{\circ}30') \div 15^{\circ} = (131^{\circ}54' - 7^{\circ}30') \div 15^{\circ} = 124^{\circ}24' \div 15^{\circ} = 9$$

Demak, Vladivostok shahri 9 – soat mintaqasida joylashgan ekan. Bundan bilishimiz mumkinki, Toshkent va Vladivostok shaharlari orasidagi vaqt farqi 5 soatga teng,

$$9 - 4 = 5.$$

Izoh: har bir mintaqqa vaqt qo'shni mintaqqa vaqtidan bir soatga farq qiladi, berilgan obyekt g'arbda joylashgan bo'lsa ayrıladı, sharqda joylashgan bo'lsa qo'shiladi. Bu qonuniyat.

Vladivostok shahri Toshkentga nisbatan sharqda joylashganligi sababli berilgan vaqtga 5 soatni qo'shamiz:

$$14^{45} - 5^{00} = 9^{45}$$

Javob: Toshkent shahrida kunduzi soat 19^{45} bo'lganda, Vladivostok shahrida kechki soat 19^{45} bo'ladi.

Quyoshning usfdan balandligini aniqlash.

Koinotdagagi Yerga eng yaqin bo'lgan yulduz Quyosh hisoblanadi. U sariq mitti yulduzlar guruhiiga kiradi. Quyosh 70 foiz vodoroddan va 27 foiz geliyidan iborat, o'ta qizigan, yorug'lik tarqatib turadigan gazsimon shardir. Quyoshning zichligi Yernikidan 4 marotaba kichik. Uning markazida bosim 300 mld. atmosferaga bosimiga, harorat esa 10–15 mln. darajaga yetadi. Quyoshning markazidagi yuqori bosim va harorat yadro reaktsiyalarini hosil bo'lishiga va vodorodning geliyga aylanishiga imkon beradi, bu esa Quyoshdan doimiy issiqlik ajralib chiqishini taminlaydi. Quyoshning diametri 1,39 mln km bo'lib, unda Quyosh sistemasining 99 % dan ortiq massasi to'plangan. Shuning uchun u atrofidagi osmon jismlarini tortish kuchi hisobiga ushlab turadi va sayyoralarining deyarli bir xil tekislikda harakatlanishini ta'minlaydi.

Yer Quyosh sistemasidagi uchinchi sayyora bo'lib, Quyosh atrofida aylanasimon orbita bo'ylab harakat qiladi. Yer Quyosh atrofida soat miliga teskari yo'nalishda o'rtacha $29,8$ km/sekund tezlik bilan 940 mln km bo'lgan orbitani 365 sutka 6 soatda to'la bir marta aylanib chiqadi. Hisobga to'g'ri bo'lishi uchun bir yil 365 sutka deb qabul qilingan, shunda har yili 6 soatdan yig'ilib 4 yilda 24 soat ya'ni bir sutka hosil bo'ladi. Shuning uchun har uch yildan keyin to'rtinchiligi yil 366 kundan iborat bo'lib, o'sha yili fevral oyi 28 sutka emas, 29 sutkadan iborat bo'ladi va o'sha yil "Kabisa yili" deb ataladi.

Yerning Quyosh atrofida yillik aylanma harakati ya'ni orbitasi ellips shaklga ega bo'lib, Quyosh bilan Yer o'rta sidagi masofa doimo o'zgarib turadi. Ular o'rta sidagi eng qisqa masofa 147 mln km bo'lib, u perigeliy deb nomlanadi, bu hodisa 3-yanvarda bo'ladi. Ular

o‘rtasidagi eng uzun masofa esa 152 mln km bo‘lib, u afeliy deb nomlanadi, bu hodisa esa 5– iyunda bo‘ladi. Yerdan Quyoshgacha bo‘lgan o‘rtacha masofa 149,6 mln km bo‘lib, bu masofa astronomik birlik sifatida qabul qilingan. Yer orbitasining uzunligi 940 mln km bo‘lib, bu masofani Yer soatiga 107 ming km yoki sekundiga 29,8 km tezlik bilan bosib o‘tadi. Afeliyda ya‘ni Yer Quyoshdan uzoqlashganda uning tezligi kamayadi va sekundiga 29,3 km ni tashkil qiladi. Perigeliyda, ya‘ni yer quyoshga yaqinlashganda uning tezligi ortadi va sekundiga 30,3 km ni tashkil qiladi. Shuning uchun shimoliy yarim sharda qish qisqaroq yoz esa uzunroq bo‘ladi.

Quyoshdan tarqaladigan issiqlikning milliarddan ikki qismi Yerga yetib keladi. Bu miqdor Yer uchun xos bo‘lgan issiqlik sharoitini ta’minlaydi. Quyoshdan keladigan radiatsiya Yer yuzasidagi issiqlikning asosiy manbayi bo‘lib, quruqlikda, Dunyo okeanida, atmosfera va tirkiz organizmlarda ro‘y beradigan jarayonlarni vujudga keltiruvchi asosiy kuchdir.

Yerning aylanish o'qi orbita tekisligiga nisbatan $66,5^{\circ}$ burchak hosil qilgan, ya'ni Yer o'qining og'ish burchagi $66^{\circ}33'$ ga teng. Yerning Quyosh atrofida aylanishi natijasida yil fasllari hosil bo'ladi. Yer o'qining qiyaligi yil fasillarining almashinishiga sabab bo'ladi.


Harakat davomida Yer o‘qi ilgarilama shaklda siljiydi va orbitada to‘rtta o‘ziga xos nuqta hosil bo‘ladi:

- 21-mart va 23-sentabrda Yer o'qining qiyaligi Quyoshga yo'naliшhga nisbatan neytral (90°) bo'ladi. Quyosh nurlari ekvatorga tik tushadi va ikkala yarimsharni teng yoritadi. Kun va tun uzunligi baravar bo'ladi. Qutblarda esa kun va tunning almashinishi ro'y beradi. Shuning uchun mazkur kunlar bahorgi va kuzgi tengkunlik kunlari deyiladi;

- 21-iyunda Yer o‘qining shimoliy qismi Quyoshga tomon enkaygan bo‘ladi. Shuning uchun Quyosh nurlari ekvatorga emas, balki, undan shimalroqqa tik tushadi. Bu masofa ekvator tekisligining orbita tekisligiga qiyaligiga teng, ya’ni $90^{\circ} - 66^{\circ}33' = 23^{\circ}27'$. Bu kuni Quyosh nurlari $23^{\circ}27'$ shimoliy kenglikga, ya’ni shimoliy tropikka tik (90°) burchak ostida tushadi. Bu kun yozgi Quyosh turishi kuni deb ataladi. Yozgi Quyosh turishi kunida Shimoliy yarimsharning yuqori kengliklarida sutka davomida faqatgina shimoliy qutb doirasigacha bo‘lgan joylar emas, balki qutb va qutb atrofi ham yoritiladi. Ammo, Janubiy yarimsharda janubiy qutb doirasigacha bo‘lgan hududlar

yoritiladi, xolos, janubiy qutb doirasidan janubdagι hududlar Quyosh tomonidan yoritilmaydi.

- 22-dekabrda Quyosh nurlari janubiy tropikka tik tushadi. Natijada janubiy qutb doirasidan janubdagagi hududlar va Janubiy qutb atrofi Quyosh tomonidan sutka davomida yoritiladi, aksincha, shimoliy qutb doirasidan shimoldagi hududlar va Shimoliy qutb atrofi yoritilmaydi. Bu holat bahorgi tengkunlikkacha (21-mart) davom etadi. Demak, Yer o'qining qiyaligi ekvatoridan boshqa hamma joyda kun va tun davomiyligining turlichaga bo'lishini keltirib chiqarar ekan.



18-rasm. Yerning quyosh atrofida aylanishi

Bahorgi (21-mart) va kuzgi (23-sentabr) teng kunliklar davrida Quyoshning ufqidan balandligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$h = 90^\circ - \phi$$

Bu yerda: h – bahorgi va kuzgi teng kunliklar davrida Quyosning ufqdan balandligi (gradus hisobida); ϕ – joyning geografik kengligi.

Har ikkala yarimsharning ham yozida Quyosh zenit (qoq tepa) da bo‘lgan davrida shu yarimshardagi istalgan nuqtada Quyoshning ufqdan balandligi $23^{\circ}27'$ ga ortadi.

Yozgi Quyosh turishi kunida ma'lum bir joyda tush paytida Quyoshning ufqdan balandligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$h = 90^\circ - \phi + 23^\circ 27'$$


Qishki Quyosh turishi kunida esa har ikkala yarimshardagi hududlarda Quyoshning usfqdan balandiigi bahorgi va kuzgi

tengkunliklardiqi qiymatlaridan $23^{\circ}27'$ ga kamayadi.

Qishki Quyosh turishi kunida ma'lum bir joyda tush paytida Quyoshning ufqdan balandligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$h = 90^{\circ} - \varphi - 23^{\circ}27'$$

Mana shu uchta formula yordamida Quyoshning ufqdan balandligi aniqlanadi.



19-rasm. Quyoshning yozgi va qishki quyosh teng kunlik va bahorgi va kuzgi teng kunliklar

Quyida quyoshning ufqdan balandligini aniqlashga oid masalalar ishlaymiz.

1-masala. Turkiya poytaxti Anqara shahri $39^{\circ}55'$ shimoliy kenglikda joylashgan. Anqarada 21–mart va 23–sentabrdan tush paytida Quyoshning ufqdan balandligi qancha bo'lishini hisoblang.

Yechish: buni bahorgi (21–mart) va kuzgi (23–sentabr) teng kunliklar davrida Quyoshning ufqdan balandligini aniqlaydigan formula yordamida topamiz, ya'ni

$$h = 90^{\circ} - \varphi = 90^{\circ} - 39^{\circ}55' = 50^{\circ}05'$$

Javob: Demak, 21 –mart va 23–sentabrdan Anqarada tush paytida Quyoshning ufqdan balandligi $50^{\circ}05'$ ga teng bo'лади.

2-masala. Koreya Respublikasi Seul shahri $37^{\circ}30'$ shimoliy kenglikda joylashgan. Shaharda 21–iyunda Quyoshning ufqdan balandligi qancha bo'lishini hisoblab toping.

Yechish: buni 21–iyunda tush paytida Quyoshning ufqdan balandligini aniqlaydigan formula yordamida topamiz, ya'ni

$$h = 90^{\circ} - \varphi + 23^{\circ}27' = 90^{\circ} - 37^{\circ}30' + 23^{\circ}27' = 75^{\circ}57'.$$

Javob: Demak, 21–iyunda Seulda tush paytida Quyoshning ufqdan balandligi $75^{\circ}57'$ ga teng bo'лади.

3-masala. Yaponiya poytaxti Tokio shahri $33^{\circ}32'$ shimoliy kenglikda joylashgan. Shaharda 22–dekabrdan tush paytida Quyoshning ufqdan balandligi qancha bo'lishini hisoblab toping.

Yechish: buni, 22–dekabrdan tush paytida Quyoshning ufqdan balandligini aniqlaydigan formula yordamida topamiz, ya'ni

$$h = 90^{\circ} - \varphi - 23^{\circ}27' = 90^{\circ} - 33^{\circ}32' - 23^{\circ}27' = 33^{\circ}01'.$$

Javob: Demak, 22–dekabrdan Tokioda tush paytida Quyoshning ufqdan balandligi $33^{\circ}01'$ ga teng bo'lar ekan.

4-masala. Argentinaning poytaxti Buenos – Ayres shahrida Quyoshning ufqdan balandligi 21–iyunda 32° ni, 22–dekabrdan esa 79° ni tashkil etadi. Buenos – Ayres qaysi kenglikda joylashganligini toping.

Yechish: Buenos – Ayres shahrida 21–iyunda va 22–dekabrdan tush paytida Quyoshning ufqdan balandligi ma'lum, lekin shaharning qaysi kenglikda joylashganligini noma'lum, buni uchun dastlab, 21–iyunda va 22–dekabrdan tush paytida Quyoshning ufqdan balandligini aniqlaydigan formulalarini, quyidagi ko'rinishga aylantirib olamiz, ya'ni

$$h = 90^{\circ} - \varphi + 23^{\circ}27' \longrightarrow \varphi = 90^{\circ} - h - 23^{\circ}27'$$

$$h = 90^{\circ} - \varphi - 23^{\circ}27' \longrightarrow \varphi = 90^{\circ} - h + 23^{\circ}27'$$

Endi bu formula yordamida Buenos – Ayres shahri qaysi kenglikda joylashganligini topamiz,

$$\varphi = 90^{\circ} - h - 23^{\circ}27' = 90^{\circ} - 32^{\circ} - 23^{\circ}27' = 58^{\circ} - 23^{\circ}27' = 34^{\circ}33' \text{ ya'ni } 34^{\circ};$$

$$\varphi = 90^{\circ} - h + 23^{\circ}27' = 90^{\circ} - 79^{\circ} + 23^{\circ}27' = 11^{\circ} + 23^{\circ}27' = 34^{\circ}27' \text{ ya'ni } 34^{\circ};$$

Javob: Buenos – Ayres shahri 34° janubiy kenglikda joylashgan ekan.

5-masala. Gretsyanining poytaxti Afina shahrida Quyoshning ufqdan balandligi 21–mart va 23–sentabrdan tush paytida 52° ni tashkil etadi. Afina shahri qaysi kenglikda joylashganligini aniqlang.

Yechish: Yuqorida $h = 90^{\circ} - \varphi$ shu formuladan foydalanamiz;
 $h = 90^{\circ} - \varphi = 90^{\circ} - 52^{\circ} = 38^{\circ}$

Javob: Afina shahri 38° shimoliy kenglikda joylashgan ekan.

Nazorat uchun savollar:

1. Vaqt nima? Uning birliklarini aytинг.
2. Mintaqa vaqt nima? U qanday aniqlandi?
3. Mahalliy vaqt nima?
4. Soat mintaqalarni ajratishni kim taklif etgan?
5. Yer o‘z o‘qi atrofini qancha vaqtda bir marta aylanib chiqadi.
6. Yerning orbita uzunliga qanchaga teng?
7. Perigeliy va afeliy nima?
8. Kabisa yili nima?
9. Yer o‘qining og‘ish burchagi nima?
10. Teng kunliklar nima? Ularni izohlang.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:

1. Abu–Dabi shahri 54° sharqiy uzunlikda joylashgan. U qaysi soat mintaqasiga tegishli ekanligini aniqlang.
2. Argentinaning poytaxti Buenos–Ayres shahri 58° g‘arbiy uzunlikda joylashgan u qaysi soat mintaqasiga tegishli ekanligini aniqlang.
3. Samarqand shahrida ertalab soat 12^{30} bo‘lganda, Vladivostok shahrida soat necha bo‘lishini hisoblang.
4. Termiz shahrida soat kunduzgi 09^{00} bo‘lsa, Nyu–York shahrida soat necha bo‘ladi?
5. London shahri (0° meridian) da soat kunduzgi 15^{30} bo‘lsa,
 - a) 75° sharqiy uzunlik;
 - b) 90° g‘arbiy uzunlikda soat necha bo‘lishini hisoblang.
6. Filippinning poytaxti Manila shahri $14^{\circ}36'$ shimoliy kenglik, $120^{\circ}59'$ sharqiy uzunlikda joylashgan. Manilada 21– mart va 23–sentabrda tush paytida Quyoshning ufqdan balandligi qancha bo‘lishini hisoblang.
7. Buxoro shahri $39^{\circ}30'$ shimoliy kenglikda joylashgan. Bu shaharda 22–iyun va 22–dekabrdan Quyoshning ufqdan balandligi qancha bo‘lishini hisoblang.
8. Avstraliyaning Kanberra shahri $35^{\circ}18'$ janubiy kenglik, $149^{\circ}08'$ sharqiy uzunlikda joylashgan. Shaharda 21–mart, 23–sentabr, 22–iyun va 22–dekabrdan Quyoshning ufqdan balandligi qancha bo‘lishini aniqlang.

9. Shaharda 21–mart va 23–sentabrda Quyoshning ufqdan balandligi 52° , 22–iyunda $13^{\circ} 33'$ va 22–dekabrdan $75^{\circ} 27'$ bo‘lsa, uning qaysi geografik kenglikda joylashganligini aniqlang.

10. Respublikamizdagi shimolda joylashgan aholi punktlaridan biri Mo‘ynoqdir. Bu shaharchaning geografik koordinatalarini aniqlang hamda shu orqali shaharchada 22–iyun va 22–dekabrdan Quyoshning ufqdan balandligi qancha bo‘lishini hisoblang. Aytingchi, Siz hisoblagan bu natijalar Termiz shahridagi 22–iyun va 22–dekabrdagi Quyoshning ufqdan balandligiga nisbatan qanchaga farq qilishini toping.

IKKINCHI BOB. IQTISODIY–IJTIMOIY GEOGRAFIYAGA OID MASALA VA MASHQLAR YECHISH.

6-mavzu: GEOGRAFIYA DARSALARIDA STATISTIK MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISHDA MASALA VA MASHQLAR

Reja:

1. Tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash.
2. Yer resurslarini sifat jihatidan qiyosiy baholash.
3. Turli ma'lumotlar va jadvallar asosida diagrammalar tuzish.

Tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash

Jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida xo'jalikda foydalilanidigan hamda insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan, uni o'rab turgan tabiiy muhitning barcha tabiat komponentlari, energiya manbalari **tabiat resurslari** deb ataladi. Tabiat resurslariga Quyosh energiyasi, Yerning ichki issiqligi, suv, yer, mineral boyliklar, foydali qazilmalar, o'simliklar, tuproqlar, hayvonot dunyosi kabilar kiradi. Tabiiy resurslar tugaydigan ammo, qayta tiklanishi mumkin bo'lgan (yer, o'simlik va hayvonot resurslari), tugaydigan hamda qayta tiklanmaydigan (foydali qazilmalar konlari) va tugamaydigan (quyosh energiyasi, shamol energiyasi) resurslarga bo'linadi. Tabiiy xom ashyolarni ko'p darajada iste'mol qiluvchi kuchlarning jadal rivojlanishiga bog'liq ravishda tabiat resurslari bilan ta'minlash muammolari yanada dolzarblashib bormoqda.

Tabiiy resurslar ishlab chiqarish, xo'jalik shakllanishida birlamchi hisoblanadi. Resurslarsiz xo'jalik ham, ishlab chiqarish ham bo'lmaydi. Tabiiy resurslar yer yuzi bo'ylab notejis joylashgan. Shu sababli, alohida hududlar, mamlakatlar, materiklar tabiiy resurslar bilan turlicha ta'minlangan, ularning turlari va miqdoriy ko'rsatkichlari ham har xil. Masalan, Fors ko'rfazi mamlakatlari neft va gazga, And mamlakatlari mis va polimetalga, shimoliy yarimsharning o'rta kengliklari va ekvatorial mintaqasi hududlari o'rmonlarga ancha boy. Rossiya, AQSh, Xitoy, Kanada, Braziliya, Avstraliya kabi yirik mamlaktlar tabiiy resurslarning deyarli barcha

xillari bilan yaxshi ta'minlangan. Davlatning iqtisodiy rivojlanishida tabiiy resurslarning ham ahamiyati beqiyos. Mamlakat qancha resurslarga boy bo'lsa, uning salohiyati va iqtisodiyotining rivojlanishi shuncha yuqori bo'ladi. Bu holat, o'z navbatida, resurslar bilan ta'minlanganlik tushunchasini keltirib chiqaradi. Tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik deganda, tabiiy resurslarning umumiyligi ko'lamli ko'rsatkichlari bilan ulardan foydalanish miqdori o'rtasidagi nisbat tushuniladi. U tabiiy resursning necha yillargacha yetishi yoki resurs zaxirasining aholi jon boshiga qanchadan to'g'ri kelishi ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi. Bunda chiqqan ko'rsatkichning katta-kichikligiga qarab ta'minlanganlik aniqlanadi hamda quyidagicha hisoblanadi:

Resursning qancha muddatga yetishini quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$R_{en} = \frac{1 \times \Sigma R}{Rd}$$

Bu yerda, R_{en} – resursning qancha muddatga yetishi; 1 – qazib chiqarish hajmi inobatga olinadigan vaqt hisobi (yil); ΣR – jami aniqlangan resurs zaxirasi; Rd – yillik qazib chiqariladigan resurs hajmi.

Resurs qancha uzoq muddatga yetsa, ta'minlanish shuncha yuqori bo'ladi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi tabiiy resurs miqdori quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$AR = \frac{\Sigma R}{A}$$

Bu yerda, AR – aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi tabiiy resurs miqdori; ΣR – jami aniqlangan resurs zaxirasi; A – joriy davrdagi aholi soni.

Tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlikning ushbu ifodasida har bir aholiga o'rtachadan to'g'ri keluvchi resurs miqdori aniqlanib, uning ko'p yoki ozligiga ko'ra ko'rsatkich baholanadi.

Quyida tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlashga oid masalalarni ishlaymiz.

1–masala. O'zbekistonda 2020-yil jami 57,700 mlrd m³ tabiiy gaz qazib olingan. Aniqlangan tabiiy gaz zaxirasi esa 2 trillion kubmetrga teng. Agar qazib chiqarish hajmi bir xil holatda ketsa, tabiiy gaz qancha yilga yetishini toping.

Yechish. Buni hisoblashda ikkita usuldan foydalanish mumkin. Har ikki usulda ham berilgan raqamlarni birligini bir xil qiymatga olib kelishimiz kerak.

$$57,700 \text{ mlrd m}^3 = 57\ 700 \text{ mln m}^3$$

$$2 \text{ trillion m}^3 = 2\ 000\ 000 \text{ mln m}^3$$

1-usul. Yuqoridagi formula yordamida aniqlash mumkin, ya'ni

$$R_{en} = \frac{1 \times \Sigma R}{R_d} = \frac{1 \times 2000000 \text{ mln m kub}}{57700 \text{ mln m kub}} = 34,6$$

2-usul. Masalaladagi ma'lumotlardan proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz, ya'ni

$$1 \text{ yil} \quad 57\ 700 \text{ mln m}^3$$

$$X \text{ m} \quad 2\ 000\ 000 \text{ mln m}^3$$

$$x = \frac{1 \times 2000000 \text{ mln m kub}}{57700 \text{ mln m kub}} = 34,6$$

Javob: Demak, agar O'zbekistonda yiliga 57,700 mlrd m³ tabiiy gaz qazib chiqarilsa, 34,6 yilga yetishi mumkin hamda bu ko'rsatkich tabiiy gaz bilan ta'minlanganlikni ifodalaydi.

2-misol. Mamlakatimiz aholisi 35 mln kishidan ortiq. Agar mamlakatimizdagи aniqlangan ko'mir zaxirasi 2 mlrd tonnani tashkil etsa, hozirgi kunda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi ko'mir miqdorini aniqlang.

Yechish. Buni hisoblashda ikkita usuldan foydalanish mumkin. Har ikki usulda ham berilgan raqamlarni birligini bir xil qiymatga olib kelishimiz uchun, 35 mln o'zgarmasdan qoladi, faqat 2 mlrd ni mln ga aylantirishimiz kerak.

$$2 \text{ mlrd tonna} = 2\ 000 \text{ mln tonna}$$

1-usul. Yuqoridagi formula yordamida aniqlash mumkin, ya'ni

$$AR = \frac{\Sigma R}{A} = \frac{2000 \text{ mln tonna}}{35 \text{ mln kishi}} = 57,1 \text{ tonna/kishi}$$

2-usul. Har doim aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi biror kattalikni aniqlash uchun shu kattalikni aholi soniga bo'lib topish mumkin. Bizni masalamizda bu kattalik aniqlangan ko'mir zaxirasi 2 mlrd tonna bo'lib, uni aholi soniga bo'lamiz;

$$2\ 000 \text{ mln tonna} \div 35 \text{ mln kishi} = 57,1 \text{ tonna/kishi}$$

Javob: Demak, hozirgi kunda mamlakatimiz aholisining har jon boshiga 57,1 tonna ko'mir to'g'ri kelar ekam.

Yer resurslarini sifat jihatidan qiyosiy baholash

Xalq xo'jaligi ehtiyojlar uchun foydalanish mumkin bo'lgan yerlar Yer resurslari deb ataladi. Yer resurslari maydoni va sifati jihatidan baholanadi. Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlash tuproq unumдорлиги va uning hosildorligi bilan bog'liq bo'ladi. Tuproqning suv, oziq moddalar va boshqa elementlar bilan ta'minlanish xususiyati tuproq unumдорлиги deb ataladi. Tuproq tog' jinslaridan unumдорлиги bilan farq qiladi. Unumдор tuproqlarda insonga asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini beruvchi qishloq xo'jaligi. o'simliklari o'stiriladi. Yer faqat unumдорлик xususiyati tufayli qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositasiga aylangan. Tuproq unumдорлиги tuproq hosil qiluvchi omillar: iqlim, relyef, tuproq hosil qiluvchi jinslar, tabiiy va madaniy o'simliklar bilan uzviy bog'lik, ammo unumдорлик darajasida, ayniqsa, yerdan foydalanish xarakteri katta ahamiyatga ega. Ekin maydoni birligidan olinadigan dehqonchilik mahsuloti miqdori hosildorlik deyiladi. Tuproqning unumдорлиги ya'ni hosildorligi uning fizik, kimyoviy va biologik xossalariiga, iqlim sharoiti va yer osti suvlarning joylashish holatiga bog'liq bo'ladi va u tuproq bonitirovkasini keltirib chiqaradi. Tuproq unumдорлигини sifat jihatdan qiyosiy baholash tuproq bonitirovkasi deb ataladi. Bonitirovka lotincha "bonitas" so'zidan olingen bo'lib, "sifatlilik" degan ma'noni anglatadi. Tuproq bonitirovkasi 100 ballik shkala bo'yicha ifodalanadi. Tuproq bonitirovkasining asosiy maqsadi tuproqlarni unumдорлигига qarab tasniflashdir. Tuproq bonitirovkasi tuproq unumдорлигини xarakterlovchi tabiiy, ya'ni qishloq xo'jaligi. ekinlari hosildorligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan xususiyatlarini hisobga oлган holda o'tkaziladi. Shuningdek, Tuproq bonitirovkasida dalaning o'chami, geometrik shakli, nishabligi, iqlim sharoiti va boshqa ham hisobga olinadi. Tuproq bonitirovkasi yerni iqtisodiy baholash, yer kadastrini yuritish, melioratsiya hamda dehqonchilik sistemasini takomillashtirish va boshqa uchun zarur.

Jahon mamlakatlarda qishloq xo'jaligi qaysi ekin turiga ixtisoslashgan bo'lsa, shu ekin hosilini bonitirovkani asosi deb qabul qilishadi. Masalan, Misr, Fransiya, Germaniya, Italiya kabi davlatlarda bonitirovka asosini donli ekinlar yalpi hosili tashkil etadi, ya'ni donli ekinlarning har hektariga 50 sentner hosil beradigan yerlar "100 balli bonitet"ga teng deb olinadi.

O'zbekistonda bonitirovka asosini paxta hosili tashkil qiladi. Paxtadan gektariga 40 sentner hosil beradigan yerlar "100 balli bonitet"ga teng deb olinadi. O'zbekistonda eroziyaga uchramagan tipik va bo'z tuproqlar yuqori bonitetga (80–100 ball), deltalaridagi sho'rangan, sug'oriladigan o'tloq tuproqlar o'rtacha bonitetga (40–60 ball), kuchli sho'rangan, toshloq, taqirli va gilli tuproqlar past bonitetga (10–39 ball) ega va hakozo.

Ayrim hollarda, mazkur bonitet ballardan kelib chiqqan holda, yalpi hosilni hisoblab chiqarish mumkin.

$$C^o = \frac{X \times \Sigma C}{100}$$

Bu yerda, C^o – o'rtacha har gektar maydonga to'g'ri keluvchi hosil; ΣC – bonitet asosini tashkil etuvchi maksimal qiymat (40 sentner); X – berilgan bonitet bali;

100 – tuproq bonitirovkasining maksimal ko'rsatkichi (100 ball).

Quyida yer resurslarini sifat jihatidan qiyosiy baholashga oid masalalarini ishlaymiz.

1-masala. Mirzacho'lda tuproqlarning boniteti 65 ballni tashkil etsa, o'rtacha, har gektar paxta maydonidan qancha sentner paxta olish mumkin?

Yechish. Buni aniqlashda ikkita usuldan foydalanish mumkin. Har ikki usulda ham hisob-kitobni amalga oshirishda 100 balli bonitet, ya'ni 1 gektardan 40 sentner (40 s/ga) hosil olish hajmini asos qilib olish lozim. Agarda hisoblash jarayonida har gektarga to'g'ri keluvchi o'rtacha hosil ma'lum-u, bonitet balli noma'lum bo'lsa, yuqorida berilgan formuladagi ifodalar o'rnini almashtirib, hisoblashni amalga oshirish mumkin bo'ldi.

1-usul. Yuqoridagi formula yordamida aniqlash mumkin, ya'ni

$$C^o = \frac{X \times \Sigma C}{100} = \frac{65 \text{ ball} \times 40 \text{ s/ga}}{100 \text{ ball}} = 26 \text{ s/ga}$$

2-usul. Masalaladagi ma'lumotlardan proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz, ya'ni

$$\begin{aligned} 40 \text{ s/ga} &\quad 100 \text{ ball} \\ X \text{ s/ga} &\quad 65 \text{ ball} \\ x = \frac{65 \text{ ball} \times 40 \text{ s/ga}}{100 \text{ ball}} &= 26 \text{ s/ga} \end{aligned}$$

Javob: Mirzacho'lda tuproqlarning boniteti 65 ballni tashkil etsa, o'rtacha, har gektar paxta maydonidan 26 sentner paxta olish mumkin.

2-masala. Agar Surxon vohasida paxta yalpi hosili har gektar maydonga, o'rtacha 34 sentnerdan to'g'ri kelsa, tuproq boniteti qanchaga teng bo'ladi?

Yechish. Buni aniqlashda ikkita usuldan foydalanish mumkin. Har ikki usulda ham hisob-kitobni amalga oshirishda 100 balli bonitet, ya'ni 1 gektardan 40 sentner (40 s/ga) hosil olish hajmini asos qilib olish lozim. Agarda hisoblash jarayonida har gektarga to'g'ri keluvchi o'rtacha hosil ma'lum-u, bonitet balli noma'lum bo'lsa, yuqorida berilgan formuladagi ifodalar o'rnini almashtirib, hisoblashni amalga oshirish mumkin bo'ldi.

1-usul. Buni yechishda yuqoridagi formuladagi ifodalar o'rnini almashtirib, quyidagicha formulani keltirib chiqarish mumkin, ya'ni

$$C^o = \frac{X \times \Sigma C}{100} \rightarrow X = \frac{C^o \times 100}{\Sigma C}$$

$$X = \frac{C^o \times 100}{\Sigma C} = \frac{34 \text{ s/ga} \times 100 \text{ ball}}{40 \text{ s/ga}} = 85 \text{ ball}$$

2-usul. Masalaladagi ma'lumotlardan proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz, ya'ni

$$\begin{aligned} 40 \text{ s/ga} &\quad 100 \text{ ball} \\ 34 \text{ s/ga} &\quad X \text{ ball} \\ x = \frac{34 \text{ s/ga} \times 100 \text{ ball}}{40 \text{ s/ga}} &= 85 \text{ ball} \end{aligned}$$

Javob: Agar Surxon vohasida paxta yalpi hosili har gektar maydonga, o'rtacha 34 sentnerdan to'g'ri kelsa, tuproq boniteti 85 ballga teng bo'ladi.

Turli ma'lumotlar va jadvallar asosida diagrammalar tuzish.

Ma'lumot va jadvallardagi muayyan miqdorlar (kattaliklar) o'rtasidagi bog'lanishni grafik tarzda ifodalash usuli **diagramma** deb ataladi. Diagramma yunoncha so'z bo'lib, "diagramma" – chizma, rasm, shakl ma'nolarini anglatadi. Diagrammada o'ichov birligi ma'lumotlardagi kattaliklarning o'ichov birligiga qarab tanلانadi. Kattaliklarni o'zaro taqsimlash uchun ularning son qiymatlari diagrammalarda tasvirlanadi. Diagrammalar asosan chiziqli, ustunli va doraviy kabi uchta turga bo'linadi. Chiziqli diagramma kategoriyali ma'lumotlar to'plamini umumlashtirish usulidir, u uzluksiz ma'lumotlarni bir biriga birlashtirish orqali tasvirlaydi. Chiziqli diagramma ma'lumotlarni vertikal va gorizontal o'qning qiyma-

tilaridagi ma'lum biri nuqtalarni chiziqlar yordamida birlashtirib, grafik usulda ifodalaydi. Ba'zan ma'lumotlarni faqat vertikal o'qning o'zida ham ifodalash mumkin. Bunday diagrammalar ustunli diagramma deb ataladi. Ustunli diagrammalar turli geometrik shakldagi (to'rtburchak, uchburchak, slindr va boshqalar) ustunlar bilan tasvirlanadi va vertikal o'qning balandligi ma'lumotlardagi kattaliklarning qiymatiga mos keladi. Doiraviy (aylana) diagrammalar bir butun narsaning tarkibiy qismlari orasidagi munosabatlarni ko'rgazmali qilib tasvirlash uchun tuziladi. Aylana diagramma sonli nisbatni ko'rsatish uchun bo'laklarga bo'lingan bo'ladi va har bir bo'lakning yoy uzunligi (demak, uning markaziy burchagi va maydoni) u ko'rsatadigan miqdorga proportionaldir ya'ni ma'lumotlardagi miqdor o'zgarsa, aylana diagrammadagi bo'lakning yoy uzunligi ham o'zgaradi.


Quyida turli ma'lumotlar va jadvallar asosida diagrammalar tuzishga oid mashqlar bajaramiz.

1-mashq. Quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalanib, O'zbekistonda neft va gaz kondensati qazib olish dinamikasini chiziqli diagrammada ifodalang.

| Yillar | 1990 | 1995 | 2000 | 2005 | 2010 | 2015 | 2020 |
|--|------|------|------|------|------|------|------|
| Neft va gaz kondensati qazib olish hajmi (mln tonna) | 2,8 | 5,4 | 7,5 | 5,4 | 4,0 | 2,7 | 2,8 |

Yechish. Ushbu ma'lumotlarga tayangan holda, vertikal va gorizontal chiziqlardan iborat asosli diagramma shakllantiriladi. Ushbu jarayonda vertikal chiziqqa neft va gaz kondensati qazib olish hajmi (mln tonna), gorizontal chiziq bo'ylab chapdan o'ngga qarab yillar joylashtiriladi. Shuningdek, jarayon davomida masshtab qabul qilib olish lozim. Masalan, vertikal chiziqda 1 sm balandlik 1 mln tonna va h.z. Dastlab, ma'lum bir qiymatni kerakli balandlikka mos qilib chizg'ich yordamida o'lchab olib, nuqta bilan belgilab olamiz, so'ngra ularni chiziqlar bilan birlashtirib chiziqli diagramma tuzamiz.

Javob: demak, jadvaldagi ma'lumotlarni chiziqli diagrammada quyidagicha ifodalandi.




2-mashq. Quyidagi jadvalda Juhonning elektr energiya ishlabi chiqaruvchi peshqadam davlatlarning kuchli o'ntaligi berilgan, ushbu ma'lumotlaridan foydalaniib, ustunli diagramma tuzing.

| T/r | Davlatlar | Elektr energiya ishlabi chiqarish (mln kVt/soat) | T/r | Davlatlar | Elektr energiya ishlabi chiqarish (mln kVt/soat) |
|-----|-----------|--|-----|----------------|--|
| 1 | Xitoy | 6 170 500 | 6 | Kanada | 615 400 |
| 2 | AQSh | 4 397 300 | 7 | Germaniya | 614 000 |
| 3 | Hindiston | 1 408 400 | 8 | Braziliya | 582 600 |
| 4 | Rossiya | 1 164 100 | 9 | Fransiya | 555 700 |
| 5 | Yaponiya | 1 061 200 | 10 | Janubiy Koreya | 517 800 |

Yechish. Ushbu ma'lumotlarga tayangan holda, vertikal va gorizontal chiziqlardan iborat asosli diagramma shakllantiriladi. Ushbu jarayonda vertikal chiziqqa elektr energiya ishlabi chiqarish hajmi (mln kVt/soat), gorizontal chiziq bo'ylab chapdan o'ngga qarab elektr energiya ishlabi chiqaruvchi peshqadam davlatlarning nomlari joylashtiriladi. Shuningdek, jarayon davomida masshtab qabul qilib olish lozim. Masalan, vertikal chiziqda 1 sm balandlik 1 mln kVt/soat va h.z. So'ngra ma'lum bir qiymatni kerakli balandlikka mos qilib chizg'ich yordamida o'lchab olib, ustunli diagramma tuzamiz.

Javob: demak, jadvaldagi ma'lumotlarni ustunli diagrammada quyidagicha ifodalandi.

Elektr energiya ishlabi chiqarish hajmi (mln kVt/soat)



3-mashq. Yer sharining quruqlik va to'rtta okean maydonini foiz (%) larda hisoblab chiqib, aylana diagrammada tasvirlang.

Yechish: Bizga ma'lumki, quruqlik maydoni 149 mln km², Tinch okeani 180 mln km², Atlantika okeani 91 mln km², Hind okeani 76 mln km², Shimoliy muz okeani 14 mln km² ga teng.

Bu raqamlarni aylana diagrammaga tushurish uchun quyidagi amallarni bajaramiz;

1) Avvalo ularning foizlarini topish lozim. Buning uchun esa bu raqamlarning barchasini qo'shib chiqamiz.

$$149+180+91+14=510$$

So'ngra har biriga proporsiya tuzib foizini topamiz;

Quruqlik maydoni topish uchun quyidagicha proporsiya tuziladi.

$$510 \text{ mln km}^2 \text{ --- } 100 \%$$

$$149 \text{ mln km}^2 \text{ --- } X \%$$

$$x = \frac{149 \times 100}{510} = 29,2 \%$$

Tinch okeani maydoni topish uchun quyidagicha proporsiya tuziladi.

$$510 \text{ mln km}^2 \text{ --- } 100 \%$$

$$180 \text{ mln km}^2 \text{ --- } X \%$$

$$x = \frac{180 \times 100}{510} = 35,3 \%$$

Atlantika okeani maydoni topish uchun quyidagicha proporsiya tuziladi.

$$510 \text{ mln km}^2 \text{ --- } 100 \%$$

$$91 \text{ mln km}^2 \text{ --- } X \%$$

$$x = \frac{91 \times 100}{510} = 17,8 \%$$

Hind okeani maydoni topish uchun quyidagicha proporsiya tuziladi.

$$510 \text{ mln km}^2 \text{ --- } 100 \%$$

$$76 \text{ mln km}^2 \text{ --- } X \%$$

$$x = \frac{76 \times 100}{510} = 14,9 \%$$

Shimoliy muz okeani maydoni topish uchun quyidagicha proporsiya tuziladi.

$$510 \text{ mln km}^2 \text{ --- } 100 \%$$

$$14 \text{ mln km}^2 \text{ --- } X \%$$

$$x = \frac{14 \times 100}{510} = 2,7 \%$$

2) Endi bu foizlar aylana diagrammada necha gradusga teng ekanligini aniqlashimiz lozim, buning uchun topilgan foizlarni 3,6 ga ko'paytirish kerak. *Izoh.* bizga ma'lumki aylanani yuzi 360° ga teng, buni 100 foizga bo'lsak, har bir foizga necha gradus aylana qismi to'g'ri kelishi kelib chiqadi, ya'ni $360 \div 100 = 3,6$. Demak har bir foiz 3,6 ga teng ekan.

$$\text{Quruqlik maydoni } 29,2 \times 3,6^\circ = 105^\circ$$


$$\text{Tinch okeani maydoni } 35,3 \times 3,6^\circ = 127^\circ$$

$$\text{Atlantika okeani maydoni } 17,8 \times 3,6^\circ = 64^\circ$$

$$\text{Tinch okeani maydoni } 14,9 \times 3,6^\circ = 54^\circ$$

$$\text{Tinch okeani maydoni } 2,7 \times 3,6^\circ = 10^\circ$$

Javob: endi uni aylana diagrammada quyidagicha ifodalandi.



Nazorat uchun savollar

1. Tabiiy resurs nima?
2. Resurslar bilan ta'minlanganlik deganda nimani tushunasiz?
3. Tabiiy resurslarni qanday guruhlarga va turlarga ajratish mumkin?

4. Yer resurslariga qanday yerlar kiradi?
5. Hosildorlik nima? U yaxshi bo‘lishi nimalarga bog‘liq?
6. Tuproq bonitirovkasi nima?
7. O‘zbekistonda bonitirovka asosini nimaning hosili tashkil qiladi?
8. Diagramma nima?
9. Diagrammalar qanday usullarda tasvirlanishi mumkin?
10. Aylana diagrammalarda qanday ma’lumotlarni tasvirlash mumkin?

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:

1. Jahonda aniqlangan tabiiy gazning umumiy geologik zaxirasi 180 trln m³ ni tashkil qiladi. Agar hozirgidek, jahon mamlakatlari umumiy yiliga 3,6 trln m³ miqdorida qazib olinsa, tabiiy gaz qancha yilga yetishi mumkin.

2. Buyuk Britaniya aholisi 2017-yil 1-mart bo‘yicha, 64 403 772 kishini tashkil etadi. Mamlakatda mavjud qo‘ng‘ir ko‘mir zaxiralari 190 mlrd tonnani tashkil etsa, tabiiy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi holatida aholi jon boshiga qanchadan qo‘ng‘ir ko‘mir to‘g‘ri keladi?

3. Tabiiy resurslar bilan ta’minlanganlik hisoblash amallaridan foydalangan holda, quyidagi jadvalni to‘ldiring.

| T/r | Davlatlar | Tabiiy resurslar | | | Qancha yilga yetishi |
|-----|-------------------|------------------|--------------------------|--------------------------|----------------------|
| | | nomi | zaxirasi | yillik qazib olish hajmi | |
| 1 | AQSh | oltin | 8 133,5 t | ? | 34,3 |
| 2 | Germaniya | qo‘ng‘ir ko‘mir | 80 mlrd t | 169 mln t | ? |
| 3 | Rossiya | gaz | 32,6 trln m ³ | ? | 48,6 |
| 4 | Saudiya Arabiston | neft | 268,4 mlrd barl | 450 mln barl | ? |
| 5 | O‘zbekiston | neft | 629 mln barl | ? | 33,3 |

4. Buxoroda tuproqlarning boniteti 54 ballni tashkil etsa, o‘rtacha, har gektar paxta maydonidan qancha sentner paxta olish mumkin?

4. Agar Xorazm vohasida paxta yalpi hosili har gektar maydonga, o‘rtacha 29 sentnerdan to‘g‘ri kelsa, tuproq boniteti qanchaga teng bo‘ladi?

5. Toproq boniteti 24 ball bo‘lgan, 10 gektar paxta maydonidan qancha sentner hosil olish mumkin?

6. Isroilda tuproq bonitirovkasing asosi har gektar paxta maydonidan 90 sentner hosil olish bilan baholansa, 75 sentner paxta yig‘ib olish mumkin bo‘lgan maydon necha bonitetga teng bo‘ladi?

7. O‘zbekistonda chuchuk suvdan foydalanish hajmi turli davrlar bo‘yicha quyidagicha, 1930-yil 16 km³, 1960-yil 22 km³, 1990-yil 32 km³, 2000-yil 38 km³, 2010-yilda 42 km³ 2020-yilda 47 km³ ni tashkil etdi. Ushbu ma’lumotlardan foydalangan holda chuchuk suvdan foydalanish dinamikasiga oid chiziqli diagramma tuzing.

8. Quyidagi jadvalda Juhonning kunlik neft qazib oluvchi peshqadam davlatlarning kuchli o‘ntaligi berilgan, ushbu ma’lumotlardan foydalanib, ustunli diagramma tuzing.

| T/r | Davlatlar | Kunlik (barrel) | T/r | Davlatlar | Kunlik (barrel) |
|-----|-------------------|-----------------|-----|----------------------------|-----------------|
| 1 | AQSh | 13,973,000 | 6 | Birlashgan Arab Amirliklar | 3,471,000 |
| 2 | Saudiya Arabiston | 11,624,000 | 7 | Eron | 3,375,000 |
| 3 | Rossiya | 10,853,000 | 8 | Iraq | 3,371,000 |
| 4 | Xitoy | 4,572,000 | 9 | Braziliya | 2,950,000 |
| 5 | Kanada | 4,383,000 | 10 | Meksika | 2,812,000 |

9. O‘zbekiston aholisining milliy tarkibini aniqlab, aniqlangan ma’lumotlarga tayangan holda, aylana diagramma tuzing.

10. Yer sharining quruqlik qismini materiklar maydonini foiz (%) larda hisoblab chiqib, aylana diagrammada tasvirlang.

11. O‘zbekiston Respublikasining viloyatlari maydonini foiz (%) larda hisoblab chiqib, aylana diagrammada tasvirlang?

12. O‘zingiz mustaqil ravshda darslik va o‘quv atlaslaridan foydalanib, chiziqli, ustunli va aylana diagramma tuzing.

7-mavzu: AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYASINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH USULI

Reja:

- 1. Aholining tabiiy va mexanik ko'payishini topish.**
- 2. Doimiy va o'rtacha aholi sonini hamda aholining o'sish darajasini aniqlash.**
- 3. Aholi tarkibi va uning ko'rsatkichlarini aniqlash.**
- 4. Aholi zichligini aniqlash.**
- 5. Urbanizatsiya va uning darajasini aniqlash.**

Yer yuzida yoki uning muayyan hududi, qit'a, mamlakat, tuman, shahar, qishloqlarida istiqomat qiluvchi odam (inson) lar majmui aholi deb ataladi. Aholini tadqiq etish bilan demografiya fani shug'ullanadi. Demografiya so'zi yunoncha so'z bo'lib, "demos" aholi, "grafo" yozaman, tasvirlayman, o'rganaman ya'ni aholini o'rganaman degan ma'noni anglatadi. Bu fan geografiya fanining bir tarmog'i bo'lib, aholi o'rtasida sodir bo'layotgan jarayonlarni o'rganadi. Aholi va uning xo'jalik faoliyati hamma davrlarda geografiya fanini qiziqtirib kelgan. Sababi, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning vazifasi ishlab chiqaruvchi kuchlarning hududiy joylashish qonuniyatlarini o'rganishdir. Aholi har qanday jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning iste'molchisi hisoblanadi. Jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan barcha boyliklar insonning mehnati natijasida yaratiladi. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan mehnat qurollari, xomashyo, yoqilg'i va boshqa qo'shimcha materiallar faqat inson qo'li, odam mehnati tufayligina harakatga keltiriladi.

Hozirgi kunda moddiy va nomoddiy soha obyektlarini joylashirishda, infektion kasalliklarning tarqalishini, siyosiy mojarolar, harbiy to'qnoshuvlarni oldini olishda albatta aholi ko'rsatkichlari o'rganiladi. Aholini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarga aholi soni, uning takror barpo qilinishi (tug'ilish, o'lim, tabiiy o'sish), tarkibi (yosh, jinsiy, irqiy, til, etnik, diniy), joylashuvi, zichligi, urbanizatsiyasi, migratsiyasi, ma'lumot darajasi kabilar kiradi. Shuning uchun ma'lum hududdagi aholi ko'rsatkichlari va xususiyatlarini

o'rganmasdan turib, yuqoridagi muammolarni hal qilish qiyin hisoblanadi.

Aholining tabiiy va mexanik ko'payishi

Aholining takror barpo bo'lishi, uning tabiiy va mexanik ko'payishiga bog'liq. Tabiiy ijtimoiy-biologik jarayon bo'yicha, tug'ilganlar sonining o'lganlar sonidan ortiqligi tabiiy ko'payish deyiladi. Aholining takror barpo bo'lishida uning tabiiy ko'payishi, ya'ni tug'ilish va o'lim asosiy omil hisoblanadi. Tug'ilishning yuqori bo'lishi aholi takror barpo bo'lishi jarayonini kuchaytiradi va aholi sonini ko'payib borishiga olib keladi.

Aholi tabiiy ko'payishining absolyut va nisbiy ko'rsatkichlari mavjuddir. Aholi tabiiy ko'payishining absolyut ko'rsatkichi tug'ilganlar va o'lganlar sonidagi farqda ifodalanadi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$K=T-O'$$

Bu yerda, K – tabiiy ko'payish; T – ma'lum davrdagi tug'ilganlar soni; O' – ma'lum davrdagi o'lganlar soni.

Aholi tabiiy ko'payishini dunyo hududlari, davlatlar, alohida viloyat, tumanlar bo'yicha taqqoslashda uning nisbiy ko'rsatkichidan foydalilanadi. Absolyut ko'rsatkich asosida, hududlarni taqqoslab bo'lmaydi, chunki har bir hudud aholisining soni turlicha bo'lib, ulardagi tug'ilganlar, o'lganlar soni ham aholi umumiyligi soniga bog'liq bo'ladi. Aholi tabiiy ko'payishining nisbiy ko'rsatkichi aholi tabiiy ko'payish koeffisiyenti orqali aniqlanadi. Aholi tabiiy ko'payish koeffisiyenti har 1000 aholiga nisbatan tabiiy ko'payishining absolyut ko'rsatkichini promilleda (%) ifodalaydi.

Aholining tabiiy ko'payish koeffisiyenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Kk = \frac{K}{S} \times 1000$$

Bu yerda, Kk – tabiiy ko'payish koeffisiyenti; K – tabiiy ko'payish; S – ma'lum davrdagi aholining o'rtacha soni; 1000 – har 1000 kishi hisobiga.

Shuningdek, aholining tabiiy ko'payish koeffisiyentini, tug'ilish koeffitsiyenti bilan o'lim koeffitsiyenti orasidagi farqdan ham bilish mumkin. Buning uchun tug'ilish va o'lim koeffitsiyentlarini aniqlash lozim.

Tug‘ilish koeffitsiyenti har 1000 aholiga tug‘ilgan bolalar sonini promilleda (%) ifodalaydi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Tk = \frac{T}{S} \times 1000$$

Bu yerda, Tk – tug‘ilish koeffisiyenti; T – tug‘ilganlar soni; S – ma'lum davrdagi aholining o‘rtacha soni; 1000 – har 1000 kishi hisobiga.

O‘lim koeffitsiyenti har 1000 aholiga o‘lganlar sonini promilleda (%) ifodalaydi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$O'k = \frac{O'}{S} \times 1000$$

Bu yerda, O'k – O‘lim koeffisiyenti; O’ – o‘lganlar soni; S – ma'lum davrdagi aholining o‘rtacha soni; 1000 – har 1000 kishi hisobiga.

Tug‘ilish va o‘lim koeffitsiyentlari aniq bo‘lsa, tabiiy ko‘payish koeffisiyenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Kk = Tk - O'k$$

Bu yerda, Kk – tabiiy ko‘payish koeffitsiyenti; Tk – tug‘ilish koeffitsiyenti; O'k – o‘lim koeffitsiyenti.

Aholi soni tabiiy ko‘payishdan tashqari migratsiyaga ham bog‘liq holda o‘zgaradi. Kishilarning yashash, ishlash, o‘qish maqsadida, ma’muriy chegaralardan o‘tgan holda, bir manzilgohdan ikkinchi manzilgohga doimiy yoki ma'lum muddatga ko‘chishi **migratsiya** deyiladi. Migratsiya so‘zi lotincha so‘zidan olingen bo‘lib, “ko‘chish” degan ma’noni bildiradi. Migratsiyaning asosiy belgilardan biri ma’muriy chegarani kesib o‘tish (davlat, viloyat, tuman, shahar, va h.k.) bo‘lib, mana shu asosda migratsiya tashqi va ichki migratsiyaga ajratiladi. Tashqi migratsiya–bir davlatdan ikkinchi davlatga, bir qit’adan ikkinchi qit’aga aholining ko‘chishidir. Bu jarayonda davlatlar aholisi qayta taqsimlanadi va ularda aholining kamayishi va ko‘payishi kuzatiladi. Ichki migratsiya–bir davlatning ichida aholining hududlar bo‘ylab ko‘chishidir. Bunday migratsiyada ma'lum davlat ichida shahar va qishloq, viloyat va tumanlar bo‘ylab aholining qayta taqsimlanishi sodir bo‘ladi. Lekin davlat aholisining umumiyligi soni o‘zgarmaydi. Mamlakatdan ko‘chib ketish **emigratsiya**, mamlakatga ko‘chib kelish esa **immigratsiya** deyiladi. Shuningdek, mamlakatdan ko‘chib ketgan aholi “**emigrantlar**” va mamlakatga ko‘chib kelgan aholi “**immigrantlar**” deb ataladi. Aholining migratsiya hisobiga

ko‘payishi **mexanik** ko‘payish deyiladi. Mexanik ko‘payish migratsiya saldosiga bog‘liq bo‘ladi. Migratsiya saldosu immigrantlar va emigrantlar sonidagi farq bilan ifodalanadi.

Aholi mexanik ko‘payishining ham aholi tabiiy ko‘payishi singari absolyut va nisbiy ko‘rsatkichlari mavjud. Aholi mexanik ko‘payishning absolyut ko‘rsatkichlari quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$M = Mi - Me$$

Bu yerda, M – aholining mexanik ko‘payish ko‘rsatkichi; Mi – immigrantlar soni; Me – emigrantlar soni.

Agar immigrantlar soni, emigrantlar sonidan ko‘p bo‘lsa migratsiya saldosu musbat, agar kam bo‘lsa migratsiya saldosu manfiy xususiyatga ega bo‘ladi. Bu tabiiyki, aholining mexanik ko‘payishga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Migratsiyaning nisbiy ko‘rsatkichlari ma'lum davrda, ma'lum hududga ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni shu hududning har 1000 aholisiga nisbatan promilleda (%) hisoblanib, immigrantlar va emigrantlar koeffisiyenti bilan ifodalaydi.

Immigrantlar koeffisiyenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$MiK = \frac{Mi}{S} \times 1000$$

Bu yerda, MiK – immigrantlar koeffisiyenti; Mi – immigrantlar soni; S – ma'lum davrdagi aholining o‘rtacha soni; 1000 – har 1000 kishi hisobiga.

Emigrantlar koeffisiyenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$MeK = \frac{Me}{S} \times 1000$$

Bu yerda, MeK – emigrantlar koeffisiyenti; Mi – emigrantlar soni; S – ma'lum davrdagi aholining o‘rtacha soni; 1000 – har 1000 kishi hisobiga.

Immigrantlar va emigrantlar koeffisiyentlari aniq bo‘lsa, mexanik ko‘payish koeffisiyenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Mk = MiK - MeK$$

Bu yerda, Mk – mexanik ko‘payish koeffitsiyenti; MiK – immigrantlar koeffitsiyenti; MeK – emigrantlar koeffitsiyenti.

Demak, aholining umumiyligi o‘sish ko‘rsatkichiga tabiiy ko‘payishdan tashqari, mexanik ko‘payish ham jiddiy ta’sir qilar ekan. Shu sababdan ma'lum hudud va ma'lum bir muddat davomida aholi

sonining umumiy o'sish ko'rsatkichini topish uchun tabiiy ko'payish bilan mexanik ko'payishni qo'shish lozim.

Quyida aholining tabiiy va mexanik ko'payishiga oid masalalarni ishlaymiz.

1-masala. O'zbekistonda 2020-yil bo'yicha, tug'ilganlar soni 841817 kishini tashkil etib, o'lganlar soni 175625 kishini tashkil etsa, aholi tabiiy ko'payishining absolyut ko'rsatkichini toping.

Yechish. Ushbu masalani aholi tabiiy ko'payishining absolyut ko'rsatkichini aniqlash formulasi yordamida ishlaymiz, ya'ni

$$K = T - O' = 841817 - 175625 = 666189$$

Javob: demak, O'zbekistonda 2020-yil davomida aholi tabiiy ko'payishining absolyut ko'rsatkichi 666189 kishini tashkil etadi.

2-masala. O'zbekistonda 2020-yil davomida aholi tabiiy ko'payishining absolyut ko'rsatkichi 666189 kishini tashkil etib, aholining o'rtacha soni 34209100 kishidan iborat bo'lgan bo'lsa, aholi tabiiy ko'payishining nisbiy ko'rsatkichini ya'ni tabiiy ko'payish koeffisiyentini toping.

Yechish. Ushbu masalani aholi tabiiy ko'payish koeffisiyentini aniqlash formulasi yordamida ishlaymiz, ya'ni

$$Kk = \frac{K}{S} \times 1000 = \frac{666189}{34209100} \times 1000 = 19,4$$

Javob: demak, tabiiy ko'payish koeffisiyenti 19,4 % tashkil etadi.

3-masala. O'zbekistonda 2020-yil bo'yicha, tug'ilganlar soni 841817 kishini tashkil etib, bu davrda aholining o'rtacha soni 34209100 kishidan iborat bo'lgan bo'lsa, tug'ilish koeffisiyentini toping.

Yechish. Ushbu masalani tug'ilish koeffisiyentini aniqlash formulasi yordamida ishlaymiz, ya'ni

$$Tk = \frac{T}{S} \times 1000 = \frac{841817}{34209100} \times 1000 = 24,6$$

Javob: demak, tug'ilish koeffisiyenti 24,6 % tashkil etadi.

4-masala. O'zbekistonda 2020-yil bo'yicha, o'lganlar soni 175625 kishini tashkil etib, bu davrda aholining o'rtacha soni 34209100 kishidan iborat bo'lgan bo'lsa, o'lim koeffisiyentini toping.

Yechish. Ushbu masalani tug'ilish koeffisiyentini aniqlash formulasi yordamida ishlaymiz, ya'ni

$$O'k = \frac{O'}{S} \times 1000 = \frac{175625}{34209100} \times 1000 = 5,1$$

Javob: demak, o'lim koeffisiyenti 5,1 % tashkil etadi.

5-masala. O'zbekistonda 2020-yil bo'yicha, tug'ilish koeffisiyenti 24,6 %, o'lim koeffisiyenti esa 5,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, aholining tabiiy ko'payish koeffisiyentini toping.

Yechish. Ushbu masalani aholining tabiiy ko'payish koeffisiyentini aniqlash formulasi yordamida ishlaymiz, ya'ni

$$Kk = Tk - O'k = 24,6 \% - 5,1 \% = 19,5 \%$$

Javob: O'zbekistonda 2020-yil hisobida tabiiy ko'payish koeffisiyentil 17 % ni tashkil etadi hamda bu ko'rsatkich har 1000 kishiga nisbatan 17 kishidan ko'payib borayotganligini ko'rsatadi.

6-masala. O'zbekistonda 2020-yil bo'yicha, immigrantlar soni 191086 kishini tashkil etib, emigrantlar soni 203629 kishini tashkil etsa, aholi mexanik ko'payishining absolyut ko'rsatkichini toping.

Yechish. Ushbu masalani aholi mexanik ko'payishining absolyut ko'rsatkichini aniqlash formulasi yordamida ishlaymiz, ya'ni

$$M = Mi - Me = 191086 - 203629 = -12543$$

Javob: demak, O'zbekistonda 2020-yil davomida aholi mexanik ko'payishining absolyut ko'rsatkichi -12543 kishini tashkil etgan, ya'ni migratsiya saldosи manfiy ko'rsatgichga ega ekan.

7-masala. O'zbekistonga 2020-yil davomida 191086 kishi ko'chib kelgan bo'lib, aholining o'rtacha soni 34209100 kishidan iborat bo'lgan bo'lsa, ko'chib kelganlarning ya'ni immigratlarning koeffisiyentini toping.

Yechish. Ushbu masalani immigratlarning koeffisiyentini aniqlash formulasi yordamida ishlaymiz, ya'ni

$$MiK = \frac{Mi}{S} \times 1000 = \frac{191086}{34209100} \times 1000 = 5,6$$

Javob: demak, immigratlarning koeffisiyenti 5,6 % tashkil etadi.

8-masala. O'zbekistondan 2020-yil davomida 203629 kishi ko'chib ketgan bo'lib, aholining o'rtacha soni 34209100 kishidan iborat bo'lgan bo'lsa, ko'chib ketganlarning, ya'ni immigratlarning koeffisiyentini toping.

Yechish. Ushbu masalani immigratlarning koeffisiyentini aniqlash formulasi yordamida ishlaymiz, ya'ni

$$MeK = \frac{Me}{S} \times 1000 = \frac{203629}{34209100} \times 1000 = 5,9$$

Javob: demak, emigrantlar koeffisiyenti 5,9 % tashkil etadi.

9-masala. O'zbekistonda 2020-yil bo'yicha, immigrantlar koeffisiyenti 5,6 %, emigrantlar koeffisiyenti esa 5,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, aholining mexanik ko'payish koeffisiyentini toping.

Yechish. Ushbu masalani aholining mexanik ko'payish koeffisiyentini aniqlash formulasi yordamida ishlaymiz, ya'ni

$$Mk = MiK - MeK = 5,6\% - 5,9\% = -0,3\%$$

Javob: O'zbekistonda 2020-yil hisobida aholi mexanik ko'payish koeffisiyenti – 0,3 % ni tashkil etadi hamda bu ko'rsatkich har 1000 kishiga nisbatan 0,3 kishidan kamayib borayotganligini ko'rsatadi.

10-masala. O'zbekistonda 2020-yil bo'yicha, aholining tabiiy ko'payish koeffisiyenti 19,5 %, mexanik ko'payish koeffisiyenti esa –0,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, shu yil davomida aholi sonining umumiy o'sish ko'rsatkichini toping.

Yechish. Ushbu masalani yuqoridagi ya'ni "*ma'lum bir muddat davomida aholi sonining umumiy o'sish ko'rsatkichini topish uchun tabiiy ko'payish bilan mexanik ko'payishni qo'shish lozim*" ta'rifiga asoslanib ishlaymiz, ya'ni

$$19,5\% + (-0,3\%) = 19,2\%$$

Javob: O'zbekistonda 2020-yil hisobida aholi sonining umumiy o'sish ko'rsatkichini 19,2 % ni tashkil etadi hamda bu ko'rsatkich O'zbekiston aholisi har 1000 kishiga nisbatan 19,2 kishidan ko'payib borayotganligini ko'rsatadi.

Doimiy va o'rtacha aholi sonini hamda aholining o'sish darajasini aniqlash.

Aholi soni va tarkibida sodir bo'lgan barcha o'zgarishlar iqtisodiyotning rivojlanishiga, umuman jamiyatning rivojlanishiga bevosita ta'sir etadi. Jamiyat taraqqiyoti davomida aholi soni va tarkibi muntazam o'zgarib kelgan. Shu sababli ma'lum davrlar oralig'ida aholi ro'yxati o'tkazilib kelinadi. Aholi ro'yxati – ma'lum davrda, ma'lum davlat yoki hududning har bir aholisi bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy va demografik ma'lumotlar to'plashdir. Aholi ro'yxati o'tkazish jarayonida dunyo va uning alohida hududlari aholisi soni va tarkibi bo'yicha ilmiy asoslangan holda aniq ma'lumotlar olinadi. Ijtimoiy jihatdan ma'lum hududda ayni vaqtida yashovchi va davlat aholi ro'yxatida turuvchi insonlarning umumiy yig'indisi **domiy aholi soni** deyliladi.

Domiy aholi soni quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$PS = S + (T - O') + (Mi - Me)$$

Bu yerda, PS = doimiy aholi soni;

S = oxirgi ro'yxatga olish ma'lumoti bo'yicha aholi soni;

T = oxirgi ro'yxatga olish muddatidan beri tug'ilganlar soni;

O' = oxirgi ro'yxatga olish muddatidan beri o'lganlar soni;

Mi = oxirgi ro'yxatga olish muddatidan beri ko'chib kelganlar soni;

Me = oxirgi ro'yxatga olish muddatidan beri ko'chib ketganlar soni.

Aholining ma'lum yillar oralig'ida o'rtacha sonini aniqlash uchun faqat ikki muddat oralig'i bo'lishi shart emas, ya'ni buni aniqlashda nechta yil hisobi olingen bo'lsa, ularning qiymatlari o'zar qo'shilib, necha yil hisobi bo'lsa, shuncha songa bo'linadi ya'ni o'rtacha arifmetik qiymati topiladi.

Aholi soni, tabiiyki, yillar davomida o'zgarib turadi ya'ni aholi soni yo ko'payadi, yo kamayadi. Turli davr yoki muddat oralig'ida aholining qanchalik o'zgarganligini aniqlashning mutloq, nisbiy ko'rsatkichlari mavjud. Ikki davr oralig'idagi aholining mutloq o'sish ko'rsatkichini hisoblashda tanlab olingen ikki davrdagi aholi soni kerak bo'ladi va bunda joriy vaqtga yaqin bo'lgan davrdagi mavjud aholi sonidan o'tgan davrdagi aholi soni ayiriladi va natijada aholi necha kishiga ko'paygani yoki kamaygani kelib chiqadi. Ikki davr oralig'idagi aholi necha foizga o'sganligini ifodalovchi qiymat aholining nisbiy o'sish ko'rsatkichini ifodalaydi. Nisbiy o'sish ko'rsatkichi, joriy vaqtga yaqin bo'lgan davrdagi mavjud aholi sonidan o'tgan davrdagi aholi soni ayirilib, o'tgan davrdagi aholi soniga bo'linadi va natijani foizda ifodalash uchun hosil bo'lgan qiymatni 100 % ga ko'paytirib topiladi.

Shuningdek, aholi sonining mutloq, nisbiy ko'rsatkichlaridan tashqari, aholining o'sish darajasini ifodalashda marta yoki barobar birliklaridan ham foydalilanadi. Aholining o'sish darajasini aniqlash uchun joriy vaqtga yaqin bo'lgan davrdagi mavjud aholi sonini, o'tgan davrdagi aholi soniga bo'linadi va qiymat marta yoki barobar birliklari ifodalanadi.

Quyida doimiy va o'rtacha aholi sonini hamda aholining o'sish darajasini aniqlashga oid masalalarini ishlaymiz.

1-masala. O'zbekiston aholisi 2019-yil 1-yanvar bo'yicha, 33 255 500 kishini tashkil etdi. Mamlakatda yil davomida tug'ilganlar soni 815 900 kishini, vafot etganlar soni esa 155 000 kishini tashkil etdi. Migratsiyada qatnashganlar 328 300 kishini tashkil etgan holda, shundan 158 800 nafari immigrant, 169 500 nafari emigrant bo'lsa, 2020-yil 1-yanvar holatida O'zbekiston doimiy aholisini toping.

Yechish. Dastlab, doimiy aholini hisoblashda ma'lumotlar o'zaro saralanib, quyidagi ketma-ketlik asosida amallar bajariladi:

- oxirgi ro'yxatga olish ma'lumoti bo'yicha aholi soni (S) – 33 255 500 kishi;
- oxirgi ro'yxatga olish muddatidan beri tug'ilganlar soni (T) – 815 900 kishi;
- oxirgi ro'yxatga olish muddatidan beri o'lganlar soni (O') – 155 000 kishi;
- oxirgi ro'yxatga olish muddatidan beri ko'chib kelganlar soni (Mi) – 158 800 kishi;
- oxirgi ro'yxatga olish muddatidan beri ko'chib ketganlar soni (Me) – 169 500 kishi;

So'ngra yuqoridagi formula asosida hisoblash amalga oshiriladi:

$$PS = S + (T - O') + (Mi - Me)$$

$$PS = 33\,255\,500 + (815\,900 - 155\,000) + (158\,800 - 169\,500) = 32\,653\,900 \text{ kishi}$$

$$\text{tabiiy o'sish: } 815\,900 - 155\,000 = 660\,900 \text{ kishi}$$

$$\text{migratsiya saldosи: } 158\,800 - 169\,500 = -10\,700 \text{ kishi}$$

$$\text{umumiyo' payish: } 660\,900 + (-10\,700) = 650\,200 \text{ kishi}$$

$$\text{doimiy aholi soni: } 33\,255\,500 + 650\,200 = 33\,905\,700 \text{ kishi}$$

Javob: Demak, 2020-yil 1-yanvar bo'yicha, doimiy aholi soni 33 905 700 kishini tashkil etadi, ya'ni 2019-yil 1-yanvarga nisbatan 650 200 kishiga ko'paygan.

2-masala. O'zbekistonning doimiy aholisi soni 2020-yil 1-yanvar holati bo'yicha, 33905,7 ming kishini hamda 2021-yil 1-yanvar holati bo'yicha 34558,9 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2020-yil davomidagi o'rfacha aholi sonini aniqlang.

Yechish. Buning uchun ikki yildagi O'zbekistonning doimiy aholisi qiymatlari o'zaro qo'shilib, ikkiga bo'linadi ya'ni o'rtacha arifmetik qiymatini topamiz.

$$(33905,7 + 34558,9) \div 2 = 68418,2 \div 2 = 34232,3$$

Javob: O'zbekistonning 2020-yil davomidagi o'rtacha aholi soni 34232,3 ming kishini tashkil etgan.

3-masala. O'zbekiston aholisining soni 2021-yil 1-yanvar bo'yicha 34558900 kishini, 2020-yil 1-yanvar bo'yicha esa 33905700 kishini tashkil etsa, ikki muddat oralig'ida aholi soning mutloq o'sish ko'rsatkichi toping.

Yechish. aholi soning mutloq o'sish ko'rsatkichi yuqoridagi "ikki davr oralig'idagi aholining mutloq o'sish ko'rsatkichi joriy vaqtga yaqin bo'lgan davrdagi mayjud aholi sonidan o'tgan davrdagi aholi soni ayiriladi" ta'rifga asoslanib ishlaymiz, ya'ni

$$34558900 - 33905700 = 653\,200 \text{ kishi}$$

Javob: 2021 – 2019-yillar oralig'ida aholi soni 653 200 kishiga ko'paygan.

4-masala. O'zbekiston aholisining soni 2021-yil 1-yanvar bo'yicha 34558900 kishini, 2017-yil 1-yanvar bo'yicha esa 32121100 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2021 – 2017-yillar oralig'ida aholi necha foizga ko'payganligini toping.

Yechish. aholi soning mutloq o'sish ko'rsatkichi yuqoridagi "nisbiy o'sish ko'rsatkichi, joriy vaqtga yaqin bo'lgan davrdagi mayjud aholi sonidan o'tgan davrdagi aholi soni ayirilib, o'tgan davrdagi aholi soniga bo'linadi va natijani foizda ifodalash uchun hosil bo'lgan qiymatni 100 % ga ko'paytirib topiladi" ta'rifga asoslanib ishlaymiz, ya'ni

$$(34558900 - 32121100) \div 32121100 \times 100 \% = 7,5 \%$$

Javob: O'zbekiston aholisining soni 2021 – 2017-yillar oralig'ida 7,5 foizga o'sgan.

5-masala. O'zbekiston aholisining soni 2021-yil 1-yanvar bo'yicha 34558900 kishini, 1991-yil 1-yanvar bo'yicha esa 20643000 kishini tashkil etgan bo'lsa, ikki muddat oralig'ida aholining o'sish darajasi qanchaga teng bo'lganligini toping.

Yechish. aholi soning mutloq o'sish ko'rsatkichi yuqoridagi "aholining o'sish darajasini aniqlash uchun joriy vaqtga yaqin bo'lgan davrdagi mayjud aholi sonini, o'tgan davrdagi aholi soniga bo'linadi va qiymat marta yoki barobar birliklarida ifodalanadi" ta'rifga asoslanib ishlaymiz, ya'ni

$$34558900 \div 20643000 = 1,6$$

Javob: O'zbekiston aholisi 1991 – 2021-yillar oralig'ida deyarli 1,6 barobar ko'paygan.

Aholi tarkibi va uning ko'rsatkichlarini aniqlash.

Ma'lum bir hududdagi aholining yosh, jinsiy, irqiy, diniy, etnik jihatdan turli tumanligi **aholi tarkibi** deyiladi. Aholining yosh va jinsiy tarkibi ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazzardan muhim ahamiyatga egadir. Chunki, mehnat resurslarini maktabgacha maktab yoshidagi kontingentlarni, nafaqa yoshidagi aholini hisoblash, ularga kerakli moddiy va ma'naviy imkoniyalarni yaratish aholining jinsiy, yosh tarkibiga asoslanadi. Shu sababdan xalq xo'jaligining moddiy (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport tarmoqlari) va nomoddiy (turli xizmatlар ko'rsatish korxonaları, tashkilotlari va muassasaları, ijtimoiy-madaniy, boshqaruv, huquqni himoya qilish tashkilotlari va h.k.) sohalarni joylashtirishda hamda iste'mol mollarini (oziq-ovqat, kiyim-kechak va h.z.) ishlab chiqarish bevosita aholining yosh va jinsiy tarkibiga bog'liq holda rivojlantiriladi. Masalan, mamlakat va uning turli mintaqalari aholisining yosh va jinsiy tarkibini aniq bilish mehnat resurslarining sonini hisoblab chiqarishga, uning hozirgi soninigina emas, balki kelajakda qanday o'sishini ham aniq bilib olishga, shuningdek, maktabgacha tarbiya muassasalariga, maktabning 1-sinfiga boradigan bolalar sonini bilish, nikoh va tug'ilish darajasini aniqlash, erkak va ayollarning salmog'i va yoshiga qarab ishlab chiqarishni tashkil etishda muhim omil hisoblanadi.

Aholining yosh tarkibi juda qadimdan shakllanib kelgan demografik holatning natijasi bo'lib, u ayni paytda demografik istiqbolning zamini hamdir. Ilmiy va statistik manbalarda aholini iqtisodiy-demografik nuqtai nazzardan uch guruhga ajratadilar: bolalar – 0–14 yosh; mehnat yoshidagi aholi – 15–64 yosh; qariyalar – 65 va undan yuqori yoshdagilar. Aholining yosh tarkibi esa, asosan, uning tabiiy ko'payishiga bog'liq. Tug'ilish yuqori bo'lgan holtlarda aholi tarkibida bolalar salmog'i yuqori bo'ladi yoki, aksincha, tug'ilish past, aholining o'rtacha umr ko'rish muddati nisbatan uzoq bo'lgan hollarda aholi tarkibida qariyalar salmog'ning yuqori bo'lishi kuzatiladi. XX asr boshlarida shved demografi G.Sundberg aholi yosh tarkibini uch xilga ajratgan: progressiv, stasionar, regressiv. **Progressiv yosh tarkibida** aholi umumiy miqdorida bolalar (0–14 yoshdagi) salmog'i qariyalarga (65 yosh va undan yuqori) nisbatan

yuqori bo'ladi. Bunday holat tug'ilish darajasi yuqori bo'lganda kuzatiladi va aholi muntazam ko'payib borishini ta'minlaydi. **Stasionar yosh tarkibida** aholi umumiy miqdorida qariyalar salmog'i bilan bolalar salmog'i tengdir, aholi soni bir xil miqdorda turadi va aholining ko'payib yoki kamayib ketishi kuzatilmaydi. **Regressiv yosh tarkibida** aholi umumiy sonida qariyalar salmog'i bolalarga qaraganda yuqori bo'ladi. Bunday holda esa aholi soni asta-sekin kamayib borib "depopulyasiya" holati yuz beradi ya'ni aholi qarib boradi.

Aholining yosh tarkibini foizda topish uchun proporsiya tuzib aniqlanadi. Masalan, umumiy aholiga nisbatan foizlarda yoki agar foizlarda ifodalangan bo'lsa, sonini aniqlash uchun umumiy aholini inobatga olgan holda, proporsiya usulida ishlash oson va qulay hisoblanadi.

Aholining jinsiy tarkibi, asosan uch omil ta'sirida shakllanadi: yangi tug'ilganlardagi jinsiy nisbat, o'limdagи jinsiy farq, hamda aholi migratsiyasidagi jinsiy farq. Statistik ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha dunyo bo'yicha qiz bolalarga nisbatan o'g'il bolalar ko'proq tug'ilalar ekan. Ma'lumotlar ko'rsatishicha dunyoda har 100 ta qiz bolaga, tug'ilgan o'g'il bolalar soni 104–107 ni tashkil etadi. O'g'il bolalar salmog'ining qiz bolalarga nisbatan yuqorilgi ko'p hollarda 15–20 yoshlarga qadar saqlanib boradi. Asosan 20–24 yoshlarda jinslar nisbatan tenglashadi. Undan keyin esa, asta-sekin jami aholi tarkibidagi erkaklarga qaraganda ayollar salmog'i ortib boradi. Bu hol qator omillar bilan bog'liqidir. Ularga bolalik davrida o'g'il bolalar qiz bolalarga nisbatan ko'proq xastalanishi, baxtsiz xodisalar va erkaklarning o'ziga xos tur mush tarzi kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek, erkaklarning ko'p qismi yoshlik va o'rta yoshlik davrida og'ir mehnat bilan mashg'ul bo'lib, inson salomatligi uchun zararli bo'lgan alkogolizm, chekish kabi odatlar bilan shug'ullanadilar.

Aholi jinsiy tarkibini 2 xil yo'naliш bo'yicha ifodalash va hisoblash mumkin:

- 1) har 1000 aholiga to'g'ri keluvchi ayollar soni;
- 2) umumiy aholi tarkibida jins vakillarining foiz hisobidagi ulushi.

Demak, aholining jinsiy tarkibini aniqlash muhim bo'lib, yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakat xo'jaligini tashkil etishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu hisob-kitob jarayonida 1000 ta ayolga nisbatan to‘g‘ri keluvchi erkaklar soni aniqlanadi hamda bu nisbat orqali jins mutanosibligi baholanadi. Buning uchun ma’lum hududdagi jami ayollar sonining jami erkaklar soniga nisbati aniqlanib, 1000 birlik bo‘yicha hisoblanadi.

Aholining jinsiy tarkibi (1000 ta ayolga nisbatan erkaklar soni) quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$G_{1000} = \frac{w}{m} \times 1000$$

Bu yerda, G_{1000} – aholining jinsiy tarkibi (1000 ta ayolga nisbatan erkaklar soni);

w – ma’lum hududdagi jami ayollar soni; m – ma’lum hududdagi jami erkaklar soni.

Bu hisoblashni yosh tarkibi bo‘yicha ham amalgalash oshirsa bo‘ladi. Masalan, dunyoda 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar kesimida 1000 ta qizga 1070 ta o‘g‘il bola to‘g‘ri keladi. Mehnatga layoqatli 15–64 yoshlilar hisobida esa 1000 ta ayolga 1021 ta erkak to‘g‘ri keladi. 65 yoshdan kata qariyalar bo‘yicha esa ayollar ustunlikka ega bo‘lib, o‘rtacha, 1000 ta ayolga 412 ta erkak to‘g‘ri keladi va h.z.

Aholining jinsiy tarkibini foizda aniqlash uchun albatta proporsiya tuziladi. Bunda aholi tarkibida o‘g‘il bolalar – qiz bolalar, ayollar – erkaklar ulushi, ko‘pincha, umumiyligiga nisbatan foiz (%) hisobida topiladi. Bunda jami aholi 100 % deb olinib, ikki jins vakillarining ulushi mos ravishda hisoblanadi. Ushbu usulni 2 xil yo‘nalish bilan ishslash qulay hisoblanadi: yani ayollar uchun alohida, va erkaklar uchun alohida proporsiya tuziladi.

Aholining irqiy, diniy, etnik tarkibi haqidagi ma’lumotlar aholi ro‘yxati o‘tkazish va statistik ro‘yxat olib borish yo‘li bilan aniqlanadi. Aholining irqiy, diniy, etnik tarkibini foizda topish uchun proporsiya tuzib aniqlanadi. Masalan, umumiyligiga nisbatan foizlarda yoki agar foizlarda ifodalangan bo‘lsa, sonini aniqlash uchun umumiyligiga aholini inobatga olgan holda, proporsiya usulida ishslash mumkin.

Quyida aholi tarkibi va uning ko‘rsatkichlarini aniqlashga oid masalalarni ishlasmiz.

1-masala. O‘zbekistonning doimiy aholisi soni 2021-yil 1-yanvar holati bo‘yicha 34558900 kishiga teng, shundan 14 yoshgacha bo‘lganlar 10175819 kishini, 15–64 yoshdagilar 22684542 kishini, 65 va undan yuqori yoshdagilar 1598539 kishini tashkil etsa, aholining yosh tarkibini foizlarda ifodalang.

Yechish. aholining yosh tarkibini foizlarda ifodalash uchun yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib, har bir yosh tarkibi bo‘yicha alohida proporsiya tuzib uni ishlasmiz, ya’ni;

14 yoshgacha bo‘lgan bolalar,

34558900 ————— 100 %

10175819 ————— X

$$x = \frac{10175819 \times 100\%}{34558900} = 29,5\%$$

15–64 yoshdagisi ya’ni mehnat yoshidagi aholi,

34558900 ————— 100 %

22684542 ————— X

$$x = \frac{22684542 \times 100\%}{34558900} = 65,7\%$$

65 va undan yuqori yoshdagisi qariyalar,

34558900 ————— 100 %

1598539 ————— X

$$x = \frac{1598539 \times 100\%}{34558900} = 4,8\%$$

Javob: Demak, O‘zbekistonda 2021-yil 1-yanvar holati bo‘yicha, 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar 29,5 % ni, 15–64 yoshdagisi ya’ni mehnat yoshidagi aholi 65,7 % ni, 65 va undan yuqori yoshdagisi qariyalar esa 4,8 % ni tashkil etadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston aholisi 29,5 % ni tashkil etadi. Ushbu ma’lumotdan foydalangan, aholining yosh tarkibi bo‘yicha aholi sonini toping.

2-masala. O‘zbekistonning doimiy aholisi soni 2010-yil 1-yanvar holati bo‘yicha 28001440 kishiga teng, shundan 14 yoshgacha bo‘lganlar 29,9 % ni, 15–64 yoshdagilar 66 % ni, 65 va undan yuqori yoshdagilar 4,1 % ni tashkil etgan. Ushbu ma’lumotdan foydalananib, aholining yosh tarkibi bo‘yicha aholi sonini toping.

Yechish. aholining yosh tarkibi foizlarda berilib, ularni sonini aniqlash uchun yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, har bir yosh tarkibi bo'yicha alohida proporsiya tuzib uni ishlaymiz, ya'ni;

14 yoshgacha bo'lgan bolalar,

$$28001440 \text{ --- } 100\%$$

$$X \text{ --- } 29,9\%$$

$$x = \frac{28001440 \times 29,9\%}{100\%} = 8372430$$

15–64 yoshdagi ya'ni mehnat yoshidagi aholi,

$$28001440 \text{ --- } 100\%$$

$$X \text{ --- } 66\%$$

$$x = \frac{28001440 \times 66\%}{100\%} = 18480950$$

65 va undan yuqori yoshdagi qariyalar,

$$28001440 \text{ --- } 100\%$$

$$X \text{ --- } 4,1\%$$

$$x = \frac{28001440 \times 4,1\%}{100\%} = 1148060$$

Javob: Demak, O'zbekistonda 2010–yil 1–yanvar holati bo'yicha, 14 yoshgacha bo'lgan bolalar 8372430 kishini, 15–64 yoshdagi ya'ni mehnat yoshidagi aholi 18480950 kishini, 65 va undan yuqori yoshdagi qariyalar esa 1148060 kishini tashkil etadi.

3–masala. O'zbekistonning doimiy aholisi soni 2021–yil 1–yanvar holati bo'yicha 34558900 kishiga teng, mos ravishda, ayollar 17180478 kishini, erkaklar 17378422 kishini tashkil etdi. Ushbu ma'lumotlardan foydalaniib, O'zbekistonda har mingta ayolga nechta erkak to'g'ri kelishini toping.

Yechish. Buni yuqoridagi aholining jinsiy tarkibi (1000 ta ayolga nisbatan erkaklar soni) aniqlashda foydalilanidigan formula yordamida topamiz, ya'ni

$$G_{1000} = \frac{w}{m} \times 1000 = \frac{17180478}{17378422} \times 1000 = 989$$

Javob: O'zbekistonda har 1000 ta erkakka 989 ta ayol yoki har 1000 ta ayolga 1011 ta erkak to'g'ri keladi.

4–masala. O'zbekistonning doimiy aholisi soni 2021–yil 1–yanvar holati bo'yicha 34558900 kishiga teng, mos ravishda, ayollar 17180478 kishini, erkaklar 17378422 kishini tashkil etdi. Ushbu

ma'lumotlardan foydalaniib, aholining jinsiy tarkibini foizlarda ifodalang.

Yechish. aholining jinsiy tarkibini foizlarda ifodalash uchun yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, ayollar va erkaklar bo'yicha alohida proporsiya tuzib uni ishlaymiz, ya'ni;

Ayollar ulushini aniqlash,

$$34558900 \text{ --- } 100\%$$

$$17180478 \text{ --- } X\%$$

$$x = \frac{17180478 \times 100\%}{34558900} = 49,7\%$$

Erkaklar ulushini aniqlash,

$$34558900 \text{ --- } 100\%$$

$$17378422 \text{ --- } X\%$$

$$x = \frac{17378422 \times 100\%}{34558900} = 50,3\%$$

Ayollar yoki erkaklar ulushini birortasini topsangiz ikkinchisi uchun proporsiya tuzmasdan ham topish mumkin; ya'ni

$$100\% - 49,7\% = 50,3\% \text{ yoki } 100\% - 50,3\% = 49,7\%$$

Javob: O'zbekiston aholisining jinsiy tarkibi 2021–yil 1–yanvar holati bo'yicha, erkaklar 50,3 % ni va ayollar 49,7 % ni tashkil qiladi.

5–masala. O'zbekistonning doimiy aholisi soni 2010–yil 1–yanvar holati bo'yicha 28001440 kishiga teng, bunda erkaklarning ulushi 50,1 % ni, ayollarning ulushi 49,9 % ni tashkil etsa. Ushbu ma'lumotdan foydalaniib, aholining jinsiy tarkibi bo'yicha ularning sonini toping.

Yechish. aholining jinsiy tarkibi foizlarda berilib, ularni sonini aniqlash uchun yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, erkaklar va ayollar bo'yicha alohida proporsiya tuzib uni ishlaymiz, ya'ni;

Erkaklar soni,

$$28001440 \text{ --- } 100\%$$

$$X \text{ --- } 50,1\%$$

$$x = \frac{28001440 \times 50,1\%}{100\%} = 14028721$$

Ayollar soni,

$$28001440 \text{ --- } 100\%$$

$$X \text{ --- } 49,9\%$$

$$x = \frac{28001440 \times 49,9\%}{100\%} = 13972719$$

Erkaklar yoki ayollar sonini birortasini topsangiz ikkinchisi uchun proporsiya tuzmasdan ham topish mumkin; ya’ni

$$28001440 - 14028721 = 13972719 \text{ yoki } 28001440 - 13972719 = 14028721$$

Javob: 2010-yil 1-yanvar holati bo'yicha, O'zbekiston aholisining jinsiy tarkibida erkaklar 14028721 kishini va ayollar 13972719 kishini tashkil qilgan.

Aholining irqiy, diniy, etnik tarkibini foizda yoki sonlarda topish kerak bo‘lsa, huddi yuqorida foiz ulishini va sonlarini topganimiz kabi proporsiya usuli yordamida aniqlash mumkin.

Aholi zichligini aniqlash.

Muayyan hududda aholining joylashuv darajasi **aholi zichligi** bilan ifodalanadi. Mamlakat yoki biror hudud (viloyat, tuman, shahar) aholi sonini shu joy maydoniga (1 km^2 ga) taqsimlash bilan hisoblab chiqariladi. Aholining zichligi, uning hududiy joylashuviga bog'liq. Aholining hududiy joyylanishi yer yuzining kishilar tomonidan o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan juda uzoq tarixiy jarayonning natijasidir. Yer sharining turli qismlarida, turli mamlakatlarda aholining hududiy joylashishi va zichligi tabiiy, tarixiy, ijtimoiy – iqtisodiy omillar ta'sirida vujudga keladi. Masalan, tabiiy sharoit omili natijasida iqlimi va relyefi qulay, daryo vodiysi va dengiz bo'yli hududlarida (Gang daryosi vodiysi, Buyuk Xitoy tekisligi), tarixiy omili natijasida insonlar qadimdan o'zlashtirgan hududlarda (Mesopotamiya, O'rta dengizbo'yi), ijtimoiy – iqtisodiy omil natijasida esa ishlab chiqarish rivojlangan markazlarida (Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo, G'arbiy Yevropa) aholi zich joylashgan. Demak, yuqoridagi omillarga bog'liq ravishda Yer yuzida aholi juda notekis joylashgan. Aholining bunday notekis joylashuvini, aholi zichligi ko'rsatkichi bilan ifodalash mumkin.

Aholi zichligi 1 km² maydonga to'g'ri keluvchi aholi sonini ifodalaydi. Shu sababli, aholi zichligini topish uchun ma'lum hududdagi aholi sonini, shu hudud maydoniga bo'lib topiladi. Buning uchun har doim ikkala raqamni (aholi soni va maydonini) bir xil to'liq sonlarga yoki bir xil qiymatga (mln, ming) aylantirib olish lozim.

Quyida aboli zichligini aniqlashga oid masalalarini ishlaymiz.

1-masala. 2021-yil 1-yanvar holati bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi aholisi soni 34558900 kishiga teng, maydoni esa 448,9 ming km² ni tashkil etadi.

Ushbu ma'lumotlardan foydalanib mamlakat aholisi zichligini aniqlang.

Yechish. Dastlab, 448,9 ming km² maydonni sonlarga aylantirib olamiz.

448,9 ming km² → 448 900 km²

So'ngra yuqoridagi "aholi zichligini topish uchun ma'lum hududdagi aholi sonini, shu hudud maydoniga bo'lib topiladi" ta'rifga asoslanib ishlaymiz, ya'ni;

$$34558900 \div 448\,900 = 76,9$$

Aholi zichligi 76,9 ga teng bo'lib, lekin kishi hisoblayotganda har doim taqriban qilib butun son qilib olamiz, ya'ni 77 kishi bo'ladi.

Javob: 2021-yil 1-yanvar holati bo'yicha, O'zbekiston Respublikasida aholi zichligi har bir km^2 ga 77 kishi tog'ri kelar ekan.

2-masala. 2021-yil 1-yanvar holati bo'yicha, Surxondaryo viloyatasi aholisi soni 2680,8 ming kishiga teng, maydoni esa 20,1 ming km² ni tashkil etadi.

Ushbu ma'lumotlardan foydalanib viloyat aholisi zichligini aniqlang.

Yechish. Bu yerda aholi soni va maydoni bir xil qiymatda berilgani uchun ularni sonlarga aylantirmasdan aholi sonini, maydoniga bo'lib ishlaymiz, ya'ni;

$$2680,8 \div 20,1 = 133,3$$

Aholi zichligi 133,3 ga teng bo'lib, taqrīban qilib 133 kishi deb
olish mumkin.

Javob: 2021-yil 1-yanvar holati bo'yicha, Surxondaryo viloyatida aholi zichligi har bir km² ga 133 kishi tog'ri kelar ekan.

3-masala. 2021-yil 1-yanvar holati bo'yicha, Farg'on'a viloyati aholisi soni 3,8 mln kishiga teng, maydoni esa 6,7 ming km² ni tashkil etadi.

Ushbu ma'lumotlardan foydalanib viloyat aholisi zinchligini aniqlang.

Yechish. Bu yerda aholi soni va maydoni bir xil qiymatda berilmagan, shu sabali, ularni bir xil qiymatga aylantirib olamiz va aholi sonini, maydoniga bo‘lib ishlaymiz, ya’ni;

3,8 mln kishi → 3800 ming kishi

$$3800 \div 6,7 = 567,1$$

Aholi zichligi 567,1 ga teng bo'lib, taqriban qilib 567 kishi deb olish mumkin.

Javob: 2021-yil 1-yanvar holati bo'yicha, Surxondaryo viloyatida aholi zichligi har bir km² ga 567 kishi tog'ri kelar ekan.

Urbanizatsiya va uning darajasini aniqlash.

Jahonda va alohida hududlarda (qit'a, mintaqqa, mamlakat, viloyat) shaharlarning va shahar aholisi salmog'ining ko'payib borish jarayini urbanizatsiya deb ataladi. Urbanizatsiya lotincha "urbanus" – shahar, "sation" – jarayon ya'ni shaharlashuv jarayoni degan ma'noni anglatadi. Urbanizatsiya jamiyat hayotida shahrlar rolining ortib borishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Shu sababli shaharlashuv jarayoni urbanizatsiya darajasi bilan ifodalanadi.

Urbanizatsiya darajasi, odatda, jami aholi tarkibida shahar aholisining salmog'i bilan o'chanadi. Dunyo miqyosida aholi punktlarga shahar maqomini berishda aniq chegaralangan bir xil miqdor mavjud emas. Har bir davlatdagi shahrlar bajaradigan funktsiyasi va aholi punktlarining roli va aholi soniga qarab ajratiladi. O'zbekistonda aholi punkti shahar maqomini olishi uchun uning aholisi 7 ming va undan ko'p bo'lishi, yashayotgan aholining 2/3 qismi qishloq xo'jaligi bilan band bo'lmasdan, boshqa ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy sohalarda shug'ullanishi, sanoat korxonalarini, kommunal xo'jalik tashkilotlari, davlat uy-joy fondi, o'quv yurtlari, madaniy-ma'rifiy, tibbiy, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish muassasalarini mavjud bo'lishi lozim.

Urbanizatsiya darajasi umumiy aholiga nisbatan shaharliklar miqdorini bildiradi. Ko'pchilik ma'lumotlarda, ma'lum hududdagi shahar aholisining sonini ifodalash uchun urbanizatsiya darajasi foizlarda hisoblanadi. Urbanizatsiya darajasi proporsiya usuli yordamida aniqlanadi. Masalan, umumiy aholiga nisbatan foizlarda yoki agar foizlarda ifodalangan bo'lsa, sonini aniqlash uchun umumiy aholini inobatga olgan holda, proporsiya usulida ishlash mumkin.

Quyida urbanizatsiya darajasini aniqlashga oid masalalarni ishlaymiz.

1-masala. 2021-yil 1-yanvar holati bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi aholisi soni 34558900 kishiga, shahar aholisi esa 17510400 kishiga teng ekanligi ma'lum bo'lsa, shu davrdagi urbanizatsiya darajasini aniqlang.

Yechish. urbanizatsiya darajasini aniqlash uchun yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib, proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz, ya'ni;

$$34558900 —— 100 \%$$

$$17510400 —— X \%$$

$$x = \frac{17510400 \times 100\%}{34558900} = 50,6\%$$

Javob: 2021-yil 1-yanvar holati bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi urbanizatsiya darajasi 50,6 % ni tashkil etadi.

2-masala. 2021-yil 1-yanvar holati bo'yicha, Surxondaryo viloyati aholisi soni 2680800 kishiga teng, urbanizatsiya darajasini 36,2 % ni tashkil etsa, shahar aholisi sonini aniqlang.

Yechish. shahar aholisi sonini aniqlash uchun yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib, proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz, ya'ni;

$$2680800 —— 100 \%$$

$$X —— 36,2 \%$$

$$x = \frac{2680800 \times 36,2\%}{100\%} = 970550$$

Javob: 2021-yil 1-yanvar holati bo'yicha, Surxondaryo viloyat shahar aholisi soni 970550 kishini tashkil etadi.

3-masala. 2021-yil 1-yanvar holati bo'yicha, Qoraqalpog'iston Respublikasi urbanizatsiya darajasini 49 % ni tashkil etib, shahar aholisi soni 942000 kishiga teng bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining umumiy sonini aniqlang.

Yechish. umumiy aholi sonini aniqlash uchun yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib, proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz, ya'ni;

$$X —— 100 \%$$

$$942000 —— 49 \%$$

$$x = \frac{942000 \times 100\%}{49\%} = 1922449$$

Javob: 2021-yil 1-yanvar holati bo'yicha, Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining umumiyl soni 1922449 kishini tashkil etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Aholi deganda nimani tushunasiz?
2. Aholining tabiiy va mexanik ko'payishi nima?
3. Aholining etnik tarkibi deganda nimani tushunasiz?
4. Depopulyasiya nima?
5. Progressiv yosh tarkibi nima?
6. Migratsiya va uning qanday turlari bor?
7. Aholining hududiy joylashuviga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
8. Aholi zichligi qanday aniqlanadi?
9. Urbanizatsiya nima va u qanday aniqlanadi?
10. O'zbekistonda qanday aholi punktlariga shahar moqomi beriladi?

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:

1. Avstraliyaning Yangi Janubiy Uells (New South Wales) shtati aholisi 2018-yil bo'yicha, 8 023 740 kishini tashkil etgan. Shtatda yil davomida 12 805 kishi tug'ilgan, vafot etganlar soni esa 10 456 kishiga teng. Mazkur hududdan 8 950 kishi ko'chib ketgan hamda 21 650 kishi ko'chib kelgan bo'lsa, Yangi Janubiy Uells shtatining aholisi 2019-yil boshida qanchaga teng bo'ladi?

2. Xitoy aholisining soni 2011-yil 1-yanvarda 1 348 174 478 kishiga yetdi. Mamlakatda umumiy tug'ilganlar soni 18 175 329 kishini, vafot etganlar soni esa 9 908 712 kishini tashkil etdi. Migrant ishchilarning umumiy soni 252 780 000 kishi bo'lib, o'z provinsiyasiga nisbatan emigrant ishchilar 158 630 000 kishi, boshqa provinsiyalarga nisbatan immigrant ishchilar 94 150 000 kishiga teng bo'lgan. Mamlakatdan 3 750 800 kishi ko'chib ketgan hamda 5 642 kishi ko'chib kelgan. Berilgan ma'lumotlardan foydalananib, 2012-420 kishi ko'chib kelgan. Berilgan ma'lumotlardan foydalananib, 2012-yil 1-yanvarda Xitoy doimiy aholisi qanchani tashkil etishini hisoblang.

3. Koreya Respublikasining aholisi 2017-yil 1-yanvar bo'yicha, 50 982 212 kishini tashkil etdi. Yil davomida Koreya Respublikasida 489 192 kishi tug'ildi, o'lim ko'rsatkichi esa 491 260 kishiga yetdi. Agar

mamlakat doimiy aholisining soni 2018-yil 1-yanvarda 51 164 435 kishiga yetgan bo'lsa, migratsiya hisobiga ko'payishni toping.

4. Turkmanistonda tug'ilish koeffitsiyenti 2016-yil bo'yicha, 21 promilleni, o'lim koeffitsiyenti esa 8 promilleni tashkil etsa, aholining tabiiy ko'payish ko'rsatkichi qanchaga teng bo'ladi?

5. Qozog'istonda 2016-yil bo'yicha, aholining tabiiy ko'payishi 15 % ni, mos ravishda, o'lim 8 % ni tashkil etsa, tug'ilish koeffitsiyentini toping.

6. 2016-yil bo'yicha, Tojikistonda tug'ilish koeffitsiyenti 31 %, tabiiy ko'payish ko'rsatkichi esa 25 % ga teng bo'lsa, o'lim koeffitsiyentini aniqlang.

7. Xitoyda 2011-yil 1-yanvar holati bo'yicha, ish izlab 158 630 000 ishchi o'z hududidan chiqib ketgan hamda uyiga 94 150 000 ishchi qaytgan bo'lsa, mazkur paytdagi mexanik ko'payish qanchani tashkil etgan?

8. 2012-yil bo'yicha, O'zbekistonda mexanik ko'payish -40 500 kishini tashkil etgani holda, mamlakatga ko'chib kelganlar soni 4 500 kishiga teng bo'ldi. Joriy yilda qancha kishi ko'chib ketganligini toping.

9. Xitoy aholisi 1955-yilda 615 mln, 2013-yil 1 mlrd 350 mln kishini tashkil qilgan bo'lsa, aholi soni qanchaga ko'paygan?

10. Hindiston aholisining soni 1900-yilda 239 mln kishini tashkil etib, 2013-yilgacha, ya'ni 113 yil ichida 982 mln kishiga ko'paygan bo'lsa, 2013-yil aholi soni qanchaga yetgan?

11. Turkmaniston aholisi 1993 – 2013-yillar oraliq'ida 3,7 mln kishidan 5,1 mln kishigacha yetgan bo'lsa, mutloq holatda aholi soni qanchaga ko'paygan?

12. O'zbekiston aholisining soni 2001-yil 24 813 100 kishini, 2014-yilda esa 30 488 600 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2001 – 2014-yillar oraliq'ida aholi soni qancha foizga o'sganligini aniqlang.

13. Kanada aholisi 2013-yilda 38,5 mln kishini tashkil qildi. Agar aholi soni 2011-yil 34,8 mln kishiga teng bo'lgan bo'lsa, 2 yil ichida aholi necha foiz o'sganligini toping.

14. AQSh aholisining soni 2013-yil bo'yicha, 314.7 mln kishiga teng. Agar aholisi, o'rtacha, bir yilda 0,9 foizdan ko'payib borayotganligini inobatga olsak, 2014-yil aholisi soni qanchani tashkil etadi?

15. Namangan shahri aholisi 1979-yil 227 ming kishini, 2013-yil 461 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 34 yil ichida aholi soni necha marta ko'payganini toping.

16. Vengriya aholisi 2012-yil deyarli 10,0 mln kishini tashkil qildi. Agar 1980-yilda aholi soni bundan 245 ming kishiga ko'p bo'lgan bo'lsa, 1980 – 2013-yillar mobaynidagi aholining o'sish darajasini toping.

17. Avstraliya Ittifoqining aholisi 2017-yil 1-martda 24 608 610 kishiga yetdi. Agar aholi soni 2013-yil iyul holatiga ko'ra, 21 000 000 kishiga teng bo'lgan bo'lsa, to'rt yil mobaynidagi aholining o'sish darajasini toping.

18. Xitoy aholisi 2013-yil bo'yicha, 1 mlrd 350 mln kishini tashkil qiladi. Agar mamlakat aholisining 47 foizini ayollar, 53 foizini erkaklar tashkil qilsa, yuqoridagi ma'lumotlardan foydalaniib, har 1000 ta ayolga nechta erkak to'g'ri kelishini toping.

19. Qozog'istonda 2017-yil bo'yicha, o'rtacha aholi soni 18 400 000 kishini tashkil etgani holda, ayollar soni 8 572 000 kishi, erkaklar esa 9 828 000 kishiga teng. Mazkur ko'rsatkichlardan foydalangan holda, aholining jinsiy tarkibini foizlarda ifodalang.

20. Agar Eron aholisining soni 2013-yil bo'yicha 80 mln kishini tashkil etib, umumiyl aholining 7 foizi 65 yoshdan kattalar bo'lsa, mamlakat bo'yicha joriy yildagi qariyalar sonini toping.

21. Markaziy Osiyo subregionining aholisi 2017-yil bo'yicha 70,5 mln kishini, O'zbekiston aholisi esa 32,1 mln kishini tashkil etsa, mintaqaga aholisining qanchasi O'zbekistonga to'g'ri keladi?

22. Sharqi Osiyo subregionining aholisi, 2017-yil bo'yicha, 1.5 mlrd kishidan ortiq. Agar subregionda urbanizatsiya darajasi 58 foizni tashkil qilsa, shahar aholisi sonini aniqlang.

23. 2017-yil ma'lumotlariga ko'ra, Markaziy Osiyo subregionining aholisi 70.5 mln kishini tashkil qildi. Joriy davrda subregiondagi shahar aholisining umumiyl soni 30 456 000 kishidan ortiq bo'lsa, urbanizatsiya darajasini toping.

24. Janubiy Osiyo subregionida shahar aholisining soni 920 mln kishi, urbanizatsiya darajasi esa 46 foizni tashkil qilsa, subregiondagi umumiyl aholi sonini toping.

25. 2021-yil 1-yanvar holati bo'yicha, Toshkent viloyati aholisi soni 2975900 kishiga teng bo'lib, urbanizatsiya darajasini 49,4 % ni tashkil etsa, shahar aholisi sonini aniqlang.

8-mavzu: IQTISODIY-IJTIMOIY GEOGRAFIYANI O'QTISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH USULI

Reja:

1. Sanoatning taraqqiyot darajasini aniqlash.
2. Sanoatning hududiy mujassamlashuv darajasini aniqlash.
3. Iqtisodiy rayon nuqtai nazaridan ixtisoslashuv darajasini aniqlash.

Sanoatning taraqqiyot darajasini aniqlash.

Xom ashyo, material, yoqilg'i, energiya va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yoki aholiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar majmuasi sanoat deb aytildi. Sanoat xalq xo'jaligining muhim sohasi bo'lib, moddiy ishlab chiqarishning birinchi asosiy manbai hisoblanadi. Sanoat o'zi uchun hamda xalq xo'jaligining boshqa sohalari uchun mehnat qurollari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, xom ashyo, yoqilg'i qazib olish, energiya ishlab chiqarish, yog'och tayyorlash, sanoatda yoki qishloq xo'jaligida olingan mahsulotlarga ishlov berish va ularni qayta ishlash bilan shug'ullanadigan korxonalarini (fabrikalar, zavodlar, elektrostansiyalar, shaxtalar, konlar va boshqalar) bir tizimga birlashtiradi. Sanoat xalq xo'jaligining jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyoti darajasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan yetakchi tarmog'i bo'lgani uchun mamlakatlar va ularning mamuriy birliklarining rivojlanish ko'rsatkichlari sanoatning taraqqiyot darajasiga bog'liq bo'ladi. Shu boisdan, sanoatning taraqqiyot darajasini aniqlash muhim hisoblanadi.

Hududlarning sanoat taraqqiyot darajasi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$Ind = \frac{a + b}{n}$$

Bu yerda, Ind – industriya, sanoat rivojlanganligining umumiyl ko'rsatkichi;

a – hudud yalpi sanoat mahsulotining respublika yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi;

b – hududdagi sanoatda band aholining respublika sanoatda band aholi sonidagi ulushi;

n – o‘rta arifmetik qiymat bo‘yicha, ko‘rsatkichlar soni.

Mazkur ifoda orqali ma’lum hududning (mamlakat, viloyat, shahar, tuman) sanoat holatiga baho berish mumkin, ya’ni mintaqaga yoki respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan qanchaga farq qilishiga e’tibor bergen holda, sanoat taraqqiyot darajasi tahlil qilinadi.

Quyida sanoatning taraqqiyot darajasini aniqlashga oid masalani ishlaymiz.

1-masala. 2021-yil 1-yanvar ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston barcha sanoat tarmoqlarida 1809,5 mingdan ortiq kishi xizmat qiladi. Toshkent viloyatida esa bu ko‘rsatkich 595,1 ming kishini tashkil etadi. Agar viloyat respublika yalpi sanoat mahsulotining 17,9 foizini bersa, sanoatning taraqqiyot darajasini aniqlang.

Yechish. sanoatning taraqqiyot darajasini aniqlash uchun bizga viloyatdagi sanoatda band aholining respublika sanoatda band aholi sonidagi ulushi kerak bo‘ladi, uni topish uchun yuqoridagi ma’lumotlardan foydalanib, proporsiya tuzamiz va ishlaymiz, ya’ni

$$1809,5 \text{ ming kishi} — 100\%$$

$$595,1 \text{ ming kishi} — X$$

$$x = \frac{595,1 \times 100\%}{1809,5} = 32,8\%$$

Viloyatdagi sanoatda band aholining respublika sanoatda band aholi sonidagi ulushi 32,8 % ekan.

Endi viloyatning sanoat taraqqiyot darajasi yuqoridagi formula yordamida aniqlaymiz, ya’ni;

$$Ind = \frac{a + b}{n} = \frac{17,9 \% + 32,8 \%}{2} = 25,3\%$$

Javob: Toshkent viloyati sanoatining taraqqiyot darajasi 25,3 % tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkich respublika bo‘yicha esa 13,2 foizni tashkil qiladi. Demak, viloyat sanoatining taraqqiyot darajasi respublika ko‘rsatkichidan yuqori hisoblanadi.

Sanoatning hududiy mujassamlashuv darajasini aniqlash.

Ishlab chiqarishni tashkil qilishning barcha shakllari mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatsiya ayni paytda ijtimoiy va xududiy tomonlarga ega. Albatta iqtisodiy va ijtimoiy

geografiya uchun ishlab chiqarishning xududiy tomoni yetakchi rol o‘ynaydi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining obyektini, aynan shu tarmoqlarning hududiy tashkil etilishi, ularning joylashish xususiyatlari belgilab beradi. Mujassamlashuv yoki ishlab chiqarishning to‘planishi xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlariga tegishlidir. Ammo geografik jihatdan u eng avvalo sanoat, qishloq xo‘jaligi va transport, ya’ni moddiy sohalarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Mujassamlashuv sanoat misolida juda aniq va sezilarli ko‘rinadi.

Xususan, sanoatning hududiy mujassamlashuv darajasini (Mh) aniqlash uchun quyidagi ifodadan foydalaniladi:

$$Mh = \frac{a + b}{n + G}$$

Bu yerda, Mh – sanoatning hududiy mujassamlashuv darajasi;
a – hudud yalpi sanoat mahsulotining respublika yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi;

b – hududdagi sanoatda band aholining respublika sanoatda band aholi sonidagi ulushi;

n – o‘rta arifmetik qiymat bo‘yicha, ko‘rsatkichlar soni;

G – hudud maydonining mamlakat maydonidagi ulushi.

Sanoatning hududiy mujassamlashuvi O‘zbekiston ma’muriy birliklari bo‘yicha, o‘rtacha 7 dan yuqori bo‘lishi lozim ($100 \% \div 14 \approx 7$). Agar hududlar sanoatining hududiy mujassamlashuv darajasi 7 dan katta bo‘lsa, mujassamlashuv darajasi yo‘qori, 7 dan kichik bo‘lsa, mujassamlashuv darajasi past hisoblanadi.

Quyida sanoatning hududiy mujassamlashuv darajasini aniqlashga oid masalani ishlaymiz.

1-masala. Toshkent viloyati O‘zbekiston Respublikasi maydonining 3,4 % ni tashkil etgani holda, mamlakatdagi yalpi sanoat mahsulotining 17,9 % ni beradi. Agar viloyatga jami respublikadagi sanoatda band aholining 32,8 % qismi to‘g‘ri kelsa, toping.

Yechish. Viloyat sanoatining hududiy mujassamlashuv darajasini yuqoridagi formula yordamida aniqlaymiz, ya’ni;

$$Mh = \frac{a + b}{n + G} = \frac{17,9 \% + 32,8 \%}{2 + 3,4 \%} = 9,3\%$$

Javob: Sanoatning Toshkent viloyat bo‘yicha mujassamlashuvi 9,3 foizga teng bo‘ladi. Demak, viloyat sanoatining hududiy mujassamlashuvi respublika ko‘rsatkichidan past hisoblanadi.

Iqtisodiy rayon nuqtai nazaridan ixtisoslashuv darajasini aniqlash.

Tabiiy va iqtisodiy sharoitlari bir xil va xalq xo'jaligi tarixan tarkib topgan, ixtisoslashgan ishlab chiqarishga ega bo'lgan hudud hamda mamlakatning hududiy-ishlab chiqarish majmuidan iborat bir qismi **iqtisodiy rayon** deb ataladi. Har bir iqtisodiy rayon o'zining yetakchi, asosiy xo'jalik tarmoqlariga ega bo'lib, bu tarmoqlar iqtisodiy rayonning iqtisodiy qiyofasini belgilaydi, ayni paytda, har bir iqtisodiy rayonda shu rayonning yetakchi xo'jalik tarmog'iga xizmat qiladigan, uni to'ldiradigan yordamchi tarmoqlar ham bo'ladi. Iqtisodiy rayondagi asosiy omil hududiy ijtimoiy mehnat taqsimotidir. Shu taqsimot tufayli ayrim rayonlar ishlab chiqarishning ma'lum tarmoqlari bo'yicha ixtisoslashadi, rayon doirasida va rayonlararo iqtisodiy aloqalar amalga oshadi. Ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etilgan iqtisodiy rayonlar xalq xo'jaligi sohalarini rivojlantirish va uni to'g'ri boshqarishga yordam beradi, milliy xo'jalik tizimining hududiy tuzilmasini qulaylashtirishga, davlatning mintaqaviy siyosati vazifalarini hal etishga xizmat qiladi. Iqtisodiy rayonning ixtisoslashgan tarmoqlari hududning kompleks rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Ular hududiy mehnat taqsimotida o'z o'rnilarini belgilab beradi. Iqtisodiy rayonning ixtisoslashuv tarmoqlari ma'lum bir hududda ma'lum bir hududning ehtiyojlaridan sezilarli darajada oshadigan hajmda ishlab chiqarish imkoniyati bilan belgilanadi. Bu ko'rsatkichga mintaqadagi mavjud tarixiy, tabiiy va boshqa sharoitlar tufayli erishiladi. Shu bilan birga, bunday miqdorda mahsulot ishlab chiqarish nisbatan kam mehnat xarajatlari bilan amalga oshiriladi. Shunday qilib, ixtisoslashuv tarmoqlari eksportga yo'naltirilgan tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan tarmoqlardir. Ularning asosiy xususiyati katta hajm va samaradorlikdir.

Iqtisodiy rayonlar uchun butun mamlakat miqyosida ixtisoslashuv o'ziga xos bo'lib, mahsulot almashinushi juda keng qamrovda amalga oshadi. Bunday rayonlarning bir necha ixtisoslashgan tarmoqlari bo'lishi mumkin. Mamlakat miqyosida rayonning ma'lum bir tarmoqqa ixtisoslashgan yo ixtisoslashmaganligini quyidagi formula orqali topiladi:

$$K = \frac{M}{A}$$

Bu yerda, K— rayonning biror tarmoqqa ixtisoslashish ko'rsatkichi; M— rayon mahsulotining shu tarmoq bo'yicha mamlakatdagi xissasi;

A— rayon aholisining mamlakat aholi sonidagi ulushi.

Ishni bajarish davomida natija 1 dan katta chiqsa, ushbu rayon berilgan tarmoqqa ixtisoslashgan bo'ladi. Agar 1 dan kichik chiqsa ixtisoslashmagan bo'ladi.

Quyida iqtisodiy rayon nuqtai nazaridan ixtisoslashuv darajasini aniqlashga oid masalalarни ishlaymiz.

1-masala. Toshkent iqtisodiy rayonida mamlakat aholisining 16,4 % i yashagani holda, iqtisodiy rayon paxtaning 6,8 % ini yetkazib bersa, rayonning paxtaga ixtisoslashish koeffitsiyentini aniqlang.

Yechish. rayonning paxtaga ixtisoslashish koeffitsiyentini yuqoridaagi formula yordamida aniqlaymiz, ya'ni

$$K = \frac{M}{A} = \frac{6,8\%}{16,4\%} = 0,4$$

Javob: Toshkent iqtisodiy rayoni paxtaga ixtisoslashish koeffitsiyenti 0,4 ni tashkil qiladi. Demak, natija 1 dan kichik bo'lgani uchun rayon bu mahsulotga ixtisoslashmagan bo'ladi.

2-masala. Mirzacho'l iqtisodiy rayonida mamlakat aholisining 6,5 % i yashagani holda, iqtisodiy rayon paxtaning 25 % ini yetkazib bersa, rayonning paxtaga ixtisoslashish koeffitsiyentini aniqlang.

Yechish. rayonning paxtaga ixtisoslashish koeffitsiyentini yuqoridaagi formula yordamida aniqlaymiz, ya'ni

$$K = \frac{M}{A} = \frac{25\%}{6,5\%} = 3,8$$

Javob: Mirzacho'l iqtisodiy rayoni paxtaga ixtisoslashish koeffitsiyenti 3,8 ni tashkil qiladi. Demak, natija 1 dan katta bo'lgani uchun rayon bu mahsulotga ixtisoslashgan bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ishlab chiqarishning moddiy va nomoddiy sohalariga tarif bering.
2. Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda qanday omillarga etibor beriladi?
3. Sanoat tarmoqlari tarkibi klassifikatsiyasini tuzing.
4. Mujassamlashuv nima?
5. Ixtisoslashuv nima?

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:

1. Juhon sanoat tarmoqlarida 450 milliondan ortiq kishi xizmat qiladi. Rossiya sanoatda bandlar soni esa 20 mln kishini tashkil etadi. Agar Rossiya Federatsiyasi jahon yalpi sanoat mahsulotining 3,6 foizini bersa, sanoatning taraqqiyot darajasini aniqlang.

2. O'zbekiston barcha sanoat tarmoqlarida 1809,5 mingdan ortiq kishi xizmat qiladi. Toshkent viloyatida esa bu ko'rsatkich 81,7 ming kishini tashkil etadi. Agar viloyat respublika yalpi sanoat mahsulotining 1,4 foizini bersa, sanoatning taraqqiyot darajasini aniqlang.

3. AQSh jahon quruqligining 6,3 foizini tashkil etgani holda, jahondagi YaSM ning 18,7 foizini beradi. Agar mamlakatga jahondagi sanoatda band aholining 5,77 % qismi to'g'ri kelsa, sanoatning mujassamlashuv darajasini toping.

4. Farg'ona iqtisodiy rayonida mamlakat aholisining 11,4 % i yashagani holda, iqtisodiy rayon paxtaning 45 % ini yetkazib bersa, rayonning paxtaga ixtisoslashish koeffitsiyentini aniqlang.

5. Samarqand iqtisodiy rayonida mamlakat aholisining 28,5 % i yashagani holda, iqtisodiy rayon to'qimachilik mahsulotlarining 9,9 % ini yetkazib bersa, rayonning to'qimachilik mahsulotlarga ixtisoslashish koeffitsiyentini aniqlang.

9-mavzu: FAKULTATIV MASHG'ULOTLARDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH

Reja:

1. Sanoat tarmoqlari geografiyasiga oid masalalar.
2. Qishloq xo'jalik geografiyasiga oid masalalar.
3. Transport geografiyasiga oid masalalar.

Sanoat tarmoqlari geografiyasiga oid masalalar.

Sanoat — milliy iqtisodiyotning moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi muhim tarmog'i bo'lib, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida texnika taraqqiyoti va mamlakatning mudofaa qudrati unga bog'liq. Sanoatning rivojlanishi bilan yangi aholi manzillari, transport yo'llari vujudga keladi. Qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo-sotiqning taraqqiyot darajasi o'sadi, sanoatning rivojlanishi bilan tabiatdan foydalanish ham jiddiy o'zgaradi.

Sanoatni yirik ikki guruhga, og'ir sanoat va yengil sanoatga ajratish mumkin. Og'ir sanoat tarkibiga yoqilg'i sanoati, elektroenergetika sanoati, qora metallurgiya va rangli metallurgiya sanoati, mashinasozlik sanoati, kimyo va neft kimyo sanoati, o'rmon va yog'ochni qayta ishslash sanoati, selluloza-qog'oz sanoati, qurilish materiallari sanoati kabilar kiradi. Yengil sanoat tarkibiga esa to'qimachilik sanoati, tikuvchilik va poyabzalchilik sanoati, oziq-ovqat sanoati, sanoatni aralash yem sanoati kabilar kiradi. Og'ir sanoat mamlakatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Quyida sanoat tarmoqlari haqida ma'lumotlar va ularga oid masalalarini yechish usullarini ko'rsatib o'tamiz.

Yoqilg'i – energetika resurslarga oid masalalar

Har xil yoqilg'i turlarini qazib olish va qayta ishslash bilan band bo'lgan sanoat tarmoqlari majmui yoqilg'i sanoatini tashkil etadi. Yoqilg'i sanoati neft qazib olish, neftni qayta ishslash, gaz, ko'mir, torf, slanes sanoatlarini o'z ichiga oladi. Yoqilg'i sanoati energetikaning yetakchi tarmog'idir. Shu sababdan ham odatda yoqilg'i sanoatini energetika sanoati bilan birga yoqilg'i-energetika majmuasi deb nomlanadi. Yoqilg'i – energetika majmuasining asosini yoqilg'i-energetika resurslari tashkil etadi. Yoqilg'i – energetika

resurslari – bu tabiatda mavjud bo‘lgan va fan texnikaning hozirgi taraqqiyot darajasida inson amalda foydalana oladigan energiya manbalaridir. Hozirgi vaqtida ularga toshko‘mir, neft, yonuvchi gaz, yonuvchi slanes, torf, quruq o‘tin, uran, oqar suvlar energiyasi, shamol energiyasi, quyosh energiyasi, atom energiyasi, Yerning ichki energiyasi kiradi. Ishlab chiqarishda Yerning ichki issiqlik energiyasidan, Quyosh va ayniqsa, atom energiyasidan foydalana boshlandi, kelajakda termo yadrodan foydalanadi. Yoqilg‘i turli xillarning salmog‘ini taqqoslash uchun ular shartli yoqilg‘iga aylantiriladi. Turli yoqilg‘larni shartli yoqilg‘iga aylantirish uchun ularning issiqlik birligini toshko‘mirning issiqlik koeffitsinti (1) ga ko‘paytiriladi. Hisoblashlarda 1 kg shartli yoqilg‘i o‘rta hisobda 2 kvt/soat elektr energiyasiga teng deb qabul qilinadi.

Bir kilogram yoqilg‘i yonganda 7 ming kkal (29 M J/kg) energiya beradigan, issiqlik koeffitsienti esa bir deb qabul qilingan yoqilg‘iga shartli yoqilg‘i deb aytildi. (4-jadval)

4-jadval

Turli xil yoqilg‘ilarning yongandagi issiqligi

| T/r | Yoqilgi Turi | *1 kg yoqilg‘i yonganda chiqadigan issiqlik | | Issiqlik Koeffitsinti |
|-----|-----------------|---|-------------------|-----------------------|
| | | Joulda | Ming kkal da | |
| 1 | Tabiiy gaz | $4,4 \cdot 10^7$ | $10,6 \cdot 10^6$ | 1,5 |
| 2 | Neft | $4,4 \cdot 10^7$ | $10,6 \cdot 10^6$ | 1,5 |
| 3 | Toshko‘mir | $2,9 \cdot 10^7$ | $7,0 \cdot 10^6$ | 1,0 |
| 4 | Torf | $1,4 \cdot 10^7$ | $3,4 \cdot 10^6$ | 0,48 |
| 5 | Qo‘ng‘ir ko‘mir | $1,3 \cdot 10^7$ | $3,1 \cdot 10^6$ | 0,45 |
| 6 | Quruq o‘tin | $1,0 \cdot 10^7$ | $2,4 \cdot 10^6$ | 0,34 |
| 7 | Slanes | $0,8 \cdot 10^7$ | $2,1 \cdot 10^6$ | 0,30 |

1 kg toshkomirning issiqligi 1 kg shartli yoqilg‘ining issiqligiga teng. Yoqilg‘ining turli xillarini bir-biri bilan taqqoslash uchun ular shartli yoqilg‘iga aylantiriladi. Masalan, 1 kg toshko‘mirning issiqligi 1 kg shartli yoqilg‘ining issiqligiga teng, 1 kg neftning issiqligi esa 1,5 kg shartli yoqilg‘ining issiqligiga teng. Issiqlik asosan joul va kaloriya birliklarida ifodalanadi. Joul birligi ingliz fizigi Jeyms Preskott Joul sharafiga nomlangan. Kaloriya lotincha so‘z bo‘lib, “calor” issiqlik degan ma’noni anglatadi. 1 giram suvni isitish uchun zarur issiqlik miqdori 1 kaloriya deb olingan. 1 kaloriya = $4,1868 \text{ Joul}$. Suvni

isitishda sarflanadigan issiqlik miqdori harorat intervaliga va sharoitga bog‘liq, shuning uchun 1 kg suvni $19,5^\circ$ dan $20,5^\circ$ gacha isitish uchun zarur issiqlik miqdori 1 kkal deb olingan. Amalda kilokaloriya (kkal) ko‘proq ishlatilgan. 1 kilokaloriya = 1000 kaloriya.

Quyida yoqilg‘i – energetika resurslarga oid masalalar yechamiz.

1-masala. 12 kg neft yonganda, undan qancha kaloriya issiqlik ajrab chiqadi?

Yechish. Uni topish uchun yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan foydalanib, 1 kg neft yonganda ajralib chiqadigan issiqlikn (10,6 $\cdot 10^6$ ming kkal) aniqlab olib, uni raqamlarga aylantirib yoyiq holdagi kaloriyada ifodalab olamiz, so‘ngra proporsiya tuzib, uni ishlaymiz, ya’ni;

1 kg neft yonganda $10,6 \cdot 10^6$ kal. = 10600000 kaloriya issiqlik ajrlab chiqadi,

$$1 \text{ kg neft} \quad 10600000 \text{ kaloriya}$$

$$12 \text{ kg neft} \quad X$$

$$X = \frac{12 \times 10600000}{1} = 127200000$$

Javob: 12 kg neft yonganda $127,2 \cdot 10^6$ yoki 127,2 mln kaloriya issiqlik ajralib chiqadi.

Agarda birlik Joul bilan ifodalangan bo‘lsa, mos ravishda, mazkur birlik ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi.

2-masala. Yoqilgan tabiiy gazdan chiqqan issiqlik miqdori hisoblab chiqilganda, u $220 \cdot 10^8$ Joulni tashkil etgan bo‘lsa, qancha tabiiy gaz yoqilganligini toping.

Yechish. Bu jarayon bilan bog‘liq amallarni bajarishda e’tiborli bo‘lish lozim. Chunki bu yerda 10^7 emas, balki 10^8 tarzida ifodalangan. Shu bois, ish tartibli va mazmunan uzviy holda berilishi lozim.

1) 1 kg tabiiy gaz yoqilganda chiqadigan Joul issiqlik miqdori – $4,4 \cdot 10^7$ Joul;

2) hisoblash uchun keltirilgan ajrab chiqqan energiya – $220 \cdot 10^8$ Joul;

3) $220 \cdot 10^8$ degani – bu 220 dan keyin yana 8 ta raqam bor degani. Tabiiy gazdan meyoriy chiqadigan issiqlik 10^7 da berilgani bois, yakunda ajrab chiqqan issiqlik ham 1 kg yonganda ajrab chiqishi miqdori 1 kaloriya deb olingan.

kerak bo'lgan issiqlik birligiga moslanadi, ya'ni quyidagicha: $4,4 \cdot 10^7$ Joul $\rightarrow 44000000$; $220 \cdot 10^8 \rightarrow 22000000000$ Joul;

4) hisoblash uchun proporsiya usulidan foydalaniladi:

$$1 \text{ kg tabiiy gaz} \longrightarrow 44000000 \text{ Joul}$$

$$X \text{ kg tabiiy gaz} \longrightarrow 22000000000 \text{ Joul}$$

$$x = \frac{1 \times 22000000000}{44000000} = 500$$

Javob: Tabiiy gazni yoqilganda chiqqan issiqlik $220 \cdot 10^8$ Joulni tashkil etgan bo'lsa, uning og'irligi, o'rtacha, 500 kg bo'lgan.

3-masala. O'zbekistonda yil davomida har 1 sm^2 yuza Quyoshdan shimalda 130 kkal radiatsiya (issiqlik energiyasi) oladi. Ya'ni issiqlik tushadi. 1 m^2 joyga tushgan issiqlik qancha yalpi radiatsiyaga teng bo'ladi va bu issiqlik qancha qo'ng'ir ko'mir yonganda hosil bo'ladigan issiqlikka teng bo'lishini toping.

Yechish: 1 sm^2 yuzaga 130 kkal issiqlik tushsa, 1 m^2 joyga tushadigan issiqliknki topish uchun 1 m^2 ni $\rightarrow \text{sm}^2$ ga aylantirib olamiz; 1 m^2 yuza = 10 000 sm^2 ga teng.

$$\text{Izoh. } 1 \text{ m} = 100 \text{ sm ga. } (100\text{sm} \times 100\text{sm} = 10000\text{sm}^2)$$

1 sm^2 yuzaga tushadigan issiqlik ma'lum, ya'ni 130 kkal uni 10 000 sm^2 ga ko'paytirsak 1 m^2 joyga tushadigan yalpi radiatsiya topiladi.

$10000 \text{ sm}^2 \times 130 \text{ kkal} = 1300000 \text{ kkal m}^2$ yalpi radiatsiya hosil bo'ladi.

Endi bu issiqlik qancha qo'ng'ir ko'mir yonganda hosil bo'ladigan issiqlikka teng bo'lishini topamiz. Qo'ng'r ko'mirning 1 kg yonganda 3100 kkal issiqlik beradi. 1 m^2 joyga 1 300 000 kkal yalpi radiatsiya tushushi ma'lum bo'ldi. Bu yalpi radiatsiyani qo'ng'ir ko'mirning kkal issiqlik miqdoriga bo'lamiz;

$$1300000 \div 3000 = 433 \text{ kg}$$

Javob: Demak 1 m^2 joyga 1300 000 kkal yalpi radiatsiya tushadi, bu 433 kg qo'ng'ir ko'mirni yoqish natijasida hosil bo'ladigan issiqlikka teng.

Uran rudalari – tarkibida uran va uning birikmalari texnik jihatdan sanoatda ishlatishga yaroqli va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq konsentratsiyada bo'lgan tabiiy meneral hosila. Suyuqlanish harorati $+1132^\circ\text{C}$, qaynash harorati $+3818^\circ\text{C}$. U radiaktiv xususiyatga ega bo'lib, yadro reaktorlarida asosiy yoqilg'i sifatida qo'llaniladi.

Kuzatishlarga ko'ra, uran atomi doimiy ravishda yemirilib, ya'ni parchalanib turadi va o'zidan radiaktiv nur tarqatadi. 1 kg uran yonganda 2,5 ming tonna (42 vagon) toshko'mir yonganda beradigan issiqlik ajratib chiqaradi. Ya'ni uran bilan kechadigan reaksiyani boshqarish mushkul, AESlar ham yuqori texnologiyalar asosida faoliyat olib bormasa, uran reaksiyalariga dosh berolmay qoladi. Aytish joizki, bitta atom reaktorining ichki devori 16 kg oltin bilan qoplanadi, chunki oltin va qo'rg'oshin nurlanishni o'tkazmaydi.

Uran yonganda ajraladigan energiya bilan bog'liq ayrim masalalarni hisoblashda yuqoridagilarga amal qilgan holda topish mumkin.

4-masala. Atom elektr stansiyasi reaktorida 5,5 kg uran yoqilgan bo'lsa, undan qancha toshko'mir yonganda chiqadigan issiqlik ajralib chiqadi?

Yechish: Buni yechishda yuqoridagi " $1 \text{ kg uran yonganda } 2,5 \text{ ming tonna toshko'mir yonganda beradigan issiqlik ajratib chiqaradi}$ " ta'rifiga asoslanib, proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz, ya'ni

$$1 \text{ kg uran} \longrightarrow 2500 \text{ kg toshko'mir}$$

$$5,5 \text{ kg uran} \longrightarrow X \text{ kg toshko'mir}$$

$$x = \frac{5,5 \times 2500}{1} = 13750$$

Javob: 5,5 kg (5500 g) uran yoqilganda, 13750 kg (13,750 tonna) toshko'mir yonganda chiqadigan issiqlik miqdoriga teng issiqlik ajralib chiqadi.

Elektroenergiya turli xil usullar yordamida hosil qilinadi. U an'anaviy (elektr stansiyalari – AES, IES, GESda ishlab chiqarish orqali) va noan'anaviy (gelioqurilmalar, geotermal, shamol, dengiz suvining qalqishi natijasida hosil qilingan) yo'llar bilan yaratiladi.

5-masala. O'zbekistonda 2020-yil 69 mlrd kVt/s elektr-energiya ishlab chiqarilgan bo'lib, shundan 88 % qismi IESlar (issiqlik elektr stansiyasi) hisobiga to'g'ri keladi. Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqqan holda, IESlarda hosil qilingan elektr-energiya miqdorini aniqlang.

Yechish: Umumiy hosil qilingan miqdordan IES hisobiga yaratilgan miqdorni topish uchun proporsiya usulidan foydalaniladi:

$$69 \text{ mlrd kVt/s} \longrightarrow 100 \%$$

$$X \longrightarrow 88 \%$$

$$x = \frac{69 \text{ mld kVt/s} \times 88\%}{100\%} = 60,7 \text{ mld kVt/s}$$

Javob: O'zbekistonda 2020-yili 60,7 mrd kVt/s elektr-energiya miqdori issiqlik elektr stansiyalarida hosil qilingan.

Sarflanayotgan elektr – energiya quvvatini hisoblash.

XXI asr ishlab chiqarish va fan-texnikasini elektr-energiyasiz mutlaqo tasavvur qilish mushkul. Chunki bugungi kunda u juda ko'p sohalarda yetakchi omil hisoblanadi. Xususan, elektr-energiya omiliga quyidagilarni misol qilish mumkin:

- 1 tonna qalay va 1 tonna titan ishlab chiqarish uchun (titan po'latdan bir necha marta yengil va, ayni chog'da, undan ancha chidamliroq) 40–50 ming kVt/s;

- 1 tonna magniy ishlab chiqarish uchun 26 ming kVt/s;

- 1 tonna aluminiy va 1 tonna natriyga 16–19 ming kVt/s;

- 1 tonna misni rafinatsiyalash (tozalash) va elektr pechlarida po'lat eritishda ularning har bir tonnasiga 8–10 ming kVt/s atrofida elektr quvvati sarflanadi.

6-masala. Rangli metallurgiya kombinatining boyitish fabrikasida 22 tonna titan ishlab chiqarish uchun qancha elektr-energiya sarflanadi?

Yechish. 1 tonna titan ishlab chiqarish uchun sarflangan elektr-energiya deyarli 40–50 ming kVt/s, ushbu ma'lumotni asos qilib olib, proporsiya usulida hisob-kitob amalga oshiriladi. 40–50 ming kVt/s bu yerda ikkita raqam berilganligi uchun ularga alohida alohida proporsiya tuziladi.

a) 1 t — 40 ming kVt/s

22 t — X

$$x = \frac{40 \text{ ming kVt/s} \times 22 \text{ t}}{1 \text{ t}} = 880 \text{ ming kVt/s}$$

b) 1 t — 50 ming kVt/s

22 t — X

$$x = \frac{50 \text{ ming kVt/s} \times 22 \text{ t}}{1 \text{ t}} = 1100 \text{ ming kVt/s}$$

Javob: 22 tonna titan ishlab chiqarish uchun, o'rtacha 880–1100 ming kVt/s elektr-energiya sarflanadi.

Issiqlik elektr stansiyalarida suvdan foydalanish quvvatini hisoblash.

Qattiq, suyuq va gaz holatidagi yoqilg'i ilarning issiqlik energiyasini elektr – energiyaga aylantiradigan qurilmalar majmui **issiqlik elektr stansiyasi (IES)** deb ataladi. Asosiy energetik agregatlar qatoriga suv yuradigan quvurlar batareyasidan iborat qozon tizimi, bug' dvigatellari va turbogeneratorlar kiradi. Qozon tizimiga yuborilgan suv yuqori bosimli bug'ga aylantirilib, turbina parraklariga beriladi. Natijada, turbina bilan mexanik bog'langan generator tegishli tezlikda aylantirilib, mexanik energiya, elektromagnit induksiya qonuniga binoan, generatorda elektr-energiyaga aylanadi. IESda ishlatiladigan yoqilg'i issiqlik energiyasining faqat 30% gina foydali elektr energiyasiga aylantiriladi, ya'ni IES ning foydali ish koeffitsiyenti 30 % ga tengdir. Foydali ish koeffitsiyenti qiymatini oshirish maqsadida qozondagi bug' bosimi iloji boricha yuqori qilinadi va turbina parraklaridan o'tib, ish bajarib bo'lgan bug'ning hammasi sovitkichlar vositasida sovitilib, qayta suvga aylantiriladi (kondensatlanadi) va qozon tizimiga yuboriladi. Bunday IESni kondensatsiyey elektr stansiyalari deyiladi va ularda foydali ish koeffitsiyenti qiymati 35% gacha ko'tariladi hamda suv berk tizimda aylanishi sababli quvurlar batareyalaridan iborat qozonni ta'mirlash ishlari keskin qisqaradi.

Yuqorida keltirilganidek, suv resurslarining ham ahamiyati ko'p funksiyali. Sanoatda suv, xususan, gidro va issiqlik elektr stansiyalari, qora va rangli metallurgiya, selluloza-qog'oz, gidroliz, sintetik tola ishlab chiqarish, to'qimachilikda ko'p sarflanadi (ayrim ma'lumotlarga ko'ra, sanoat butun xalq xo'jaligida sarflanadigan suvning 40 foizini iste'mol qiladi). Masalan, 1,2 mln kVt quvvatga ega bo'lgan issiqlik elektr stansiyasi uchun esa 1,2 mld m³ suv sarflanadi.

Shulardan kelib chiqqan holda, o'rta hisobda, IES quvvati va unga sarflanishi mumkin bo'lgan suv miqdorini o'rganish mumkin. Albatta, yuqoridagi kabi suvdan foydalanish hajmi hamma IESlarda bir xil emas. Lekin bu o'rtacha olingan ko'rsatkich. Unga bog'liq holda, ayrim tahlillar ko'p hollarda aniq ko'rsatkichga yaqin miqdorni ifodalarydi.

7-masala. 3 mln kVt quvvatga ega Sirdaryo IESida foydalanishi mumkin bo'lgan suv miqdorini toping.

Yechish. Buni topish uchun yuqoridagi “1,2 mln kVt quvvatga ega bo’lgan issiqlik elektr stansiyasi uchun esa 1,2 mlrd m³ suv sarflanadi” ma’lumotga asoslanib, proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz, ya’ni;

$$1,2 \text{ mln kVt} — 1,2 \text{ mlrd m}^3$$

$$3 \text{ mln kVt} — X$$

$$x = \frac{3 \text{ mln kVt/s} \times 1,2 \text{ mlrd m.kub}}{1,2 \text{ mln kVt/s}} = 3 \text{ mlrd m.kub}$$

Javob: Agar to’liq holatda 3 mln kVt quvvatga ega Tolimarjon IES ishga tushirilsa, o’rtacha 3 mlrd m³ suvdan foydalanilishi mumkin.

Qora metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoatining sohalaridan biri qora metallurgiya sanoati domna, po’lat eritish, prokat metallurgiyasi, metall buyumlar ishlab chiqarish, ruda xom ashvosini qazib olish, boyitish, maydalash, koks kimyosi ishlab chiqarishi, ferroqotishmalar va o’tga chidamli materiallar tayyorlash, noruda xom ashyo qazib olish va qora metallarni qayta eritish tarmoqlarini o’z ichiga oladi. Metallurgiya kombinatlari juda ko’p xomashyo va yoqilg’i talab qiladi. Shu bois metallurgiya korxonalari xomashyo va yoqilg’i manbalariga yaqin yoki ular oralig’ida joylashtirilishi lozim. Biroq, qora metallurgiya zavodlarini joylashtirish qonuniyatlarini bir xil bo’lmaydi. Ma’lumki, qazib olinadigan temir rudasining, o’rtacha hisoblaganda, taxminan, 48 – 50 foizi foydalidir, ya’ni ulardan deyarli shuncha cho’yan olish mumkin (1 tonna cho’yan ishlab chiqishda taxminan 2 tonnaga yaqin temir rudasi va 1,2 tonna kokslanuvchi ko’mir sarflanadi). Lekin bu “o’rtacha” raqam hamma joyda ham bir xil emas: ayrim konlarda temirning qazib olinadigan rudadagi ulushi atigi 17 – 20 foizni tashkil etadi, xolos. Bunday konlarga Uraldagi Koshkonarni yoki Qoraqalpog’iston Respublikasidagi Tebinbuluoqni misol qilib ko’rsatish mumkin. Yer yuzida “boy” konlar ham yo’q emas – Kursk magnit anomaliyasiga kiruvchi Belgorod yaqinidagi konlarda temirning rudadagi ulushi 60 – 65 foizgacha yetadi.

Shuningdek, qora metallurgiya zavodlarida suv ham ko’p ishlatiladi. Suv metallurgiya agregatlarini sovitish, gazni tozalash va boshqalar uchun kerak bo’ladi. Metallurgiya zavodining 1 t mahsuloti uchun 900 m³ suv ishlatiladi, agar aylanma suv ta’mintonidan foydalanilganda esa bu miqdor 15–20 m³ ni tashkil qiladi. Shu

ko’rsatkichlardan foydalangan holda ayrim hisoblashlarni keltirib o’tish mumkin.

8-masala. 6 tonna cho’yan ishlab chiqarish uchun qancha temir rudasi va kokslanuvchi ko’mir sarflanishini hisoblang.

Yechish: Dastlab, cho’yan ishlab chiqarishda sarflanadigan temir rudasini topish uchun yuqoridagi “1 tonna cho’yan ishlab chiqishda taxminan 1,2 tonnaga yaqin temir rudasi sarflanadi” ma’lumotga asoslanib, proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz, ya’ni

$$1 \text{ t cho’yan} — 2 \text{ t temir rudasi}$$

$$6 \text{ t cho’yan} — X \text{ t temir rudasi}$$

$$x = \frac{6 \text{ t} \times 2 \text{ t}}{1 \text{ t}} = 12 \text{tonna}$$

So’ngra cho’yan ishlab chiqarishda sarflanadigan kokslanuvchi ko’mirni topish uchun yuqoridagi “1 tonna cho’yan ishlab chiqishda taxminan 2 tonna kokslanuvchi ko’mir sarflanadi” ma’lumotga asoslanib, proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz, ya’ni

$$1 \text{ t cho’yan} — 1,2 \text{ t kokslanuvchi ko’mir}$$

$$6 \text{ t cho’yan} — X \text{ t kokslanuvchi ko’mir}$$

$$x = \frac{6 \text{ t} \times 1,2 \text{ t}}{1 \text{ t}} = 7,2 \text{tonna}$$

Javob: 6 t cho’yan ishlab chiqarish uchun 12 t yoki 12000 kg temir rudasi, hamda 7,2 t yoki 7200 kg kokslanuvchi ko’mir sarf bo’ladi.

9-masala. Qarag’anda qora metallurgiya kombinatida bir mavsumda o’rtacha 4 302 m³ suvdan foydalanilgan bo’lsa (agar aylanma suv ta’mintonini ko’rinishida bo’lmagan holda), taxminan, kombinatda qancha qora metallurgiya mahsuloti ishlab chiqarilganligini aniqlang.

Yechish. buni topish uchun yuqoridagi “agar aylanma suv ta’mintonini ko’rinishida bo’lmagan holda 1 tonna mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan, o’rtacha, suv miqdori – 900 m³ ga teng” ma’lumotga asoslanib, proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz, ya’ni

$$1 \text{ 000 kg mahsulot} — 900 \text{ m}^3 \text{ suv}$$

$$X \text{ kg mahsulot} — 4 \text{ 302 m}^3 \text{ suv}$$

$$x = \frac{1000 \text{ kg} \times 900 \text{ m.kub}}{4302 \text{ m.kub}} = 4780 \text{kg}$$

Javob: Bir mavsumda qora metallurgiya kombinatida 4 302 m³ suvdan foydalanilgan bo'lsa, o'rtacha, 4,78 t yoki 4 780 kg mahsulot ishlab chiqarilgan.

Rangli metallurgiya sanoati.

Metallurgiya sanoatining yetakchi tarmog'i rangli metallurgiya sanoati tashkil etadi. Rangli metallurgiya sanoati ruda konlarini qazish, rudalarni boyitish, rangli, nodir va qimmatbaho metallarni ishlab chiqarish hamda qayta ishlash, ularning qotishmalarini tayyorlash bilan shug'ullanadi. Rangli metallurgiyada prokat, presslangan buyumlar, qattiq qotishmalar, metalli kukunlar, rangli, nodir va qimmatbaho metallarning turli xil tuz hamda birikmalari, shuningdek, kimyoviy o'g'itlar, qurilish materiallari kabi yo'ldosh mahsulotlar tayyorlanadi. Rangli metallurgiya mahsulotlari xalq xo'jaligining hamma sohalarida qo'llaniladi. Konchilik korxonalari, boyitish fkalari, metallurgiya va metalga ishlov berish zavodlari tarmoqning ishlab chiqarish majmuini tashkil etadi.

Rangli metallar, xossa va xususiyatlariiga bog'liq holda, turli guruhlarga bo'linadi. (5-jadval)

5-jadval

Rangli metallarning klassifikatsiyasi

| Asosiy guruh | | Boshqa guruh | | |
|---|-------------------------------|------------------------------|------------------------|--------------------|
| Og'ir metallar | Yengil metallar | Qimmatbaho metallar | Qiyin eruvchi metallar | Nodir metallar |
| mis, qalay, qo'rg'oshin, nikel, rux | aluminiy, magniy, titan | oltin, kumush, platina | volfram, molibden | uran, germaniyl |

Boshqa foydali qazilmalarga qaraganda rudalarda rangli va nodir metallar miqdori juda kam bo'ladi. 1 tonna rangli metall olish uchun 100 tonnadan, hatto 10000 tonnagacha ruda qazib olinadi va qayta ishlanadi. Rudalarning 65% dan ko'prog'i ancha tejamkor usul – ochiq usulda qazib olinadi. Ruda xom ashyosida asosiy elementlar – alyuminiy, mis, qo'rg'oshin, rux, nikel, qalay, volfram, molibden bilan birga yo'ldosh elementlar – oltin, kumush, platina metallari, kobalt, mishyak, reniy, indiy, rubidiy, galliy, selen, tellur va boshqa, ba'zan qimmati jihatdan asosiy metallardan ustunroq bo'lgan metallar

ham uchraydi. Mis rudalari tarkibida, odatda, 0,5 – 2,0 % mis bo'ladi, ya'ni 1 t mis olish uchun, o'rtacha, 100 tonnadan ortiq ruda kerak bo'ladi.

10-masala. Boyitish fabrikasida bir mavsumda 7 t mis olingan bo'lsa, ushbu miqdordagi misni qancha rudadan ajratib olinganligini toping.

Yechish: buni topish uchun yuqoridagi "1 tonna mis olish uchun, o'rtacha, 100 tonnadan ortiq ruda kerak bo'ladi" ma'lumotga asoslanib, proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz, ya'ni;

$$1 \text{ t mis} = 100 \text{ t ruda}$$

$$7 \text{ t mis} = X \text{ t ruda}$$

$$x = \frac{7 \text{ t} \times 100 \text{ t}}{1 \text{ t}} = 700$$

Javob: O'rtacha hisobda, 7 tonna mis ajratib olish uchun 700 t yoki 700 000 kg ruda kerak bo'ladi.

Gaz kondensatidan ajratib olish mumkin bo'lgan moddalar.

Gaz kondensati – organik sintez kimyosining asosi bo'lib, u tabiiy gazni chuqur qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan uglevodorodlarni ajratib olish natijasida hosil bo'lgan mahsulot hisoblanadi. Umuman olganda, kondensat (lotincha "condensatus" – siqilgan, quytirilgan) gazning siqilib, quytirilishi natijasida hosil bo'lgan holatidir.

Gaz kondensatidan faqat yonilg'i emas, balki yana ko'plab moddalar ajratib olinadi. Uning har tonnasidan:

- 50 kg sun'iy kauchuk;
- 100 kg erituvchi modda;
- 150 kg plastik massa;
- 150 kg sun'iy tola;
- 400 kg motor yoqilg'isi olish mumkin.

Yuqoridagi kabi gaz kondensati tarkibidan olinishi mumkin bo'lgan mahsulotlar bilan bog'liq ayrim tahlillarni olib borish mumkin.

11-masala. 600 kg gaz kondensatidan qancha erituvchi modda ajratib olish mumkin?

Yechish: buni topish uchun yuqoridagi "Gaz kondensating 1 tonnasidan 100 kg erituvchi modda olish mumkin" ma'lumotga asoslanib, proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz, ya'ni 1 t = 1000 kg

$$\begin{aligned} 1000 \text{ kg} &= 100 \text{ kg} \\ 600 \text{ kg} &= X \text{ kg} \\ x &= \frac{600 \text{ kg} \times 100 \text{ kg}}{1000 \text{ kg}} = 60 \text{ kg} \end{aligned}$$

Javob: 600 kg gaz kondensatidan 60 kg erituvchi modda ajratib olish mumkin.

12-masala. Ko'kdumoloq gaz-kimyo majmuasida 1900 kg sun'iy tola ajratib olingan bo'lsa, ushbu mahsulot qancha gaz kondensatidan olinganligini aniqlang.

Yechish. buni topish uchun yuqoridagi "Gaz kondensatining 1 tonnasidan 150 kg sun'iy tola olish mumkin" ma'lumotga asoslanib, proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz, ya'ni $1 \text{ t} = 1000 \text{ kg}$

$$\begin{aligned} 1000 \text{ kg} &= 150 \text{ kg} \\ X \text{ kg} &= 1900 \text{ kg} \\ x &= \frac{1000 \text{ kg} \times 1900 \text{ kg}}{150 \text{ kg}} = 12666,6 \text{ kg} \end{aligned}$$

Javob: 1900 kg sun'iy tola 12666,6 kg gaz kondensatidan ajratib olingan.

Sun'iy va sintetik tola ishlab chiqarish ko'p miqdorda suv talab qiladi. Aytish joizki, 1 tonna sintetik tola ishlab chiqarish uchun 2000 m^3 suv sarflanadi, ya'ni ishlab chiqarilgan sintetik tola hajmiga monand holda, o'rta hisobda, qancha suvdan foydalanilganini tahlil qilish mumkin.

13-masala. Kimyo kombinatida ma'lum vaqt mobaynida 15 tonna sintetik tola ishlab chiqarilgan bo'lsa, unga sarflangan suv hajmini toping.

Yechish. buni topish uchun yuqoridagi "1 tonna sintetik tola ishlab chiqarish uchun 2000 m^3 suv sarflanadi" ma'lumotga asoslanib, proporsiya tuzamiz va uni ishlaymiz, ya'ni

$$\begin{aligned} 1 \text{ t} &= 2000 \text{ m}^3 \\ 15 \text{ t} &= X \text{ m}^3 \\ x &= \frac{15 \text{ t} \times 2000 \text{ m.kub}}{1 \text{ t}} = 30000 \text{ m.kub} \end{aligned}$$

Javob: Ishlab chiqarilgan sintetik tola 15 tonna bo'lsa, unga sarflangan suv miqdori 30000 m^3 ni tashkil etadi.

Qishloq xo'jalik geografiyasiga oid masalalar.

Moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri qishloq xo'jaligi bo'lib, u dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari olish uchun ekinlar ekish va chorva mollarini ko'paytirish bilan shug'ullanadi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari va xalq xo'jaligining bir qancha tarmoqlarini xom ashyo bilan ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi o'simlik va hayvon mahsulotlarini dastlabki qayta ishlashning turli tarmoqlarini ham o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari – dehqonchilik va chorvachilikda iborat. Ular ham o'z navbatida bir qancha kichikroq tarmoqlarga bo'linadi (dehqonchilikda – dalachilik, sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik, o'rmon xo'jaligi va boshqa; chorvachilikda – qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, cho'chqachilik, parrandachilik, asalarichilik, pillachilik va boshqalar).

Moddiy ishlab chiqarishning boshqa jami sohalaridan farq qilgan holda qishloq xo'jaligi juda katta maydonlarda va hududiy xilma xil sharoitlarda olib boriladi. Unda yer (asosiy ishlab chiqarish vositasi), yorug'lik, issiqlik, suv va tirik organizmlardan (o'simlik va hayvonlar) foydalilaniladi. Qishloq xo'jaligining asosiy xususiyatlaridan biri, uning joylardagi tabiiy iqlim sharoiti bilan chambarchas bog'liq ekanligidir. Boshqacha aytganda, tabiiy iqlim sharoiti to'g'ri kelsagina muayyan hududlarda bug'doy, sholi, paxta, meva, choy kabi mahsulotlarni yetishtirish mumkin bo'ladi yoki bug'uchilik, qo'ychilik, tuyachilikni yo'lga qo'yish mumkin. Shu sababli, qishloq xo'jalik tarkibi va tarmoqlarining hududiy joylashish holati turlicha bo'ladi. Qishloq xo'jaligini mohiyatini ochib berish uchun ham doimo tahlil va hisoblashlar qilib borish lozim. Ekinlarning hosildorligi, tabiiyki, ekin turi, navi hamda tuproq holatiga bog'liq. Tuproq bonitirovkasi yuqori bo'lsa, hosildorlik ham shunga yarasha bo'ladi. Aytish mumkinki, bir mamlakatning hamma joyida ham holat bir xil bo'lmaydi. Lekin o'rtacha holatni aniqlash uchun yalpi hosil miqdorini ushbu ekin maydoniga nisbatini aniqlash lozim. Har hektar maydonga to'g'ri keluvchi hosil miqdorini topish uchun har doim yalpi hosil miqdorini, ekin joyining maydoniga bo'lamiz.

Quyida qishloq xo‘jalik geografiyasiga oid masalalarni ishlaymiz.

1-masala. O‘zbekiston 2020-yilda 3143800 tonna kartoshka yetishtirdi, bu uchun 78772 hektar maydonga kartoshka ekilgan. Berilgan ma’lumotlardan foydalanib, o‘rtacha har hektar maydonga qancha hosil to‘g‘ri kelishini aniqlang.

Yechish. buni aniqlash uchun yuqoridagi “*har hektar maydonga to‘g‘ri keluvchi hosil miqdorini topish uchun har doim yalpi hosil miqdorini, ekin joyining maydoniga bo‘lamiz*” ta’rifiga asoslanib, quyidagi amalni bajaramiz, ya’ni;

$$3143800 \div 78772 = 40$$

$$1 \text{ tonna} = 10 \text{ sentner bo‘lgani uchun}, 40 \times 10 = 400 \text{ sentner}$$

Javob: O‘rtacha har hektar maydonga 400 sentner kartoshka hosili to‘g‘ri keladi.

2-masala. O‘zbekistonda 2020-yil 3 mln 82 ming tonna paxta hosili yetishtirildi. O‘rtacha har hektar maydonga 30 sentner paxta hosili to‘g‘ri kelsa, qancha hektar maydonga paxta ekilganligini aniqlang.

Yechish. buni aniqlash uchun paxta yalpi hosilini (3 mln 82 ming tonna), har hektar maydonga to‘g‘ri keladigan paxta hosiliga (30 sentner) bo‘lamiz ya’ni quyidagi amallarni bajaramiz,

$$3 \text{ mln } 82 \text{ ming tonna} = 3082000 \text{ tonna}$$

$1 \text{ tonna} = 10 \text{ sentner bo‘lgani uchun}, 3082000 \times 10 = 30820000 \text{ sentner}$

$$30820000 \div 30 = 1027333$$

Javob: 3 mln 82 ming tonna paxta hosili 1027333 hektar maydonda yetishtirilgan.

3-masala. O‘zbekistonda 2020-yil 127 ming hektar maydonga uzum ekilgan bo‘lib, O‘rtacha har hektar maydonga 126 sentner uzum hosili to‘g‘ri kelsa, shu yili qancha miqdorda uzum hosili olinganligini aniqlang.

Yechish. buni aniqlash uchun ekin maydonini (127 ming hektar), har hektar maydonga to‘g‘ri keladigan uzum hosiliga (126 sentner) ko‘paytiramiz ya’ni quyidagi amallarni bajaramiz,

$$127 \text{ ming hektar} = 127000 \text{ hektar}$$

$$127000 \times 126 = 16002000 \text{ sentner}$$

$10 \text{ sentner} = 1 \text{ tonna bo‘lgani uchun}, 16002000 \div 10 = 1600200 \text{ tonna}$

Javob: 127 ming hektar maydondan 1600200 tonna uzum hosili olingan.

Transport geografiyasiga oid masalalar.

Iqtisodiyotning qon tomiri, harakatlantiruvchi kuchi bu transport bo‘lib, makroiqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Transport lotincha so‘z bo‘lib, “transport” – tashiymen degan ma’nioni anglatadi. Transport yuklarni va yo‘lovchilarini bir joydan ikkinchi joyga eltishni, qit’alar va mintaqalar aro, shuningdek, mamlakat, viloyat va tumanlar ichida xalq xo‘jalik tarmoqlari o‘rtasida ayirboshlash aloqalarini ta’minlaydi. Transportning quyidagi turlari mavjud: yer usti transporti (temir yo‘l, avtomobil, quvur yo‘llari), suv transporti (dengiz va daryo), havo transporti (aviatsiya). Transportning bajargan ishini uning yuk aylanmasi va yo‘lovchi tashish aylanmasiga qarab baholash mumkin.

Yuk aylanmasi – transport ishining asosiy iktisodiy ko‘rsatkichlaridan biri, muayyan davrda tashilgan yuklar og‘irligi (hajmi)ni tashilgan o‘rtacha masofaga ko‘paytmasidan iborat bo‘ladi. U tonna kilometr (tkm) bilan (dengiz transportida tonnamil, 1 mil – 1,852 km) o‘lchanadi. Mamlakat miqyosida yuk aylanmasi ko‘rsatkichlari har bir transport turi bo‘yicha alohida hisoblanadi. Yuk aylanmasi muddatlariga ko‘ra, sutkalik, oylik, choraklik, yarim yillik va bir yillik qilib hisobga olinadi. Choraklik yuk aylanmasi, odatda, notejis bo‘lib, unga ba’zi yuklarni tashishning mavsumiyligi va boshqalar ta’sir qiladi. Shuningdek, yuk aylanmasi transport vositalarining yuk ko‘tarish, olib yurish qobiliyati, undan foydalanish usuli, o‘rtacha ish vaqti, qatnash masofasi, ortish–tushirish ishlarining mexanizatsiyalashgani va boshqalarga ham bog‘liq. Yuk tashish aylanmasidan kelib chiqqan holda, transportning bajargan ishini ham baholash mumkin, ya’ni transportning ishi – bu qancha yukni necha kilometr masofaga tashilgani bilan ifodalanadigan miqdordir.

Yo‘lovchi tashish aylanmasi – yo‘lovchi tashishga mo‘ljallangan har qanday transport tarmog‘ida tashilgan yo‘lovchi sonini, yo‘lovchi tashish o‘rtacha masofasiga ko‘paytmasidan iborat bo‘ladi.

Avtomobil yo‘llari mamlakatning “qon tomiri” hisoblansa, temiryo‘llar uning “qovurg‘asi”dir. U yoki bu hududda temiryo‘llarning holati, zichligi va zamona viylashtirilganidan ushbu hududning rivojlanish “nafasi” sezilib turadi. Demak, temiryo‘llar

zich va holati yaxshi joy tezroq rivojlanadi. Chunki uning tezligi katta, ob-havo holatiga kam bog'liq va, eng asosiysi, yuk tashish tannarxi past. Quruqlikda yuk tashish hajmi bo'yicha temiryo'l transporti eng katta ulushga ega hisoblanadi.

Umuman olganda, temir yo'llar zichligi deb, 100 km kv maydonga to'g'ri keluvchi temiryo'l uzunligiga aytildi. Temir yo'llar zichligini topish uchun aniqlanayotgan hududdagi temir yo'lining umumiyligini, aniqlanayotgan hududning umumiyligini maydoniga bo'lamiz, hamda 100 km kv maydonga to'g'ri keladigan temiryo'l uzunligini topayotganligimiz uchun natijani 100 ga ko'paytiramiz. Hisoblashlarda ba'zan 100 km kv emas, ba'zi hollarda 1 km kv, 10 ming km kv bo'yicha ham hisoblashlarni amalga oshirish mumkin. Agar birlik o'zgarsa albatta natijani o'zgargan birlikka ko'paytirish lozim. Chunki 100 km kv maydondan kichik hududlar uchun ulardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Quyida transport geografiyasiga oid masalalarni ishlaymiz

1-masala. 2020-yilda O'zbekiston temir yo'l transportida 70,6 mln tonna yuk tashilgan. Temir yo'l transportida yuk tashish o'rtacha masofasi 334,3 km bo'lsa, temir yo'l transportining yuk aylanmasini aniqlang.

Yechish: buni aniqlash uchun yuqoridagi "yuk aylanmasi muayyan davrda tashilgan yuklar og'irligi (hajmi)ni tashilgan o'rtacha masofaga ko'paytmasidan iborat bo'ladi" ta'rifiga asoslanib, quyidagi amalni bajaramiz, ya'ni

$$70,6 \text{ mln t} \times 334,3 \text{ km} = 23601,5 \text{ mln t/km} \approx 23,6 \text{ mld t/km}$$

Javob: O'zbekistonda 2020-yil davomida temir yo'l transportining yuk aylanmasi deyarli 23,6 mld t/km ni tashkil qiladi.

2-masala. 2020-yil O'zbekistonda 6,2 mln kishi temir yo'l transportida tashilgan. Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish o'rtacha masofasi 290 km ga tengligi ma'lum bo'lgan holda, temir yo'l transporti misolida yo'lovchi tashish aylanmasini toping.

Yechish. buni aniqlash uchun yuqoridagi "yo'lovchi tashish aylanmasi yo'lovchi tashishga mo'ljallangan har qanday transport tarmog'ida tashilgan yo'lovchi sonini, yo'lovchi tashish o'rtacha masofasiga ko'paytmasidan iborat bo'ladi" ta'rifiga asoslanib, quyidagi amalni bajaramiz, ya'ni;

$$6,2 \text{ mln kishi} = 6200000 \text{ kishi}$$

$$6200000 \text{ kishi} \times 290 \text{ km} = 1798000000 \text{ kishi/km}$$

$$1798000000 \text{ kishi/km} \approx 1,8 \text{ mld kishi/km}$$

Javob: O'zbekistonda temir yo'l transportida yo'lovchi tashish aylanmasi 1,8 mld kishi/km hisoblanadi.

3-masala. O'zbekistonda hozirgi vaqtidagi ijtimoiy foydalanishda bo'lgan temir yo'llarning umumiyligini 43 000 km ni tashkil qilsa, O'zbekistondagi temir yo'llar zichligini aniqlang.

Yechish: buni aniqlash uchun yuqoridagi "temir yo'llar zichligini topish uchun aniqlanayotgan hududdagi temir yo'lining umumiyligini, aniqlanayotgan hududning umumiyligini maydoniga bo'lamiz, hamda 100 km kv maydonga to'g'ri keladigan temiryo'l uzunligini topayotganligimiz uchun natijani 100 ga ko'paytiramiz" ta'rifiga asoslanib, quyidagi amalni bajaramiz, ya'ni;

$$(43000 \text{ km} \div 448900 \text{ kv.km}) \times 100 = 9,5 \text{ km}$$

Javob: O'zbekistonda har 100 km² hududga 9,5 km uzunlikdagi temiryo'l to'g'ri keladi.

Xulosa o'rniда shuni aytmoqchimanki, geografiyadan masala va mashqlarni ishslashda formula mavjud bo'limgan ko'plab topshiriqlarni **proporsiya usulidan** foydalanib yechiladi. Shuning uchun proporsiya usulini yaxshi o'zlashtirsangiz geografiyadan masala va mashqlarni yechishda aslo qiyalmaysiz. Shu o'rinda proporsiya yo'li bilan ishlanadigan yana bir masalani keltirib o'tmoqchiman.

Misol. O'zbekiston qishloq xo'jaligida, 2012-yil bo'yicha 5395,5 mld so'm mablag' topilgan bo'lib, shundan dehqonchilikning qiymati 3052,2 mld so'mga teng bo'lsa, qishloq xo'jaligini bu tarmog'ining ulushini hisoblang.

Yechish; Dehqonchilik ulushini hisoblash uchun proporsiya usulidan foydalilanildi:

$$5395,5 \text{ mld so'm} — 100 \%$$

$$3052,2 \text{ mld so'm} — X \%$$

$$X = \frac{3052,2 \times 100}{5395,5} = 56,5 \%$$

Javob: Dehqonchilikning ulushi 56,5 % ga teng ekan.

Nazorat uchun savollar:

1. Yoqilg'i – energetika resurslariga nimalarkiradi?
2. Sharqli yoqilg'i nima?

3. Rangli metallarning klassifikatsiyasini tuzing.
4. Qishloq xo'jalik tarmoqlari tarkibi klassifikatsiyasini tuzing.
5. Transport turlari klassifikatsiyasini tuzing.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:

1. 6 kg qo'ng'ir ko'mir yoqilganda chiqadigan kaloriya hisobidagi issiqlik miqdori qancha slanes yongandagi issiqlik miqdoriga teng?
2. Agar ma'lum miqdorda yongan tabiiy gazdan ajraladigan Joul hisobidagi issiqlik miqori $8,8 \cdot 10^7$ Joulni tashkil etsa, yoqilgan tabiiy gaz miqdorini aniqlang.
3. Agar 1 kg slanesdan yonganda ajralib chiqadigan kaloriya hisobidagi issiqlik miqdori noma'lum bo'lsa-yu, faqat issiqlik koefitsiyenti 0,30 ekanligi ma'lum bo'lsa, undan ajralib chiqadigan kaloriyani toping.
4. Atom elektr stansiyasi reaktorida 7,3 kg uran yoqilgan bo'lsa, undan qancha Tabiiy gaz yonganda chiqadigan issiqlik ajralib chiqadi?
5. Afrikaning ekvator qismiga tushadigan $160\text{--}200$ kkal/sm² quyosh energiyasi qancha slanes yoqilganda hosil bo'ladgan issiqlikka teng?
